

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”

Ilmiy kengash raisi _____ dots. M.A.Gadayshaev

Iqtisodiyot» fakul'teti ilmiy Kengashining 2012 yil
“___” oktyabrdagi № ___ sonli majlisida qayta
muhokama qilingan ba tasdiqlangan

“Tavsiya etilgan”

_____ kafedra mudiri dots. E.X.Avazov

“Iqtisodiyot” kafedrasining 2012 yil
4 oktyabrdagi №6 sonli bayonnomasi bilan
takomillashgan variant qayta muhokama
qilinib tasdiqlandi va tavsiya etilgan.

“IQTISODIYOT” fakulteti

“IQTISODIYOT” kafedrası

«MINTAQAVIY IQTISODIYOT »

fanidan

MA'RUZA MATNLARI

Ta'lim yo'nalishi: 5340100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Tuzuvchi: T.A.Mamadjanova. Term.DU.“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi.
Dots.E.X.Avazov

Taqrizchilar: Viloyat Iqtisodiyot boshqarmasi “Sanoat va investitsiyalar” bo'limi
boshligi O.A.Ro'ziyev. Dots. E.Q. Bozorov.

TERMIZ - 2012

Kirish

Mamlakatni yangilash va demokratlashtirish, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish borasidagi maqsadlarga izchillik bilan erishishda mintaqaviy rivojlanish kontseptsiasining ishlab chiqish davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirish vazifasi birinchi navbatda fuqarolarimizning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, axolining xoxish-irodasini ifoda etish, ularning markazda va joylarda davlat xokimiyatini shakllantirish masalalarida bevosita ishtirok etishini ta'minlashning xal qiluvchi vositasi sifatida muxim o'rin tutadi.

Jamiyatimizni siyosiy yangilash va islox etishning xozirgi bosqichida ana shu vazifani amalga oshirish davlat-xuquqiy tizimini yanada demokratlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonida eng ta'sirchan turtki va muxim omil bo'lishiga shubxa yo'q.

Mintaqalarda fuqarolik institutlarini shakllantirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlash, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish borasida tarixan uzoq yo'lni bosib o'tgan xorijiy mamlakatlarning boy tajribasi va qo'lga kiritilgan yutuqlari aynan shundan dalolat beradi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti mintaqalarni 2007-2011 yillarda kompleks rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish komissiyalarini tashkil qilishi va bu farmoyishni amalga oshirish yaqin va istiqbolda, mintaqalarda tabiiy, mineral'-xomashyo va suv-er imkoniyatdan oqilona foydalanish; mintaqalarning demografik xolatini va axolini ish bilan bandligini; bozor tuzilmasi, transport yo'llar va kommunikatsiya xolati (energetika, issiq suv ta'minoti, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan); mintaqalarni moliyaviy barqarorligi (o'z-o'zini moliyalashtirish). Maxalliy byudjetni kamomadi va investitsiya resurslarini kuchaytirish imkoni yaratiladi.

O'tgan 2011 yil xam mamlakatimiz ijtimoiy xayotining turli jabxalarida yangi yutuq va natijalarga juda boy bo'ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov 2012 yilning 19 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yilning asosiy va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida o'tgan yil natijalariga atroflicha to'xtalib, joriy yil vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Davlatimiz raxbarining ma'ruzasida jaxonda e'tirof etilgan taraqqiyotning o'zbek modeli xamda Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiasining ustuvor yo'nalishlarini izchil amalga oshirish natijasida, dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan inqiroz xolatlariga qaramasdan, 2011 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi ta'minlangani qayd etildi.

Bu ma'ruzaning ilmiy-nazariy ahamiyati avvalo unda bugungi kunda jaxon miqyosida ko'zga tashlanayotgan iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari, mavjud muammolar, global inqiroz xolatini bartaraf etish bo'yicha amalga qo'llanilayotgan chora-tadbirlar chuqur taxlil etib berilganida ko'rinadi. Aynan ana shunday yondashuv asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar, ularning samaradorligini ta'minlayotgan omillarning mazmu-moxiyati ochib beriladi.

Ma'lumki, yurtimizda jaxon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirlariga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jaxon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar tomonidan yuqori baxolanmoqda. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2011 yil noyabr oyida mamlakatimizga kelgan missiyasining bayonotida O'zbekiston izchil o'sishga erishgani va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko'rayotgani qayd etildi, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi xaqida ijobiy prognoz bildirildi¹.

Prezidentimiz ma'ruzasida 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi eng muxim ustuvor vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi:

birinchidan, yuqori va izchil o'sish sur'atlarini saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustaxkamlash;

ikkinchidan, iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirish;

uchinchidan, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish;

to'rtinchidan, transport va muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

beshinchidan, qishloq joylarda namunaviy loyixalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha dasturni amalga oshirish;

oltinchidan, axoli bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini xalq etish;

ettinchidan, “.

Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va maxalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari rahbarlari oldiga iqtisodiyotimizda yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolishni, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustaxkamlashni, shuningdek, iqtisodiyotni izchil islox qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik jixatdan yangilash jarayonini jadallashtirish xisobidan mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirishni ta'minlaydigan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi qo'yildi. Transport va muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishni ta'minlash, qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish va qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish xamda shu asosda axoli bandligi va farovonligini oshirish masalalarini samarali xalq etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Joriy yilning “Mustaxkam oila yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2012 yil uchun belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustaxkamlashda oilaning o'rni va ta'sirini oshirish, xar bir oilaning moddiy

¹Islom Karimov.2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil, 5-bet.

farovonligini oshirish orqali xalq farovonligini yuksaltirish masalalariga aloxida e'tibor qaratildi ².

Moxiyati va axamiyatiga ko'ra g'oyat keng ko'lamli bo'lgan, Prezidentimiz Islom Karimovning ***“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”*** mavzusidagi ma'ruzasini chuqur va xar tomonlama o'rganish, unda zikr etilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish borasidagi kuch va imkoniyatlar, imkoniyatlar, mexanizmlar xaqidagi bilim va ma'lumotlarni talaba yoshlar ongiga chuqur singdirish orqali ularning yurtimizdagi ulkan o'zgarishlar xaqidagi tushuncha va tasavvurlarni kengaytirish, ana shu o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish maqsadida mazkur fanni o'qitish muxim axamiyat kasb etadi.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» fanining asosiy maqsadi – talabalarda mintaqaviy iqtisodiyotning mohiyati, mintaqalarning turli tabiiy – iqlim sharoitlari, iqtisodiy salohiyatlari, bozor islohotlarini amalga oshirish avvalo xududiy darajada namoyon bo'lishini, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni xal etishda xududiy boshqaruv organlari ma'suliyati va ularning vakolatlarini kengayishini xamda muxim iqtisodiy masalalar tarmoq, umumrespublika miqyosidan xududiy darajaga o'tkazilishini amalda qanday borayotganini o'rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: «mintaqaviy iqtisodiyot» tushunchasini, mohiyatini, turli mintaqalarning geografik o'rni, tabiiy sharoiti, resurslari, ixtisoslashuvdagi farqli va o'xshash tomonlarini aniqlab, ularning xususiyatlarini taxlil qilishga o'rgatish, mamlakat xududi va uning mintaqalarini tabiiy-resurs salohiyatini, rivojlanish darajasini, etakchi tarmoqlar joylashuvi xaqida tushuncha berish, xar bir mintaqaning tabiiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqa xususiyatlarini xisobga olgan xolda iqtisodiyotni yuksaltirish bo'yicha vazifalarini xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan mushtarak xolda amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» fanini «Makroiqtisodiyot», «Iqtisodiy geografiya», «Mikroiqtisodiyot», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Tarmoqlar iqtisodiyoti», «Mexnat iqtisodiyoti», «Tashqi iqtisodiy aloqalar», «Iqtisodiy statistika» va boshqa shu kabi iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» fanini o'qitishda talabalar tomonidan fanni to'liq o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida mavzularda ko'rilayotgan masalalarning mohiyatidan kelib chiqqan xolda ilg'or pedagogik texnologiyalarning insert, aqliy xujum, «kichik guruxchalar», «bumerang» va klaster usullaridan foydalaniladi.

Mashg'ulotlarni to'laqonli natijaviylik darajasini oshirish uchun xar bir mavzuni yoritishda maxsus komp'yuter dasturlari, slaydlar, eshitish (audio) va ko'rish (video) vositalari, mul'timediya vositalari xamda Internet saxifalari va xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. SHuningdek, internet tarmog'i orqali xorijiy

² Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil, 31-bet.

mamlakatlarning xududiy rivojlanishi va maxalliy o`z-o`zini boshqarish tizimi to`g`risidagi nazariy va amaliy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

I-MAVZU. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining mohiyati

Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini, xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, muxim tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik xususiyatlarini xamda ularning xudud ichidagi, xududlararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarini o`rganadi. Boshqacha aytadigan bo`lsak, mintaqaviy iqtisodiyot fanining asosiy vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarishning xududiy jixatlarini o`rganishdan iborat.

Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillarini xududiy jixatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik xolatini xisobga olgan xolda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo`nalishlarini belgilaydi; xududlar iqtisodiyotini va xududlararo iqtisodiy aloqalarni o`rganadi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o`rganadi. Zero, xar bir xudud iqtisodiyoti, eng avvalo, mamlakat yagona xo`jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

SHu bilan birga, mazkur fan mamlakat va xududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jaxon xo`jaligi tizimidagi o`rni, axoli, mexnat resurslari va xozirgi demografik muammolarni o`rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va xududlarning iqtisodiy darajasini taxlil qiladi xamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini aniqlaydi.

Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo`jalik majmuasining xududiy kichik tizimi xisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o`zaro munosabati tufayli xosil bo`lgan yaxlit birlikdir.

Xozirgi paytda tubdan o`zgarib borayotgan O`zbekistonning zamonaviy xo`jalik majmuasi murakkab tarmoqlar tizimini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida elektrotexnika va elektronika, metallurgiya, mikrobiologiya va ximiya sanoati tarmoqlarida ko`plab yangi turdagi maxsulotlar ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi. Asakadagi «O`zDEUavto» va Samarqanddagi «O`zOtayo`l» korxonalarining ishga tushirilishi bilan O`zbekiston jaxondagi avtomobil' ishlab chiqaruvchi mamlakatlar safiga 28-chi bo`lib qo`shildi. Ayni paytda qishloq xo`jaligi, xamda bu soxa maxsulotlarini qayta ishlash va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bo`lib qolmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, respublika markaziy boshqaruv organlari vazifalarining asosiy qismini maxalliy xokimiyatlar va o`zini-o`zi boshqarish organlari zimmasiga yuklash xamda ularning vakolatlarini oshirish bo`yicha ko`pgina ishlar amalga oshirilmoqda (jumladan, 2 palatali parlament tizimining barpo etildi). SHundan kelib chiqib, endilikda mintaqaviy iqtisodiyot fani mamlakat xududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasini ishlab

chiqishi, mintaqaviy rivojlanishga va investitsiyalarni joylashtirishga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy vositalarni aniqlashi lozim.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov o'zining Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida so'zlagan nutqlarida: «... uzoq va davomli rejalarni, prognozlar va makroiqtisodiy balanslarni tuzmasdan, ustuvor va strategik yo'nalishlarni aniqlab olmasdan, bu strategiyaga mamlakat iqtisodiyoti rivojining falsafasini bo'ysundirmasdan bozor iqtisodiyoti o'zidan o'zi rivoj topishi mumkin emas»ligi xaqida gapirgan. SHundan kelib chiqib, xududiy dasturlar ishlab chiqish va ularni bajarilishi bo'yicha doimiy monitoringlar tashkil etish xudud iqtisodiyotining muxim vazifalaridan xisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot predmeti xududiy moliya-kredit munosabatlarini va mintaqalardagi qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanish jarayonini xam o'rganadi.

Bo'lajak iqtisodchilar iqtisodiy bilimlarining shakllanishi iqtisod fanlari tizimidagi konkret xudud bilan shug'ullanadigan yagona soxa - mintaqaviy iqtisodiyotni o'rganishdan boshlanishi kerak. SHu narsaga e'tibor berish lozimki, xar qanday iqtisodiy faoliyat muayyan xududda ro'y beradi. Bunda iqtisodchi resurs salohiyati, xo'jalik tizimi va uning rivojlanish darajasi xususiyatlarini mukammal bilishi zarur.

SHunday qilib, mintaqaviy iqtisodiyot - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini, mamlakat va xududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tabiiy-ekologik sharoitlar bilan bog'liq xolda o'rganadigan fandir.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan mintaqaviy iqtisodiyot fanining axamiyati ortib bormoqda. Mintaqalarni o'rganishda xozirgi paytda ularda ro'y berayotgan xolatni chuqur tushunish lozim (qaysi jixatlari ortmoqda)

Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistondagi xar bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shaxri, Toshkent va Farg'ona viloyatlari asosiy xalq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishiga ko'ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va qoraqalpog'iston Respublikasi bu ko'rsatkichlar bo'yicha quyi o'rinlarni egallaydilar. qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchlarining mavjudligi - Farg'ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan xisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo'jaligini xodimlar bilan ta'minlash o'tkir muammo bo'lib turibdi. Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi yuqori.

Xozirgi paytdagi mintaqaviy siyosatning muxim vazifalaridan yana biri - iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo xududiy mexnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat.

Mintaqalar rivojlanishidagi eng muxim vazifalardan biri - turli xududlar axolisining turmush darajasi bo'yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda taraqqiyot darajasi past bo'lgan xududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda xududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muxim axamiyatga ega.

1.2. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Mintaqaviy iqtisodiyot - ijtimoiy fandır. U muayyan xududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o`rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo`jaligining xududiy tashkil etilishi bilan chamcharchas bog`liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o`rganish (renta munosabatlari, xududiy ijtimoiy jarayonlar va x.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo`nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarning maqsadlari o`zaro juda o`xshash. Amaliy jixatdan ular iqtisodiyot xududiy tuzilmasini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish masalalari bilan shug`ullanadilar. Lekin tadqiqot uslublari va yo`nalishlari bo`yicha tafovutlar mavjud. Mintaqaviy iqtisodiyot texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar tizimiga tayanadi, ishlab chiqarish kuchlarini xududiy rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni xisoblash usullarini keng qo`llaydi, ishlab chiqarishni joylashtirishning iqtisodiy boshqarish mexanizmini o`rganadi.

SHuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko`pgina iqtisodiy omillarni (mexnat unumdorligining o`sishi, milliy daromadni xududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baxo va tariflarning xududiy tafovutlari va x.k.) chuqur taxlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo`nalishlarini belgilaydi.

1.3. Mintaqaviy tadqiqotlarning uslublari

Mintaqaviy iqtisodiyot bo`yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalaniladi. Ulardan eng muximlari quyidagilar:

Tizimli taxlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo`yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish xususiyatlarini kompleks o`rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o`zaro aloqadorligini o`rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Tizimlash uslubi. U o`rganilayotgan xodisalarni aloxida belgilariga ko`ra guruxlarga ajratish yo`li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, tipologiya, umumlashtirish va boshqa usullar qo`llaniladi.

Balans uslubida iqtisodiy taxlillar tarmoq va xududiy balanslar yordamida tushuntiriladi.

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o`z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat: xududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivolantirish yo`llarini mintaqaviy darajada o`rganish); tarmoq uslubi (tarmoqlar iqtisodiyotini

geografik aspektda tadqiq etish); maxalliy uslub (ishlab chiqarishni uning birinchi bo'g'ini - aloxida shaxar, axoli punkti darajasida joylashtirish va rivojlantirishni o'rganish).

Kartografik uslub. Ushbu uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko'rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish (mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining xududiy proportsiyalarini modellashtirish, mintaq xo'jaligini tarmoqlar bo'yicha modellashtirish, mintaq xo'jalik majmualarining shakllanishini modellashtirish).

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan xududni unga bo'ysunuvchi ierarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - ierarxik pog'onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma'muriy-xududiy birliklar xisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaxarlar.

Ijtimoiy so'rovlar uslubi. Ular juda xilma-xil: standart xolda interv'yu; aloxida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suxbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar raxbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo'yicha faktlarning taxlili va b.q.

SHunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o'rganish nixoyatda ko'plab usul va vositalarga tayanadi. Ulardan mintaqashunos mutaxassislar o'zlarining ish jarayonlarida, shu bilan birga, talabalar va aspirantlar kurs, diplom ishlari va dissertatsiyalarini yozish davomida foydalanishlari mumkin.

1.4. YAlpi mintaqaviy maxsulotni xisoblash uslublari

Ma'lumki mamlakatimizda milliy xisoblar tizimi asosida yalpi mintaqaviy maxsulotni (YAMM) xisoblash tajribasi katta emas. Xamdo'stlik mamlakatlarida milliy xisoblar doirasida mintaqaviy xisoblarning asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- mintaqalar bo'yicha yalpi mintaqaviy maxsulotni joriy baxolarda xisoblash;
- yalpi mintaqaviy maxsulot jismoniy xajmi ko'rsatkichlari indeksini doimiy baxolarda xisoblash;
- daromadlardan foydalanish usuli bo'yicha xisoblash (uy xo'jaliklarining pirovard istemolini xisoblash, asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi va x.k.).

Ushbu ko'rsatkichlar yalpi mintaqaviy maxsulotning xamda aloxida – aloxida tarmoqlarda yalpi qo'shilgan qiymatning shakllanishi to'g'risida aniqroq malumot beradi. O'zbekiston Respublikasida mintaqalar iqtisodiyotini taxlil qilish va baxo berishda xam yalpi mintaqaviy maxsulot (YAMM) ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) ko'rinishidan iborat. Boshqacha aytganda mintaq rezidentlari tomonidan malum bir vaqt davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar yig'indisidir. U mintaqalarda iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liq jixatlariga, yani tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, daromadlarning pirovard istemoli va taqsimlanishiga tavsif berish uchun xizmat qiladi. Tadqiqotning yo'nalishiga qarab YAMM joriy yoki taqqoslama baxolarda xisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotning o'ziga xos jixatlari xamda axborot bazasi milliy xisoblar tizimi imkoniyatlaridan mintaqalar darajasida to'liq foydalanish imkoniyatini bermaydi. SHunga qaramasdan, mintaqaviy xisoblar tizimi uslubiyati asosida umumlashtiruvchi

ko'rsatkichlar bo'yicha ko'plab xisoblar olib borilmoqdaki, bu o'z navbatida mintaqqa iqtisodiyotini chuqur o'rganish, investitsiyalarni belgilab olishda yordam bermoqda. Respublikamizda ma'lum bir ko'rilayotgan vaqt uchun mintaqalar ijtimoiy – iqtisodiy xolatini qiyosiy taxlil qilish maqsadida joriy baxolarda naminal yalpi mintaqaviy maxsulot xisoblanmoqda. Bir yil uchun esa real yalpi mintaqaviy maxsulot suratlari xisoblanmoqda. YAlpi mintaqaviy masulotni xisoblash ikkita boshlang'ich tamoyilga asoslanadi. Birinchisi, bazaviy axborotni qabul qilishda davriylikni xisobga olish, ikkinchisi esa, yillik va kvartallik baxo berishni uyg'unlashtirishdir. Yillik baxo berish asosiy bo'lib mavsumiylik omillarini tekislab yuboradi. Yillik baxolarning kutilayotgan natijalarini bilish uchun yalpi mintaqaviy maxsulot kvartallar uchun xisoblanadi. Respublika miqyosida yalpi ichki masulot (YAIM) va mintaqqa bo'yicha yalpi iqtisodiy maxsulot (YAMM) ni xisoblash uslubi qo'pchilik xollarda mos keladi. Lekin, shunga qaramay YAMM va YAIM o'rtasida anchagina farq mavjud. YAMM ning aloxida elementlarini mintaqalar darajasida xisoblash mumkin emas. Ularni mintaqqa (viloyat)lar o'rtasida taqsimlab bo'lmaydi. SHuning uchun bu elementlar respublika darajasida xisoblashning ichiga kirib ketadi. Bu kabi elementlarga jamoa asosidagi xizmatlarining qo'shilgan qiymati, moliyaviy vositachilar xizmati kabilarni kiritish mumkin. Viloyatlar bo'yicha xisoblangan yalpi mintaqaviy maxsulotlarning umumiy yig'indisi mamlakat yalpi ichki maxsulotidan quyidagi qo'shilgan qiymatlar kattaligi bilan farq qiladi: nobozor kollektiv xizmatlar (mudofaa xizmati, davlat boshqaruvi, pensiya ta'minoti, respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan boshqa nobozor xizmatlar, tashqi savdo xizmati va b.). SHuningdek, bozor baxolaridagi YAIM va YAMM eksport va import solig'i kattaligi xajmida xam farq qiladi. Umuman olganda respublikamizda mintaqalar yalpi maxsulotlarining yig'indisi yalpi ichki maxsulot xajmining 86 – 90 foizini tashkil qilmoqda. Qolgani yalpi mintaqaviy masulotning taqsimlamaydigan ulushi deyilib, turli vaqtlarda 10 – 14 foizgacha tebranib turadi xamda mintaqalarda xar xil darajada yuzaga chiqadi. Markaziy boshqaruv idoralarining xamda xalqaro faoliyat xizmatlarining faoliyati ko'proq Toshkent shaxrida xisobga olinadi. SHuning uchun mintaqalararo qiyosiy taxlilda yalpi ichki maxsulotning ulushini xududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan qismiga qisqartirish maqsadga muvofiqdir. YAlpi mintaqaviy masulotlarni mintaqalararo taqqoslashda tovar va xizmatlar xamda xufyona iqtisodiyot baxosini mintaqalar o'rtasidagi baxosining farqini xisobga olish darkor. YAlpi mintaqaviy maxsulotning "yashirincha" qismi turli mintaqalarda turlicha namoyon bo'ladi. O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyotga baxo berishda ishlab chiqarish xamda pirovard foydalanish usuli qo'llanilmoqda. Bunda mintaqalarda tadbirkorlikning rivojlanish darajasi, axoli turmushi va tabiiy – iqtisodiy sharoitlardagi farqlar xisobga olinadi. YAlpi mintaqaviy maxsulotning dinamikasini qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslama baxolarda kelajak uchun xisoblash aloxida muammolar keltirib chiqaradi.

YAlpi mintaqaviy maxsulot xam yalpi ichki maxsulot kabi ikkita usul: yani ishlab chiqarish va pirovard foydalanish usullari bo'yicha xisoblanadi. Ishlab chiqarish usuli bo'yicha yalpi mintaqaviy maxsulot – mintaqalar bo'yicha yalpi ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar bilan oraliq iste'mol o'rtasidagi farq bo'yicha

xsoblanadi. Boshqacha qilib aytganda u mintaqa tarmoqlarida yaratilgan barcha qo`shilgan qiymatlar yig`indisiga teng. YAMM bozor baxolarida xisoblash uchun yuqoridagi qiymatga maxsulotlarga qo`yilgan sof soliqni qo`shish zarur. Uning formulasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$YAMM=(YA-OI)+M_{ss} \text{ yoki } YAMM=\sum YAQQ+M_{ss}$$

bu erda YA - yalpi ishlab chiqarish

OI – oraliq iste'mol

M_{ss} – maxsulotga sof soliq

Pirovard foydalanish usuli bo`yicha xisoblangan YAMM – pirovard iste'mol va yalpi jamg`arishga qilingan barcha xarajatlarning yig`indisi sifatida aniqlanadi va u quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$YAMM=PI+YAJ$$

bu erda PI – pirovard iste'mol

YAJ – yalpi jamg`arma.

SHuni aytish joizki, yakuniy iste'molni xisoblashda bir oz muammolar bo`lib, ularni xal qilish YAMMni xisoblash uslubiyatini takomillashtirishni talab qiladi.

Respublikamizda YAMMni xisoblash uslubiyatini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- mintaqalar bo`yicha kuzatilmaydigan iqtisodiy faoliyatni xisoblash va o`lchashni;

- mintaqalar bo`yicha transport xizmati xajmini tasimlashni;

- aniqlanmagan resurslar xisobini amalga oshirishni birinchi navbatda moliyaviy vositalar xizmati, sug`urta va nobozor xizmatlarni xisoblab chiqishni;

- tashqi savdo va eksport import operatsiyalariga soliq xisobi va boshqalarni takomillashtirish zarur.

YAlpi mintaqaviy maxsulotni xisoblashda axborot ta'minoti borasida xam qator vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Aynan:

- aloxida korxona va tashkilotlar bo`yicha kvartallik, yillik axborotlar olishni soddalashtirish;

- iqtisodiyot tarkibiy qismlarni ishlab chiqarish xajmi va moliyaviy natijalar bo`yicha muvofiqlashtirish;

- mintaqalarda iqtisodiy faoliyatning ayrim turlari bo`yicha narx indekslarini o`rnatish;

- tumanlar darajasida YAMM ni xisoblashning axborot bazasini yaratish;

- YAMMni nafaqat joriy baxolarda, balki doimiy baxolarda xisoblash amaliyotini keng yo`lga qo`yish;

- daromadlarning xosil bo`lish va ishlatilish xisoblarini amaliyotga kiritish va boshqalar.

1.1- jadval

YAIM ning 2010 yildagi tarkibi

	Mlrd. sum	Jamiga nisbatan % da	
		2009y.	2010y.
<i>YAlpi ichki maxsulot</i>	61831,2	100,0	100,0
Oxirgi iste'mol xarajatlari	43304,8	67,2	70,0
SHu jumladan:			
Uy xo'jaligida	29828,0	46,8	48,2
Davlat boshqaruvi organlari	12495,2	18,9	20,2
nekommercheskix organizatsiy, obslujivayushix domashnie xozyaystva	981,6	1,5	1,6
Valovoe nakoplenie	12590,0	26,9	20,4
osnovnogo kapitala	16826,7	28,6	27,2
izmenenie zapasov material'nx oborotnx sredstv	-4236,7	-1,7	-6,8
Sal'do eksporta-importa tovarov i uslug	5936,4	5,9	9,6

1.2- jadval

YA'lpi ichki maxsulotning mulk shakllari bo'yicha tarkibi (2011 y.)

foizda

	2011 y.
JAMI	100
Nodavlat mulki shakli	81,7
SHu jumladan	
fuqarolar	30,5
Fermer xujaliklari	6,5
Dexqon xo'jaliklari	0,2
Xo'jalik birlashmalari	27,4
Qo'shma korxonalar	14,2
boshqalar	3,0
Davlat mulki	18,3

1.3- jadval

Mintaqalar bo'yicha YAIM ishlab chiqarish xajmi

	Mlrd.sum		Axoli jon boshiga, ming. sum.		Mintaqalarning ulushi, %da	
	2010y.	2010 yilda 2009 yilga nis,%da	2010y.	2010 yilda 2009 yilga nis,%da	2009y.	2010y.
Respublika bo'yicha	61831,2	108,5	2182,6	106,7	100,0	100,0
<i>Karakalpakstan res.</i>	1389,8	110,0	845,2	108,8	2,2	2,2
Mintaqalar:						
Andijon	3679,6	110,5	1426,8	108,4	5,9	6,0
Buxoro	3376,0	109,6	2072,1	108,0	5,4	5,5
Jizzax	1389,1	110,2	1227,2	108,3	2,3	2,2
Kashkadaryo	4865,1	103,9	1838,1	101,8	8,6	7,9
Navoiy	3276,6	102,5	3806,5	101,0	5,7	5,3
Namangan	2426,6	112,4	1062,3	110,4	3,8	3,9
Samarkand	3813,1	113,6	1207,5	111,5	6,1	6,2
Surxandaryo	2229,3	111,2	1061,5	109,0	3,6	3,6
Sirdaryo	1008,3	110,2	1393,2	108,5	1,6	1,6
Toshkent	5571,1	110,1	2132,2	108,9	9,2	9,0

Farg`ona	4095,5	105,8	1315,4	104,0	6,8	6,6
Xorazm	1944,1	110,2	1231,9	108,1	3,1	3,1
Toshkent sh.	9820,1	112,4	4332,5	111,0	15,7	15,9

Respublikamizda YAMMning aloxida kamponentlarini xisoblash bo'yicha tadqiqot ishlari boshlab yuborilgani quvonarli xoldir. Bunga misol qilib, quyidagilarni aytib o'tish mumkin. Kvartallar bo'yicha oraliq iste'molni xisoblashda fermer xo'jaliklari faoliyati iqtisodiy taxlil qilinmoqda. Daromad va xarajatlarga baxo berishda jamoat tashkilotlari faoliyati, uy xo'jaliklarining ro'yxatga olinmagan iqtisodiy faoliyatini xisobga olish borasida tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

1.4.-jadval

Mintaqalarni axoli jon boshiga YAXM ishlab chiqarish bo'yicha guruxlash

2006 yil		2009 yil	
I gurux (indeks 1.000 dan yuqori)			
Navoiy	1.969 1.625	Navoi	1,944
Toshkent.sh.	1.053 1.009	Toshkent sh	1,819
Toshkent		Toshkent	1,116
Buxoro			
II gurux (indeks 0.500 dan 1.000 gacha)			
Qashqadaryo	0.858 0.754	Buxoro	0,968
Jizzax	0.749 0.703	Qashqadaryo	0,323
Andijon	0.700 0.652	Andijon	0,723
Sirdaryo	0.602 0.501	Farg`ona	0,719
Farg`ona		Jizzax	0,694
Xorazm		Sirdaryo	0,670
Surxondaryo		Xorazm	0,643
Samarqand		Samarqand	0,568
		Surxondaryo	0,504
III gurux (indeks 0.500 dan kam)			
Namangan Qoraqalpog`iston Respublikasi	0.477	Namangan	0,46
	0.449	Qoraqalpog`iston Respublikasi	0,452

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'pumontlari asosida xisoblangan

1.5-jadval

Mintaqaviy innovatsion strategiya

Mintaqaviy strategiyaning nomlanishi	Strategiya tartibi
Mintaqaviy strategiya	
O`z-o`zini ta'minlash	Boshqa mintaqalardan tovar keltirish bilan bog`liqlikni kamaytirish
Mobilizatsion	O`zining intellektual ishlab chiqarishi va xom ashyo resurslarini ishga solish xisobiga rivojlanishni ta'minlash
Tashqi resurslarni jalb qilish	Rivojlanishni intellektual xamda boshqa tur resurslar

	yordamida va boshqa mintaqalardagi resurslar xisobiga ta'minlashga intilish
Mavjud imkoniyatlardan foydalanish	Rivojlanishni o'z mintaqalaridagi mavjud xolat va resurslardan foydalanish xisobiga ta'minlash
Xududni rivojlantirishning davlat makrostrategiyasi	
Tanlangan ustuvor rivojlanish	Ayrim ustuvor mintaqalarda azaldan yuksak rivojlanish darajasiga ega bo'lgan davlat resurslarining kontsentratsiyalanganligi
Bir me'yordagi rivojlanish	Mintaqalarning darajalarini zaruriy resurslarni yo'naltirish xisobiga tenglashtirish
Resurslarni mutanosib taqsimlash	Resurslarni aloxida mintaqalar orasida mutanosib ishlangan parametrlar bo'yicha taqsimlash
Makroinnovatsion strategiyaning xududiy jixatlari	
Kontsentratsiya	Makroinnovatsiya strategiyasini yuqori rivojlangan mintaqalarning chegaralangan doiradagi potentsialidan foydalanilgan xolda amalga oshirishga intilish
Lokalizatsiya	Makroinnovatsiya strategiyasining imkon bo'yicha mintaqalarning potentsialini jalb qilish va rivojlanish xisobiga amalga oshirish

2-MAVZU. MINTAQALARNING MINERAL XOM ASHYO VA TABIIY RESURLARI

2.1. Mineral-xom ashyo resurslari tushunchasi mazmuni va ularning Xududiy joylashuvi xamda uning iqtisodiyotda tutgan o'rni.

Mineral-xom ashyo resurslari xar bir mamlakatning eng muxim boylik manbaidir. Undan olinayotgan maxsulotlar insonning xilma-xil extiyojini qondiradi. Mineral-xom ashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Er ostidagi mineral xosilalar qidirilmagan va baxolanmagan bo'lsa, u xolda ular mineral xom ashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, xolbuki ularni aniqlashga va qidirishga mexnat sarflangan. Ammo er ostidagi bunday mineral xom ashyo zaxiralari potentsial resurslar xisoblanadi, xolos. Ular er bag'ridan qazib olingandan keyingina xaqiqiy mineral xom ashyo xisoblanadi. Mineral xom ashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Xomashyo ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga va uning iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xomashyo va yoqilg'i xarajatlari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlari xajmida eng katta salmoqqa egadir. SHuning uchun sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jixatdan tayyor maxsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xomashyo va yoqilg'i xarajatlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Sanoat maxsuloti tannarxida xomashyo, yordamchi materiallar va yoqilg'i xarajatlari butun sanoat bo'yicha o'rtacha 70 foizni tashkil etadi. SHuning uchun xomashyoni tejab ishlatish sanoat maxsuloti tannarxini pasaytirishda, ishlab chiqarish quvvatlaridan yaxshi foydalanishda va ishchilar mexnatining unumdorligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Material ko'p sarflanadigan tarmoqlarda xomashyo va materiallardan oqilona foydalanish maxsulot tannarxini pasaytirishning asosiy manbaidir. Mashina va uskunalarining unumli ishlashi va tayyor maxsulot ishlab chiqarish uchun vaqtning sarflanish darajasi xomashyo sifati va uning turiga bog'liq. Sanoatdagi xomashyolar xilma-xil bo'lib, ular quyidagi turlarga bo'linadilar:

- sanoat xomashyosi;
- qishloq xo'jaligi xomashyosi.

Sanoat xomashyosi turli belgilarga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

- kelib chiqishiga ko'ra – tabiiy va sun'iy;
- agregat xolatiga ko'ra - qattiq, suyuq xamda gazsimon;
- ximiyaviy tarkibiga ko'ra – organik va anorganik;
- ishlatilishiga ko'ra – ozuqabop va texnik turlarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi xomashyosi ikki turga, ya'ni o'simliklardan olinadigan xomashyolar va xayvonlardan olinadigan xomashyolarga bo'linadi.

Mineral xomashyolar. Er ostidan qazib olinadigan mineral birikmalar mineral xomashyolar deyiladi. Xalq xo'jaligida ishlatiladigan minerallar uch turga bo'linadi: a) rudali; b) rudasiz; v) yonuvchi mineral xomashyolar. Bu minerallarning ko'pi

qattiq xolda bo`ladi. Suyuq mineral boyliklarga faqat neft' xamda tuz eritmalari, gaz xoldagisiga esa tabiiy gaz kiradi.

Rudali mineral xomashyolar foydali jinslar bo`lib, metallar olish uchun asosiy manbadir.

Rudasiz mineral xomashyolar xam tog` jinslari bo`lib, ular metal olish uchun ishlatilmaydi. Bunday mineral xomashyolar xech qanday ximiyaviy qayta ishlanmasdan to`g`ridan-to`g`ri xalq xo`jaligida yoki metalsiz ishlab chiqarishda xomashyo sifatida ishlatiladi. Rudasiz minerallar shartli ravishda quyidagi turlarga bo`linadi:

- qurilish materiallari – to`g`ridan-to`g`ri yoki fizik-ximiyaviy qayta ishlangandan so`ng qurilish ishlarida ishlatiladigan mineral xomashyo;
- industriya xomashyolari – ximiyaviy qayta ishlanmasdan sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladigan xomashyo.
- ximiyaviy mineral xomashyolar – ximiyaviy qayta ishlash uchun ishlatiladigan minerallar;
- qimmatbaxo va rudasiz minerallar – tabiiy xolda yoki mexanik qayta ishlangandan so`ng bezak uchun ishlatiladigan minerallar.

Foydali qazilma - bu ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning xozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo`lgan er qobig`idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular er ostidan qazib olingandan keyin mineral xom ashyo ko`rinishiga ega bo`ladi. SHunday qilib, er bag`ridan qazib olingan, xalq xo`jaligi axamiyatiga ega bo`lgan foydali qazilmalar mineral xom ashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baxolangan xamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi³.

Foydali qazilmalar tabiatdagi miqdori, foydalanishdagi maqsadiga ko`ra ma'danli va noma'dan foydali qazilmalarga bo`linadi. Suyuq va gazsimon foydali qazilmalar aloxida guruxni tashkil etadi.

Mineral xomashyo – bu konlardan qazib chiqariluvchi turli foydali qazilmalardir.

Potentsial resurslardan oqilona foydalanish va foydali qazilmalarni qazib olishning iqtisodiy samarador usullarini qo`llash uchun konlar zaxirasining miqdorini iqtisodiy jixatdan to`g`ri aniqlash va sanoat masshtabida ekspluatatsiya qilish navbatini aniqlash axamiyatga egadir.

Zaxiralarni o`rganish va aniqlash geologiya-qidiruv ishlari davlat rejasi asosida olib boriladi. Sanoatning mineral xomashyoga bo`lgan talabini rejalashtirishda konlarning o`rganilganlik darajasi muxim axamiyatga egadir. Mineral xomashyo

³ Кобахидзе Л.П. Экономика геологоразведочной отрасли. Москва. Недра, 1990, стр.22

zaxiralarini qidirish va sanoat ekspluatatsiyasiga tayyorlik darajalari bo'yicha bir necha kategoriyalarga bo'linadi.

Foydali qazilma zaxiralari ma'lum bir davr uchun ularning texnik-iqtisodiy jixatidan foydalanish mumkinligi darajasiga qarab balansdagi va balansdan tashqari, dagi zaxiralarga bo'linadi. Balansdagi zaxiralarga sanoat talablariga va foydalanishning texnik shartlariga javob beruvchi va hozirgi kunda ularni qazib chiqarish iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lgan zaxiralar kiradi. Balansdan tashqari, zaxiraga – tarkibida foydali komponentlari, qazilmalar miqdori kam bo'lgan yoki ekspluatatsiya sharoitlari og'ir bo'lgan xamda shu xomashyoni sanoat usullari bilan qayta ishlash hozircha mumkin bo'lmagan zaxiralar kiradi.

Turli xil foydali qazilmalar resurslari mamlakat xududining turli qismida joylashgan konlarda yig'ilgandir. Ayrim konlar bir-birlari bilan foydali qazilmalar zaxiralari; qazilmalarning fizik-ximiya xususiyatlari; ekspluatatsiya sharoitlari bilan farq qiladi.

Ekspluatatsiya uchun kon tanlash konlarning faqatgina tabiiy yoki texnik xususiyatlarigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki birinchi navbatda iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiqligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi mineral xomashyo resurslariga juda xam boy bo'lib, ularning umumiy baxosi 3,3 trln. dollardan ziyodroqdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda oltin, uran, mis, tabiiy gaz, vol'fram va boshqa ko'pgina mineral resurslarning aniqlangan zaxiralari jaxonda etakchi o'rinlardan birida turadi. Bu erda oltinning 30 dan ortiq konlari qidirib topilgan. Uning asosiy zaxiralari Marakaziy Qizilqumda Muruntov oltin koni butun Evroosiyo qit'asida ma'lum va mashxur, ruda tarkibida oltin miqdori yuqori xisoblanadi.

Keyingi yillarda Toshkent, Samarqand viloyatlarida yangi oltin ruda konlari qidirib topildi. O'zbekistondagi hozircha qidirib topilgan oltin zaxiralari 4 ming tonnadan oshadi.

Kumush konlari Toshkent, Navoiy va Namangan viloyatlarida joylashgan. Respublikamizda 30 ta uran koni mavjud. Uning qidirib topilgan zaxirasi 50-60 yil davomida foydalanishga etarli. Uran bilan yo'ldosh reniy, skandiy va boshqa metallar uchraydi. SHuningdek, mis, qo'rg'oshin, qalay, vol'fram va litiy kabi muxim strategik nodir va rangli metallarning yirik konlari bor. Respublikamizda xar yili 8 ming tonna mis ishlab chiqiladi. Amaldagi ishlab turgan konlar misni yana 40-50 yil, qo'rg'oshin va qalayni 100 yil mobaynida ishlab chiqarishni ta'minlashga qodir.

Rangli metallar zaxiralari asosan Olmaliq kon rayonida joylashgan. Qalmoqqir mis koni noyob xisoblanadi. Bu konning rudasini qayta ishlash mamlakatdagi eng yirik korxonalardan biri Olmaliq kon- metallurgiya kombinatida amalga oshiriladi. SHuningdek, bu sanoat rayonida mis, molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va boshqa katta zaxiralarga ega bo'lgan Dal'niy koni bor.

Qo'rg'oshin-qalay metallari Olmaliqdagi Qo'rg'oshinkon, Jizzax viloyatidagi Uchquloch va Surxondaryo vildoyatidagi Xondiza konlaridan olinadi. Bu konlarda yana yo'ldosh metallar – mis, kumush, kadmiy, selen, oltin va indiy xam uchraydi. O'zbekistonda molibdenli formatsiyalar xam bor. CHotqol-Qurama tog'lari vismutga boy. Janubiy Farg'ona belbog'ining o'zidan 100 dan ortiq simob va 10 dan sur'ma rudalanishlar aniqlangan.

Qora metallardan eng ko'p tarqalgan temir, titan, marganets, magniy, xrom va boshqalardir. Temirning bir necha konlari va ruda ko'rinishlari aniqlangan. Ular orasida muximi Qoraqalpog'iston Respublikasida Tebinbuloq titan-magniy koni xisoblanadi. Marganets konlari Zarafshon, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa joylarda mavjud. Magmatik xrom Qizilqumda, Farg'onada, ayniqsa, Tomditov va Sulton Uvaysda ko'plab uchraydi.

O'zbekistonda nometall xomashyo – glaukonit, dala shpati, vollastonit, grafit, asbest, tal'k, tal'k toshi, abrazivlar, qimmatbaxo va ishlov beriladigan toshlar konlari ko'p. Vollastonitning 5-ga yaqin ko'rinishi va konlari aniqlangan. Grafitning 30 dan ortiq ruda – rudalanishi va konlari ma'lum. Qimmatbaxo va ishlov beriladigan toshlardan topaz, feruza, ametisit, tog' xrustali, xaltsedon, yashma, nefrit, lazurit, amazonit, rodonit, agal'matalit, marmar oniksi va boshqalarning ancha yirik zaxiralari qayd etilgan.

Korxona faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va rejalashtirish, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va uni tashkil etishning turli norma va normativlarini tuzishga asoslanadi. Norma va normativlar asosida ishlab chiqarishga kerakli xomashyo va materiallar, jixoz va asbob-uskunalar miqdori aniqlanadi, ishlab chiqarish jarayonida xodimlar joylashtiriladi va ishlab chiqarish resurslarining ratsional zaxiralari rejalashtiriladi. Maxsulot sifati bo'yicha qo'yiladigan shartlar xam normalarning bir turi xisoblanadi.

Ishlab chiqarishning turli tomonlarini chegaralb turuvchi norma va normativlar yig'indisi xar bir ishlab chiqarish bo'limining normalashtirish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Progressiv texnik-iqtisodiy norma – maxsulot birligi yoki ish turiga safrlanishi mumkin boʻlgan jonli va buyumlashgan mehnatning maksimal miqdori yoki sarflanayotgan resurs birligidan olinishi mumkin boʻlgan foydali samaraning minimal miqdoridir.

Xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilgʻi va energiyalardan foydalanish normalari oʻz ichiga quyidagi normalarni oladi:

a) xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilgʻi va energiya maxsulot yoki ish birligiga sarflanish normalari;

b) xomashyo, materiallar va yoqilgʻilarni tayyorlash va ularni tashish xarajatlarining norma va normativlari. Bu normalar korxonaning xomashyo va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini va maxsulot tannarxiga kiruvchi moddiy boyliklarga qilinadigan xarajatlarni aniqlashda qoʻllaniladi.

Normalashtirishning vazifasi xaqiqatda kerak boʻlgan foydali sarflanadigan xomashyo va material miqdori xamda minimal yoʻqotish miqdorini aniqlashdan iborat. Bu uch yoʻl bilan aniqlanadi: a) tajriba-laboratoriya usuli; b) texnik-analitik usul; v) xisobot-statistik usul.

Bu usullar orasida texnik-analitik xisoblash usuli normalashtirishning asosiy usuli boʻlib, u normalarni elementlar boʻyicha xisoblashga asoslanadi, yaʼni normani tashkil qiluvchi har bir elementi taxlil qilishga imkon yaratadi. Bu usul ilgʻor tajriba, fan va texnika yutuqlarini chuqur oʻrganishga yordam beradi.

2.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish

O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari boshqa mamlakatlardan o'zining juda katta zaxiralari bilangina emas, balki quyidagi bir qator xususiyatlari bilan xam ajralib turadi:

Birinchidan, tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

Ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibida foydali komponentlar yuqori darajada bo'libgina kolmay, katta miqdorda yo'ldosh elementlarga xam ega;

Uchinchidan, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi xam nisbatan oddiy. Bu texnologiya ko'p miqdorda foydali komponentlar chiqarishni va jaxon bozorida xaridorgir maxsulot olishni ta'minlaydi;

To'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, axoli zich yashaydigan xududlarda joylashgan. Ular qulay transport infratuzilmasiga, shu jumladan suyuq va gaz xolatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega.

Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, vol'fram, kaliy to'zlari, fosforit, kaolin bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jixatidan dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo resurslari xam ichki, xam tashqi bozorning iste'mol ob'ekti bo'lib xisoblanadi. SHu tufayli, tog'-kon sanoati ishlab chiqarayotgan maxsulotlar milliy iqtisodiyotni quyidagi muammolarini echishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

- xalq xo'jaligi talabini an'anaviy turdagi mineral-xom ashyolar bilan to'liq ta'minlash;
- tashqaridan kirib kelayotgan mineral-xom ashyolar o'rnini to'ldirish;
- milliy xo'jalikning yangi soxalarini xom ashyo bilan ta'minlash;
- ekologik vaziyatni (kimyoviy o'g'itlarni tabiiy o'g'itlarga almashtirish) va sanitar-gigienik vaziyatni (yod, brom, shifobaxsh minerallar) yaxshilanishini tashkil etish;
- tashqi bozorni o'zlashtirish va ijobiy savdo balansini tashkil etish.

SHulardan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat mineral-xom ashyo bazasini mustaxkamlashda ulardan samarali va oqilona foydalanilishi lozim.

2.3. O'zbekistan Respublikasi mineral-xom ashyo resurslarining xozirgi xolati

O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan. Xozirga kelib respublikada 2900 dan ortiq foydali qazilma konlari va ular namoyon bo'lgan istiqbolli joylar, 100 xilga yaqin mineral-xom ashyo qidirib

chamalangan, shundan taxminan 65 turidan xozirdayoq sanoatda va qishloq xo'jaligida foydalanilmoqda.

1000 taga yaqin kon, shu jumladan 168 ta neft', gaz va kondesat koni, 51 ta qimmatbaxo metallar koni, 41 ta rangli, nodir va radioaktiv metallar koni, 3 ta ko'mir koni, 22 ta kon - ma'dan, 14 ta kon - kimyoviy va 24 ta yarqirama tosh xom ashyosi koni, 522 ta turli maqsadda foydalaniladigan qurilish materiallari va 151 ta chuchuk va mineral er osti suvlari konlari qidirib chamalangan. Xozircha ularning 45 foizi ishlatishga jalb qilingan.

Respublikamizning umumiy mineral-xom ashyo saloxiyati taxminan 3,5 trillion dollarni tashkil kiladi. Ishlatish uchun tayyorlab qo'yilgan foydali qazilmalar zaxiralari 1025 mlrd. AQSH dollariga baxolanmoqda. SHuni qayd qilish kerakki, respublikada nisbatan qisqa muddat ichida 200 mlrd. dollar miqdorida xom-ashyo qazib olindi.

Tayyorlab qo'yilgan zaxiralar negizida respublikada 535 ta kon, shaxta, kar'er, neft-gaz konlari, 420 ta suv olish joylari, bal'neologik shifoxonalar, shifobaxsh suvlarni quyish shoxobchalari ishlab turibdi. O'zlashtirishga tayyorlab qo'yilgan mineral-xom ashyo zaxiralari nafaqat ishlab turgan kon qazib chiqarish majmualarning o'zoq muddatli istiqbolini ta'minlaydi, balki ularning quvvatini oshirish, eng muxim foydali qazilmalar (oltin, uran, mis, ko'rg'oshin, rux, kumush, litiy, fosforitlar, kaliy tuzlari, flyuorit, kvarts-dala-shpat, agrokimyoviy ma'danlar va boshqalar) qazib olishni qaytadan tashkil etish imkonini xam beradi.

Xar yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollar miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular o'rniga 6-7 mlrd. dollarlik yangi zaxiralar ko'shilmoqda.

Respublikamiz muxim foydali qazilmalar qatoriga kiruvchi: oltin, uran, mis, tabiiy gaz, vol'fram, kaliy to'zlari, fosforitlar va kaolinlarning tasdiqlangan zaxiralari va ularning kelajakdagi istiqbollari bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi.

2.4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral xom ashyo bazasini mustaxkamlash, ulardan foydalanishni takomillashtirish

Aksariyat konlarning bir-biriga yaqin joylashganligi va uchraydigan foydali qo'shimchalarni qazib olish mumkinligi ob'ektlarning axamiyatini ancha oshiradi. Ammo mineral-xom ashyo negizini rivojlantirishda katta imkoniyatlar borligiga qaramay, bu soxada kupgina muammolar xam mavjud.

Keyingi yillarda jaxon bozorida oltin va boshqa rangli metallarning narxi juda pastlab ketdi. Bu xol energetika xom ashyosiga xam taalluqlidir. Bunday sharoitda faqat yuqori sifatli, ya'ni tarkibida foydali qo'shimchalar miqdori ko'p, ishlatish sharoitlari va ma'danlarni qayta ishlash usuliga ko'ra texnologik jixatdan ilg'or va ekologik ta'minoti yuksak darajada bo'lgan mineral xom ashyo zaxiralari raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Umuman, jaxon bozorining o'zgargan sharoitlari O'zbekiston Respublikasi mineral xom ashyo negizini qayta taqsimlash muammosini ilgari surmoqda. Buning

uchun barcha toifadagi sanoat zaxiralari va prognoz qilingan resurslar qisqa muddat ichida geologik-iqtisodiy baxolanishi kerak.

Bugungi kunda mamlakatimiz mineral xom ashyo bazasini mustaxkamlash maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda:

1. Respublikada yagona bo'lgan metall parchalari xisobiga ishlovchi O'zbekiston metallurgiya kombinatini xom ashyo bilan ta'minlash maqsadida Davlat geologiya qo'mitasi temirga oid geologiya-kidiruv ishlarini olib bormoqda. Xozirgi vaktida 450 mln. tonna ma'dan (o'rtacha temir miqdori - 15%) zaxirasiga ega bo'lgan Tebinbuloq (Qoraqalpog'iston Respublikasi), 70 mln. tonna ma'dan (miqdori - 33%) zaxirasiga ega bo'lgan Temirkon (Jizzax viloyati) va 16 mln. tonna, (miqdori - 34%) ma'dan zaxirasiga ega bo'lgan Syurenota (Toshkent viloyati) singari uchta kon mavjud..

2. Qorakalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't shaxrida osh to'zi va oxaktoshdan iborat xom ashyo negizida yiliga 210 ming tonna kaustik va kal'tsiyli soda ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan soda zavodining I navbati ishga tushirildi. Zavodning to'la quvvatda ishlay boshlashi bilan respublikamiz o'zini o'zi soda bilan to'la ta'minlaydi.

3. Navoiy viloyatida Qizilkum fosforit kombinati qurilmokda. Zavodning quvvati yiliga 1190 ming tonna bo'lgan kontsentratni tashkil etadi. Korxonaning ishga tushirilishi bilan, respublikada fosforitga bo'lgan talab to'laligicha qondiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizga fosforit qo'shni Qozog'iston Respublikasidan keltirilmoqda.

4. Qashqadaryo viloyatida quvvati yiliga 300 ming tonna bo'lgan kaliy xlor ishlab chiqaradigan kaliy zavodini qurish loyixalashtirmoqda. Korxona ishga tushishi bilan, respublikaning kaliy xlorga bo'lgan talabi qondiriladi. Xozirgi kunda kaliy xlor Rossiya va Belorussiyadan keltirilmoqda.

5. O'zbekistonda Avstriya bilan xamkorlikda kvarts kumi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Kvartspesok" qo'shma korxonasi tashkil etilgan. Kvarts qumi ilgari respublikamizga Tojikiston Respublikasidan olib kelinardi.

6. Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar (vermikulit, bazal't va b.) konlari bo'yicha geologiya ishlarini olib borish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizga vermikulit Rossiyadan keltirilmoqda.

YUqorida bayon etilgan masalalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy texnika va texnologiyani maqbul boshqarishni, respublika iqtisodiyotidagi muammolarni anik belgilab, ularni xal qilishning samarali yullarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu esa katta mablag talab qiluvchi geologiya-qidiruv ishlari, tog'-kon sanoatini rivojlantirish kabi iqtisodiyotdagi muxim vazifalarning qay darajada xal etilishiga bog'liq.

Respublikamizda mustaqillik yillarida er osti boyliklari zaxiralarini aniqlash, ularni qazib olish va qayta ishlashning rivojlanishi natijasida sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish xajmi o'sib bormoqda. Mamlakatimiz sanoati tarkibida qazib olish sanoati xissasining o'sishi oltin, gaz, neft qazib chiqarish sanoatlarida ishlab chiqarish jarayonining kengayishida o'z ifodasini topmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston juda katta mineral-xom ashyo resurslariga ega. Bu erda 84 turdagi 850 dan ortiq qazilma boylik konlari ochilgan. Aniqlangan yoqilg'i-energetika, tog'-kon va ximiya sanoati xom ashyolari, qurilish materiallari zaxiralari xisobiga 370 dan ortiq nef-gaz konlari, shaxta va kar'erlar ishga tushirilgan.⁴

Respublikamiz jaxon miqyosida gaz qazib chiqaruvchi yirik davlatlar o'nlida turadi, MDX davlatlar ichida esa uchinchi o'rinni egallaydi. Respublikamiz oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda 4, uni qazib chiqarish bo'yicha 7 o'rinda turadi. SHuningdek, uran zaxiralari bo'yicha 7-8, kumush zaxiralari bo'yicha 11-12 o'rinlarni egallaydi.

Respublikamiz er osti boyliklarining katta qismi Navoyi viloyati Xududida joylashgan. Viloyatda 200 dan ortiq turli qazilma boyliklar konlari aniqlangan bo'lib, shulardan 37 tasi oltin va boshqa qimmatbaxo metallar, 16 tasi uran konlari, 12 tasi shifobaxsh er osti mineral suvlari xisoblanadi.⁵

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimiz Xududidagi juda boy mineral xom ashyo resurslarini qazib chiqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish zaruratini doimo ta'kidlab keladilar. «Iqtisodiy isloxlarning yangi bosqichida tarkibiy tuzilish siyosatini ishlab chiqar ekanmiz, biz o'z ixtiyorimizdagi g'oyat boy tabiiy ma'dan-xom ashyo, mexnat resurslariga mustaxkam tayanishimiz, ulardan eng samarali foydalanishni xisobga olishimiz lozim. Bu siyosat natijasida xal etiladigan ustuvor vazifalarni tanlab olishga asoslanishimiz kerak»⁶.

Navoyi viloyatida mustaqilliq yillarida maxalliy mineral-xom ashyolarni qazib olish tez suratlar bilan rivojlanib, ularni qayta ishlaydigan yirik sanoat korxonalari vujudga keldi. Jumladan, Markaziy Osiyoda eng yirik xisoblangan Qizilqumdagi "Navoyi tog' metallurgiya kombinati", Zarafshon shaxridagi "Amantaytov-Gol'dfildz" qo'shma korxonasi, «Qizilqumtsement» va «Navoyiazot» korxonalari o'zlarining maxsulotlarini dunyoning ko'p mamlakatkatlariga eksport qilmoqda.

1995 yilda Muruntov oltin konida O'zbekiston-Amerika «Zarafshon-N'yumont» qo'shma korxonasi ishga tushirilgan edi. Qo'shma korxonada qo'llanilayotgan o'ta zamonaviy texnologiya tufayli olinayotgan oltin arzonga tushmoqda. Birinchi yili ushbu korxona chiqindilarni qayta ishlash evaziga bir tonna oltin olishga erishilgan bo'lsa, 1999 yildan boshlab bu ko'rsatkich o'n olti baravarga ko'paydi. Umuman, korxona ishga tushirilgandan buyon chiqindidan olingan oltin miqdori 70 tonnadan oshib ketdi⁷.

Viloyatda yirik zaxiralarga ega bo'lgan er osti boyliklarini qazib olish sanoati qayta ishlovchi sanoatiga etarlicha xom ashyo resurslari etkazib berish maqsadiga bo'ysunadi. SHuning uchun bu tarmoqning rivojlanishi pirovard maqsad emas, balki qayta ishlash sanoati rivoji uchun va respublikaga etarlicha valyuta tushumlarining kelishi uchun vositadir. SHu bilan birga qayta ishlash sanoatida maxsulotni qayta

⁴ Национальный доклад. 2005 йил, 78 бет.

⁵ Национальный доклад. 2005 йил, 78 бет

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995. 230-b.

⁷ Gulomov S., Ubaydullayeva R., Axmedov E. Mustaqil O'zbekiston. -T.: «Mexnat», 2001. 43-bet.

ishlovchi darajasining takomillashuvi - bu qazib olish sanoati rivojining barqaror rivojlanishini ta'minlashga asos bo'ladi.

Viloyat sanoat korxonalarida texnik-texnologik xolatni yaxshilash, xom ashyo va kapital mablag'larni tejash, energiya va suv sig'imini kamaytirish, ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanish o'ta muximdir. Bu esa nisbatan arzon va sifatli maxsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, xududlararo aloqalarni mukammallashtirish, raqobatbardosh maxsulotlar miqdorini oshirish muammolarini xal etish imkoniyatini beradi.

Istiqbolda mintaqada mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqoza qiladi:

- mineral-xomashyolarni qazib olish va qayta ishlash darajasini chuqurlashtirish maqsadida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish;
- tog'-kon sanoati korxonalarida mineral-xomashyo resurslardan kompleks foydalanishni rivojlantirish;
- er osti boyliklarini qayta ishlash jarayonida otvallarga chiqindi sifatida chiqariladigan rudalar miqdorini kamaytirish;
- mineral-xomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash jarayonida atrof muxitni muxofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.

3-MAVZU. ISHLAB CHIQUVCHI KUHLARNI JOYLASHTIRISHNING (ICHKJ) NAZARIY ASOSLARI

3.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha xorijiy nazariyalar

O'tish davrini boshidan kechirayotgan, o'zlarining mustaqil mintaqaviy siyosatini joriy etayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun xorijiy olimlar va mintaqashunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarishni joylashtirishning nazariy asoslari muxim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular chuqur ilmiy izlanishlarga, boy tajribaga va mintaqaviy ekspertizalarga asoslangan.

Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo'lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so'ng - XXasr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalari deb atalib, ular Y.G.Fon Tyunen, V.Launxard, A.Veber nomlari bilan bog'liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- aloxida olingan biror qishloq xo'jalik yoki sanoat korxonasining ko'rib chiqilishi;
- joylashtirishning barcha omillari to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning optimal joyi to'g'risida aniq javob olish mumkinligi to'g'risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning ob'ektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim xisoblanadi (uning birinchi ishi 1826 yilda paydo bo'lgan). Tyunen qishloq xo'jaligi maxsulotlarini sotish bozorida sanoat maxsulotlari bilan ta'minlovchi shaxargacha bo'lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo'jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida joylashtirishning asosiy omili sifatida transport xarajatlari namoyon bo'ladi.

V.Launxard xam sanoat korxonalarini ko'rib chiqib, transport omili xal qiluvchi omil, deb xisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalari joylashadigan joy to'g'ri tanlanganligini xom ashyo, yordamchi materiallar va tayyor maxsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

A.Veber sanoatni joylashtirishning to'liq nazariyasini (XX asrda paydo bo'lgan) birinchi bo'lib ishlab chiqqan olimdir. Veber nazariyasiga ko'ra, optimal joylashtirishning asosiy mezoni ishlab chiqarish va sotishning jami xarajatlarini minimallashtirish sanaladi. Bunda transport, mexnat, xom ashyo va energiya xarajatlari xamda aglomeratsiya omili xam xisobga olinishi kerak.

Klassik standart nazariyalar 1920 yillarda A.Predel va T.Palander tomonidan tanqid qilinadi. A.Predel muvofaqqiyatli joylashtirish joylarini ko'rsatib o'tgan (ya'ni optimal joylashtirish joyini matematik aniqlash imkoniyatini inkor etgan). T.Palander maxsus (turli xil tarmoqdagi korxonalar uchun) va umumiy standart nazariyalarini taklif etdi.

Joylashtirish nazariyalari rivojlanishi yangi bosqichining (taxminan XX asr o'rtalarida boshlangan) ko'zga ko'ringan vakillari Avgust Lyosh va Devid Smit xisoblanadi. Ularning nazariyalari yangi yoki neoklassik standartlar bilan ataladi (bu erda «neoklassik» tushunchasining neoklassik iqtisodiyot nazariyasiga aloqasi yo'q). Neoklassik nazariyaning klassik nazariyadan farqi shundaki, unda ishlab chiqaruvchilar optimal Xududiy joylashuvni ta'minlay oluvchi sanoat ishlab chiqarishi joylashuvining umumiy nazariyasini yaratish mumkin emasligini tushunib etishlari lozim. Unga ko'ra, xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarishning joylashish joyini tanlash sub'ektiv amalga oshiriladi. Optimal joylashtirishning mezoni sof foydani maksimallashtirish xisoblanadi.

Statik nazariyalarning rivojlannishi xozirgacha davom etmoqda. Ular asosan korxonani joylashtirish omillari sonining ko'payishi yo'nalishida amalga oshirilmoqda. Undan tashqari, bir zavodli emas, balki ko'p zavodli sanoat firmalari ko'rib chiqila boshlandi (Raynxol'd Grotsning 1980 yillar boshlaridagi ishlari). Aynan ko'p zavodli sanoat firmalari xayotda ko'p bo'lib, aksariyat xollarda ularning tarkibiga iqtisodiyotning uchinchi sektori korxonalari xam kiradi. Bunday kompaniyalarda optimal joylashtirish muammosiga yondashuv bir zavodli firmalarga nisbatan tubdan farq qiladi. Ko'p zavodli firmaning asosiy maqsadi tarkibidagi korxonalarni shunday joylashtirishki, bunday joylashtirish natijasida minimal va kompaniya foydasi maksimal bo'lsin.

Joylashtirishning dinamik nazariyalari, yuqorida aytib o'tilganidek, XX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Birinchi sodda dinamik kontsepsiya sifatida X.Xotelling modelini aytilish mumikn. U 1920 yillardagi ishida bir - biri bilan o'zaro

raqobatlashadigan ikkita ishlab chiqaruvchi korxonani optimal joylashtirishni isbotlab bergan.

Dinamik nazariyalarda statik nazariyalardan farqli ravishda ko'proq ko'p zavodli kompaniyalar ko'rib chiqiladi. R.Vernoning maxsulot ishlab chiqarish tsikli kontseptsiyasini garchi, u mintaqaviy nazariya doirasidan chetga chiqib ketgan bo'lsa xam, joylashtirishning dinamik nazariyasi deb xisoblash mumkin (1960 yillarda paydo bo'lgan). Vernoning asosiy tezisi shundan iboratki, xar bir maxsulot chegaralangan xayotiy tsiklga ega bo'lib, shu davrda ishlab chiqarish jarayoni xamda uni optimal joylashtirishda o'zgarishlar ro'y berib turadi. Maxsulotning xayotiy tsikli bir qancha bosqichni (ishlab chiqarish, o'zgartirish, ulg'ayish, standartlashtirishni) o'taydi. Ular bir-biridan joylashtirishning asosiy omillaridagi nisbatlari bilan farq qiladi.

Xozirda dinamik nazariyalar soni ko'p emas. Dinamik kontseptsiyalar doirasida sanoat firmalarining xududiy rivojlanish bosqichlari ajratiladi. Xar bir bosqichda kompaniyalar o'z faoliyatini joylashtirishning turli mezonlaridan foydalanishadi.

Masalan, Storper va Uolker bunday bosqichlarning to'rttasini ajratadi. Birinchisi – «lokalizatsiya» – yangi sanoat firmalari va korxonalarning yangi Xududlarda joylashuvi.

Ikkinchisi – «selektiv suburbanizatsiya» – dastlab tanlangan Xududlarda bozor xolatlari mustaxkamlangan sari ushbu firmalar quvvatlarining oshirib borilishi.

Uchinchisi – «dispersiya» – sanoat firmalarining chetga (pereferiyaga) tomon xarakati. Va nixoyat, to'rtinchisi – «joylashuvchi og'irlik markazlarini ko'chirish» – sanoat tuzilmasining yangilanishi ta'siri ostida ishlab chiqarishni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish. Masalan, texnologik yangiliklar asosida, talab tuzilmasining tarkibiy o'zgarishi xisobiga, eski tarmoq va ishlab chiqarish evolyutsiyasi natijasida.

Firmalar – yangilanish jarayonining tashuvchilari ko'pincha oldin paydo bo'lgan yirik sanoat markazlaridan tashqari joylashadilar. Bu esa jarayonni yana «lokalizatsiya» bosqichiga qaytaradi.

SHtandortlar nazariyasiga muvofiq sanoatni joylashtirish quyidagi omillar orqali aniqlanadi:

- korxonalarni joylashtirishda transport xarajatlarini xisobga olish orqali amalga oshiriladi;
- korxonalarni joylashtirishda arzon ishchi kuchini xisobga olish orqali amalga oshiriladi;
- korxonalar sanoat rayonlari va uzellarida joylashtiriladi.

Ushbu nazariyada transport xarajatlari omili etakchi rol' o'ynaydi. Xom ashyo va materiallarning transportabelligi xarajatlarga ta'sir ko'rsatadi va shu bilan bo'lg'usi korxonaning joyini aniqlaydi.

O'zbekiston sharoitida, tashqi bozorga chiqish transport xarajatlariga ko'p jixatdan bog'liq. SHuning uchun mazkur omil transportni kam talab etadigan, xom ashyoni qayta ishlab tayyor maxsulot ishlab chiqaradigan soxalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Markazdan uzoqda joylashgan mintaqalar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari korxonalarida transport xarajatlari

maxsulot tannarxi tarkibida katta o`rin egallaydi. SHuning uchun transport omili mazkur mintaqalar uchun muxim ahamiyatga ega.

Arzon ishchi kuchi va aglomeratsiya omiliga asoslangan ikkinchi va uchinchi yo`nalishlar mamlakatimiz uchun xarakterli bo`lib, mehnatni ko`p talab etadigan tarmoqlarni joylashtirish xamda sanoat rayonlari, zonolari va uzellarini tashkil etishni rag`batlantirish uchun xizmat qiladi. Respublikamizning deyarli barcha mintaqalari ishchi kuchini ko`p talab etadigan tarmoqlarni joylashtirish uchun etarli mehnat resurslariga ega.

A.Leshning «Bozor zonasi nazariyasi»ga muvofiq, ob`ekt qurilishi uchun joy tanlashda foyda, soliq, demping, bojxona to`lovlari va boshqa bozor indikatorlari muxim omil sifatida ishtirok etadi. Muallif, iqtisodiy-matematik modellardan foydalangan xolda, maxsulot sotilish radiusini aniqlaydi va bunga ko`ra, radiusdan tashqarida maxsulot sotish iqtisodiy jixatdan o`zini oqlamaydi.

A.Lesh mintaqani muayyan chegaraga ega bo`lgan va mintaqalararo raqobatga tortilgan bozor sifatida ko`radi. Bunda xududga mutlaqo bir jinsli va bir qiymatli bo`shliq sifatida qaraladi xamda faqat ikki omil: ishlab chiqarishni bir joyda to`planishining samarasi va maxsulotni iste`molchiga etkazishning xudud bo`ylab tekis taqsimlangan transport xarajatlari xisobga olinadi.

«Bozor zonasi nazariyasi» o`tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, xususan MDX davlatlari iqtisodiyotida xozircha etarli darajada qo`llanilmayapti. O`zbekistonda sanoat korxonalarini joylashtirishda bozor indikatorlaridan foydalanilmayotir.

V. Kristaller «Markaziy o`rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik xisob-kitoblar orqali xududiy ierarxiya bir darajadan boshqa darajaga to`g`ri geometrik progressiya orqali o`tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o`z navbatida tumanlar ko`plab qishloq fuqarolari yig`inlaridan iborat. Xar bir qishloqqa o`ziga tegishli bo`lgan tovar va xizmatlar yo`naltirilgan. SHunday qilib, olim axoli punktlari guruxiy tizimini tashkil etishning optimal variantini aniqlash orqali markaziy o`rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar xarakatining oqilona yo`nalishlarini, shaxar va axoli punktlari boshqaruvi ma`muriyatining optimal tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Xududiy nazariyalarni (shu jumladan, Xududiy siyosat nazariyalarini) o`rganishga oxirgi o`n yilliklarda nisabatan kamroq e`tibor berildi. To`g`ri, Xududiy iqtisodiyot bo`yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob xolida nashr etildi. Ammo, Xududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko`rib chiqildi. Biz mavjud xududiy nazariyalarni mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning amaliy masalalarini xal etishda foydalanish imkoniyati nuqtai nazarida taxlil etishga xarakat qildik.

Xududiy siyosat nazariyalari xududlar iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solish yo`nalishlarini shakllantiradi. Biroq bu nazariyalarning o`zinigina o`rganish bilan chegaralanib qolish to`g`ri emas, chunki ulardan ko`pi mintaqalarning iqtisodiy o`sishi nazariyalariga asoslangan (boshqacha qilib aytganda,

mintaqalarning iqtisodiy o`lish sur`atlarida farqlar yuzaga kelishiga sabab bo`luvchi omillarni aniqlamasdan turib, xududiy siyosat xaqida gapirish noto`g`ri).

Xududiy o`lish nazariyalarini ko`rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – xududlarda iqtisodiy o`lish modellarini qo`llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o`lishini izoxlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o`xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, aloxida korxona va firmalarning xatti-xarakatlarini taxlil etishga asoslanga. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina aniqlab beradi. Kompaniyalar o`z faoliyatini u yoki bu xududda olib borishlarining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko`rib chiqiladi.

Taxlil etilayotgan nazariyalarni ishlab chiqish bilan xam iqtisodiy geografiya mutaxassislari, xam iqtisodchilar shug`ullanishgan. Chunki iqtisodiy geografiya bilan xududiy iqtisodiyot o`rtasida aniq bir chegara o`rnatishning iloji yo`q.

Turli mamlakatlarda xududiy nazariyalarning turli yo`nalishlariga ustuvorlik berilgan. Eng kuchli ilmiy maktablar Germaniya, SHvetsiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Frantsiyada shakllangan. Germaniyada an`anaviy ravishda ko`proq joylashtirish nazariyalariga (Y.G. Fon Tyunen, V.Launxard, A.Veber, A.Predel', A.Lesh, R.Gorts va boshqalar); xududiy o`lish muammolarini tadqiq etishga (X.Zibert) va Xududiy rivojlanishni tartibga solishga (V.Kristaller va A.Lesh) e'tibor qaratilgan.

XX asrning birinchi yarmida joylashtirish nazariyalari bilan Stokgol'm maktabi doirasida SHvetsiyada faol shug`ullanishgan. 1920 – 1930 yillarda T.Palander ishlari mashxur bo`lgan. Sal keyinroq G.Myurdal' xududiy o`lishning asos modellaridan birini yaratdi. Mintaqashunoslar orasida xam joylashtirish, xam xududiy rivojlanishni tartibga solish nazariyalarining rivojlanishida muxim rol' o`ynagan SHved olim X.Xegerstrandning xam nomini aytib o`tish mumkin.

Frantsuz iqtisodchilari va iqtisodiy geografiyashunoslari ijtimoiy masalalarga doim katta qiziqish bilan qarashgan. Xududiy nazariyalarda ular «o`lish qutblari» va «rivojlanish o`qlari» urbanistik kontseptsiya bilan bog`liq bo`lgan ilmiy yo`nalishlar rivojlanishiga katta xissa qo`shishgan (F. Peru, J.R.Budvil', P.Pot'e).

Xududiy nazariyalar soxasida Rossiya iqtisodchilari va geograflari tomonidan xam katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular asosan G`arb olimlari fikrlarini rivojlantirganlar. Bu borada ayniqsa, universitet rayon maktabining iqtisodiy va ijtimoiy geografiya vakillari o`ziga xos xususiyatga ega bo`lishgan. N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy, I.A.Viti, YU.G. Saushkin kabi olimlar ushbu yo`nalishni mustaxkamlashga katta xissa qo`shganlar.

4.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muayyan qonuniyatlar namoyon bo`lmoqda. Ular muayyan tarixiy bosqichda ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining o`zaro xarakati natijasida shakllanadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va xududlar o`rtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon bo`ladi. Iqtisodiy

rivojlanishning xozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs saloxiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari xam xisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;
- mintaqalarni kompleks rivojlantirish;
- mintaqalar o`rtasidagi xududiy mexnat taqsimoti;
- mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini teng-lashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda maxsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal xolatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha (tayyor maxsulotgacha bo`lgan) bosqichlarini muayyan xududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli xududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlarning tarkibi, geologik saloxiyatlariga ko`ra o`zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xom ashyo, yoqilg`i, energiya va iste`mol manbalariga yaqinligini ta`minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Kooperatsiyalashtirish va kombinatlashtirish xamda chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning muxim shartlaridan xisoblanadi. Mintaqalarni kompleks rivojlantirish uchun bozor infratuzilmasi elementlari, ishlab chiqarish tarmoqlari, axoli extiyojlarini qondirish bilan bog`liq soxalar xamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining mushtarakligiga erishish lozim. Mintaqalar xo`jaligining kompleksliligi turli tarmoqlar va soxalar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishni taqozo qiladi.

Mintaqalar o`rtasida xududiy mexnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muxim shartlaridan xisoblanadi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs saloxiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko`ra o`zaro farq qiladi. SHuning uchun xar bir mintaqaga faqat o`zigagina xos bo`lgan xususiyatlar asosida muayyan soxaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan maxsulot ayirboshlaydi.

Xo`jalik yuritishning yangi sharoitida mintaqalar orasida xududiy mexnat taqsimotini yanada takomillashtirish muxim ahamiyatga ega. Bunda xukumat va aloxida xududlar manfaatlarining mushtarakligi xisobga olinishi, turli ma`muriy-xududiy birliklar resurslarining umumlashtirilishi lozim. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning barcha mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish katta ahamiyatga ega. Xozirgi bosqichdagi muxim vazifalardan biri, xukumat tomonidan aloxida e`tiborga molik mintaqalar belgilanib, ularning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta`minlash uchun davlat byudjetidan qo`shimcha mablag`lar ajratilishi va aniq rejalar tuzishdan iborat.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bozor iqtisodiyotining rivojlanishi qonunlarida namoyon bo`ladi. Ular o`zaro ajralmagan xolda rivojlanadi va bir-birlarini taqozo qiladi.

4.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bilan birgalikda ularni joylashtirish tamoyillari xam katta ahamiyatga ega. Joylashtirish tamoyillari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muayyan davri mobaynida ishlab chiqarish

xududiy taqsimotida namoyon bo`ladi. Ushbu tamoyillarni xo`jalik yuritish usullari sifatida ko`rib chiqishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish tamoyillarini davlat iqtisodiy siyosatining o`ziga xos ilmiy nizomi sifatida tushunish mumkin.

Turli mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari bozor iqtisodiyotining rivojlanish modelini o`rganish va tajribalaridan foydalanish asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bozor iqtisodiyotiga o`tishning dastlabki bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda quyidagi tamoyillari ajralib turadi:

- ishlab chiqarishning energiya, xom ashyo, yoqilg`i manbalariga va iste`mol mintaqalariga yaqinlashuvi;
- tabiiy resurslarning eng samarali turlarini o`zlashtirish va ulardan kompleks foydalanish;
- ekologik vaziyatni sog`lomlashtirish, tabiatni muxofaza qilish bo`yicha samarali chora-tadbirlarni ko`rish va tabiatdan oqilona foydalanish;
- xalqaro mexnat taqsimotining iqtisodiy qulayliklaridan foydalanish, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tiklash va rivojlantirish;
- korxonalarni va infratuzilma ob`ektlarini joylashtirishda favqulodda xolatlarni (er qimirlashi, suv bosishi, tog` va jarliklarning surilishi, sel va x.k.) xisobga olish.

Ishlab chiqarishni energiya, xom ashyo, yoqilg`i manbalariga va iste`mol mintaqalariga yaqinlashtirish tamoyili amalga oshirilganda uzoq masofaga yuk tashishni va ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish bilan bog`liq muammolar echiladi. Bu o`z navbatida iqtisodiy samaradorlikning o`sishiga olib keladi.

Ayniqsa, energiyani ko`p talab etadigan korxonalarning yoqilg`i va energiya manbalariga yaqin bo`lishi katta ahamiyatga ega (masalan, rangli metallurgiya yoki kimyo sanoati tarmoqlari). Xom ashyo manbalariga material ko`p talab qiluvchi sanoat tarmoqlari yaqin joylashadi (qora metallurgiya, og`ir mashinasozlik). Engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari maxsulotlarini ishlab chiqarish iste`mol mintaqalariga, fanga ehtiyoj sezuvchi tarmoqlar esa yuqori malakali mexnat resurslari bilan ta`minlangan mintaqalarga yaqinlashadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jarayonida mintaqalarda tabiatdan foydalanish muammosi dolzarb bo`lib turibdi. Xozirgi paytda tabiatga zarar keltirish, ekologik toza bo`lmagan maxsulot ishlab chiqarish, tabiiy resurslarni dunyo narxlaridan ko`ra arzonga sotish kabi iqtisodiy mas`uliyatsizlik illatlari bartaraf etilishi zarur. Iqtisodiy xolatni yaxshilash, tabiatdan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi iqtisodiy dastaklar lozim:

- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish doirasida mintaqalar va ekotizimlar bo`yicha ekologik cheklashlar tizimining qonuniy va me`yoriy asosini yaratish;
- takror ishlab chiqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag`batlantiruvchi ekologik soliq va tabiatdan foydalanganlik uchun to`lovlar tizimini kiritish;

- tabiiy resurslar iste'molini, ifloslantiruvchi moddalarning chiqarib tashlanishini cheklash, chiqindilarni joylashtirish, shuningdek tabiiy resurslardan samarali va kompleks foydalanish ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish.

Keyingi yillarda xalqaro mexnat taqsimotiga, xorij davlatlari bilan aloqalarga suyanib, mamlakatimizdagi mavjud iqtisodiy qulayliklardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, xar qanday mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi xalqaro mexnat taqsimoti doirasida amalga oshirilishi lozim. Bunday xolatda davlatlar o'rtasidagi aloqalar teng xuquqlik, ishonch, o'zaro manfaat va mustaqillikni saqlab qolish tamoyillari asosida qurilishi kerak. Xorijiy mamlakatlar bilan xamkorlik ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining va mavjud resurslardan foydalanishning to'la, oqilona va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Xalqaro mexnat taqsimoti xo'jalikning tarmoq va mintaqaviy tizimiga, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Xorij davlatlari bilan xamkorlik avvalambor xukumatlararo to'ziladigan ikki tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Xozirgi sharoitda birgalikda moliyalashtirish va xo'jalik ob'ektlarini qurish, qo'shma korxonalar tuzish, moliya va bank soxalarida xamkorlik qilish, kompensatsion asosda xamkorlik qilish, tashqi savdo kabi iqtisodiy xamkorlikning turlari katta ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda boshqa tamoyillar xam xisobga olinadi, masalan, katta shaxarlarning o'sishini boshqarish tamoyili, kichik va o'rta shaxarlar rivojlanishini faollashtirish va boshqalar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari va tamoyillari bilan birgalikda nazariy jixatdan ishlab chiqarishning lokalizatsiyasini aniqlab beradigan, ba'zi xo'jalik tarmoqlarining joylashuviga, turli toifadagi mintaqaviy komplekslarning iqtisodiy rayonlar, viloyatlar va tumanlardagi xududiy ishlab chiqarish majmualari (XIM) shakllanishiga ta'sir etadigan omillar xam katta ahamiyatga ega.

5-MAVZU. MINTAQALAR AXOLISI VA MEXNAT RESURSLARI

5.1. O'zbekiston mintaqalarining demografik xolati

Xar bir o'lka, xudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi axolining mexnat faoliyatiga bog'liq. Maxalliy axolining mexnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o'lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanshida katta rol o'ynaydi.

Demografik omilning oʻzgarib borishi global muammo boʻlib, u koʻp jixatdan jamiyatning xolati va rivojlanishini belgilaydi.

Aytish joizki, mustaqillik yillarida (1991-2011 y.) Oʻzbekiston axolisining soni 7,4 million kishiga, yaʼni oʻrtacha yiliga 389,1 ming kishidan koʻpaydi. Oʻtgan qariyb 20 yil mobaynida respublikada axoli soni – 1,35, shaxar axolisi – 1,73, qishloq axolisi esa 1,1 marta koʻpayib, uning oʻsish jarayoni davom etmoqda va 2050 yilga borib, 12 milliard kishiga etishi moʻljallanmoqda. Ayni vaqtda ana shu davrning turli bosqichlarida mamlakatimizda shaxar xamda qishloq darajasida axoli sonining koʻpayish surʼati xar xil boʻlganini kuzatish mumkin (7.1.1-jadval).

7.1.1-jadval

Oʻzbekistonda axoli sonining oʻzgarish dinamikasi (ming kishi)*

Koʻrsatkichlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan oʻzgarishi	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Jami axoli soni	27072,2	27533,3	28001,4	28453,7	29123,3	2051,1	107,5
SHundan:							
SHaxar axolisi	9584,6	9758,3	14327,8	14618,4	14897,4	5312,8	155,4
Qishloq axolisi	17487,6	17775,0	13673,6	13835,3	14225,9	-3261,7	81,3

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari

4.1.1-jadval maʼlumotlarining taxlili 2007-2011 yillar davomida jami axoli sonining 2051,1 ming kishiga yoki 7,5 foizga koʻpayganini koʻrsatadi. Biroq koʻrilayotgan davrda yurtimizning shaxar va qishloq joylarida axoli sonining oʻsish surʼatlari bir meʼyorda kechmagan. Jumladan, 2011 yilda 2007 yilga nisbatan shaxar axolisi soni 55,4 foizga koʻpaygan boʻlsa, qishloq axolisi esa 18,7 foizga kamaygan. SHu bilan birga, bu davrda jami axoli tarkibida shaxar axolisining ulushi 35,4 foizdan 51,2 foizga ortgan, qishloq axolisini esa 64,6 foizdan 48,8 foizga kamaygan. Koʻrinib turibdiki, respublikada axolining shaxarlashuv jarayoni kuchaymoqda. Qishloq axolisi sonining kamaygani esa Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil 13 martdagi **“Oʻzbekiston Respublikasi axoli punktlarining maʼmuriy-xududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 68-sonli qaroriga** koʻra mamlakatimizdagi 966 ta qishloq punktiga shaxarcha maqomi berilgani bilan izoxlanadi.

YUrtimizda jismoniy va maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan puxta oʻylangan demografik siyosat natijasida demografik jarayonlarda ijobiy tendentsiyalar kuzatilmoqda (4.1.2-jadval).

4.1.2-jadvaldan koʻrinib turganidek, 1995-2011 yillarda tugʻilganlar soni 1,3 foizga kamaygan, biroq bu koʻrsatkichni 2008 yilga nisbatan taqqoslaydigan boʻlsak, tugʻilish 9,9 foizga koʻpayganini koʻrish mumkin.

4.1.2-jadval

Oʻzbekistonda demografik jarayonlardagi oʻzgarishlar (ming kishi)*

Koʻrsatkichlar	Yillar					2011 yilda 1995 yilga nisbatan oʻzgarish	
	1995	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz

Tug'ilganlar soni	678,0	608,9	646,1	651,3	669,6	-8,4	98,7
O'lganlar soni	145,4	137,4	138,8	133,6	138,4	-7,0	95,2
Nikox qurganlar soni	168,9	254,2	250,2	272,0	292,3	123,4	173,0
Ajralishlar soni	28,5	19,4	18,3	17,8	17,6	-10,9	61,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Respublikada umr ko'rish davomiyligining uzayishi axoliga tibbiy yordam ko'rsatishning yaxshilanishi, sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, davolash maskanlarining zamonaviy uskunalar bilan jixozlanishi, bu soxada yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xamda soxani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga e'tiborning kattaligi tufayli O'zbekistonda so'nggi yillarda axoli o'rtasida o'lim xolatlarining nisbatan pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Jumladan, 2011 yilda yurtimizda o'lganlar soni 1995 yilga nisbatan 7,0 ming kishiga yoki 4,8 foizga qisqargan.

SHu bilan birga, ko'rilayotgan davrda nikox qurganlar sonining ortgani, aksincha, ajralishganlar sonining keskin kamaygani ijobiy demografik jarayon xisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida axoli soni ancha kamaygan. MDXning Belorussiya, Ukraina va Qozog'iston kabi mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda axoli soni oshib bormoqda. Bu erda tug'ilish, tabiiy ko'payishning nisbatan yuqori koeffitsentlari va o'limning past koeffitsenti saqlanib qolmoqda. An'anaviy ko'p farzandli oiladan o'rtacha farzandli oilaga o'ziga xos yo'l bilan demografik o'tish ro'y bermoqda.

Axoli ko'payishi bilan uning zichligi xam ancha oshmoqda. 1940 yilda xar kv.km.ga 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda 54,1 kishi to'g'ri keldi (zichlik 3,7 baravar oshgan). Xozirgi vaqtda O'zbekistonning 14 ta xududiy bo'linmasidan 10 tasi, shu jumladan, Toshkent shaxri axoli zich bo'lgan xududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi.

Vaxolanki, ular O'zbekiston xududining atigi choragini, axoli uncha zich bo'lmagan to'rtta viloyat esa to'rtidan uch qismini egallagan. Axoli nixoyatda zich bo'lgan mintaqalarga butun axolining mexnat resurslari, iqtisodiy faol va ish bilan band axoli, tug'ilgan bolalar va axoli tabiiy ko'payishning beshdan to'rt qismi, yalpi maxsulotning 74 foizi, investitsiyalarining 79 foizi va iste'mol xarajatlarining 88 foizi to'g'ri kelmoqda.

Axolining ko'payishi uni oziq-ovqat maxsulotlari va ichimlik suvi, ish o'rinlari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar, shuningdek, ekologik oqibatlar va kasallik ko'payishini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonning axoli nixoyatda zich bo'lgan mintaqalarida ishlab chiqaruvchi kuchlar eng yuqori darajada rivojlangan va yashashni ta'minlash shart-sharoitlari qulay bo'lgan xududiy bo'linmalar bor. SHu sababli ularda axolining ko'payishi ishsizlik darajasiga mayinroq ta'sir etdi.

4.1.4-jadval

O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari

Yil	Axolining o`rtacha soni, mln.kishi	Axolining o`rtacha yillik ko`payishi, ming kishi	Axoli ko`payishining o`rtacha sur`ati	Tug`ilish koeffitsienti, %	O`lim koeffitsienti, %	Tabiiy ko`payish koeffitsienti, %
1897	3,95	-	-	-	-	-
1960	8,52	72,6	1025	39,9	6,0	33,9
1980	15,76	362,0	3,15	33,8	7,4	26,4
1999	24,23	445,6	2,30	22,3	5,3	17,0
2000	24,91	332,2	1,4	23,7	5,1	18,0
2007	25,8	408,4	1,14	24,1	3,7	27,8
2025	33,4	233,7	0,75	-	-	-

Manba: «Axolishunoslik» markazi ma'lumotlari.

Axoli nixoyatda zich bo`lgan mintaqalar xissasiga respublika mexnat resurslarining 81 foizi to`g`ri kelayotgan bo`lsa, ishsizlar ular umumiy sonining atigi 55 foizidan iborat. Umuman, O`zbekiston bo`yicha rasmiy ishsizlik darajasi 0,5 foizni tashkil etayotgan bo`lsa, axoli nixoyatda zich bo`lgan mintaqalarda 0,8 foizdan iborat.

Axoli zichligi past darajada bo`lgan mintaqalarda kamroq rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, tor yo`naltirilgan tarmoq ixtisoslashuvi va ekotizimga putur etishining oqibatlarini sezilarliroq.

Ko`payib borish ko`rsatkichlari yuqori bo`lgan qishloq axolisi sonining doimiy oshib borishi va respublika axolisi umumiy miqdorida uning ulushi yuqoriligi O`zbekiston demografik rivojlanishining o`ziga xos xususiyatidir. Ayni qishloq axolisi respublika axolisining uchdan ikki qismini tashkil etib, birinchi navbatda tabiiy ko`payish, tug`ilish va chaqaloqlar o`limi xajmlarini belgilaydi.

Avvalo, qishloq joylarga xos bo`lgan tug`ilish darajasi yuqoriligi respublika xukumatidan aloxida e`tiborni talab qiladi. Ko`p bolali oilalarga beriladigan nafaqalar, maktabgacha tarbiya va boshlang`ich ta`limning xizmat infratuzilmalarini kengaytirish, sog`liqni saqlash xizmatlarini keng yo`lga qo`yish chora-tadbirlari tug`ilish darajasi bilan bevosita bog`liq. Xukumat axolini ijtimoiy muxofazalash ustuvorligini va o`tish davrida jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo`l qo`ymaslikni ta`minlash barobarida jamiyatni ko`p bolali oilalarni faqat nafaqalar xisobidan boqish mumkinligi bilan ko`p yillardan buyon bog`liq bo`lib kelayotgan boqimandalik kayfiyatidan xalos eta borishi xam kerak. Aks xolda manzilsiz tus olgan va deyarli butun axolini qamragan, samaradorligi pasaygan ijtimoiy muxofazalash tizimdagi shusiz xam qiyin vaziyat yanada murakkablashtiradi.

Respublika axolisining o`shidagi asosiy omil tug`ilish xisoblanadi. 2007 yilda tug`ilganlarning soni 9,5%ga oshdi (2007 yilda-yangi tug`ilganlarning soni 508,9 mingta, 2006 yilda 555,9 ming ta). YAngi tug`ilganlarning uchdan ikki qismidan ko`prog`i (69%) qishloq joylariga to`g`ri keladi, shaxarlarda tug`ilganlarning soni 31% darajasida saqlanib qoldi.

2007 yilda vafot etganlarning soni 137,4 ming kishini tashkil etdi. SHu bilan birga shaxarlarda vafot etganlarning soni 2630 kishiga kamaydi, qishloq joylarda 438

kishiga ko'paydi. Tug'ilganlar va vafot etganlarning nisbatn respublika axolisi sonining barqaror tabiiy o'sishini ta'minladi - 471,5 ming kishi (2006 yilda 416,3 ming kishi).

Axolining tarkibida 1 yanvar' 2008 yilda ayollar va erkaklarning soni bir xilda bo'ldi. Mexnatga yaroqli yoshdan kichik bo'lgan axoli (16 yoshgacha) sonining yuqori ulushi saqlanib qolmoqta - umumiy axoli soniga nisbatan 33,3% va mexnatga yaroqli yoshdagilar esa (16-55 (60) yoshdagilar) - 16,1 mln. kishi yoki 59,5%. Mexnatga yaroqli yoshdan katta bo'lganlarning ulushi 7,2%ni yoki 1,9 mln. kishini tashkil etadi.

2011 yilning 1 yanvarida O'zbekistonda, avval bo'lganidek tashqi migratsiya sal'dosi salbiy bo'ldi. Biroq Respublikadan tashqariga axoli migratsiok oqimining absolyut miqdori 2006 yilning mos davriga nisbatan 2.1 ming kishiga qisqardi.

5.2. Mexnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish

Mexnat bozori bozor infratuzilmasida ishchi kuchini yollash va undan foydalanish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va mexnat munosabatlari majmui bo'lib, mexnatga bo'lgan talab va taklifda o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, mexnat bozorida uchta sub'ekt faoliyat ko'rsatadi: ish beruvchi, yollanma ishchi va davlat. Agrar mexnat uzoq vaqt rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilishi natijasida qoloq professional iqtisodiyot, past mexnat unumdorligi xamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning muvozanatsizligi oqibatlarini girdobida bo'lishi mexnat motivatsiyasi pasayib ketishiga olib keldi. Bu esa, ishchi kuchining sun'iy tanqisligini yuzaga keltiradigan yuqori mexnat sig'imi natijasi bilan bog'liq. SHu munosabat bilan rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida davlat monopolist sifatida ish xaqining sun'iy pasaytirilgan darajasini qo'llab-quvvatlashni ma'qul ko'rdi, chunki bu u yuritayotgan siyosatini asosiy vositalaridan biri edi.

Mexnat bozorini o'rganish jarayonida quyidagilar juda muxim xisoblanadi: «iqtisodiy muvozanat» tushunchasi, mexnat bozori segmentatsiyasi, bandlik xajmining belgilanishi.

Mexnat bozoridagi iqtisodiy muvozanatning mohiyati quyidagilardan iborat: talab, taklif, ishchi kuchi baxosi va raqobat. Ishchi kuchiga bo'lgan talabning xajmi xamda mexnat resurslariga bo'lgan talabning xajmi mexnat resurslariga bo'lgan talab va ularning baxosiga bog'liq. Taklif esa, asosan, demografik xususiyatlarga asosan belgilanadi.

Mexnat bozorning asosiy ko'rsatkichlaridan biri raqobat quyidagicha belgilanishi mumkin: agrar talab va taklifning solishtirilish jarayonida taklif talabdan ko'proq bo'lsa, demak, raqobat mavjud bo'ladi. Uni ta'minlash uchun esa, birinchi navbatda tovar ishlab chiqaruvchilarda erkinlik bo'lishi lozim.

Mexnat bozoridagi iqtisodiy muvozanat shunday xolatki, unda talab, taklif va ishchi kuchi baxosi egri chiziqlari bir nuqtada bir-birlarini kesib o'tadi. Egri chiziqlar bir-birlarini kesib o'tadigan nuqta esa, mexnat bozoridagi iqtisodiy muvozanat nuqtasi xisoblanadi. Lekin, bozorning bunday xolatda bo'lishi juda

kamdan-kam uchraydi. Bu bozor sharoitlaridagi iqtisodiyotning iqtisodiy muvozanatda emasligidan dalolat beradi. Mexnat bozoridagi iqtisodiy muvozanatda talab, taklif va ishchi kuchining qaysi xolatida ishsizlik, qaysi xolatida ishchi kuchi etishmasligi kuzatiladi. Bunda mexnat bozorini boshqarishga bo'lgan ishchi kuchining muvozanatlashganini baxolash juda katta rol' o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan, ish xaqi darajasi ishchi kuchining narxi muvozanatlashgan narxdan yuqori o'rnatilganda taklifning talabga nisbatan ko'pligi paydo bo'ladi, talab oshgan sari ish xaqi xam oshadi, talab kamaygani sari esa, ish xaqi xam kamayadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikadagi past darajali mexnat ta'minotiga ega bo'lgan xo'jaliklarda mexnat natijalari erkinligining yo'qligi past daromad olinishiga sabab bo'ldi. Bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Ayni shu sabablarga ko'ra, ushbu xo'jaliklarda ishchi kuchi tanqisligi sun'iy yo'l orqali paydo bo'ladi. Ishchi kuchi bilan yuqori darajada ta'minlangan xo'jaliklarga xos bo'lgan daromad olish tendentsiyalari ayni ishchi kuchi bilan past darajada ta'minlangan xo'jaliklarga xos bo'lgan tendentsiyalar bilan bir xil, faqat ikkinchi xolatda ishchi kuchi ta'minoti baxosi va talabi ko'payishiga imkoniyat bo'lmaydi. SHuning uchun xam, bunday xo'jaliklarda ishchi kuchining ortiqchaligi yoki yashirin ishsizlik mavjud.

Mexnat bozoriga tegishli bo'lgan muxim masalalardan biri bandlik xajmini aniqlashdir. Bozor klassik nazariyasiga muvofiq, bandlik xajmi yalpi talab va yalpi takliflarning kesib o'tish nuqtasi orqali aniqlanadi. Ayni shu nuqtada kutilgan tadbirkorlik foydasi maksimal darajada bo'ladi. Bandlik xajmining o'sishi axolining iste'mol qilishga moyilligiga xamda ish joylarining ko'payishi uchun kerak bo'lgan investitsiyalar xajmiga bog'liq. YAlpi daromad o'sishi bilan iste'mol qilish xam o'sadi, shuningdek, jamiyatning yalpi investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari xam oshadi.

Mexnatga bo'lgan talab miqdorini aniqlash uchun cheklangan mexnat unumdorligi egri chizig'i bilan real ish xaqi egri chizig'i bir-birini kesib o'tishi mexnatning maksimal foyda olishni ta'minlovchi miqdorini ko'rsatadi.

Agrar ishlab chiqarish soxasidagi ishsizliklarning maqomini aniqlash xam muxim masalarga kiradi. Ma'lumki, qishloq joylarda yashovchi ishchilarning deyarli xar biri tomorqa xo'jaligiga ega bo'lib, bunday xo'jalik qishloq oilasi yalpi daromadining 40 – 60 foizini beradi xamda ishchi kuchining qisman takror ishlab chiqarilishi va ikki tomonlama bandlikni ta'minlaydi. SHaxsiy tomorqa xo'jaligiga egalik qiluvchi va ijtimoiy qishloq xo'jaligidagi ishidan maxrum bo'lib qolgan ishchini ishsiz deb ta'riflash va uni ishsizlik bo'yicha nafaqa olish uchun mexnat birjasida ro'yxatga olish to'g'rimi?

Agar to'g'ri bo'lsa, shaxsiy tomorqa xo'jaligida band bo'lgan ishchiga xususiy tadbirkor maqomi berilishi e'tiborga olinishi kerak.

Tarkibiy segmentatsiya tashqi bozorni mintaqaviy va maxalliy bozorlarga taqsimlashdan iborat. Omilli segmentatsiya esa, asosan ichki bozorga taalluqlidir. Bizning fikrimizcha, ikki bozordagi segmentatsiya xam birinchi navbatda quyidagilar

bo'yicha amalga oshirilishi lozim: malaka bo'yicha; mulkchilik bo'yicha; ma'lumot bo'yicha; ish xaqi bo'yicha; yosh jixatidan va boshqalar.

Bundan tashqari, ichki bozor birlamchi va ikkilamchi bozorlarga taqsimlanadi. Birlamchi mexnat bozori barqaror bandlik va ish xaqining yuqori darajasi bilan belgilanadi. U asosan, ma'lumoti va malakasi yuqori darajada bo'lgan ishchilardan iborat. Ikkilamchi mexnat bozori esa, bandlik darajasining beqarorligi, ishchi kuchi baxosi va malakasining past darajasi bilan belgilanadi.

O'tish davri iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri mexnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Buning uchun, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining ob'ektiv qonunlaridan ongli ravishda foydalanish zarur.

Ma'lumki, taraqqiyot soxibi bo'lib xizmat qiluvchi inson – jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchidir. U bir vaqtning o'zida moddiy boyliklar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchisi va iste'mol qiluvchisi bo'lganligi sababli, aynan uning tufayligina «ishlab chiqarish - iste'mol» tizimida muvozanatga erishiladi.

Faqat kishi extiyojini juda muxim deb bilgan va u samarali takror ishlab chiqarilishini ta'minlagan jamiyatgina eng yuqori taraqqiyotga erishadi. Jamiyatning boshqa barcha vositalari: mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish va ilmiy salohiyat, moliya, narxlar va xokazalar ushbu asosiy maqsadga bo'ysinishi kerak. Bu degani, bugungi bozorga qarab iqtisodiy tizim xarakatini to'g'ri mo'ljalga olmoq o'tish davrini tezlatmoq yoxud sekinlashtirmoqdir.

Mexnat erkinligi va ixtiyoriyligi mexnat bozori shakllanishining asosiy shartidir.

SHu bilan bir qatorda mexnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqtisodiy va xuquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjudki, ularni quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mexnat bozori shakllanishining asosiy iqtisodiy sharti bo'lib yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi.

Bu o'rinda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur sub'ektlar o'zaro almashuv munosabatiga kirishishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, buning orasida esa shaxsiy iste'molchilik yotadi.

Ular xam o'z navbatida qayta takror ishlab chiqarishda axoli ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy extiyojini ifodalaydi.

Mexnat bozorining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng xuquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqazo etadi.

Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan bog'langan xamda bir-birlariga qaram bo'lsalar xam bir-birlariga qarashib turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish mexnat bozorining shakllanishida xal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri xisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi – taklif qilingan mexnatga layoqatli axoli sonining talab miqdoriga nisbatan tez o'sishidir. Iqtisodiyotning

barcha sektorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar hozirgi sharoitda mexnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning yangi xarakterini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlardan xisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylari yaratish va xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan, mexnat bozorining yangi infratuzilmasi ko'p sonli mexnat talab qiladigan tarmoqlar va ishlab chiqarish bo'g'inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlarini vujudga keltiradi va rivojlantiradi.

Ishchi kuchi narxining o'zgarishi mexnat bozori shakllanishining muhim iqtisodiy sharti xisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ish xaqi xaqiqiy darajasining pasayish tendentsiyasi kuzatiladi. Nazariy jixatdan bunday vaziyatda ish xaqini qiymatidan pastroq belgilash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Ammo bunday imkoniyatlardan foydalanishni davlat qonunchilik yo'li bilan «to'sib qo'yish»ga xarakat qiladi. SHu maqsadda minimal ish xaqi va kun kechirish uchun zarur miqdor darajasi rasmiy ravishda belgilanadi. Bunday xolda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti normal faoliyat ko'rsatgan minimal ish xaqi kun kechirish uchun zarur miqdor darajasidan kam bo'lmasligi kerak. Mexnat bozori kon'yunkturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari orasida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifat ko'rsatkichlarini oshirish etakchi o'rin egallaydi.

Agrosanoat kompleksi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'lamlarining kengayishi, ularning intensiv rivojlanishi, o'z vaqtida moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi, mexnatlashlar qayta tayyorgarlikdan o'tishini va yangi zamonaviy kasblarni (universal ishchi va xizmatchi, tadbirkor, menejment, marketing va xakozo) egallashlarini talab qiladi. Demografik shart-sharoitlar ishchi kuchi taklifining shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuqori darajadagi tug'ilish mexnat bozoriga axoli oqimi kelishini asoslaydi (5.3-jadval).

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mexnat shartnomasi (kontrakt) mexnat bozorida ishchi kuchini sotish, sotib olishning xal qiluvchi xuquqiy sharti xisoblanadi. G'arb mutaxassislarining mexnat xuquqi bo'yicha ilmiy ishlarida mexnat shartnomasi «xodimni ish xaqi evaziga mexnat qilish majburiyatini olish va xuquqiy bo'ysunishi mavjudligi xaqidagi kelishuv» sifatida ifodalanadi. SHartnoma xususiy-xuquqiy xaridorlarning turlicha ko'rinishi bo'lib, unga nisbatan fuqarolik xuquqiga xos me'yorlar, qoidalar, kontseptual konstruktsiyalarni qo'llash imkoniyatlari va zaruriyatini asoslaydi.

Axolining oqilona bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor munosabatlariga erishishni bildiradi. Bunday xolda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi. Bunday muvozanat ish beruvchilar va «mexnatga qobiliyatli» kishilarning iqtisodiy manfaatlari eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasb-malakal tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli axolining oqilona bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchi qiymati asosida «mexnat qilish qobiliyati»ni bozorda sotish uchun taklif qilinganlarning turmush darajasi shakllanishi kam ta'minlanadi.

Respublikamizda axoli bandligi shakllanishiga xali to'la erishilgani yo'q. Bunga quyidagilar asosiy to'siq bo'lmoqda: davlat mulkini xususiylashtirish samaradorligining past darajasi; iqtisodiyotda tub tarkibiy islohotlar va ishlovchilar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bo'lishining sekinligi; mexnat xaqi uning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi; ish joylarining past sifatli moddiy-texnik jixozlar bilan ta'minlanishi; mexnatga qobiliyatli o'smirlar, ko'p bolali ayollar, nafaqaxo'rlar va nogironlar faoliyatining etarlicha rag'batlantirilmaganligi; ishchi kuchi taklifi unga bo'lgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari xaqida ishonchli axborotlar kamligi va mexnat bozorini samarali tartibga solish mexnizmi takomillashmaganligi. Ular orasida davlat mulkini xususiylashtirish va xalq xo'jaligi tarmoqlarini tarkibiy islox qilish etakchi o'rinni egallaydi.

5.3-jadval

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha band axolining taqsimoti (tegishli davr
bo'yicha o'rtacha, ming kishi)**

	O'lchov birligi	yillar		O'tgan yillarga nisbatan % da	
		2009 yil	2010 yil	2009 yil	2010 yil
Band bo'lgan soni, jami	Ming kishi	11328,1	11628,4	102,7	102,7
- po formam sobstvennosti:					
Davlat sektorida, %	%	21,0	20,9	x	x
Davlat sektorida, %	%	79,0	79,1	x	x
Tarmoqlar bo'yicha:	Ming kishi				
sanoatda	Ming kishi	1513,1	1539,6	101,8	101,8
qurilishda	Ming kishi	1008,6	1071,9	106,8	106,3
qishloq va o'rmon xo'jaliklarida	Ming kishi	2898,4	2932,3	95,4	101,2
transport va aloqa tizimlarida	Ming kishi	579,5	605,7	105,4	104,5
savdo, umumiy ovqatlanish, MTT, tayyorlov soxalarida	Ming kishi	1185,7	1243,2	104,4	104,8
uy-joy va kommunal xo'jaligida xamda axoliga maishiy xizmat ko'rsatish soxasida	Ming kishi	381,7	402,1	105,2	105,3
sog'liqni saqlash, jismoniya tarbiya va ijtimoiy ta'minot tizimlarida	Ming kishi	866,1	894,1	103,0	103,2
ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy ta'minot tizimlarida	Ming kishi	1572,9	1609,9	102,6	102,4

	O'lchov birligi	yillar		O'tgan yillarga nisbatan % da	
		2009 yil	2010 yil	2009 yil	2010 yil

moliya va kredit tizimida	Ming kishi	63,6	66,9	104,4	105,2
boshqalar	Ming kishi	1258,5	1262,7	116,1	100,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti.

Bandlikning soni va tarkibidagi o'zgarishlar yangi ish joylari tashkil etish bilan bog'liqdir. 2010 yilda 630 ming ta yangi ish joylari tashkil etildi. Bu xududiy bandlik dasturlarida kutilayotgan bashorat ko'rsatkichlaridan 7,0% ga ortiqroqdir. Axolini bandligi, ustuvor tarzda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ta'minlandi. Bu soxada 41,5% yangi ish joylari tashkil etildi. Kasanachilik soxasida ii joylarini tashkil etish xisobiga xam bandlik o'smoqda. Masalan, 2009 yilda, respublika bo'yicha jami 230 ming ish joyi kasanachilik xisobiga tashkil etilgan bo'lsa (yangi tashkil etilgan ish o'rinlarining 26,8%), 2010 yilda 212,1 ming ish joylari tashkil etildi (33,8%) Bunday yuqori o'sish kasanachilikning nafaqat an'anaviy shakllarini rivojlantirish orqali, balki yirik sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi kooperatsiyaning negizida uylarda ish joylarini tashkil etish xisobiga xam ta'minlandi Bu esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi № PF-3706 sonli farmoni bilan kiritilgan imtiyozlar va qulayliklar tizimining amal qilayotganligining natijasidir. SHu bilan birga, yangi ob'ektlarni ishga tushirish, faoliyat yuritayotgan kor-xonalarni rekonstruktsiya qilish va kengaytirish, ijtimoiy va va bozor infratuzilmala-rini rivojlantirish kabilar xisobiga tashkil ztilgan ulushi 7,4% dan ko'prog'ini tashkil etadi. YAngi ish joylarining asosiy qismi iqtisodiyotning nodavlat sektorida tashkil etilmoqda.

Axolini ish bilan ta'minlash borasidagi ijobiy o'zgarishlar

Axoli bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muxim shartlaridan biri xisoblanadi va u iqtisodiyotda aloxida ahamiyatga ega. O'zbekistonda axolini ish bilan ta'minlashni yanadayaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muxim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik soxalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xisobot yilida yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali axoli bandligini ta'minlash masalasini xal qilish xam e'tiboriiz markazida bo'ldi

Islom Karimov

10.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mexnat resurslari soni dinamikasi (ming kishi xisobida)*

Xududlar	Yillar	2011 yilda 2007 yilga nisbatan
----------	--------	-----------------------------------

						o`zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	Foiz
Qoraqalpog`iston Respublikasi	883,5	904,4	931,4	938,0	970,2	86,7	109,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1391,8	1433,5	1497,6	1536,0	1626,4	234,6	116,8
Buxoro	904,5	928,7	949,2	967,4	1013,4	108,9	112,0
Jizzax	582,3	601,1	622,2	636,1	675,2	92,9	115,9
Qashqadaryo	1345,4	1395,8	1438,3	1481,7	1568,9	223,5	116,6
Navoiy	501,6	509,8	527,3	532,1	537,1	35,5	107,0
Namangan	1207,0	1246,5	1288,2	1328,5	1432,8	225,8	118,7
Samarqand	1617,0	1672,2	1725,8	1782,1	1900,2	283,2	117,5
Sirdaryo	390,3	401,9	407,8	415,5	430,9	40,6	110,4
Surxondaryo	1057,7	1096,5	1133,5	1172,9	1246,5	188,8	117,8
Toshkent	1447,4	1477,9	1499,3	1518,2	1564,6	117,2	108,0
Farg`ona	1617,5	1667,2	1720,1	1769,3	1897,1	279,6	117,2
Xorazm	823,3	847,7	874,1	892,8	922,4	99,1	112,0
Toshkent sh.	1446,9	1461,5	1508,8	1533,6	1524,2	77,3	105,3
Respublika bo`yicha	15219,6	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	2090,2	113,7

* Jadval O`zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma`lumotlari asosida tuzilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda axolini ish bilan ta`minlash bo`yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o`zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Axolining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish xamda ishsiz axolini yangi, mexnat bozorida raqobatdosh kasb-xunarlariga o`rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jixatdan qayta jixozlash, ayniqsa tarkibiy o`zgartirish va diversifikatsiya masalalariga e`tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o`rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste`molga mo`ljallangan yangi maxsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko`rsatishni xam ko`zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko`maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan xolda, axolini ish bilan ta`minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag`larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.⁸

Demografik jarayonlarga bog`liq xolda, yurtimizda mexnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda (10.1.1-jadval).

10.1.1-jadvaldan ko`rinib turganidek, 2007-2011 yillar davomida mexnat resurslari soni 2090,2 ming kishiga yoki 13,7 foizga ortgan. Bu davrda mexnat resurslari sonining o`rtacha yillik o`sish sur`ati 2,6 foizni tashkil qilgan. Ko`rilayotgan davrda mexnat resurslari sonining o`sish sur`ati respublika xududlarida

⁸Zokirova N., Abduraxmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mexnat muommolari va yangi marralarga chiqish– T.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-betlar

bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha xududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shaxri) esa past bo'lgan. 2012 yilning 1 yanvar' xolatiga ko'ra, mexnat resurslari jami axolining 59 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shaxrida to'plangan.

10.1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band axoli soni dinamikasi (ming kishi xisobida)*

Xududlar	Y i l l a r					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2007	2008	2009	2010	2011	+;-	Foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	551,1	561,1	566,1	580,8	590,0	38,9	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1014,8	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	130,0	112,8
Buxoro	708,0	729,1	748,5	768,1	784,7	76,7	110,8
Jizzax	350,9	360,6	396,6	381,6	392,4	41,5	111,8
Qashqadaryo	877,9	908,7	934,9	971,7	1003,8	125,9	114,3
Navoiy	389,9	396,7	404,6	408,0	413,4	23,5	106,0
Namangan	738,0	763,3	790,1	815,3	841,7	103,7	114,0
Samarqand	1115,8	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	154,0	113,8
Sirdaryo	296,1	304,1	318,9	320,0	327,5	31,4	110,6
Surxondaryo	696,7	722,5	744,6	784,5	817,8	121,1	117,3
Toshkent	1068,6	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	114,9	110,7
Farg'ona	1241,3	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	126,3	110,2
Xorazm	553,6	571,1	583,0	606,7	625,2	72,6	112,9
Toshkent sh.	1132,4	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	24,3	102,1
Respublika bo'yicha	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	1183,7	111,0

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

YAngi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar axolining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (10.1.2-jadval).

2007-2010 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan axoli soni 10735,4 ming kishidan 11919,1 ming kishiga yoki 11,0 foizga ortgan. Taxlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan axoli soni respublikaning barcha xududlarida xam ortgan. Ammo, taxlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan axoli sonining o'sish sur'ati Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm

viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha xududlarda esa past bo'lgan.

Axoli bandligini ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etish muammolarini izchil xal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotdagi band axoli soni 2,5 foizga o'sdi va deyarli 11,9 million kishiga etdi, iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi band bo'lgan kishilar ulushi 79,4 foizni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar – 74,2 foizni tashkil etdi. Bandlikning eng yuqori o'sish sur'atlari qurilishda (105,2 foiz), uy-joy-kommunal xo'jaligida va axoliga maishiy xizmat ko'rsatishda (105,1 foiz), savdo va umumiy ovqatlanishda (105,0 foiz), transport va aloqada (104,4 foiz) qayd etildi.

10.1.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarida, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar soni dinamikasi(ming kishi xisobida)*

Xududlar	Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band axoli soni			Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band axoli soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	145,9	160,1	109,7	104,1	109,7	105,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	176,4	207,5	117,6	197,3	209,7	106,2
Buxoro	161,5	165,6	102,5	140,8	144,0	102,2
Jizzax	68,2	80,6	118,1	84,7	100,8	119,0
Qashqadaryo	201,5	231,4	114,8	149,3	172,6	115,6
Navoiy	150,6	165,4	109,8	56,6	59,4	104,9
Namangan	160,5	171,8	107,0	148,9	142,6	95,7
Samarqand	228,1	228,7	100,2	218,9	250,7	114,5
Sirdaryo	58,6	68,7	117,2	72,6	93,9	129,3
Surxondaryo	140,3	162,8	116,0	175,4	193,6	110,3
Toshkent	256,4	274,4	107,0	191,1	206,4	108,0
Farg'ona	266,8	299,8	112,3	222,0	286,8	129,1
Xorazm	118,6	125,2	105,5	161,2	146,7	91,0
Toshkent sh.	418,0	437,6	104,6	171,1	221,5	129,4
Respublika bo'yicha	2551,7	2779,8	108,9	2094,3	2338,4	111,6

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Umuman olganda, respublika va uning aloxida xududlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan axoli soni ortmoqda (10.1.3-jadval).

4.1.3-jadval ma'lumotlarining taxlili O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan axoli soni 2551,7 ming kishidan 2779,8 ming kishiga yoki 8,9 foizga o'sganini ko'rsatadi. Bunday tendentsiya respublikaning barcha xududlarida xam kuzatilgan.

Axoli bandligi tarkibida xam muxim ijobiy o'zgarishlar ta'minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo'lganlarning 60 foizi davlat sektori xissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib (2011 y) mazkur sektorda umumiy ish bilan band axolining 20 foizdan ko'prog'i mehnat qilmoqda.

Bandlikning soxalar bo'yicha tarkibida xam ijobiy tendentsiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan axoli soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1991 yilda mazkur soxada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. SHu bilan birga, xizmat ko'rsatish, transport va qurilish soxalarida ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 52 foizga etdi.

4.1.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatida va dexqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi (ming kishi xisobida)*

Xududlar	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, litsenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni			Dexqon xo'jaliklarida ish bilan band axoli soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,6	29,8	647,8	103,9	96,7	93,0
Viloyatlar:						
Andijon	12,3	61,0	495,9	170,1	177,8	104,5
Buxoro	8,9	49,5	556,1	129,4	151,4	117,0
Jizzax	4,7	23,3	495,7	63,4	98,1	154,7
Qashqadaryo	10,5	43,8	417,1	128,6	150,2	116,7
Navoiy	5,7	25,8	452,6	49,4	60,8	123,0
Namangan	13,0	66,8	513,8	95,4	114,6	120,1
Samarqand	12,5	65,0	520,0	148,3	188,8	127,3
Sirdaryo	2,5	10,8	432,0	26,8	60,2	224,6
Surxondaryo	6,3	27,6	438,0	129,8	153,6	118,3
Toshkent	12,2	65,9	540,1	177,4	190,6	107,4
Farg'ona	17,8	99,1	556,7	168,2	192,7	114,5
Xorazm	5,5	23,8	432,7	81,5	106,0	130,0
Toshkent sh.	24,2	105,9	437,6	0	6,2	-
Respublika bo'yicha	140,8	698,4	496,0	1472,5	1745,0	118,5

Kichik korxona va fermer xo'jaliklarida ish bilan band axoli soni xam yil sayin ortib, 2007 yildagi 2094,2 ming kishidan 2011 yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko'paydi. Bu ko'rsatkichni respublika xududlari bo'yicha taxlil qilish uning bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Jumladan, o'tgan besh yil davomida kichik korxona va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan axoli sonining o'sish sur'ati Toshkent shaxri, Farg'ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va

Jizzax viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan xududlarda esa past bo'lgan. SHu bilan birga, taxlil qilinayotgan davrda mazkur soxada ish bilan band bo'lganlar soni Xorazm (9,0 foiz) va Namangan (4,3 foiz) viloyatida kamaygan.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy xarakatlantiruvchi kuchi xisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, xar bir oila daromadini ko'paytirishda xamda yangi ish o'rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini xal etishga zamin yaratadi.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga aloxida e'tibor qaratilayotgani bois bu soxada ish bilan band bo'lgan axoli soni yil sayin ortib bormoqda (4.1.4-jadval).

4.1.4-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillarda respublika bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lekin litsenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko'paygan.

Bugungi kunda dexqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izoxlash mumkin:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muxitiga tezda moslashuvchanligi;
- xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag'lari xisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mexnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, dexqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan axoli soni 1472,5 ming kishidan 1745 ming kishiga yoki 18,5 foizga ortgan.

SHunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va xunarmandchilik kabi axolining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mexnati saloxiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

4.2. Ish bilan ta'minlashga muxtoj bo'lgan axoliga ko'rsatilayotgan xizmatlar

Davlat ish bilan ta'minlashga muxtoj bo'lgan axoliga quyidagilarni kafolatlaydi:

- ishsizlik nafaqasini to'lash;
- mexnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi xamda shu davrni umumiy mexnat stajiga qo'shish;
- ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini xisobga olgan xolda, moddiy yordam berish;
- xaq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;

– mexnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa erga koʻchish bilan bogʻliq xarajatlarini qoplash⁹.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, yurtimizda ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axoli soni ortib bormoqda (10.2.1-jadval).

4.2.-jadvaldan koʻrinib turganidek, 2007-2011 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axoli soni 563,8 ming kishidan 622,4 ming kishiga yoki 10,4 foizga ortgan. Koʻrilayotgan davrda ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axoli sonining oʻsish surʼati bir meʼyorda kechmagan. Xususan, 2007-2009 yillarda ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axoli soni 563,8 ming kishidan 631,5 ming kishiga yoki 12 foizga ortgan boʻlsa, 2010 yilda ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axoli sonining kamayishi kuzatilib, 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 1,5 foizga qisqargan.

4.2-jadval

Oʻzbekiston Respublikasida ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axoli soni dinamikasi (ming kishi xisobida)*


Xududlar	Y i l l a r					2011 yilda 2007 yilga nisbatan oʻzgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	Foiz
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	41,2	41,9	42,2	44,5	41,7	0,5	101,2
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	63,2	64,1	65,6	65,1	64,6	1,4	102,2
Buxoro	33,4	33,6	40,9	40,0	40,3	6,9	120,6
Jizzax	15,4	15,5	21,8	22,0	21,5	6,1	139,6
Qashqadaryo	47,9	47,9	57,0	56,6	56,2	8,3	117,3
Navoiy	20,3	20,3	20,9	20,1	20,5	0,2	100,9
Namangan	46,7	46,7	49,3	48,3	48,5	1,8	103,8
Samarqand	64,4	65,3	75,2	74,8	74,1	9,7	115,0
Sirdaryo	12,8	12,8	14,8	14,4	14,6	1,8	114,0
Surxondaryo	35,3	35,4	47,0	46,1	46,3	11,0	131,6
Toshkent	44,9	44,9	47,9	47,4	47,3	2,4	105,3
Fargʻona	71,6	72,6	72,5	77,1	71,4	-0,2	99,7
Xorazm	28,1	28,0	35,1	33,6	34,6	6,5	123,1
Toshkent sh.	36,7	38,6	41,2	38,0	40,6	3,9	110,6
Respublika boʻyicha	563,8	567,7	631,5	628,2	622,4	58,6	110,4

Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligining maʼlumotlari ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axolining asosiy qismini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilishini koʻrsatadi. Jumladan, 2007 yilda respublika boʻyicha jami ish bilan taʼminlashga muxtoj boʻlgan axolining 95,3 foizini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilgan boʻlsa, 2011 yilda bu koʻrsatkich 97,7 foizga teng boʻlgan. Koʻrilayotgan davrda bandlikka koʻmaklashish va axolini ijtimoiy muxofaza qilish

⁹ Oʻzbekiston Respublikasining mexnat kodekisi.

tuman (shaxar) markazlarida ro`yxatdan o`tgan ishsizlar ulushi mos ravishda 4,7 va 2,3 foizga teng bo`lgan.

Respublikada ish bilan ta'minlashga muxtoj bo`lgan axoliga ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatining ortishi ishsizlik darajasining kamayishini ta'minladi (4.2.-rasm).



4.2.-rasm. O`zbekiston Respublikasida axolining ishsizlik darajasi, foiz.¹⁰

¹⁰ O`zbekiston Respublikasining mehnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari

4.2.-jadval

O'zbekiston Respublikasida Bandlikka ko'maklashish va axolini ijtimoiy muxofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar va ishga joylashtirilganlar soni dinamikasi*

Xududlar	Bandlikka ko'maklashish va axolini ijtimoiy muxofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar soni, birlik			Ishga joylashtirilganlar soni, birlik			Murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashtirilganlar ulushi, foiz		
	2007 y	2009 y	2011 y	2007 y	2009 y	2011 y	2007 y	2009 y	2011 y
Qoraqalpog'iston Respublikasi	40151	47339	45115	36227	42976	43333	90,2	90,8	96,1
viloyatlar:									
Andijon	44852	55229	68236	39451	48313	62577	87,9	87,5	91,7
Buxoro	31976	39819	44475	27272	31668	40507	85,2	79,5	91,1
Jizzax	27693	32526	21457	23821	27957	18170	86,0	86,0	84,7
Qashqadaryo	55603	58855	56419	49712	52175	50671	89,4	88,7	89,8
Navoiy	29940	30269	23121	26220	26811	21373	87,5	88,6	92,4
Namangan	50010	58851	49655	41450	49861	45103	82,8	84,7	90,8
Samarqand	53753	64355	76350	48708	59020	68360	90,6	91,7	89,5
Sirdaryo	18367	20908	16210	15212	17725	14407	82,8	84,8	88,9
Surxondaryo	30695	38012	42689	28220	32911	38913	91,9	86,6	91,2
Toshkent	37216	43343	56743	33099	39203	52943	88,9	90,4	93,3
Farg'ona	65777	76723	87934	57332	66596	77128	87,1	86,8	87,7
Xorazm	37055	46111	36291	28266	32073	31401	76,2	69,6	86,5
Toshkent sh.	34350	46158	36746	31545	38018	30805	91,8	82,4	83,8
Respublika bo'yicha	557438	658498	661441	486535	565307	595691	87,3	85,8	90,1

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2007-2011 yillarda yurtimizda axolining ishsizlik darajasi bir me'yorda bo'lgan, ya'ni 5 foizni tashkil qilgan. Biroq bu ko'rsatkichning yillar bo'yicha o'zgarishi uning bir me'yorda bo'lmaganini ko'rsatadi. Jumladan, 2007-2008 yillarda ishsizlik darajasi 0,1 bandga kamaygan, 2008-2009 yillarda 0,4 bandga ko'paygan, 2009-2011 yillarda esa 5,3 foizdan 5 foizga tushgan yoki 0,3 bandga kamaygan (10.2.1-rasm).

SHunday qilib, ish izlab mexnat muassasalariga murojaat qilganlar, ish bilan ta'minlanganlar soni yildan-yilga oshib, ishsizlar soni va darajasi pasayib borishi ko'zga tashlanadi. Buning asosiy sababi:

- iqtisodiy faol axoli va ish bilan band axolining o'sib borishi;
- mexnat resurslarining yuqori sur'atlarda o'sishi, mexnat muassasalari xizmatlarining yaxshilanishi va ularga ish izlab murojaat qilayotganlar sonining oshishi;
- mexnat muassasalari taklif etayotgan ko'plab bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi, fuqarolarni ishga joylashtirish faoliyatining yaxshilanishi va buning natijasida ish izlab murojaat qilganlar aksariyat qismining ish bilan ta'minlanishi.

O'zbekiston Respublikasida Bandlikka ko'maklashish va axolini ijtimoiy muxofaza qilish tuman (shaxar) markazlariga ish so'rab murojaat qilganlarni ishga joylashtirish masalasiga aloxida e'tibor qaratilgan. 2007-2011 yillarda Bandlikka ko'maklashish va axolini ijtimoiy muxofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar soni 18,6 foizga, ishga joylashtirilganlar soni esa 5,3 foizga ortgan. SHu o'rinda aytish joizki, ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashganlar ulushi 87,3 foizdan 90,1 foizga ko'paygan .

Mexnat muassasalari tomonidan fuqarolarni ishga joylashtirish bilan birga, mexnat bozoridagi talab va taklifni muvofiqlashtirish, ishsiz fuqarolarni turli kasblarga tayyorlash, pul to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish, mexnat yarmarkalari uyushtirish, mexnat bozoridagi talabning va taklifni tadqiq qilish, bu bozordagi talabni o'sishiga ko'maklashish, xukumatning mexnat munosabatlaridagi ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirish bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda.

4.3-jadvalda keltirilganidek, 2007-2011 yillar davomida respublika bo'yicha xaq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar soni 79,5 foizga ortgan. Taxlillar bu davrda Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashqari barcha xududlarda xaq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar sonining ortganini ko'rsatadi.

SHu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 19 iyuldagi "Xaq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to'g'risida"gi 353-son qaroriga asosan, xaq to'lanadigan jamoat ishlari quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

Xududiy bandlik dasturlarining amalgam oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'ring 68 foizdan ko'prog'i qishloq joylarida tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes , xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va perefereitsiyalar berish, 28 foizdan ziyodiasa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turi shakllarini kengaytirish xisobidan yaratildi.

Islom Karimov

- ish qidirayotgan shaxs sifatida mexnat organlarida ro'yxatga olingan fuqarolarga ularning vaqtincha ish xaqi (mexnat daromadi) olishi va ish qidirayotgan davrida ularni moddiy jixatdan qo'llab-quvvatlash, mexnat organlari tomonidan ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni vaqtincha ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- birinchi marta ish qidirayotgan va kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslarni mexnat faoliyatiga jalb qilish;

- turli sabablarga ko'ra kasb faoliyatida ancha uzilishlar bo'lgan shaxslarni (ilgari bolalar tarbiyasi, bemorlar va oilaning keksa a'zolariga qarash bilan mashg'ul bo'lgan, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilinganlar va boshqalar) mexnatga qayta tiklash;

- iqtisodiyot va ijtimoiy soxaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash.

Bozor munosabatlari sharoitida ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish – to'la va samarali ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi eng muxim omillardan biri bo'lib, unga axolini ijtimoiy ximoya qilish choralarining bir turi sifatida qaraladi. Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, respublikada kasbga tayyorlashga yuborilgan fuqarolar soni 2007 yildagi 13676 nafardan 2011 yilda 26239 nafarga yoki 91,8 foizga ortgan.

4.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasida xaq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan va kasbga tayyorlashga yuborilgan fuqarolar soni dinamikasi
(kishi xisobida)***

Xududlar	Xaq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar soni			Kasbga tayyorlashga yuborilgan fuqarolar soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4461	3406	76,3	317	972	306,6
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1379	4929	357,4	1288	2735	212,3
Buxoro	1475	3680	249,5	778	1707	219,4
Jizzax	1208	1862	154,1	700	840	120,0
Qashqadaryo	3324	4349	130,8	695	1385	199,2
Navoiy	790	1927	243,9	495	982	198,3
Namangan	3474	3597	103,5	501	802	160,0
Samarqand	1633	5500	336,8	555	1072	193,1
Sirdaryo	728	3255	447,1	489	1966	402,0
Surxondaryo	918	1241	135,1	329	721	219,1
Toshkent	1273	4273	335,6	1028	2218	215,7
Farg'ona	3071	6273	204,2	1735	3126	180,1
Xorazm	1771	2587	146,0	934	1273	136,3

Toshkent sh.	2122	2729	128,6	3832	6440	168,0
Respublika bo'yicha	27627	49608	179,5	13676	26239	191,8

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Respublikada ishga joylashishga muxtoj axolini bir martalik ishga jalb qilish ishlari xam yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bu faoliyatning mohiyati shundaki, o'z mexnat layoqatini qisqa muddatli (to'liq bir ish kunida yoki to'liqsiz bir ish kunida, ikki yoki undan ortiq, lekin bir oydan kam ish kunida) ishga sarflash istagida bo'lgan fuqarolarga mexnat muassasalari ish beruvchi va yollanma ishchini bir-biri bilan uchrashtirish va kelishib olishlariga ko'maklashmoqda.

4.3. Ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi

2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va axoli bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 956,2 mingta ish o'ni tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Xaqiqatda esa 970,9 mingta ish o'ni yaratildi yoki dastur ijrosi 1,5 foizga ortig'i bilan bajarildi.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish xisobidan yaratilmoqda.

Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda respublikada 950 mingda ortiq ish o'ni tashkil etilgan (10.3.1-jadval).

4.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni, birlik

T/r	Yo'nalishlar	Yillar		
		2010	2011	2012 dastur
	Barcha yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, jami (ish o'ni)	950 001	956 247	967464
	shu jumladan:			
1.	YAngi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316	57469	57874
2.	Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408	365888	365897
	shundan:			
2.1.	sanoatda	52 882	54941	55921
2.2.	qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy-joy qurilishi va ta'mirlash	43 632	43863	43988
3.	YAkka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177	111871	117180
4.	Uy mexnatining barcha shakllarini rivojlantirish	207 972	216165	217188
4.1.	shu jumladan, korxonalar bilan kooperatsiyada mexnat shartnomalari asosida kasanachilik	62 518	55357	-
5.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqalar)	127 732	122399	122737
6.	Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani	61 320	72850	72994

	rivojlantirish			
7.	Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889	9605	13594
8.	Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187	-	-

* *Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.*

4.3.-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni xamda uy mexnatining barcha shakllarini rivojlantirish xisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

SHu o'rinda aytilish joizki, 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va axoli bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarni bajarishga imkon berdi:

a) 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashning tarmoq dasturlari, 2011 yilgi Investitsiya dasturi, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni maxalliylashtirish dasturi, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish xududiy dasturlari doirasida eng muxim investitsiya loyixalarini amalga oshirish natijasida 48,9 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Tashkil etilgan korxonalar va ish o'rinlarining asosiy qismi engil, to'qimachilik, avtomobil', kon-metallurgiya, neft' va gaz xamda kimyo sanoati tarmoqlariga to'g'ri keldi. 2011 yilda mamlakat bo'yicha 828 ta ishlab chiqarish ob'ekti, shu jumladan oziq-ovqat sanoatda (279 ta), qurilish materiallari ishlab chiqarish soxasida (234 ta), engil sanoatda (201 ta), yog'ochni qayta ishlash sanoatida (36 ta), mashinasozlikda (12 ta), kimyo (8 ta), farmatsevtika (3 ta) sanoatida va boshqa sanoat tarmoqlarida (55 ta) ishga tushirildi.

b) «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi, kichik biznesni rivojlantirish xududiy dasturlari chora-tadbirlarini amalga oshirish, qulay ishbilarmonlik muxitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes sub'ektlariga soliq imtiyozlari berish bo'yicha qonun xujjatlarini qabul qilish, kreditlashni va moddiy xomashyo resurslarini olish imkoniyatlarini kengaytirish xisobidan kichik biznesda (kichik korxonalar va mikrofirmalar) 296,1 mingta, xususiy tadbirkorlikda 89,7 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Kredit bilan qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik sub'ektlarining ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini ancha kengaytirish imkonini berdi. CHunonchi, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlar xajmi 3,1 trillion so'mni, shu jumladan, imtiyozli mikrokreditlar 613,3 milliard so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p. Bunda 20,9 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar mexnat resurslari ortiqcha bo'lgan xududlardagi tadbirkorlarga, 251,9 milliard so'mi xizmat ko'rsatish va servis soxasini rivojlantirishga, 20,3 milliard so'm o'zining tadbirkorlik ishini tashkil etish uchun kasb-xunar kollejlarning bitiruvchilariga berildi.

v) kasanachilik mexnatini rivojlantirish bo'yicha qator kattagina imtiyoz va preferentsiyalar, shu jumladan, kasanachilarga buyurtmalarni, uskunalarni, xom ashyoni, asbob va jixozlarni imtiyozli ravishda berish shartlarini, kasanachining

uydagi ishlab chiqarish bilan bogʻliq xarajatlarini qoplash tartibini, korxonalarni kasanachilarga toʻlanadigan mablagʻ miqdorida ish xaqi jamgʻarmasidan yagona ijtimoiy toʻlovdan ozod etishni koʻzda tutadigan xuquqiy va normativ baza yaratilgani kasanachilikning barcha turlarini rivojlantirish xisobidan 191,9 mingta ish oʻrnini tashkil etish imkonini berdi.

Oʻtgan davrda kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mexnat munosabatlariga sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat koʻrsatish sohasidagi 5,4 mingdan ortiq korxona jalb etilgan boʻlib, ularda kasanachilar bilan kooperatsiya asosida mexnat shartnomalari boʻyicha 55,8 ming kishining bandligi taʼminlandi.

Oilaviy tadbirkorlik va xunarmandchilikni rivojlantirishni ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari 136,1 mingta ish oʻrni tashkil etilishini taʼminlash imkonini berdi.

g) Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini amalga oshirish, fermer va dexqon xoʻjaliklarini rivojlantirish 120,8 mingta ish oʻrni, shu jumladan, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xoʻjaliklarda 35,4 mingta, bogʻdorchilikda va issiqxona xoʻjaliklarida 37,8 mingta ish oʻrni tashkil etilishini taʼminladi.

Fermer xoʻjaliklarida meva-sabzavot xamda goʻsht-sut maxsulotlarini qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, 56,4 ming tonna sigʻimga ega boʻlgan 55 ta sovutish kamerasini qurish va rekonstruktsiya qilish 19,7 ming kishini mexnat faoliyatiga jalb etish imkonini berdi.

Meva-sabzavot maxsulotlari etishtirish boʻyicha ixtisoslashtirilgan dexqon xoʻjaliklari sonining koʻpayishi 27,9 mingta ish oʻrni tashkil etishga yordam berdi.

d) 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish toʻgʻrisidagi dasturni, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish xududiy dasturlarini amalga oshirish 59,7 mingta ish oʻrni yaratishga olib keldi. SHundan 20,2 mingta ish oʻrni avtomobil va temir yoʻl, gaz va suv quvurlarini oʻtkazish xamda rekonstruktsiya qilish obʻektlarida, kommunal xoʻjaligining boshqa obʻektlarida, axoli punktlarini obodonlashtirish, shuningdek Oʻzbek milliy avtomagistrali yoʻl boʻyi infratuzilmasini va servis obʻektlarini rivojlantirish ishlari xisobidan tashkil etildi. Ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obʻektlarining qurilishi va ishga tushirilishi 39,5 mingta ish oʻrni yaratilishini taʼminladi.

e) Ishlamayotgan korxonalarining, shu jumladan, tijorat banklari balanslariga olingan bankrot korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tiklash 8,3 mingta ish oʻrnini qayta tiklashga imkon berdi.

4.3.2-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi xududlarida yaratilgan ish oʻrinlari soni dinamikasi (birlik)*

Xududlar	Y i l l a r				2011 yilda 2008 yilga nisbatan oʻzgarish	
	2008	2009	2010	2011	+, -	Foiz
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	28602	48064	48118	48362	19760	169,1
viloyatlar:						

Andijon	55670	77889	77902	78292	22622	140,6
Buxoro	54266	72904	72998	73363	19097	135,2
Jizzax	29566	43297	43317	43515	13949	147,1
Qashqadaryo	59191	85734	86444	86890	27699	146,8
Navoiy	30139	39870	40321	40596	10457	134,7
Namangan	49672	70762	71039	71778	22106	144,5
Samarqand	63570	91712	92020	92700	29130	145,8
Surxondaryo	44296	63686	63706	64644	20348	145,9
Sirdaryo	28660	37899	37920	38623	9963	134,7
Toshkent	52719	85333	85500	86000	33281	163,2
Farg`ona	63286	90050	91173	91246	27960	144,1
Xorazm	37110	59192	59182	59575	22465	160,5
Toshkent sh.	64159	74140	80361	80663	16504	125,7
Respublika bo'yicha	660906	940532	950001	956247	295341	144,6

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xususan, 2012 yilning 1 yanvar' xolatiga ko'ra, tijorat banklari balanslariga jami 163 ta bankrot korxona qabul qilingan bo'lib, ulardan 92 tasi yangi mulkdorlarga realizatsiya qilingan, 54 tasida ta'mirlash-tiklash ishlari davom etmoqda, 12 tasida esa modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash amalga oshirilmoqda. Bunda 54 ta korxona negizida birlashtirish va qayta tashkil etish yo'li bilan 45 ta yangi korxona tashkil etildi.

Respublika xududlarida ish o'rinlarini yaratishga aloxida e'tibor qaratilib, ularning soni yil sayin ortib bormoqda (4.3.2-jadval).

Ish o'rinlarini tashkil etish va axoli bandligini ta'minlash xududiy dasturlarining amalga oshirilishi ish bilan band bo'lish extiyoji yuqori darajada bo'lgan xududlarda, chunonchi, Samarqand (78,3 ming), Farg'ona (77,8 ming), Andijon (75,2 ming), Qashqadaryo (72,6 ming), Toshkent (70,4 ming), Buxoro (59,9 ming) va Namangan (59,4 ming) viloyatlarida ish o'rinlarini ko'paytirishga yordam berdi.

Mexnat resurslari ortiqcha bo'lgan 32 ta tuman va shaxarda axoli bandligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarga aloxida e'tibor qaratildi, ularda 118,3 mingta yoki tasdiqlangan parametrlarga nisbatan 4,2 foiz ko'p ish o'rni tashkil etildi.

Dasturni ro'yobga chiqarish doirasida 2011 yilda bo'sh turgan va yangi tashkil etilgan ish o'rinlariga 487,3 ming kishi ishga joylashtirildi, ulardan 215,7 ming nafari ayollar, 347 ming nafari qishloq tumanlarida yashovchilardir. Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish organlari tomonidan ishga joylashtirilganlarning ko'pchiligini birinchi marta ish qidirayotganlar, shuningdek, o'z xoxishiga ko'ra va korxonalar qayta tashkil qilinishi xamda tugatilishi munosabati bilan ishdan bo'shaganlar - 241,9 ming kishi, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar - 214,9 ming kishi, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar - 262,1 ming kishi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida axolining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam beradi.

Respublikamizda ayollar bandligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlarni o'tkazish lozim. U o'z ichiga ko'p bolali va yosh qizlar uchun yangi ish joylarini yaratish, ayollarni bolaga qarash davridan keyin kasbiy moslashtirish va ishlab chiqarishga qaytarish, bolasi bor ayollar malakasini oshirish uchun maxsus

kurslar tashkil qilish, ayol mexnati sharoitini yaxshilash uchun sarmoyalar jalb qilishni rag'batlantirish kabi tadbirlarni qamrab olishi kerak. Oqilona bandlikni shakllantirishning barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jixatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; qishloq xo'jaligi bo'lmagan ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol axolining mexnatda ishtirokini oshirish; mexnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; qishloq axolisining mexnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; bajarilgan ish vaqtining miqdori; axoli jon boshiga ishlab chiqarilgan YAIMning xajmi; maxalliy va jalb etilgan mexnat resurslarining soni; axolining migratsion oqimi; mexnatning fond va energiya bilan qurollanishi; ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining xajmi; mexnatga layoqatlilarning xar biri uchun axoli er yuklamasi; o'rtacha yillik ish xaqi; axolining uy-joy bilan ta'minlanishi; mexnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; sanoat korxonalaridagi asosiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni xamda ularning nafaqasi miqdori; mexnatning umumiy natijalaridan va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan qanoatlanish darajasi; mulkchilikning turli shakllari, mexnatni tashkil qilishning samaradorligi va x.k.lar

4.4. «Ijtimoiy siyosat» tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, axamiyati va rivojlanish zaruriyati

Ijtimoiy siyosat deganda, muayyan davlat xokimiyatining ijtimoiy soxa bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq siyosati tushuniladi. Bu siyosat bevosita axolining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib, unga:

- daromad siyosati;
 - ijtimoiy ta'minot va mexnat bozorlarini shakllantirish;
 - axoliga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash kabilar kiradi.
- Ijtimoiy siyosatning ob'ekti - ijtimoiy soxadir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi. Buning uchun avvalo kam ta'minlangan tabaqaga yordam berish siyosatini ishlab chiqish lozim edi. SHunday qilindi xam.

Xar bir davlatda kam ta'minlanganlikni belgilashning o'ziga xos uslublari mavjud. Masalan, AQSH, Angliya, Germaniya, Portugaliya kabi davlatlarda yashash minimumining 40% dan 60% gacha bo'lgan, Pol'sha va Vengriyada esa minimal pensiya miqdori, Bolgariyada esa minimal ish xaqi miqdori kam ta'minlanganlikni aniqlashda qo'llaniladigan vositalardir.

Biroq ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda xam boshqa usul-normativ-statistik usul qabul qilingan. Bu usulning mohiyati shundaki, kambag'allik darajasi o'z tarkibiga eng zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, iste'mol buyumlari va xizmatlar to'plamidan iborat bo'lgan eng kam iste'mol savatining qiymati asosida aniqlanadi. Eng kam iste'mol savatini xisoblash tartibi quyidagicha: dastlab oziq-ovqat to'plamining qiymati, so'ngra oila byudjeti

ma'lumotlari asosida kam ta'minlangan oilalarning umumiy xarajatlarida oziq-ovqat maxsulotlar va xizmatlarning ulushi aniqlanadi xamda bu xissa eng arzon narxlarda eng kam iste'mol savati qolgan qismining qiymati xisob-kitobiga kiritiladi.

Iste'mol savatining qiymat ifodasi eng kam iste'mol byudjeti deb ataladi. Eng kam iste'mol byudjetiga yoki ko'pincha uning ma'lum bir qismiga (masalan, 50% ga) mos keluvchi daromad kambag'allik chegarasi xisoblanadi. Davlat kambag'allik chegarasidan past darajada yashovchi axoliga ma'lum miqdorda pulli moddiy yordam ko'rsatadi. Aslida xam ijtimoiy ximoyaning barcha asosiy choralari axolining aynan shu toifasiga qaratilgan.

Biroq eng kam iste'mol byudjetini qo'llash soxasi bir muncha kengroq. Masalan, uning asosida ish xaqi, nafaqalar, stipendiyalarning eng kam miqdori xam belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida va uning mintaqasida ximoya tizimi quyidagi masalalarni echish bilan bog'liq: a) sanoatda rivojlantirishni barqarorlashtirish va rivojlantirish; b) turli manbalardan pul mablag'larini (kichik biznesni rivojlantirish uchun) jalb etish (sanoat sektoriga); v) daromadlar va xayot saviyasidagi farqlarni kamaytirish; d) kambag'allikka qarshi kurash va bozor infratuzilmasini shakllantirish, bank, moliya va sug'urta tizimlarini qayta shakllantirish.

Bu borada bilimdon va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tarbiyalash bo'yicha xali juda ko'p ishlar qilinishi kerak. Respublikada xuquqiy baza barpo qilingan, lekin unga amal qilish juda sust bormoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xam tashkiliy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan. Biroq, bu borada xam to'siqlar juda ko'p. O'rta va kichik biznes xam yanada jiddiyroq qo'llab-quvvatlashga muxtojdir.

O'zbekistonda olib borilayotgan o'zgarishlarning pirovard maqsadi "Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik xuquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir".

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda xayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishi bilan chambarchas bog'langan. SHuning uchun xam iqtisodiyotni, moliyaviy axvolni barqarorlashtirish iqtisodiy isloxotlarimizni amalga oshirishning muxim shartidir. Iqtisodiyot barqaror ishlagandagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o'tish mumkin. Xozirgi vaziyat tanglikni bartaraf etish va pulning qadrsizlanishini jilovlashni taqozo etmoqda. Axoli turmush darajasining keskin yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun tezkorlik bilan keskin choralar ko'rilishi lozim. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir.

Bozor isloxotlarining xamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining etakchi printsiplaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy isloxotlarning pirovard maqsadlarining o'zi, eng avvalo, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasi Prezidentimiz I.A.Karimov ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga

ustuvor vazifa sifatida qarash kerakligini e'tirof etdi. Jumladan, kuchli ijtimoiy siyosat olib borishni, buning uchun esa ta'lim va sog'liqni saqlash soxalarini yanada rivojlantirish, nafaqa bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, axolini ekologik va boshqa xavf-xatarlardan muxofaza etish, qisqacha qilib aytganda, odamlarimizning sotsial soxa bo'yicha talab va e'tirozlarini qondirish masalalariga davlatning doimiy e'tiborini xar tomonlama kuchaytirish lozimligini ta'kidladi.

4.5. Ijtimoiy siyosat asoslari

Kuchli ijtimoiy siyosat respublikamiz iqtisodiyotini islox qilishning eng muxim tamoyillaridan biridir. U shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqishni ta'minlashga, oilalarning, xar bir insonning farovonligini oshirishga doir chora-tadbirlar majmuasining amalga oshirilishiga erishishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda isloxotlarning dastlabki bosqichlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida axoliga ijtimoiy kafolatlar yaratib ko'yildi. Fuqarolarning mulkdan ulush olishida tenglik tamoyiliga, shuningdek, xususiylashtirilayotgan korxona mexnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy ximoya qilinishiga kat'iy rioya etildi.

Imtiyozlarning butun bir tizimi ishlab chiqildi. Korxonalar xususiylashtirilgandan keyin ularga yordam berish maqsadida soliq soxasida xam imtiyozlarning ayrim turlari belgilandi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy kafolatlar tizimi xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish uchun xam, shuningdek, xususiylashtirilgandan keyin korxona faoliyatini muvaffaqiyatli boshlashi uchun xam imkon boricha ko'proq qulay sharoit yaratishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning birinchi kunidanoq iqtisodiyot va jamiyatni islox qilishning beshta asosiy tamoyilini belgilab berdi. Ularning tub moxiyati bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor munosabatlarining kuchli ijtimoiy yo'naltirilganidir. Aynan shu bois O'zbekiston o'sha davrda boshqa mamlakatlarda keng ko'llanilgan «falaj qilib davolash» modelini inkor etib, o'tish davrida axolining ijtimoiy ximoyaga muxtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagan xolda, isloxotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ijtimoiy soxaning barcha tarkibiy qismlarini jadal takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqdi. 2000 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ming yillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Uni imzolagan 189 davlat raxbarlari o'z mamlakatlari xalqlari farovonligini oshirishga qaratilgan 18 ta asosiy vazifani xal etish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. «BMTning Ming yillik deklaratsiyasi» bolalar va onalar o'limini kamaytirish, erkaklar va ayollar tengligini ta'minlash, maktab ta'limi bilan axolini to'lik kamrab olish, toza ichimlik suvdan foydalanish darajasini ko'tarish, ekologik sog'lomlashtirish va atrof-muxit barqarorligini ta'minlash kabi muayyan vazifalar bajarilishini nazarda tutadi.

Bu o'rinda shunday savollar tug'ulishi tabiiy: axolining farovonlik darajasini qanday qilib aniq belgilash mumkin? Farovonlik darajasini qiyosiy ko'rsatkichlarda ifodalasa bo'ladimi? Bu xar bir mamlakatning yutuqlarini to'g'ri va xolis baxolash, uning xalqaro doiradagi darajasini belgilash istagida bo'lgan sotsiologik-iqtisodchilar oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Axolini ijtimoiy muxofaza qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, jamiyatda ezgulik, mexr-muruvvat va xamjixatlik, tinchlik va osoyishtalik muxitini mustaxkamlash maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida 2007 yil – "Ijtimoiy ximoya yili" deb e'lon qilgani munosabati bilan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishida "Ijtimoiy ximoya yili" davlat Dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida¹¹ quyidagi masalalar bilan bog'liq vazifalarni xal etishga aloxida e'tibor qaratilsin:

- ijtimoiy ximoya tizimining samaradorligini oshirish, axolining ijtimoiy nochor qatlamlariga yordam ko'rsatishda tabaqalashgan xolda yondoshuvni kuchaytirish maqsadida xuquqiy norma va qoidalarni belgilab beruvchi yangi qonun xujjatlari ro'yxatini ishlab chiqish;

- amaldagi qonun xujjatlari xamda normativ-xuquqiy xujjatlarga quyidagilarni nazarda tutgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yia takliflar tayyorlash:

- a) axoli nochor qatlamlarining turli toifalariga, birinchi galda yolg'iz keksa fuqarolar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan balog'atga etmagan bolalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam normalari va stavkalarini maqbullashtirish;

- b) keksalar va nogironlar uylarini, bolalar uylarini xamda kasalliklarga chalingan bolalar uchun internatlari, urush va mexnat faxriylari uchun davolash muassasalarini ta'minlashga sarflanadigan normativ moddiy xarajatlar miqdorini maqbullashtirish;

- v) 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga maxalla qo'mitalari tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam va ijtimoiy nafaqalar miqdorlarini qayta ko'rib chiqish;

- "Mexribonlik" uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, boquvchisiz qolgan bolalarga e'tiborni yanada kuchaytirish, "Sen yolg'iz emassan" insonparvarlik shiorini xayotga amaliy joriy etilishini ti'minlash;

- axolining nochor qatlamlarini ijtimoiy ximoya qilish tizimini kuchaytirish, nochor oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq va samarali ijtimoiy yordam ko'rsatishni oshirish, ularning extiyojlarini yanada to'liq qondirilishini ta'minlash, ularga moddiy yordam va ma'naviy madad ko'rsatish, axolini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda maxallaning rolini kuchaytirish;

- jismoniy sog'lom, ma'naviy boy avlodni shakllantirish chora-tadbirlarini yanada kengaytirish, onalik va bolalik to'risida g'amxo'rlikni kuchaytirish, "Sog'lom ona – sog'lom bola" xarakatini rivojlantirish. Bunda nafaqat moddiy yordam bilan bog'liq, balki maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, kasb-xunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlari yoshlari o'rtasida tushuntirish ishlari, turli fakul'tativ mashg'ulotlarni olib borish bilan bog'liq bo'lgan aniq yo'nalishlar belgilab olinsin;

¹¹ "Ижтимоий ҳимоя йили" давлат Дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ф а р м о й и ш и Халқ сўзи 2006 йил 13 декабр

- “Mexribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarining ijtimoiy xizmat koʻrsatish tizimi xodimlari mexnatini ragʻbatlantirish va munosib baxolash mexanizmini yanada takomillashtirish;

- yoshlarning xayotiy manfaatlarini taʼminlash, ularning qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish, yosh oilalar mustaqil xayotga qadam qoʻyishida ularni maʼnaviy va moddiy ragʻbatlantirish yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash, yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish;

- xurmatli faxriylar va pensionerlarning sogʻlom va sermazmun xayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yordamga muxtoj odamlarga begʻaraz yordam koʻrsatish, jamoatchilik tomonidan ularning keng koʻlamda eʼtirof etilishi va qoʻllab-quvvatlashini taʼminlash va xokazo.

4.6. CHet mamlakatlarda ijtimoiy muxofaza

Demokratik jamiyatning asosiy maqsadi insonni xar tomonlama kamol toptirishdan iborat. Jaxon tajribasida muayyan mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va reytingini aniqlash uchun koʻpincha BMT tomonidan ishlab chiqilgan Inson salohiyatini rivojlantirish indeksidan foydalaniladi. U uch asosiy koʻrsatkichdan iborat: taʼlim darajasi (savodxonlik va bolalar taʼlimi qamrovi), insonning oʻrtacha umri qanchaligi va mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki maxsulotning axoli jon boshiga nisbati. Bu indeksni ishlab chiqqan mualliflarning oʻzlari xam, koʻrsatkichlar qamrovi kamligi tufayli, u mamlakat farovonligi darajasini aniqlashda xar doim xam mos kelavermasligini tan olishadi. YAlpi ichki maxsulot xajmining oʻsishi, banklar % stavkalari yoki jaxon bozorlarida aktsiya narxlari qanchalik muxim boʻlmasin, ular inson turmush darajasini aniq belgilashning yagona mezonini boʻla olmaydi. Masalan, neftga boy davlatlarda axoli jon boshiga daromad yuqori boʻlsada, boylar va kambagʻallar daromadlari oʻrtasidagi farq eng baland ekani ayon. Daromad darajasining pastligi kambagʻallarga taʼlim, tibbiyot, zamonaviy turar-joy va kommunal xizmatlardan keng foydalanish imkonini bera olmaydi.

2003 yildagi Inson taraqqiyoti xaqidagi xisobotda 1991 – 2001 yillarda dunyoning 21 mamlakatida inson salohiyatining rivojlanish koʻrsatkichi pasaygani tashvish bilan qayd etilgan. Ular orasida MDX tarkibidagi Armaniston, Belarusʼ, Qozogʻiston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Ukraina kabi mamlakatlari xamda Afrika kitʼasidagi 14 davlat bor.

Jumladan, Qozogʻistonda yalpi ichki maxsulot oʻsish darajasi yuqori. Ammo BMTning Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, xozirgi vaqtda mamlakat axolisining 22 % dan ortigʻi oziq-ovqat maxsulotlari taqchilligiga duch kelmoqda (bu xuddi shunday tadqiqot oʻtkazilgan 1995 yil koʻrsatkichlaridan ancha past), axolining uchdan bir qismi kashshoklikda kun kechirmoqda. Qirgʻizistonda kuniga 2100 k.kaldan kam oziq-ovqat maxsuloti isteʼmol qiladiganlar soni 2001 yilda 55 foizdan ortiq edi. Bu mazkur mamlakatda axolining boy qatlami iqtisodiy oʻsish neʼmatlaridan koʻproq foydalanayotganini koʻrsatadi.

Kelajak sogʻlom avlod koʻlida boʻlishi kerak. SHu bois BMT xisobotida keltirishicha, Afrika mamlakatlarida, Rossiya, Xindiston va Xitoy kabi yirik davlatlarda OITV – OITS bilan kasallanganlar soni keskin oshayotgani

tashvishlidir. Bu esa, juda ko'p resurslar yo'qolishiga sabab bo'lishidan tashqari, 2015 yilga borib, ushbu mamlakatlarda odamlarning o'rtacha umri qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Taniqli iqtisodchi, Nobel' mukofoti laureati YAnosh Kornai «hozirgi zamon iqtisod fani o'tish davrining barcha omillarini ilmiy asosda baxolash uchun etarli darajada saloxiyatga, axoli turmush darajasi va farovonligiga bu davr ta'sirini ob'ektiv baxolashga qodir emasligini tan oldi. SHunday qilib, o'tgan asrning 90-yillari boshida ishlab chiqilgan inson saloxiyati rivojlanish indeksi ko'rsatkichlarini bugungi kunda muayyan mamlakat taraqqiyotini va axoli farovonligini xolisona baxolovchi samarali vosita deyish qiyin. Ayniqsa, iqtisodiyoti o'tish davrini boshidan kechirayotgan va axolisining demografik tarkibi turlicha bo'lgan mamlakatlarda bu tajribani qo'llash kutilgan natijani bermaydi. Masalan, O'zbekistonda axolining 60 %dan ortig'ini yoshlar tashkil qiladi. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida esa axolining ko'pchiligi keksalardan iborat. SHunday ekan, inson saloxiyati rivojlanishining strategik maqsadlari xam bir xil bo'la olmasligi kundek ravshan. Ming yillik deklaratsiyasi maqsadlariga erishish uchun turli yoshdagi axolining turmush darajasi va sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar doirasini kengaytirish darkor. Xalqaro tajribada taqqoslash uchun ko'llanadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 50 dan ortiq ko'rsatkichi taxlil muayyan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi va axolining ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning eng muxim o'n ikki guruxini ajratish imkonini berdi. Ularga quyidagilar kiradi:

- demografiya va salomatlik (insonning o'rtacha umri qanchaligi, bolalar va onalar o'limi darajasi, umumiy o'lim koeffitsienti);
- ta'lim (savodxonlik, axolining bazaviy ta'lim qamrovi);
- turmush darajasi (axoli jon boshiga real yalpi ichki maxsulot darajasi);
- bandlik (ishsizlik darajasi);
- xayot uchun zarur ta'minot (ichimlik suv ta'minoti, sanitariya sharoitlari);
- oila instituti rivojlanishi (nikoxsiz bolalar tug'ilishi, ajralish darajasi va oiladan tashqarida tarbiyalanayotgan bolalar soni);
- oziq-ovqat xavfsizligi (umumiy iste'mol doirasida oziq-ovqat maxsulotlari importi ulushi);
- jinoyatchilik (axoli o'rtasida jinoyatchilik darajasi);
- kasalliklar tarkalishi;
- iqtisodiy xavfsizli (yalpi milliy maxsulotga nisbatan tashqi qarz xajmi);
- bazaviy ijtimoiy extiyojlarga ketadigan xarajatlar (sog'liqni saqlash va ta'limga sarflanadigan byudjet xarajatlarining yalpi ichki maxsulotga nisbatan miqdori);
- axoli daromadlarining daromadlar bo'yicha farqlanishi (butun axoli umumiy daromadida axolining eng kam ta'minlangan 20%i daromatlari ulushi).

4.6.-jadval

MDX mamlakatlarning ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi

Davlat	Ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi (jamlanma ko'rsatkich)	Reyting
Ozorbboyjon	0,717	3
Armaniston	0,585	11
Belarus'	0,719	2

Gruziya	0,602	9
Qozog'iston	0,667	4
Qirg'iziston	0,598	10
Moldova	0,580	12
Rossiya	0,626	6
Tojikiston	0,619	8
Turkmaniston	0,652	5
Ukraina	0,622	7
O'zbekiston	0,738	1

Manba: Xalqaro xisobotlar, jumladan, «Ijtimoiy monitoring, UNICEF, 2003», «Dunyo rivojlanishi to'g'risida xisobot, Jaxon banki, 2002» kabi manbalardan olingan.

Bu ma'lumotlar ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichini xisoblash uchun ko'llaniladigan tartib asosida yagona indeksga jamlandi. Jamlanma indeks bo'yicha turli mamlakatlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston axoli jon boshiga nisbatan yalpi ichki maxsulot xajmi bo'yicha xozircha pastki o'rinlardan bo'lsada, axoli farovonligining yuqoridagi ko'rsatkichlari indeksi asosida jamlangan indeksga ko'ra MDX mamlakatlari o'rtasida peshqadam xisoblanadi (5.6.-jadval).

Bunday baxolash dunyodagi eng nufuzli mustakil tadqiqot markazlaridan biri bo'lgan P'yu Riserch Senter ijtimoiy tadqiqotlar markazi (AQSH) o'tkazgan taxlil natijalarida xam bilvosita o'z tasdig'ini topdi. Bu markaz yaqinda dunyoda muxim o'rin tutuvchi 44 mamlakat, shu jumladan, MDX davlatlaridan O'zbekiston, Rossiya va Ukrainada so'rov o'tkazdi. Bu so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston axolisining 70%i mamlakatdagi axvoli va yashash sharoitlaridan mamnun. Vaxolanki Xitoyda bu ko'rsatkich 50 %dan past, Rossiyada 20, Ukrainada 9%ni tashkil qilgan.

5-MAVZU. O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING XUDUDIIY JIXATLARI


5.1. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko'rsatkichlari

Tarmoqlar orasida asosiy bo'g'in sanoatning ishlab chiqarish majmuasi xisoblanadi. Sanoat majmuasining muxim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mexnat vositalari va iste'mol tovarlari, milliy daromadning katta qismi yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga erishiladi. Ayni paytda O'zbekistondagi mexnatga yaroqli axolining asosiy qismi xam sanoat ishlab chiqarishida band. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari xamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar xamda xalq extiyojiga kerak bo'ladigan maxsulotlarni xam uzluksiz tayyorlab bermoqda. SHu boisdan xam sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlash lozim. CHunki sanoat ishlab chiqarishi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustaxkam, axolining turmush sharoiti xam shuncha yaxshi bo'ladi.

SHuni ta'kidlash kerakki, 2008 yilga nisbatan 2009 yilda sanoat rivojining indeksi 112,1% ni tashkil qildi. Mashinasozlik, kimyo va neft'-kimyo, yoqilg'i, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat xamda engil sanoat, qurilish materiallari soxalarida katta yutuqlarga erishildi. SHu bilan bir qatorda, YAIM tarkibida sanoat ulushining bir qadar o'sishi (2.2 f.da) yuz berdi,

Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotida sanoatning xissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki maxsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011 yillar mobaynida yalpi ichki maxsulot xajmi 2,1 barobar oshdi (1.1.4-rasm). Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari



qatoridan joy oldi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

5.1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki maxsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda.

Rasmdan ko'rinadiki, agar mamlakatimizda YAIMning o'sish sur'atlari 2000-2003 yillarda 3,8-4,2 foiz, 2004-2006 yillarda 7-7,3 foiz, 2007-2008 yillarda esa 9-9,5 foiz darajasida kuzatilgan bo'lsa, keyingi yillarda jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur ko'rsatkichga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Biroq, yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillar orqali mamlakatimizda 2009-2011 yillarda xam YAIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda.



Mamlakatimiz YAIM o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotdagi etakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari mustaxkam zamin tayyorlamoqda. Jumladan, 2011 yilda sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va axoliga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi (5.2-jadval).

5.2-jadval

O'zbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoq va soxalaridagi o'sish sur'atlari, foizda

Ko'rsatkich	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Sanoat ishlab chiqarishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3
Qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtirish	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6

CHakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4
Axoliga pullik xizmatlar ko`rsatish	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1

Jadvaldan ko`rinadiki, jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida dunyo miqyosida yalpi talab, savdo va investitsiyalar xajmining sezilarli darajada qisqarishi yurtimiz iqtisodiyotiga xam o`zining ta'sirini ko`rsatdi. Xususan, inqirozdan oldingi 2007 yilda chakana savdo aylanmasi va axoliga pullik xizmatlar ko`rsatishning qo`shimcha o`sish sur'atlari darajasi (tegishli ravishda 21,0 va 20,6 foiz)ning keyingi yillarda sezilarli pasayishi kuzatildi. Biroq, shunisi e'tiborga loyiqki, shunday murakkab va qiyin sharoitda xam iqtisodiyotning asosiy tarmoq va soxalarida iqtisodiy o`sishning yuqori va barqaror sur'atlari saqlanib qolmoqda.

5.2 Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o`zgarishlari

Ma'ruzada keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o`zgarishlariga aloxida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz ushbu jarayonlarni birgina misolda, ya'ni 2000yilda mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo`g`i 14,2 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2011yilda bu ko`rsatkich 24,1 foizga etganida yaqqol ko`rish mumkinligini ta'kidlab o`tdi.

Sanoat maxsuloti umumiy o`sishining qariyb 70 foizini yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan tayyor maxsulot ishlab chiqarishga yo`naltirilgan soxalar tashkil etdi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft'-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmatsevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2011 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Umumiy xolda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o`sishini 1990 yil darajasiga taqqoslaydigan bo`lsak, 2011 yilda bu ko`rsatkichlar bir necha marta o`sganini ko`rishimiz mumkin (1.3.1-jadval).

5.2.1-jadval

Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o`sishi, foiz (1990=100 foiz)

Ko`rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2011 yil*
Sanoat – jami	100	123,6	3,2 marta
YOqilg`i sanoati	100	127,3	2,2 marta
Qora metallurgiya	100	58,8	1,6 marta
Rangli metallurgiya	100	107,4	116,1
Kimyo va neft'-kimyo sanoati	100	97,5	3,1 marta
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	100	142,2	13 marta
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,5 marta
Engil sanoat	100	159,2	4 marta
Oziq-ovqat sanoati	100	150	6,4 marta
Boshqa soxalar	100	162,6	6,2 marta

*Izox: 2011 yilning dastlabki baxolashma'lumotlari.

Jadvaldan ko`rinadiki, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish sur`atlari 3,2 marta o`sgan. Ushbu o`shishni ta`minlashda, ayniqsa, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining 13 marta, oziq-ovqat sanoatining 6,4 marta, engil sanoatning 4 marta o`shishi sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Qurilish materiallari sanoatining o`shishi dastlabki 10 yil ichida, ya`ni 2000 yilda 58,4 foizni tashkil etgan bo`lsa, keyingi yillarda mazkur soxani rivojlantirishga qaratilgan e`tibor xamda yaratilgan shart-sharoitlar natijasida 2011 yildagi o`shish 1,5 martani tashkil etdi.

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish xajmi 2011yilda 11,2 foizga o`sdi, 2000yilga nisbatan esa bu ko`rsatkich 4 barobardan ziyod oshdi.

Mamlakatimizda o`tgan davrlarda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- maqsadli dasturlarni amalga oshirish;
- infratuzilmani shakllantirish (suv, gaz, elektr energiyasi, transport va boshqalar);
- engil sanoat soxasida yangi korxonalar tashkil etish va tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni o`zlashtirish;
- charm xomashyosini qayta ishlash soxasida yangi korxonalar tashkil etish va yangi maxsulotlar ishlab chiqarishni o`zlashtirish;
- qishloq xo`jalik maxsulotlarini qayta ishlash soxasida yangi korxonalar tashkil etish va bozorni maxalliy maxsulotlar bilan ta`minlash;
- xalq iste`moli tovarlarini ishlab chiqarish va ular bilan bozorni to`la ta`minlash;
- qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish;
- sanoatni rivojlantirishda bank kreditlari ta`sirchanligini oshirish;
- sanoatni rivojlantirishda qo`shma korxonalarning ulushini oshirish;
- maxalliy xom ashyoni qayta ishlash;
- maxalliylashtirish dasturi va xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferentsiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarilgan maxsulotlar eksporti ko`lamini kengaytirish, kichik korxonalar maxsulotlarini eksportga yo`naltirishga ko`maklashish.

2010 yilda sanoat ishlab chiqarish tarkibida yuqori qo`shimcha qiymatga ega bo`lgan tayyor maxsulotning ulushi 50 foizdan ziyodni tashkil etdi.

Mamlakatimiz sanoat korxonalari tomonidan o`tgan yili 160 dan ortiq turdagi yangi tovar va maxsulotlar, jumladan, mutlaqo yangi texnologik platforma negizida "Spark" engil avtomobilini ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi.

SHu bilan birga, katta xajmda yuk tashiydigan "MAN" avtomobillarini, energiya tejaydigan lampalar, "ELJI" rusumidagi jaxonga mashxur xolodilniklarni yig`ish, kaliy o`g`itlari va boshqa muxim maxsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborildi.

Maxalliylashtirish dasturi doirasida 2010 yilda 1 ming 76 ta loyixa amalga oshirildi. Maxalliylashtirilgan maxsulotlar ishlab chiqarish xajmi 1,4 barobar oshdi, import o`rnini bosish bo`yicha yakuniy samaradorlik 3 milliard 400 million dollarni tashkil qildi va bu 2009 yilga nisbatan 1,2 barobar ko`p demakdir.

Korxonalar o`rtasida kooperatsiya aloqalari mustaxkamlanmoqda, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes sub'ektlari tobora keng jalb qilinmoqda.

2010 yilda o`tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsion birjada dunyoning 51 mamlakatidan 700 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya vakillari qatnashdi, 500 dan ortiq yangi turdagi maxsulot namoyish etildi, qiymati 2 trillion 600 milliard so`mlik shartnomalar imzolandi.

Bu raqam oldingi yarmarkadagi ko`rsatkichga nisbatan 1,4 marta ko`pdir. YArmakada umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarlik eksport bitimlari tuzildi va bu 2009 yil darajasidan 1,2 barobar ortiqdir.

Importga bog`liqlik xamda maxsulotlarning tannarxini tushirishga qaratilgan lokalizatsiya qiluvchi ishlab chiqarish rivojlanishning ijobiy natijasi bo`ldi, mashinasozlik maxsulotlari narxinining arzonlashuvi tendentsiyasi yuzaga keldi. Importga bog`liqlik xamda maxsulotlarning tannarxini tushirishga qaratilgan lokalizatsiya qiluvchi ishlab chiqarish rivojlanishning ijobiy natijasi bo`ldi, mashinasozlik maxsulotlari narxinining arzonlashuvi tendentsiyasi yuzaga keldi. O`tgan yilga nisbatan mashinasozlik maxsuloti narxi indeksining o`sishi 6,1 f.d.ga pasaydi xamda maxalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozordagi o`rinlarini mustaxkamlanishiga ko`mak berdi. Tashqi bozorda maxalliy avtomobilsozlik maxsulotlariga bo`lgan doimiy talab o`tgan yilga nisbatan 138,5% o`shish sur`atida avtomobil` eksportini 26,5 ming donaga orttirish imkonini berdi. Elektrotexnika sanoati xamda qishloq xo`jaligi mashinasozligi maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmlarining sur`atini oshirish tendentsiyasi saqlanib qolaverdi.

Tashqi bozorda qora va rangli metalga bo`lgan talab, shuningdek, ichki bozorni maxalliy maxsulot bilan to`ldirish zarurati metallurgiya majmuasida erishilgan o`shishning bosh omili bo`ldi.

SHuni xam aytish lozimki, sanoat majmuasining xar qanday tarmog`i ichki tuzilmasidagi o`zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar – qishloq xo`jaligi, agrosanoat majmuasining boshqa soxalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog`liq.

Endilikda sanoatning axamiyati tobora oshib bormoqda. Iste`mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko`lamda xalq iste`moli mollari ishlab chiqarishga yo`naltirilmoqda xamda xususiylashtirilmoqda. Iste`mol mollarini ko`plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xom ashyo emas, balki tayyor maxsulot chiqarish xamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishining axamiyatini oshiradi, balki jaxon bozorida O`zbekiston iqtisodiyotiga bo`lgan ishonchni xam mustaxkamlaydi. Xozirgi kunga kelib, sanoat tarmog`ida yalpi ichki maxsulotning 17 foizi yaratiladi. Bu shuni ko`rsatadiki, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti industriallashgan iqtisodiyot sari rivojlanmoqda.

Sanoat xalq xo`jaligining yirik soxasi bo`lib, unda 1 mln.dan ortiq ishchi va xizmatchi band. Bu ish bilan band axolining sakkizdan bir qismini tashkil etadi. Sanoatda 100 dan ortiq tarmoq bo`lib, ulardan 6 tasi bazaviy xisoblanadi. Asosiy fondlarning 40 %i sanoat xissasiga to`g`ri keladi, yalpi ichki maxsulotning 16 %dan ortiqrog`i sanoatda yaratiladi. O`zbekiston sanoatida elektr energiyasi, gaz, neft`, ko`mir, benzin, po`lat, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari, elektrdvgatellar, transformatorlar, akkmulyatorlar, kabellar, ekskavator, ko`prikli

ko'targichlar, yigiruv mashinalari, samolyotlar, otingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar, sun'iy tolalar, tsement, turli qurilish materiallari, gazlamalar, paxta moyi, un, guruch, kiyim - kechak, oziq-ovqat maxsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rni xar xil (6.1-jadval).

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuasiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan etakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. SHuningdek, kimyo va neft' kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, engil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarida rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'rni aloxida. Uning tarkibiga gaz, neft' va neftni qayta ishlash, ko'mir va energetika tarmoqlari kiradi. Bu majmuaning xissasi sanoat ishlab chiqarishida 26,8% dan iborat. O'zbekiston jaxondagi gaz ishlab chiqaruvchi o'nta yirik mamlakat jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr stantsiyalari va issiqlik elektr stantsiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, vol'fram, molibden, litiy, uran, alyuminiy xom ashyosi, nodir metallar va boshqa bir qator qazilma boyliklarning aniqlangan zaxiralari ko'p. O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. O'zbekiston MDX mamlakatlari orasida qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo'yicha ikkinchi, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux va vol'fram bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi, jaxon xamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo'yicha sakkizinchi, uni axoli jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinchi o'rinda.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muxim soxalaridir. YAngi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqqilligini mustaxkamlashga yo'naltirilgan.

Jami iste'mol mollarining uchdan bir qismi engil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu borada an'anaviy etakchi soxa to'qimachilikdir.

Energetika respublika xalq xo'jaligining negiz tarmog'i, iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustaxkam poydevori xisoblanadi. O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,5 mln.kVt bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stantsiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt.s dan ortiq elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu tizimning barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 228 ming km. ni tashkil qiladi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Xozir respublika energetika tizimida 60 mingga yaqin kishi ishlaydi.

5.2.2-jadval

Sanoat maxsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (%)

Tarmoqlar	2006y.	2010y..
Butun sanoat	100,0	100,0
YOqilg'i-energetika majmua	21,7	24,1
Metallurgiya	14,3	17,9
Kimyo va neft' sanoati	5,7	5,6
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	11,8	12,0

YOg`ochsozlik sanoati	1,0	1,0
Qurilish materiallari sanoati	4,4	4,1
Engil sanoat	20,3	19,4
Oziq-ovqat	11,7	9,6
Boshqalar	6,4	6,3

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

O`zbekistonda elektr quvvatidan asosan XX asr boshlaridan foydalanila boshlandi. O`sha davrda Toshkentda 2 elektr stantsiya qurilgan bo`lib, biri (quvvati 1450 kVt, 5 dizel`) tramvayni tok bilan ta`minlash, ikkinchisi (Pavlov elektr stantsiyasi, quvvati 125 kVt ) shaxarni yoritish uchun ishlatilgan. 1913 yilda O`zbekiston xududida umumiy quvvati 3 MVt chamasida bo`lgan 6 kichik dizel` elektr stantsiyasi bo`lgan, yillik elektr energiyasi xosil qilish 3,3 mln.kVt.s ga etgan.

O`tgan asrning 20-yillarida O`zbekistonda issiqlik energetikasi dizel` va mayda bug` turbinali elektr stantsiyalarini qurish yo`nalishida rivojlandi. Dizel` elektr stantsiyalar umumiy maqsadlarda xamda issiqlik energiyasiga extiyoji bo`lmagan paxta zavodlari, nasos stantsiyalari, kanallar va boshqa korxonalar qoshida qurildi, dastlabki bug` turbinali elektr stantsiyalari Farg`ona va Kattaqo`rg`on yog`-moy zavodlarida barpo etildi. Farg`ona yog`-moy zavodining «SHarq tongi» issiqlik elektr markazi (IEM)umumiy maqsadlardagi elektr stantsiyasi bo`lgan birinchi IEM dir.

1934 yil 25 sentyabrda O`zbekiston energitika tizimining tashkiliy asosi – «O`zbekenergiya» energetikasi boshqarmasi, Energetika va elektrlashtirish vazirligi tuzildi.

30-yillar boshidan CHirchiq-Bo`zsuv GES lar kaskadi barpo etildi. O`zbekistonda birinchi gidroelektrstantsiyasi – Bo`zsuv GES shu traktda qurilib, 1926 yilda ishga tushirilgan edi. CHirchiq – Bo`zsuv gidroenergetika qurilishi tez sur`atlar bilan davom ettirilib, 1926 yildan 1940 yilga qadar mazkur trakt gidroelektrstantsiyalarida 67 ming kVt generator quvvatlari ishga tushirildi.

O`zbekiston Energetika va elektrlashtirish vazirligi tarkibida loyixa, qurilish-montaj, sozlash, ta`mirlash va ishlatish tashkilotlarining to`la majmua energetika tizimining ishonchli ishlashini va istiqbol taraqqiyotini ta`minlaydi. O`zbekiston energetika tizimi xozir respublika xalq xo`jaligi va axolisining elektr energiyasiga bo`lgan extiyojlarini to`la ta`minlamoqda va elektr energiyasi qisman qo`shni davlatlarga eksport qilmoqda. 2002 yilda O`zbekistonda 56,0 mlrd. kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

YOqilg`i sanoati. Respublikada yoqilg`i energetika sanoati er qa`rida topilgan va qazib olinayotgan ko`mir, neft`, tabiiy gaz konlari negizida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 ga yaqin neft`-gaz koni ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provintsiyasida, 27 tasi Farg`ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Konlarning gaz, gaz-kondensatli tulari mavjud. Xozir 71 neft`, gaz va gaz-kondensat konlari, 2 ko`mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft`, gaz va gaz-kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo`yilgan.

YOqilg`i sanoati respublika yoqilg`i - energetika majmuaning asosiy tarmog`ini tashkil etadi va barcha yoqilg`ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va

etkazib berish, neft' maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlariga xizmat ko'rsatadi. Yirik korxonalar Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Respublika sanoat maxsulotining umumiy xajmida yoqilg'i-energetika majmuasi maxsulotlari salmoqli o'rin tutadi (1980 yilda 8,8%).

Respublika sanoatida band bo'lgan ishchi-xizmatchilar (sanoat ishlab chiqarishi xodimlari)ning 6%i yoqilg'i sanoati tarmoqlarida ishlashmoqda (80 ming nafardan ortiq). Respublikada 1992 yilda yoqilg'i sanoatida qazib olingan yoqilg'i (shartli yoqilg'i – 7000 kilokaloriya xisobida) umumiy xajmida neftning xissasi 8,3 % ni, gazning xissasi 87,3% ni, ko'mir xissasi 4,4% ni tashkil etgan. Ko'kdumaloq neft'-gaz kondensat koni ochilishi va ishga tushirilishi bilan neft' sanoatining yoqilg'i sanoati majmuadagi mavqei ortib bormoqda. (6.2-jadval).

Gaz sanoati - yoqilg'i energetika majmuasining eng rivojlangan tarmog'i. Uning respublikada qazib olinayotgan yoqilg'i balansidagi xissasi 87,2% ni tashkil etadi. Neft' bilan yo'ldosh tarzda uchraydigan tabiiy gazni qazib olish ikkinchi jaxon urushidan oldingi yillardan boshlangan.

5.2.3-jadval

O'zbekistonda neft' va gaz qazib olish xajmining o'sishi

	1960 y.	1980 y.	1990 y.	2000y.	2006 y.	2010 y.
Neft' (gaz kondensati b-n birga), ming t.	1603,0	2005,3	1805,4	8500,0	9000,0	6596
Gaz.mln.m ³	446,6	42094	4504,6	5500,0	5750,0	5984,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Keyingi yillarda ko'rilgan keskin tadbirlar natijasida neft' (gaz va kondensati birga) qazib olish xajmi yuqori sur'atlarda o'sdi. Respublikaning neft' mustaqilligi ta'minlandi. Neft' gazidan sanoat maqsadlarida foydalanish uchun 15 km. uzunlikdagi birinchi gazoprovod «Andijonsanoat» Andijon shaxri o'rtasida qurilgan. Gazni aloxida sanoat usulida chiqarib olish o'tgan asrning 50-60 - yillarida boshlandi. Gaz qazib olish sanoati joylashgan asosiy tumanlar – Buxoro va Qashqadaryo, shuningdek, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari xamda Qoraqalpog'iston Respublikasidir.

Ko'mir sanoati. O'zbekistonda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930 yillar oxiridan boshlangan. Toshkent viloyati Oxangaron vodiysida Angren ko'mir, Surxondaryo viloyatida SHarg'un, Boysuntog' toshko'mir konlari bor.

1990 yilda 10,4 mln. t. ko'mir qazib chiqarildi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaydi. 2004 yilda respublikamizda 2700 ming t. ko'mir qazib olindi. Angren va YAngi Angren GRESlari to'la qattiq yoqilg'iga o'tkazilishi bilan respublikaning ko'mirga bo'lgan extiyoji ormoqda.

Metallurgiya sanoati. O'zbekiston erlarida rudadan metall olish 4 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli bezak buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudali metallar – qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan.

Qora metallurgiya soxasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxona Bekobod shaxridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya

maxsulotlarining eng muxim turlari (po`lat, cho`yan, po`lat quvurlar va po`lat prokat) ishlab chiqariladi, temir-tersak, metall chiqindilari eritiladi.

Rangli metallurgiya – respublika metallurgiya sanoatining etakchi tarmog`i. Bu soxa maxalliy mineral xom ashyo resurslari negizida o`tgan asrning 30-yillaridan rivojlandi. Respublikada rangli kamyob va qimmatli metallar (oltin, mis, qo`rg`oshin, rux, vol`fram, molibden, simob va boshqalar) konlari, Qoramozor mis qo`rg`oshin-rux koni, Obiraxmat, Burchimulla, Oqtuz, Takob, Ingichka, Qo`ytosh mis konlari va boshqalar topilib, ular sanoat miqyosida o`zlashtirilishi bilan rangli metallurgiya sanoati shakllandi va respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo`yicha jaxonda oldingi o`rinlardan birini egallagan mamlakatga aylandi.

Respublikada 2007 yilda rangli metallurgiya maxsulotlari ishlab chiqarish indeksining o`sishi 5,0%ni tashkil etib, 2003 yildagi pasayish ko`rsatkichlarini qoplatdi. Jaxon bozorida rangli metallarga bo`lgan narxlarning o`zgarishi mazkur soxada o`sishga sabab bo`ldi. Qora metallurgiyada ishlab chiqarishning o`sish sur`atlari ichki va tashqi bozorda maxsulotlarga bo`lgan talab ortishi bilan uzviy bog`liq. Birgina 2004 yilda qora va rangli metallarni eksport qilish 74,4%ga ortdi.

Kimyo sanoati respublika iqtisodiyotida muxim o`rinni egallaydi. O`zbekiston kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomdagi maxsulot ishlab chiqariladi. Mamlakat sanoat maxsulotlari umumiy xajmda kimyo sanoati korxonalari maxsulotlari xissasi 4,6% ni tashkil etadi. Respublika kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko`mir, oltingugurt, turli minerallar, oxaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallar, paxta va kanopni qayta ishlash chiqindilaridan xom ashyo tarzida foydalaniladi. O`zbekiston kimyo sanoatida ishlatiladigan xom ashyoning asosiy qismi (70%ga yaqini yoki 650 dan ortiq turdagi maxsulot) xamda extiyot qismlar va asbob-uskunalar chetdan olib kelinadi (Rossiyadan toluol, yog`och tsellyulozasi, kaustik soda, Qozog`istondan fosforitlar va boshqalar). Ayni paytda kimyo sanoati maxsulotlari (mineral o`g`itlar, kaprolaktam, kimyoviy tolalar xamda iplar, sintetik ammiak, lak-bo`yoqlar va boshqalar) eksport qilinadi.

Mashinasozlik sanoati. O`zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalari XX asr boshlarida vujudga keldi. Dastlabki paytlarda O`zbekistonda metallga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik ta`mirlash ustaxonalaridan iborat edi. Ularda temir yo`l, paxta tozolash va yog` zavodlarining ta`mirlash ishlari bajarilardi. Qishloq xo`jaligiga kerak paxta terish mashinasi, kul`tivator, traktor ishlab chiqilgan. O`zbekistonda mashinasozlik sanoatining muxim tarmog`i xisoblangan yangi avtomobilsozlik–avtomobillar (Asaka avtomobil` zavodi), ularning dvigatellari (Toshkent motor zavodi), avtomobillarga extiyot qismlar, turli jixozlar va boshqa asboblari ishlab chiqarish respublika mustaqillika erishganidan keyin shakllana boshladi. O`zbekistondagi bir necha avtomobil` tuzatish zavodlari, engil mashinalarga xizmat ko`rsatadigan «O`zavtotexxizmat», «O`zavtoVAZxizmat» ishlab chiqarish birlashmalari korxonalar, tashkilotlar va avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatib kelgan. Asakada engil avtomobillar, Samarqandda yo`lovchi va yuk avtomobillari chiqarilmoqda.

Respublika mashinasozlik tarmog`i ishlab chiqarishi 2010 yilda 34,5% ortdi. Bunday yuqori sur`atlardagi o`sishga avtomobilsozlik maxsulotlariga talab ortishi xisobiga erishildi. Engil avtomobillar ishlab chiqarish 72,6%ga, ularning eksporti umumiy ishlab chiqarish xajmida 52%ga ortdi. Asosiy iste`mol bozori MDX

mamlakatlari bozorlari xisoblanib, ularning xisobiga jami eksport qilingan avtomobillarning 97%i to'g'ri keldi. Televizor, kondetsioner, muzlatkich kabi tovarlar ishlab chiqarish xajmi ortdi. Masalan, 2003 yilda 14770 dona rangli televizor ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 53345 taga etdi yoki 3,6 marta ko'paydi.

5.3. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni

Sotsialistik davlatlarda milliy boylik butun jamiyatniki, ya'ni davlat va kooperativ tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan. U xalq manfaatlariga xizmat qilib, jamiyat a'zolarining tobora oshib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga sarflanishi mo'ljallangan edi.

Biroq yagona davlat rejasi asosida rivojlanish ittifoqdosh respublikalar va xududlar milliy boyligi xalq uchun emas, balki umumittifoq mexnat taqsimotini xisobga olib o'tkazildi. Oqibatda ayrim respublikalar, xususan, O'zbekiston xam xom ashyoga ixtisoslashgan xududga aylanib qoldi. SHunga qaramasdan, respublika xududida bu davr mobaynida foydali qazilmalarni o'rganish va ulardan xalq xo'jaligida foydalanishda sezilarli ishlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimizda strategik soxalarni rivojlantirishning asosi xisoblangan – uran, oltin, mis, neft', tabiiy gaz va boshqa ko'plab tabiiy boyliklar mavjud.

Milliy boylikni rivojlantirishda O'zbekiston o'tgan asrning 30-yillari oxirida boshqa respublikalar qatori o'z tarmoqlarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Lekin, ikkinchi jaxon urushi boshlanishi tufayli respublika iqtisodiyotini qisqa muddatlarda xarbiy izga ko'chirishga majbur bo'ldi. Barcha milliy boylik urush ehtiyojini qondirishga safarbar etildi.

Respublikamizga frontga yaqin xududlardan zavod va fabrikalar ko'chirib keltirildi va tez fursatlarda ishga tushurildi. Urush yillarida elektroenergetika, kimyo sanoati, rangli metallurgiya, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlari rivojlanishi milliy boylik xajmini oshirdi. Mamlakatimiz tez orada ko'p tarmoqli industrial va qishloq xo'jaligi rivojlangan respublikaga aylandi.

Toshkentga yirik samolyotsozlik zavodlaridan biri joylashtirildi. U hozirgi «IL-76» transport samolyoti ishlab chiqaradigan MDXdagi birdan bir korxonadir. Mashinasozlik va metallurgiya korxonalari orasida «Bekobod metallurgiya kombinati», «Toshkent traktor zavodi» ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zbekqishloqmash», «Toshqishloqmash», «CHirchiqqishloqmash», «Toshkimyoqishloqmash» zavodlari barpo etilib, butun ittifoq iqtisodiyotiga xizmat kilgan.

O'zbekistonda mineral xom ashyo bazasi mavjudligi 60 – 80 yillar mobaynida respublika xalq xo'jaligining muxim tarmoqlarini, ayniqsa, gaz, oltin va uran ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metalaurgiya, ruda bo'lmagan xom ashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi.

Respublikada topilgan konlar orasida Olmaliq va Navoiy tog'-metallurgiya kombinati, Angren kimyo - metallurgiya zavodi, plavik shpat korxonalari, Ingichka va Ko'ytash boshqarmalari, Muruntov tog'-metallurgiya kompleksi, gaz, neft',

betonit, pardozlash toshlari, turli qurilish materiallari, biryuza, grafit chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar ishga tushirildi.

Xozirgacha respublikada 90 xil xom ashyo bazasi ochilgan. 650 ta sanoat miqyosidagi va 500 istiqboldagi tog`-kon sanoati korxonalari, gaz va neft` korxonalari, shaxtalar, kar`erlar, yirik suv inshootlari ishlab chiqarishining yillik xajmi 120 million tonnani tashkil etadi. Birgina 2010 yilda 60111,5 million kubometr tabiiy gaz, 2017,9 million tonna neft` qazib chiqarildi. Bir kecha-kunduzda 2500 ming kubometr er osti suvlari olinmoqda.

O`zbekiston xududida strategik ahamiyatga ega bo`lgan uran, oltin mis, rux, vol`fram, molibden, flyuorit, shuningdek, alyuminiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltingugurt, osh tuzi, kaliy, fosfor va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o`ta chidamli xom ashyolar, bentonit, marmar va boshqa bezak toshlari, uncha qimmat bo`lmagan pardozlash toshlarining (biryuza, oniks, xoltседon, ametist va boshqalar) ulkan zaxiralari mavjud. YOqilg`i resurslari bo`yicha esa ko`mir, tabiiy gaz va neft` konlari ochilgan bo`lishiga qaramasdan, respublikaga chetdan mineral xom ashyolar tashib keltirilishi jiddiy iqtisodiy sarf-xarajatlarga xamda transport balansining asossiz ravishda kuchaytirilishiga olib keldi.

Respublikada topilgan konlar orasida Olmaliq tog`-kon metallurgiya va Bekobod metallurgiya kombinatlarida xom ashyoni qazib olish, boyitish va ikkilamchi metallni qayta ishlash yo`lga ko`yilgan. Angren, Olmaliq kon sanoati asosan xududda joylashgan rangli metallurgiya, mis olish, qiyin eriydigan va o`tga chidamli metallar, oltin ishlab chiqarishni o`z ichiga oladi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati sobiq SSSRning bu tarmoqdagi eng yirik korxonasi edi. U O`zbekiston tasarrufiga olingandan so`ng respublika iqtisodiyotiga barakali ulush qo`shib kelmoqda. Respublikada aniklangan vol`fram rudalari va molibden konlari negizida CHirchiq shaxrida «O`zbekistonda qiyin eriydigan va o`tga chidamli metallar» kombinati ishlab turibdi.

Respublika metallurgiya sanoati barcha sanoat maxsuloti xajmining 10 foizidan ko`prog`ini ishlab chiqarmoqda. Konlar foydalanishga topshirilishi respublikaning ayrim xududlari iqtisodiyotini o`zgartirib yubordi. YAngi tog` sanoat komplekslari bunyod qilindi.

Angren, Olmaliq, Zarafshon, Uchquduq konlari esa tog` va bo`z erlarning sanoat jixatidan o`zlashtirilishiga asosiy omil bo`ldi. Xozirgi davrga kelib, aniqlangan milliy boylik manbalarida ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, uran, ko`rg`oshin, rux, vol`fram, molibden, litiy, alyuminiy xom ashyosi xamda boshqa nodir metallar va foydali qazilmalarning katta zaxiralari bor. SHuni e`tiborga olganda respublika metallurgiya sanoatining umumiy sanoat maxsuloti xajmidagi xissasi bundan buyon xam ortib boradi. Respublika tassarrufiga metallurgiya majmuasi olinishining boisi shundaki, birinchi galda rangli va asil metallardan ishlab chiqarilgan maxsulotlar jaxon bozorida kamyob maxsulotlar jumlasiga kiradi va eksportni rivojlantirishning muxim sharti xamda mamlakat valyuta zaxirasini oshirishning asosi bo`lib xizmat kiladi.

Muxim strategik ob`ektlar O`zbekiston tasarrufiga olinishi tufayli bu korxonalar jaxonning ko`pgina davlatlari (AKSH, Kanada, Avstraliya, va YAponiya) bilan iqtisodiy aloqalar o`rnatdi, jaxondagi mashxur firmalar – «N`yumon», «Moribeni», «Mitsibisi», «Bridj-stoun», «Katerpillar», «SHell»,

«Spektra anolitika instruments», «Nukem», «Xitachi», «Nissa Ivai» va boshqalar bilan uzoq muddatga mo'ljallangan xamkorlik rishtalari bog'langan. «N'yumont Mayning korporeyshin» firmasi bilan xamkorlikda vujudga kelgan «Zarafshon – N'yumont» korxonasi Muruntov kar'eri chiqindilaridan 100 tonna oltin ishlab chiqardi.

5.4. O'zbekistonning neft' mustaqilligi asoslari

Buxoro – Xiva neft'-gaz rayonlari ochilishi munosabati bilan neft' zaxiralariga ega konlar yana beshtaga ortdi. Lekin bu konlar 1961 – 1965 yillarda atigi 306,7 ming tonna neft' berdi, Farg'ona vodiysidagi 15 ta kondan 7 mln. 516 ming tonna, Surxondaryo viloyatidagi 3 ta kondan 1 mln. 29,3 ming tonna va Buxoro-Xiva neft'-gaz viloyatidagi 5 ta kondan bor-yo'g'i 306,7 tonna neft' qazib olindi. SHu tariqa, respublikada qazib olingan neft' 1924 yilda 5,6, 1940 yilda 119, 1958 yilda 1297, 1961 yilda 1709 va 1965 yilda 1800 ming tonnani tashkil qildi. Keyingi besh yilda respublikada neft' ishlab chiqarish keskin kamaydi. 1965 yilda tashqaridan neft' olib kelish 1962 yildagiga qaraganda 1,7 baravar oshgan edi.

Ushbu yillarda respublikada neft' mustaqilligi zaiflashishiga avvalo bu xududdagi ikkita neftni qayta ishlash zavodining maxalliy neft' bilan ta'minlanishining pasayishi, etmagan xom ashyo /arbiy Turkmanistondan keltirilishi, keltirilgan neftning narxi Farg'ona va Buxoro neftidan ikki baravar yuqoriligi sabab edi. Bu, albatta, neftni qayta ishlash zavodlarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatardi.

To'g'ri, O'zbekistonda neft' qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoati yangidan barpo etildi va rivojlandi. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda yangi neft' konlari izlab topildi va ishga tushirildi. 1970 yilda O'zbekistonda 1672 ming t. neft' qazib chiqarildi. Bu sobiq SSSRda qazib olingan neftning 5% ini tashkil etardi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda 80 dan ortiq turli (yuqori zaxiraga ega kategoriyali) neft'-gaz konlari topildi. Farg'ona, Surxondaryo, Buxoro-Xiva, Ustyurt kabi neft'-gaz konlari, xavzalari va viloyatlari kashf etildi. Buxoro-Xiva viloyatida Gazli, Kogon, Muborak, Dengizko'l rayonlari bilan birga yangi konlar ochildi va ochilish arafasida. O'zbekistonda neft' konlari asosan yura, bo'r, paleogen va neogen davri cho'kindi jinslarining xar xil qatlamlarida qatnashgan va joylashgan.

Neftning fizik xossasi uning tarkibiga bog'liq. Tarkibida 87% gacha uglevodorod, 10 – 15%gacha vodorod, 0,05 – 05, ba'zan 5%gacha kislorod, juda oz miqdorda vanadiy, fosfor, kaliy, nikel', temir uchraydi. Dunyo miqyosida qazib olinayotgan barcha neftlarda oltingugurt mikdori, odatda, 1%dan ortiq. Surxondaryo vodiysida qazib olinayotgan paleogen neftlari, ayniksa, oltingugurtga boy (3,1-6,3%).

Respublikada qazib olinadigan neftdan XIX asrning 2-yarmigacha faqat kerosin olinib, qolgani chiqindiga chiqarib tashlanardi. Ichki yonuv dvigatellarining ixtiro etilishi va texnik taraqqiyot benzinga bo'lgan talabni oshirdi.

Neftdan dastlab kerosin, benzin, dizel' yoqilg'isi, keyinchalik esa sintetik tolalar, 100dan ortiq kimyoviy xom ashyo va o'g'itlar olina boshlandi.

Birgina 1965 – 1970 yillar davomida Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlarida benzin ishlab chiqarish 13, kerosin ishlab chiqarish 21, dizel' yonilg'isi ishlab chiqarish 81, moylash yog'lari olish 59 va mazut ishlab chiqarish 64%ga oshdi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish davrida neft' resurslaridan oqilona foydalanish, chuqur qayta ishlashga asoslangan xolda yangi maxsulotlar ishlab chiqarish keng miqyosda o'zlashtirilmoqda. 1991 – 2002 yillarda bu soxani boshqarish strukturasi va texnik jixozlash, neft' qazishni takkomillashtirish tufayli neft' va gaz ishlab chiqarish xajmi oshdi. Natijada 1995 yilda respublikaga neft' chetdan import qilinmadi va O'zbekiston neft' mustaqilliligiga erishdi. Bu mustaqillik sobiq SSSR tarkibidagi boshqa respublikalarda iqtisod chuqur inqirozga uchragan, ya'ni iqtisodiy aloqalar va savdo aloqalari uzilgan, narxlar oshgan va inflyatsiya zo'raygan davrga to'g'ri keldi.

Neft' mustaqilligiga erishishda «Muborakneftgaz» davlat korxonasi geologlari, parmalovchilari, quruvchilarining xissasi ayniqsa katta bo'ldi. CHunki bu korxonada mustaqillik yillarida 15 neft'-gaz va 14 gazokondensat konlaridan juda katta miqdorda maxsulot qazib olindi. CHunonchi, 2000 yilda 3743,7 tonna neft', 2475 ming tonna kondensat ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2002 yilda tayyorlangan neft' 3600,0, kondensat esa 2430 ming tonnaga etdi. Bu, respublikada qazib olingan neft' va kondensatning 90% dan ko'pini tashkil qiladi. Bundan tashqari, bu korxona 2000 yilda 34164 va 2002 yilda 36000 mln m³ tabiiy gaz qazib oldi va iste'molchilarga etqazib berdi, 2002 yilda Turkmaniston Respublikasiga 240 ming t. neft' sotdi, qolgan tovar maxsulotlarni Muborak (MGPZ), Buxoro (Qoravulbozor) va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodilariga va gaz uzatish boshqarmasiga topshirdi.

O'zbekistonda neft' mustaqilligi mustaxkamlanishiga asosan 1997 yilda «Ko'kdumaloq» konida gaz yuqori bosimda neft' konlariga xaydalangani, Buxoroda 2,5 mln. tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega zavod ishga tushirilishi asos bo'ldi. To'g'ri, keyinchalik neft' konlarida zaxiralar kamayishi mumkin. Ammo kelajakda asosan gazokondensat quduqlar xisobiga neft' mustaqilligini saqlash imkoni bor.

Respublikamizda neft' qazib chiqarish asosan neft' atrofida joylashgan suv yoki gaz bosimini oshirish, qatlam g'avaklaridagi neftni quduq zoboyiga yig'ish usuli bilan amalga oshiriladi. Suv bosimi, odatda, boshlang'ich neft' zaxirasining 50 – 80%ini, gaz esa atigi 20 – 50% ini siqib chiqaradi. Biroq, tashqaridan berilayotgan suv qazib chiqarilayotgan neftning o'rnini to'la egallay olmaganligidan bosim kamayib ketadi. Natijada neftning favvora bo'lib tabiiy otilishi tugaydi. SHundan keyin neft' kompressor yordamida chiqariladi. Aynan 1997 yilda «Ko'kdumaloq» konida ishga tushirilgan (yo'llari bosimi 50 atm.) kompressor stantsiyasi ushbu ishni boshqargan va u gazkondensat qazib olish xajmini ko'paytirishga imkon bermoqda.

Neftni kompressor bilan chiqarishda quduqqa gaz yoki xavo xaydaladi, ular neftga aralashib, zichligini kamaytiradi, natijada neft' va gaz aralashmasining soxta

quduq yuzasigacha ko'tarilib, neftning favvora bo'lib otilishi davom etadi. O'zbekistonda neft' quduqlardan nasoslar yordamida xam olinadi.

Qatlam bosimi uzluksiz pasaya borishi natijasida quduq debiti tushishi neft' chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi. Neft' konlarini ishga solish, ayniksa, er osti gidrodinamikasi rivojlanishi natijasida neft' chiqarishning yangi usullari yaratildi. Ular yordamida neft' qatlamlariga suv yoki gaz xaydash yo'li bilan qatlam bosimini butun ekspluatatsiya mobaynida birday ushlab turish mumkin.

Bu yutuqlarga asosan 1992 yilda neft' soxasida uchta strategik va asosiy tomoyillarni bajarish asosida erishildi:

- neft' va gaz qazib olishni kuchaytirish va respublikaning neft' mustaqiligini ta'minlash uchun Ko'kdumaloq, Alan Urga, Janubiy Tandırchi va boshqa konlarda katta ishlar bajarildi;

- neft' va gazni qayta ishlash texnologiyasini chuqurlashtirish va ularning sifati xalqaro standart va talablarga javob berishini ta'minlash uchun 1997 yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodini ishga tushirish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlash va yangi texnologiya kompleksi – gidrotsesul'fizatsiya uskunasining o'rnatilishi asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Yangi texnologik uskunarlar ishga tushirilishi natijasida tozalangan maxsulot xajmini kupaytirish imkoni yaratildi. Respublikada neftni qayta ishlash sanoati rivojlandi va og'ir industriyaning neftni qayta ishlovchi xamda neft' maxsulotlari tayyorlovchi soxasiga aylandi.

O'zbekiston neft' mustaqilligi va ekologiya borasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarishi kelajakda yoqilg'i-energetika soxasida ilmiy-texnikaviy va ekologik siyosat olib borish jarayonida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga bog'liq. Mazkur chora-tadbirlar neft' maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarning energiya sarfini kamaytiruvchi texnika va texnologiyani joriy qilishda xuquqiy va iqtisodiy muxitni barpo etish, neft' resurslari samaradorligini oshirish, zaxiralarini ko'paytiradigan innovatsiya texnologiyalari iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha investitsiyalarni shakllantirish va rag'batlantirishdan iborat. Bu esa, neft' mustaqilligi davomiyligini ta'minlashga asos bo'ladi.

6-MAVZU. QISHLOQ XO'JALIGINING XUDUDIIY IXTISOSLASHUVI

6.1. Agrosanoat majmui rivojlanishining asoslari

Agrosanoat majmui (ASM) – qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan band bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining jamlanmasidir. ASMga kiruvchi tarmoqlarning barchasi pirovard natijada muxim vazifani – mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

ASM tarkibida uchta soxa ajralib turadi:

- qishloq xo'jaligi va unga aloqador tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari etkazib beradigan, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab-chiqarish, texnika

xizmati ko'rsatadigan sanoat tarmoqlari (masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi);

- qishloq xo'jaligining o'zi;
- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish (tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish, sotish) bilan band bo'lgan tarmoqlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu infratuzilmani rivojlantirish mamlakat axolisi extiyojini qondirish bilan bir qatorda uning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Mustaqillik yillarida ASMda juda ko'p yutuqlarga erishish bilan birga muayyan, kamchiliklarga xam yo'l qo'yildi, iqtisodiy isloxotlar jarayonida yangi muammolar xam yuzaga chiqdi. Endigi vazifa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini, muammolarni chuqur taxlil qilib, ularning echimini topishdan iborat. Agrar sektorning bundan keyingi rivojlanishida quyidagi muammolarga e'tibor berish zarur:

- ❖ mustaqillik yillaridagi faoliyatni kuzatish shuni ko'rsatadiki, barcha bo'g'nlarda kadrlar yangicha ishlashga, bozor munosabatlariga to'liq moslasha olmayotirlar. Bu, ayniqsa, tumanlar va xo'jaliklar miqyosida ko'proq ko'zga tashlanmoqda. To'g'ri, xar yili kadrlar o'quvi o'tkazilmoqda, ammo aksariyat raxbar kadrlar ish yuritishni bozor munosabatlari asosida emas, balki, eskicha – ma'muriy-buyruqbozlik asosida olib borishmoqda;
- ❖ agrar soxa uchun muxim bo'lgan ekologiya masalalari isloxot jarayonidan birmuncha chetda qolmoqda. Vaxolanki, bu muammo o'ziga e'tiborni talab qiladi. Bugungi kunda tuproq unumdorligining pasayib borishi, og'ir texnika va samarasi past texnologiyalar qo'llanilayotganligi oqibatida tuproq tarkibining buzilishi, sho'rlanish darajasining ortib borishi shundan dalolat bermoqda. SHuningdek, axolini ekologik toza oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash masalasi xam aloxida e'tiborni talab qiladi;
- ❖ ba'zi iqtisodchilar, qishloq xo'jaligida isloxotlarni qo'shimcha mablag' sarflamasdan olib borish mumkin, degan fikrni ilgari surmoqdalar. Ularning fikriga qo'shilish qiyin. Negaki, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qarasak, ularning ko'pchiligida bu boradagi ko'rsatkich fermerlar daromadining 40 – 50 va xattoki 60 %ini tashkil qiladi. SHuni xisobga olib, agrar soxani qo'llab-quvvatlash fondini tashkil qilish va uning mablag'i qishloq axolisining ijtimoiy xayoti, ekologik muvozanatni saqlash, moddiy-texnika bazasini mustaxkamlashga qaratilishi zarur;
- ❖ qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxotlarni yanada chuqurlashtirish moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. CHunki, xo'jaliklar to'g'ridan-to'g'ri kredit olishlari nixoyatda murakkab, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlar xajmi kamayib ketishi natijasida ularning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va yangilab borish imkoniyatlari chegaralanib qolmoqda. Albatta, lizing tizimining tuzilishi bu muammoni biroz engillashtiradi, ammo u barcha turdagi asosiy vositalarni qamrab olmagan;
- ❖ qishloq xo'jaligining moddiy ta'minoti, texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlanishi bugungi kun talablari darajasida

emas, moddiy-texnika resurslarining narxi qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxiga nisbatan bir necha barobar yuqori va tez oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligi uchun kerakli sanoat mollariga narx belgilashni xam tartibga solish lozim. Qishloq xo'jaligi korxonalariga servis xizmati ko'rsatish talab darajasida emas, shuningdek, xizmat xaqklarining baxosi nixoyatda yuqori;

- ❖ o'zlari qabul qilgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari uchun tayyorlov tashkilotlari vaqtida xaq to'lamayotganligi natijasida xo'jaliklarning moliyaviy xolati og'irlashmoqda, buning ustiga inflyatsiya og'irligi xam butunlay qishloq xo'jaligi korxonalari elkasiga tushmoqda;
- ❖ qishloq xo'jaligini qiyin axvoldan olib chiqish uchun qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha soxalar unga o'z yordamini ko'rsatishi zarur. SHundagina ular qishloq xo'jaligidan arzon va sifatli xom ashyo oladilar, o'z navbatida, qishloq ularning maxsulotlari uchun muxim bozor vazifasini bajaradi;
- ❖ xozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni kechmoqda, endilikda bu jarayonda agrar sektorni boshqarishdan uni tartibga solishga o'tish, narx-navoni erkinlashtirish bilan birga uni davlat tomonidan tartibga solish taqozo etiladi. SHuni xisobga olib, qishloq xo'jaligi maxsulotlarining pastki va yuqorigi narxlari chegarasini davlat tomonidan nazorat qilish tizimini yaratish zarur.

Iqtisodiy isloxotlar O'zbekistonda birinchi navbatda, agrar sektorda boshlandi. Buning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor, chunki axolining 60% dan ko'prog'i, ish bilan band axolining 44%i qishloq joylarda yashab, mexnat qilmoqda, YAIMning 30%i, valyuta tushumining 55%i, tovar maxsulot almashinuvinig 70 %i, oziq-ovqat maxsulotlarining 90%i agrar sektor xissasiga to'g'ri keladi.

1991 yilning 11 yanvarida mamlakatdagi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha tadbirlar belgilandi. Prezident ko'rsatmasi asosida yana 1 mln. 221 ming 477 oilaga sug'oriladigan paxta dalalaridan 137 ming 246 gektar er qo'shimcha tomorqa sifatida bo'lib berildi. Bunday amaliy g'amxo'rlik g'ayrat- shijoatli odamlar xarakatiga qanot bag'ishladi.

SHaxsiy yordamchi va tomorqa xo'jaliklari uyushmasi tashkil etilishi lozim. Keyinchalik esa shu asosda dexqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi yuzaga keladi, ya'ni shaxsiy yordamchi xo'jaliklar zamirida dexqon va fermer xo'jaliklari shakllanadi. Ularni imtiyozli soliqqa tortish, o'z maxsulotlarini eksport qilishi uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, xo'jalik a'zolarini nafaqa va pensiya bilan ta'minlashga doir tartiblar joriy etiladi.

Iqtisodiyotimizning tayanchiga aylanib borayotgan minglab dexqon va fermer xo'jaliklari faoliyati bu tarmoqning istiqboli biz o'ylagandan ko'ra porloq ekanidan dalolat beradi. Uning tarixi esa, shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga, 1989 yilning yozida davlatimiz raxbari uzoqni ko'zlab boshlagan keng ko'lamli ishlarga borib taqaladi.

Mulkchilikning barcha shakllariga, shaxsiy tashabbus va xususiy tadbirkorlikka o'sha murakkab davrda asos solingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 260 mingdan ortiq mikrofirma, kichik va o`rta korxonalar tashkil etilib, 3 mln.dan ziyod dexqon-fermer xo`jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ular qishloq xo`jaligi yalpi maxsulotining 78 %ini berishmoqda.

Keyingi paytda mamlakatimizda xususiy mulkni qishloq joylarda qaror toptirish, uni rivojlantirish va ximoya qilish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo`jaligida isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muxim yo`nalishlari to`g`risida»gi Farmoni va Vazirlar Maxkamasining «2003 – 2004 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to`g`risida», «Xususiylashtirilgan korxonalarining koorparativ boshqarmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarorlari alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan ushbu xujjatlar zahirida yurtboshimizning «Ko`p ukldli iqtisodiyotni shakllantirish va unda xususiy mulk etakchi o`rin egallashini ta`minlash zarur» degan g`oyasi yotadi.

Bu g`oya esa, chuqur ilmiy va xayotiy muloxazalardan kelib chiqqan bo`lib, milliy iqtisodiyotimizning agrosanoat majmuidagi mulkiy tuzilishni o`zgartirishni ko`zda tutadi.

Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalardan biri «Toshkent traktor zavodi» davlat aktsiyadorlik birlashmasi sanaladi. Bu erda ishlar bir maromda bormoqda. Xorij sarmoyasini jalb etish ishlari ikki yo`nalishda davom ettirilayapti. Avvalo, bu «Keys-N`yu-Xolland» firmasining universal xaydov traktorlariga butlovchi qismlar ishlab chiqarish bo`yicha bo`lsa, keyingisi Xitoy krediti asosida mini traktorlar tayyorlashdir. Bunday mitti texnikalarni dexqon va fermer xamda shirkat xo`jalikariga, shu bilan birga tomorqa egalariga etkazib berish mo`ljallanmoqda.

Raqamlarning mag`zini chaqishga, ular zahirida yashiringan mexnat maromini ilg`ashga xarakat qilinmoqda. Masalan, yangi asrning dastlabki yilida korxona 2966 ta traktor, 1033 ta aravaka ishlab chiqardi. Xo`sh, bu ozmi yo ko`p? Agar uni 2000 yildagi natijaga taqqoslaydigan bo`lsak, ko`p. Qishloq xo`jaligidagi extiyojimizni nazarda tutadigan bo`lsak, oz. Albatta, xech bir xarakat bejiz ketmaganidek, ishlab chiqarish bo`g`inidagi biror uzilish o`z ta`sirini sezdirmay, yangi muammo tug`dirmay qolmaydi. Gap faqat texnika vositalarini butlash uchun ayrim qismlar taqchilligidagina emas, balki ana shu texnikaga muxtoj bo`lgan xo`jaliklarning to`lov qobiliyati pastligi bilan xam bog`liq.

«O`zqishloqxo`jalikmashxolding» kompaniyasiga qarashli bir qancha korxonalarda eksport imkoniyatlaridan etarli foydanilmayapti. Achinarli tomoni ularda maxsulot eksporti bo`yicha aniq belgilangan dasturning o`zi yo`q. YAna bir tang soxa: korxonalarda aktsiyalarni sotish qoniqarsiz axvoldaligidir. Bunday kamchiliklar yurtimiz iqtisodiy saloxiyatini oshirish yo`lidagi intilishlarimizga to`liq bo`ladi.

Boy tabiiy resurslarga ega bo`lgan O`zbekistonimiz zaminida qishloq xo`jaligi maxsulotlari mo`l-ko`lligini ta`minlash orqali cheksiz imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Xamma gap ana shu imkoniyatlarni ko`ra bilishda, ulardan oqilona foydalanishda. Biz so`z yuritayotgan kompaniya raxbarlari bu ma`suliyatni yanada chuqurroq xis etishlari zarur. Prezidentimiz yuritayotgan iqtisodiy siyosat talablari, xalqimiz kutayotgan umidlar ana shuni xis etib ishlashni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti qishloq xo`jaligi infratuzilmasidagi barcha bo`g`imlarda xisob-kitob bilan ishlashni taqozo etadi. Biz so`z yuritgan xar ikkala korxona mulk

shakli jixatidan xam, xo`jaliklararo munosabatlar nuqtai nazaridan xam bozorning o`ziga xos talablarini xisobga olgan xolda tuzilgan. Maqsad ichki imkoniyatlarimizni ishga solish xisobiga import o`rnini bosuvchi maxsulotlarni ko`paytirish, eksport salohiyatini oshirish va lizing xizmatini rivojlantirishga qaratilgan. Endilikda nafaqat texnika, ayni paytda ana shu texnika jilovi qo`lida bo`lgan kompaniyalar xam dexqonning qudratli qanotiga aylanmog`i lozim.

Rivojlangan xorij davlatlari xalq xo`jaligida lizing xizmatining aloxida o`rni bor. O`tgan asrnig 40 – 50 yillaridan boshlab, Amerikada ilk bor joriy etilgan bu xizmat turi ayni paytda jaxonning ko`plab mamlakatlarida keng qo`llanilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o`zgarishlar mazkur xizmat turini joriy etish masalasini taqozo etdi. Ko`p mablag` sarflamasdan ishlab chiqarish vositalarini yangilash, zamonaviy texnikaga ega bo`lish uning afzalliklaridan biridir.

Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 30 oktyabrdagi qaroriga ko`ra, respublikamiz qishloq xo`jaligini zamonaviy texnika bilan ta`minlash va tarmoq mashinasozligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «O`zqishloqxo`jalikmashlizing» kompaniyasi tashkil etildi. Kompaniya o`z faoliyatini boshlagan 2000 yildayoq lizing asosida tarmoqqa 700 mln. so`mlik 471 dona texnika etkazib berdi. O`sha paytda texnikaga bo`lgan talabning yuqoriligi lizing xajmi oshirilishini taqozo qilardi. Buning uchun past foizli, yirik miqdordagi kredit mablag`larini jalb etish, mashinasozlik zavodlari bilan kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish, xisob-kitob mexanizimini takomillashtirish, xo`jaliklarga imtiyozlar berish zarur edi. Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi qarori ushbu muammolarni xal etishga qaratildi.

O`tgan yillar lizing kompaniyasi uchun shakllanish, ya`ni oyoqqa turish davri bo`ldi. Ishni to`la yo`lga qo`yish va lizing xizmatini keng miqyosda amaliyotga kiritish uchun bir qancha masalalar bosqichma-bosqich xal etiladi.

Ma`lumki, kompaniya respublikamiz lizing bozorida faoliyat ko`rsatayotgan eng katta tashkilotdir. 2007 yili kompaniyaning joylardagi 13 ta filiali orqali 2339 ta traktor, 100 ta «Keys – 2002» rusumli paxta terish mashinasi va 494ta turli xil texnika vositalari shirkat va fermer xo`jaliklariga etkazib berildi.

Kompaniyaning moliya bozoridagi faoliyati u malakatimiz iqtisodiyotida aloxida o`ringa ega ekanligini ko`rsatdi. Birinchidan, qishloq xo`jaligining lizingga berish soxasi joriy etildi. Ikkinchidan, mulk shaklidan qat`i nazar tarmoqdagi jamoalar davlatning g`amxo`rligini sezishdi. Lizing xizmati joriy etilgach, odamlar ish bilan ta`minlandi va ishlab chiqarish samaradorligi oshdi. YAna bir ahamiyatli tomoni shundaki, qishloq xo`jaligi mashinasozligi korxonalari xam jonlandi.

Lizing kompaniyasi ayni paytda o`z mijozlariga berilayotgan texnika qiymatining 15%ni oldindan to`lashni taklif qilib, ularga katta qulaylik yaratdi. Lekin texnikaning to`liq qiymati to`langunga qadar u kompaniya mulki xisoblanadi. SHu bois lizingga olingan texnikadan samarali foydalanish va uning to`g`ri ishlatilishini nazorat qilish nafaqat mijozning, balki kompaniyaning xam bevosita faoliyatiga kiradi.

Lizing xizmati fermerlar uchun katta imkoniyat yaratdi. Xozir yangi tartibda texnika oluvchilarning uchdan bir qismini fermerlar tashkil qilmoqda. Ma`lumki, ilgari fermer biror-bir texnika vositasi uchun shirkat xo`jaligi yoki MTPga murojat

qilardi. Bu unga ortiqcha tashvish keltirar, ya'ni qo'shimcha xarajat qilishga to'g'ri kelardi. Bugun esa mazkur xizmat tufayli o'z mashina-traktor parkini tuzatayotgan fermerlar xam ko'p. Texnikalarning lizing asosida berilishi raqobat kuchayishiga, xizmat sifati yaxshilanishi va etishtirilayotgan maxsulot tannarxi pasayishiga olib kelmoqda.

Ba'zida lizingga texnika ololmayotgan, xattoki dastlabki badal pulini to'lagan bo'lsada, bu ish cho'zilayotgan xollarga duch kelamiz. Buning sababi esa kompaniyaning joylardagi bo'limlari mijozlarini texnika bilan o'z vaqtida ta'minlay olmayotganliklaridadir. Afsuski, bunday xollar, kam bo'lsa-da, uchrab turibdi.

Ushbu masalaga aniqlik kiritish maqsadida lizing kompaniyasiga murojaat etdik. U erdagi mutaxassislar muammo jiddiy ekanligini, masalaning bir tomoni Moliya vazirligi xuzuridagi qishloq xo'jaligiga texnikalar etkazib berishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga borib taqalishini aytishdi. Demak, jamg'arma mutasaddilari bu borada dexqonlarga madadkor bo'lish choralarini ishlab chiqishlari lozim.

6.2. Agrar siyosatdagi ustuvorliklar

Yirik tarmoq bo'lmish qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston milliy xavfsizlikni ta'minlash, turli qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan, texnik ekinlar o'stirish uchun juda qulay, xududda joylashgan, paxta etishtirish bo'yicha dunyoda (AQSH, Xindiston, Xitoy, va Pokistondan keyin) 5, uni eksport qilish bo'yicha 2-o'rinda. O'rta Osiyoda etishtiriladigan jami paxta xajmining 75%i O'zbekiston xissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, respublikada xar yili 5 million tonnadan ko'proq sabzavot va meva etishtiriladi. O'zbek qorako'l terilariga va pillasiga jaxon bozorida talab katta.

Qishloq xo'jaligi axolini oziq-ovqat maxsulotlari, sanoatning turli tarmoqlarini esa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Mamlakat axolisining 63%i qishloqlarda yashaydi. Axolining ancha qismi shu soxada mehnat qiladi. Mamlakat ichki maxsulotining 28%i qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri keladi. Paxta etishtiriladigan maydonlarning deyarli xammasi sug'oriladigan erlardir. Bu erlarda qudratli irrigatsiya tizimi mavjud.

Mustaqilik yillarida o'tkazilgan isloxotlar davomida qishloqda yangi xo'jalik tuzilmasi shakllandi. Erga bo'lgan mulkchilik jarayoni kuchaydi. Bu agrar siyosatdagi eng muxim masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muxim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-sonli Farmoni agrar soxada tub o'zgarish ufqlarini belgilab berdi. Mazkur xujjatda iqtisodiy isloxotlarning xozirgi bosqichida past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklari tashkil etish ustuvor yo'nalish deb qayd etildi.

SHuni aytish kerakki, keyingi yillarda 159 ta shirkat xo'jaligi tugatilib, ularning negizida 9 mingdan ortiq fermer xo'jaligi tashkil qilindi. Jumladan,

Mexnatobod, Mirzaobod, YOziyovon, Romiton va Amudaryo tumanlari xo`jaliklari to`liq tugatilib, fermer xo`jaliklariga aylantirildi.

Tajriba shuni ko`rsatadiki, xatto zarar bilan ishlayotgan jamoa xo`jaliklari xam fermer xo`jaliklariga aylantirilsa, ularda ishlab chiqarish rivojlanadi, moddiy resurslar tejaladi, moliyaviy axvol yaxshilanadi. Fermer xo`jaliklariga o`z rivoji jarayonida erkin iqtisodiy faoliyat yuritish uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilgan:

- er maydonlari tanlov asosida 50 yilgacha muddat va meros qoldirish xuquqi bilan ijaraga beriladi;
- berilgan er maydonlari shirkat xo`jaliklari balansidan chiqariladi;
- yollanma xodimlar, shu jumladan, oila a`zolari o`rtasidagi mexnat munosabatlari, mexnat qonunchiligiga muvofiq, mexnat shartnomalariga asoslanadi.

Xozirda Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar xokimliklari bilan birgalikda agrar siyosatning ustuvorligi mujassamlashgan, fermer xo`jaliklarining 2003 – 2010 yillarga mo`ljallangan rivojlanish kontseptsiyasi yaratilmoqda. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirishning shu muddatga mo`ljallangan kompleks dasturi esa tayyorlandi.

YAqin yillarda maxalliy sharoitlarni, qishloq xo`jaligi erlarini, mexnat va suv resurslarining axvoli xamda xo`jaliklar qayta tashkil etilishi natijasida bo`shab qolgan xodimlarni ish bilan ta`minlash istiqbollari chuqur taxlil qilish asosida viloyat va tumanlar bo`yicha xo`jaliklarni rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqish ustidagi ishlar davom ettiriladi.

Agrar siyosatda tilga olingan ustuvorliklar ijrosi aniq belgilangan reja asosida barcha bo`g`inlarda isloxoatlarning moxiyatini anglagan xolda olib boriladi. Bu esa milliy xavfsizlikni ta`minlashda asosiy omil bo`ladi.

6.3. Kredit – qishloq xo`jaligi ravnaqida muxim omil sifatida

Qishlok xo`jaligi moddiy ishlab chikarishning asosiy tarmog`i bo`lib, sanoatning ko`plab tarmoqlarini xom ashyo bilan ta`minlash xamda respublika eksport saloxiyati va valyuta tushumining muxim manbasi xisoblanadi. SHu bois mamlakatimiz Prezidenti va xukumati mazkur soxani rivojlantirishga jiddiy e`tibor karatmoqda. Ayniqsa, YUrtboshimizning «O`zbekiston o`z taraqqiyotini fermerlik rivojida ko`radi va bu borada dunyoning ilg`or mamlakatlari erishgan yutuklarga tayanadi» degan fikrlari soxa taraqqiyotida dasturilamal vazifasini o`tamoqda.

Bir so`z bilan aytganda, fermerlarga qator imtiyozlar berilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqda, me`yoriy-xuquqiy baza tobora takomillashtirib borilmoqda.

Qishloq xo`jaligidagi asosiy tadbirkorlik sub`ektlari, ya`ni fermer xo`jaliklarini rivojlantirish yo`li bilan iste`mol bozorini sifatli qishloq xo`jaligi, oziq-ovqat va engil sanoat maxsulotlari bilan to`ldirish, axoliga ish o`rinlari yaratish orqali iqtisodiyotimizni jadal yuksaltirish imkoniga ega bo`lamiz. SHuning uchun kichik biznes, shu jumladan, dexqon va fermer xo`jaliklarini rivojlantirish xukumatimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan isloxoatlarning ustuvor yo`nalishiga aylandi.

Vazirlar Maxkamasining «Davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, ayniqsa, fermer xo'jaliklari rolini oshirish, ularda mulkdan jalb etiladigan mablag'lardan samarali foydalanish uchun iktisodiy javobgarlik xissini shakllantirishda muxim axmiyat kasb etdi. Ushbu qarorga ko'ra, Buxoro, Farg'ona, Namangan va Xorazm viloyatlaridagi fermer xo'jaliklarining davlat extiyojlari uchun paxta va g'alla etishtirish bo'yicha xarajatlarini tayyorlov korxonalarini orqali bo'naklash mexanizmi o'rniga ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari orqali to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmi ishlab chiqildi. Bu mexanizm 2003 yil xosilidan boshlab tajriba sifatida sinab ko'rildi.

Davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar qaytmaslik xatarining oldini olish yoki garovni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash, ish xaqi to'lovlari, mineral o'g'it, kimyoviy preparatlar, polietilen plyonka, yonilg'i-moylash maxsulotlari sotib olish, mashina-traktor parklari, shu jumladan, muqobil MTPlar, kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash, elektr quvvati, yagona er solig'i va boshqa xarajatlar to'lovi (xosilni yig'ib olish bo'yicha xizmatlarni qo'shgan xolda) uchun maqsadli kreditlar ajratish yo'lga qo'yildi.

Taxlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yangi kreditlash mexanizmiga o'tilgach, salmoqli natijalarga erishgan fermer xo'jaliklari soni to'rtala viloyatda xam ancha ko'paydi.

Fermerlarga ajratilgan to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar samarasini ular rejadagiga nisbatan ortiqcha daromad olganligida xam yaqqol ko'rish mumkin. Pirovardida, 2009 yil 1 oktyabr' xolatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan davlat extiyojlari uchun g'alla xosili etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga berilgan kredit mablag'lari yakuniy xisob-kitoblarga ajratilgan mablag'lar xisobidan to'liq qaytarildi.

Respublikamizda paxta va don maxsulotlariga davlat buyurtmalari joriy etilishi esa bir tomondan, fermerlarning maxsulotlariga barqaror talabni vujudga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, etishtirilajak g'alla va paxta xom ashyosi qiymatining 50 %i miqdorida oldindan bo'nak puli olish imkonini yaratdi.

Yangi mexanizmning oldingi uslubdan yana bir qulay tomoni bor. Davlat extiyojlari uchun sotiladigan paxta xom ashyosi va g'alla etishtiruvchi fermerlarga to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kredit berilishi ular uchun extiyoj sezilgan xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va mablag'larni mustaqil ravishda tasarruf etish imkonini berdi.

Fermerlik rivoji qishloqda yangicha bozor infratuzilmasi yaratilishini takozo etadi. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan ishlar xususida to'xtalib o'tganda shuni ta'kidlash kerakki, Prezidentimiz Vazirlar Maxkamasining 2004 yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasida qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmalarini yaratish va ular tomonidan, ayniqsa, fermerlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash muxim ahamiyat kasb etishini aloxida ta'kidlagan edi. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo'jaliklariga moddiy-texnik resurslar etkazib beruvchi, maxsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashadigan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini

shakllantirish, bank, axborot-maslahat markazlari xamda fermerlar manfaatlarini ximoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Davlat bu yo'l bilan fermerlikning rivojini bevosita qo'llab-quvvatlaydi.

Xususan, davlat extiyojlari uchun maxsulot etishtirayotgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini to'liq ta'minlash, bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari raxbarlari va mutaxassislarini tayyorlash, qishloqda fermer xo'jaliklarining extiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning «2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Maxkamasi tomonidan «2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi» ishlab chiqildi. Bu xujjatda esa er-suv munosabatlari, fermerlarni moliyalashtirish va kreditlash tizimi, ularning moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, maxsulotni tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimi xamda mexnat munosabatlarini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash masalalarini 2006 yilgacha bosqichma-bosqich bajarish belgilab berildi.

Qarorga ko'ra, shuningdek, 2004 – 2006 yillarda zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklaridan 1020 tasi fermer xo'jaliklariga aylantiriladi. YAngidan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklariga bank xizmatlari ko'rsatish, qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga asosan, shu muddat mobaynida 701 ta, jumladan, joriy yilning o'zida 178 ta mini bank tashkil etilishi belgilandi. E'tiborlisi, xududlarda tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklariga joylarda joriy yilning o'tgan 4 oyi mobaynida xar tomonlama qulay bo'lgan 180 ta mini bank tashkil etildi.

Iqtisodiy munosabatlarning yaxlit, mukammal tizimini barpo etish yuzaga kelayotgan muammolarni izchil va o'z vaqtida echishni talab etadi. Bu borada Markaziy bank tomonidan bir talay ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash bo'yicha 2003 yilda 4 viloyatda orttirilgan tajribalar asosida «Fermer xo'jaliklarining davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan maxsulotlar xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi Nizom» ishlab chiqildi. Bu me'yoriy xujjatda qishloq xo'jaligi mulkdorlaridan yil davomida olingan takliflar e'tiborda tutildi, shu asosda ularga bir qator qulayliklar va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur Nizomga muvofiq Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari muntazam berib kelinmoqda. Respublikamizning qolgan 5 ta viloyatida esa ushbu mexanizm keyingi yildan boshlab joriy etiladi. *

Kredit mabalag'lari ajratishda bunday uzluksiz jarayonning ta'minlanishi mamalkatimizda fermerlik xarakatini yanada rivojlantirishda muxim omil bo'ladi.

* Кредит: фермерлик равнакида муҳим омил. – Халқ сўзи, 2004йил, 2 июнь.

6.4. Fermer xo'jaliklarining mintaqaviy xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini islox qilish uchun bozor iqtisodi talablari asosida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy ishlab chiqarish vositasi – erlar o'z egalari: dexqon va fermerlarga berilib, mulkchilik shakllari o'zgartirdi, dexqon va fermerlar uyushmalari tuzilib, maxsulotlarni etishtirish va esport qilish ishlari batamom yangi yo'lga qo'yildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston xukumati tomonidan dexqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha xuquqiy va normativ xujjatlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Fermer va dexqon xo'jaliklari to'g'risida»gi (30.04.1998 y, № 605. 1-sonli) Qonuni va Vazirlar Maxkamasining bu qonunni xayotga tatbiq qilish bo'yicha qator qarorlari ular orasida aloxida o'rin tutadi. Ularga ko'ra, erlarni o'z egasi - dexqon va fermerlarga berib, fizik-kimyoviy tarkibini yaxshilash va unumdorligini oshirish choralari belgilandi, fermerlarga shuningdek, ixtiyoridagi erdan umrbod foydalanish xuquqi berildi. O'zbekistonda 2000 yil 1 noyabrda dexqon va fermer xo'jaliklari soni 41743 ta bo'lgan bo'lsa, 2001 yilning shu davriga kelib, bu ko'rsatkich 55208 taga etdi.

Respublikada dexqonchilik uchun zarur mashinalar tizimi yaratildi, ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba stantsiyalari, tayanch punktlari tarmoqlari rivojlantirildi, qishloq xo'jaligini malakali mutaxassislar bilan ta'minlaydigan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil etildi.

O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ilmiy ishlab chiqarish markazining 17 ilmiy-tadqiqot instituti, ularning 12 ta filiali, 15 ta tayanch punkti, 9 ta eksperimental bazasi va 50 ga yaqin boshqa bo'limlarida qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va agrosanoat majmuining turli soxalarida nazariy va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, fan yutuqlari ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Respublikada Toshkent davlat agrar universiteti, Andijon, Samarqand qishloq xo'jaligi, Qarshi agrar-iqtisodiyot, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutlari, qator kollejlari ishlab turibdi. Respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini qishloq xo'jaligi ixtisosliklari bo'yicha xar yili 5 mingdan ortiq oliy ma'lumotli, 12 mingdan ziyod o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar bitirib chiqmoqda.

Respublikada qishloq xo'jaligi soxasidagi umumiy siyosatni respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi amalga oshiradi. Davlat boshqaruvining quyi bo'g'ini bo'lgan tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari jamoa xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari, shirkatlar uyushmalari ijara xo'jaliklarida umumiy raxbarlikni olib boradi. Ixtisoslashuviga ko'ra, bog'dorchilik, tokchilik, ayrim issiqxona xo'jaliklari mustaqil «O'zmevasabzovotuzumsanoatxolding» xolding kompaniyasiga qaraydi. Ayrim tarmoqlarga raxbarlikni amalga oshirish uchun Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «O'zbekqorako'l», «O'zbek ipagi», «O'zparrandasanoat», «Asal» kabi respublika ishlab chiqarish uyushmalari tashkil etilgan.

O'zbekiston xududi qishloq xo'jaligi jixatidan 3 mintaqaga bo'linadi: tog' va tog' oldi mintaqasi respublika xududining 20 % dan ortiqrog'ini tashkil etadi. Asosan lalmikor dexqonchilik (bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir), bog'dorchilik va tokchilik taraqqiy etgan bu mintaqada baxorgi-kuzgi mavsumiy yaylovlar bor, chorvachiligi go'sht-jun etishtirishga ixtisoslashgan. Sug'orma dexqonchilik mintaqasi respublika xududining qariyb 20 % ini tashkil etadi. Bu mintaqaga Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Dalvarzin cho'li, Chirchiq-Oxangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon-Sherobod vodiylari, xamda Quyi Amudaryoni o'z ichiga oladi. Unda asosan paxta, shuningdek, kanop, don (bug'doy, makkajo'xori, sholi), kartoshka, sabzovot-poliz maxsulotlari (qovun, tarvuz, qovoq), em-xashak ekinlari (beda, sudano't, perko va boshqa) etishtiriladi. Bog' va tokzorlar, tutzorlar, rezavor meva maydonlari bor, go'sht-sut chorvachiligi rivojlangan.

Cho'l-yaylov mintaqasi respublika xududining 50 % ni tashkil etadi, asosan cho'l va suvsiz tekisliklardan iborat, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'istonda va Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan er davlat mulki xisoblanadi. Davlat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar va xo'jaliklarga, shuningdek, fuqarolarga muddatsiz yoki vaqtinchalik foydalanish uchun er ajratib beradi.

Davlat va er fondi er egaligi yoki erdan foydalanuvchilar xududdagi barcha erlar – xaydalma erlar, daraxtzor, yaylov, pichanzor, o'rmon, qo'riq er, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan erlardan iborat.

Bugungi kunda erlarning meliorativ xolatini yaxshilash unumdorligini oshirish qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish va uning samaradorligini yuksaltirishning muxim rezervi va xal qiluvchi omili eng asosiysi - qishloq axolisining moddiy farovonligini ko'tarishning zarur sharti va garovi bo'lib xizmat qiladi. Biz mazkur muammoni xal etishni ko'p jixatdan, 2008-2012 yillarga mo'ljallangan sug'oriladigan erlarning meliorativ xolatini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturini amalga oshirish bilan bog'liq xolda ko'ramiz. Ushbu dasturda melioratsiya inshootlarini barpo etish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash melioratsiya texnikasi parkini yangilash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni bajarish belgilangan 2008-2012 yillarda umumiy uzunligi 3,5 ming kilometrdan ziyod bo'lgan magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlarni, mingdan ortiq melioratsiya qudug'ini barpo etish va rekonstruktsiya qilish 7,6 ming kilometrlik drenaj tarmog'ini qayta tiklash vazifasi qo'yilmoqda. Birgina joriy yilning o'zida erlarning meliorativ xolatini yaxshilash bo'yicha katta xajmdagi ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadlar uchun 75 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratish mo'ljallanmoqda. Bu mablag'larning katta qismi kollektor-drenaj tarmoqlarini qayta tiklash va tozalash, pudratchi va suv xo'jaligi tashkilotlarini lizing asosida zamonaviy texnika bilan ta'minlashga yo'naltiriladi¹².

Qishloq xo'jaligining istiqboldagi taraqqiyoti uchun quyidagi ustuvorliklar belgilangan:

12 I.A.Karimov "Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha isloxot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir". 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

1. Fermer xo'jaligining keyingi rivoji. Ishlab chiqarishning rentabelligini oshirish xamda fermer xo'jaligi daromadi darajasini quyidagilar xisobidan ko'tarish:

Xosildorlik past erlarda davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi maxsulotini etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat ko'magini ko'rsatish;

Meva-sabzavotchilik xamda chorvachilikni yanada rivojlantirish;

bozor infrastrukturasini bozor ob'ektlarini kengaytirishni takomillashtirish;

joylarda qishloq xo'jaligi o'simliklarini, birinchi navbatda, meva-sabzavot va chorvachi-ik rayonlarida, o'simliklar joylashuvini optimillashtirish;

2. Xam qishloq xo'jaligi maxsulotini etishtiruvchilar, xam tayyorlov korxonalari tomonidan shartnoma majburiyatlarni bajarish uchun javobgarlikni kuchaytirish xamda to'lov tartiblarini mustaxkamlash. Ayrim fermer xo'jaliklarining raxbarlari tayyorlov xamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan tuzgan shartnoma majburiyatlarni qo'pol tarzda buzilishiga yo'l qo'yadilar. Fors-major xolatlarining oldini olish, yuzaga kelgan taqdirda esa fermerlarni ximoyalash maqsadida, sug'urta tashkilotlarining ishlarini kuchaytirish, shuniigdek, shartnoma-xuquqiy va moliya iqtisodiy bilimlarni oshirish uchun o'quv mashg'ulotlari nazarda tutilgan.

3. Qishloqda ishlab chiqarish xamda bozor infrastrukturasini faoliyatini kengaytirish va yaxshilash. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini o'z vaqtida moddiy-texnik resurslar bilan ta'min etish va ularga servis yordam berish uchun etarlicha miqdorda ishlab chiqarish va bozor infrastrukturasini yaratish ko'zda tutilgan. Ishlab chiqarish ob'ektlari xamda bozor infrastrukturasini fermer xo'jaliklariga yaqinroqda joylashgan bo'lishi xamda barcha zarur xizmatlarni ta'min etishi kerak. Bundan tashqari, minimal ustama xarajatlar bilan taqdim etiladigan xizmat sifatini yaxshilash zarur.

4. CHorvachilik xamda naslchilikni keyingi rivojlanishi:

- chorvachilikning em-xashak bazasini mustaxkamlash, jumladan kombikorm sanoatini rivojlantirish xisobiga;
- naslchilik ishini takomillashtirish (sun'iy yo'l bilan ko'paytirish xajmlarini kengaytirish, zotdor mol keltirish, naslchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash);
- zooveterinar xamda boshqa servis xizmatlarini rivojlantirish.

5. Seleksiya va urug'chilikni rivojlantirish:

- qishloq xo'jaligi o'simliklarining seleksiyasi xamda urug'chilik ilmiy-ishlab chiqarish bazasini mustaxkamlash;
- paxta va don urug'chiligi bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklarini tanlov asosida tanlab olishni kuchaytirish;
- poliz sabzavotlari o'simligi urug'chiligini rivojlantirish;
- reza mevalarning turli kasalliklar, zararkunandalar, noqulay yil sharoitlariga chidamli yuqori xosildor navlarini ishlab chiqarish xamda tatbiq etish.

6.5. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishi va erishilgan natijalar

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muxim tarmog'i xisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat axolisining oziq-ovqat maxsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat

maxsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat maxsulotlari va kayta ishlash sanoatiga xomashyo etkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar maxsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib xam xisoblanadi.


2011 yilda mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotining 17,1 foizi qishloq xo'jaligi xissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz axolisining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. SHu jixatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muxim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Endi, ruxsatingiz bilan, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlarimizning natijalari xaqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. Bu xaqida gapirganda, avvalo, murakkab ob-xavo va iqlim sharoiti tufayli vujudga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan, qishloq mehnatkashlarining fidokorona mehnati xisobidan 2011yili eng muxim qishloq xo'jalik maxsulotlari davlat xaridi bo'yicha shartnoma majburiyatlari nafaqat bajarilgani, balki ortig'i bilan bajarilganini ta'kidlash o'rinlidir.

Islom Karimov

Mustaqillik yillarida muxtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita raxnomoligida qishloq xo'jaligini islox qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. CHeklangan er va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy isloxotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda.



6.5.1-rasm. Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, (foizda).

O'tgan 2005-2011 yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi maxsulotining o'rtacha yillik barqaror o'sish sur'atlari dinamikasig ta'minlandi. Xususan, bu ko'rsatkich 2005 yilda 105,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 106,6 foizga teng bo'ldi. Mamlakat yalpi ichki maxsulotida qishloq xo'jaligi yalpi maxsuloti salmog'ining 2005 yildagi 26,3 foizdan 2011 yilda 17,1 foizga pasayishi ijobiy

xoldir. Bu avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izoxlanadi.


YUrtimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish xajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini, urug'chilik-selektsiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda o'tgan yili 6 million 800 ming tonna g'alla, 3 million 500 ming tonnaga yaqin paxta, 8 million 200 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz, qariyb 3 million tonna bog'dorchilik maxsulotlari etishtirildi. Shu bilan birga, 6 million 600 ming tonna sut, 1 million 500 ming tonnadan ortig' go'sht, 3 milliard 500 million donadan ziyod tuxum tayyorlandi.

Islom Karimov

Buning samarasi o'laroq, 1990-2011 yillarda don etishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobar, uzum 1,3 barobardan ziyod, go'sht (tirik vaznda) 1,9 barobarga, sut 2 barobardan va tuxum 2,4 barobardan ko'proq oshganligi fikrimizning dalilidir.

SHuni aloxida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi maxsulotlari xajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar xosildorligi va chorva mollari maxsuldorligini oshirish xisobidan ta'minlanmoqda.



6.5.2-rasm. O'zbekistonda asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligining o'zgarish dinamikasi, tsentner xisobidan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, o'tgan 20 yildan ortiqroq davr mobaynida asosiy turdagi ekinlarning xosildorligi muttasil o'sib borish sur'atiga ega bo'lgan. Xususan, 2010 yilda 1990 yilga nisbatan paxta xosildorligi gektariga 22,6 tsentnerdan 25,6 tsentnerga yoki 113,3 foizga, donli ekinlar xosildorligi 20,2 tsentnerdan 44,2 tsentnerga yoki 218,8 foizga, kartoshka xosildorligi 80 tsentnerdan 194,9 tsentnerga yoki 243,6 foizga, sabzavot xosildorligi 192,0

tsentnerdan 252,5 tsentnerga yoki 131,5 foiz ga va poliz xosildorligi 115 tsentnerdan 192,6 tsentnerga yoki 167,5 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 1990 yilda respublikamiz axolisi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht maxsulotlarining 50 foizi, sut va sut maxsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo'lsa, xozirda mamlakatimizda oziq-ovqat masulotlari etishtirishning barqarorligi xisobidan axolining asosiy iste'mol ma'sulotlariga bo'lgan extiyoji deyarli yuz foiz o'z ishlab chiqarishimiz xisobidan ta'minlanmoqda. Jumladan, agar 1991 yilda axoli jon boshiga nisbatan 24,0 kg meva, 24,0 kg uzum, 138,6 kg sabzavot, 15,1 kg kartoshka va 39,0 kg poliz maxsulotlari etishtirilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib axoli jon boshiga 60,1 kg meva (250,4 foiz), 35,1 kg uzum (146,2 foiz), 225 kg sabzavot (162,3 foiz), 60,5 kg kartoshka (400,6 foiz) va 42,0 kg poliz maxsulotlari (107,6 foiz) etishtirildi.

6.5.3-jadval

O'zbekistonda axoli jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg

Maxsulotlar turi	1991 yil	2011 yil	2011 yil 1991 yilga nisbatan, foiz da
Meva	24,0	60,1	250,4
Uzum	24,0	35,1	146,2
Sabzavot	138,6	225,0	162,3
Kartoshka	15,1	60,5	400,6
Poliz	39,0	42,0	107,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Mustaqillik yillarida agrar soxada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil isloxotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlarini iste'mol qilish miqdori barqaror o'sib bordi. Jumladan, 2011 yilda 1991 yilga nisbatan axoli jon boshiga go'sht maxsulotlari iste'mol qilish 31 kg.dan 38 kilogramm yoki 122,6 foizga, sut maxsulotlari 183 kilogrammdan 239 kilogrammga yoki 130,3 foizga, tuxum 97 donadan 138 donaga yoki 142,3 foizga oshgan.

6.6. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxotlarning ustuvor yo'nalishlari

Respublikamiz qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan iqtisodiy isloxotlarning borishini taxlil etish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mulkiy va tarkibiy isloxotlar;
- erdan foydalanish borasidagi isloxotlar;
- suv va suvdan foydalanish munosabatlaridagi isloxotlar;
- moliya-kredit, soliq va sug'urta soxasidagi isloxotlar;
- narx-navo tizimidagi isloxotlar.

Agrar soxada amalga oshirilayotgan **mulkiy-tarkibiy isloxotlarda** birinchi navbatda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, turli mulk shakllariga, eng avvalo xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga muxim e'tibor qaratildi. Iqtisodiy isloxlarning dastlabki bosqichlaridanoq zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarini bosqichma-bosqich tugatib, fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida yirik tarkibiy isloxtlar amalga oshirildi. Bu isloxtlar natijasida 1999-2007 yillarda jami 2102 ta istiqbolsiz shirkat xo'jaligi bosqichma-bosqich tugatilib, ularning negizida 158738 ta fermer xo'jaligi tashkil etilgan edi.

Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining er maydonlari xajmi maqbullashtirildi.

Bu jarayonda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini o'stirishga imkon yaratuvchi quyidagi omillar e'tiborga olindi:

- fermer xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan er maydonlaridan yaxlit konturlarda, yagona tartibda maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;
- fermer xo'jaliklarining qaysi soxaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli xududlaridagi axoli zichligini e'tiborga olish;
- suv va boshqa moddiy resurslarni tejaydigan yangi agrotexnologiyalarni qo'llashga qulay sharoit yaratish;
- yiriklashtirilgan fermer xo'jaliklarining kompleks mexanizatsiyalashuv borasidagi moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;
- zarar bilan ishlayotgan va o'zini oqlamayotgan kichik fermer xo'jaliklarining faoliyatiga barxam berish.

Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011 yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha er maydoni xajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan er maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lmoqda

Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jixatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Bu borada ayniqsa qulay moliya-kredit va soliq mexanizmlarini shakllantirish muxim o'rin tutadi. Isloxtlar davomida fermer xo'jaliklarini moliya-kredit va soliq mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning samarali tizimiga asos solindi:

- davlat extiyoji uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yo'lga qo'yildi;
- fermer xo'jaliklari uchun erlarning unumdorligiga bog'liq bo'lgan yagona er solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar joriy etildi;
- fermerlarga texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida etkazib berish tartibi joriy etildi;
- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi;

- ball boniteti past bo'lgan erlarda paxta va g'alla etishtiradigan fermer xo'jaliklarining zararini qoplash maqsadida ularga moliyaviy yordam berish tizimi joriy etildi;

- irrigatsiya va melioratsiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyotga tatbiq qilinadi.

Tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit siyosatida dexqon (yuridik shaxs maqomidagi) va fermer xo'jaliklari uchun bir qator imtiyozlar belgilangan bo'lib, ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:


- tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari xisobidan berilgan kreditlardan foydalangani uchun imtiyozli foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

- "Mikrokreditbank"ning mablag'lari xisobidan beriladigan, eng kam ish xaqining 200 barobarigacha bo'lgan boshlang'ich sarmoya uchun mikrokreditlar yillik 5 foizli stavkada, biznesni kengaytirish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun eng kam ish xaqining 500 barobarigacha mikrokreditlar Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

- yangi tashkil etilgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dexqon xo'jaliklariga eng kam ish xaqining 150 barobari, fermer xo'jaliklariga esa 300 barobari miqdorida boshlang'ich sarmoya uchun yillik 5 foizli imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yildi;

- davlat extiyoji uchun don va paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga beriladigan avans mablag'larining oldindan 3 foizli imtiyozli stavka bilan kredit tarzida berilishi yo'lga qo'yildi.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Davlat extiyojlari uchun etishtirilayotgan qishloq xo'jaligi maxsulotlari bilan xisob-kitob qilish jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2003-2011 yillarda respublikamizda davlat extiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar qiymati 2003 yildagi 309,1 milliard so'mdan 2011 yilda 1 598,8 milliard so'mga oshdi.



6.6.1-rasm. O'zbekistonda 2003-2011 yillarda davlat extiyojlari uchun paxta va g'alla etishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalariga ajratilgan imtiyozli kreditlar, million so'mda

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi tijorat kreditlari foiz stavkasidan 2-3 barobar past bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosatining natijasidir va fermerlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Soliqqa tortish va soliq to'lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining Farmoni bilan fermer xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan to'qqizta soliq turi o'rniga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalari uchun yagona er solig'i joriy qilingan bo'lib, u xar tomonlama qulaylikka ega. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo'jaligi sohasida **bir qator soliq va bojxona imtiyozlari** qo'llanadi:

- yangidan tashkil etilgan, paxta, g'alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa maxsulotlar etishtiradigan fermer xo'jaliklari 2 yil muddatga, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 5 yil muddatga yagona er solig'i to'lashdan ozod etildi;
- fermer o'z xisobidan o'zlashtirgan er uchun besh yil davomida yagona er solig'i to'lashdan ozod qilindi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi 304-sonli qaroriga asosan, xorijiy texnikalari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari xamda chet el texnikalar uchun extiyot qismlar olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq, chet ellardan chorva mollari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlaridan ozod etilgan.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida xarid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 10 yil muddat ichida to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda lizingdan foydalangani uchun yillik foiz to'lovlari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydigan qilib belgilandi.

Agrar soxada amalga oshirilayotgan **narx isloxoti** qishloq xo'jaligi maxsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo'naltirildi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi PF-3114-sonli farmoniga asosan, davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xomashyosining narxini jaxon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan xolda belgilash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq, 2009 yilda davlat byudjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo'yicha 20 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lashdan paxta tozalash korxonalari ozod etildi, natijada shu miqdorda fermerlarga paxta uchun to'lanadigan xarid narxlari oshirildi. SHu orqali davlatimiz tomonidan paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag'batlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, paxta tolasining ichki narxlarini jaxon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko'rilmoqda. SHu bilan birga, bugungi kunda jaxon bozorida paxta tolasi narxlarining birmuncha

yuqori ekanini inobatga olgan xolda, narx bo'yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2011 yil davomida fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan ijobiy farq summasi 403 315 million so'mni tashkil etdi. Bu xolat jaxon bozorida qulay kon'yuktura vujudga kelgan yillarda fermer xo'jaliklarining barqaror daromad olishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan xolda belgilash tizimi joriy etildi. Boshqa qishloq xo'jaligi maxsulotlarining narxleri bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan xolda, shartnoma asosida belgilanmoqda.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida xosildorligi past bo'lgan erlarda davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar ajratish amaliyotda qo'llanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabrdagi "Xosildorligi past erlarda davlat extiyoji uchun qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtirayotgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-725-sonli Qarorida fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida xosildorligi past bo'lgan erlarda davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratish, Moliya vazirligiga xar yili Davlat byudjeti loyixasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga er solig'i bo'yicha tushumlar xisobidan mablag'lar ajratish vazifasi yuklatildi.

Mazkur qarorga muvofiq, ball boniteti past erlarda davlat extiyojlari uchun paxta xomashyosi etishtirish bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar qiymati 2008 yildagi 60 milliard so'mdan 2012 yilda 160 milliard so'mga oshdi.



3.2.2-rasm. Xosildorligi past erlarda davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat byudjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati, milliard so'mda.

Ushbu mablag'lar fermerlarning xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi tashkilotlar oldidagi qarzlarini qisqartirishda salmoqli manba bo'lmoqda.

6.7. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. SHu munosabat bilan muxtaram Prezidentimiz tomonidan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi soxalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muxim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maxsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan "Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" da bayon etilgan. Ushbu kontsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011-2015 yillar mobaynida:

Ming afsuski, biz modernizatsiya deganda, ko'pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o'rganib qolganmiz. xolbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi kabi etakchi soxasini xam modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlab chiqarish soxalarining butun kompleksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta extiyoj sezilmoqda.

Islom Karimov

- qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish xajmini 1,3 marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki maxsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;
- qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnologiyalar, resurslarni tejaydigan usullarni joriy etish, seleksiya va urug'chilik tizimini rivojlantirish xisobidan ekinlar xosildorligini oshirishga erishiladi. Bunda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;
- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobari, kartoshka etishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzumni 1,3 barobar ko'paytirish;
- naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustaxkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiya natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobardan, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish;
- zooveterinariya punktlarini zamonaviy jixozlash, xizmatlar sifatini oshirish xisobidan chorva mollari sonini 1,3 barobar, go'sht va sut maxsulotlari ishlab chiqarish xajmini 1,3 marta oshirish;

- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga aloxida ahamiyat qaratib, parrandalar sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi maxsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash xajmini kengaytirish tadbirlari doirasida qishloqlarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash

korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni 1,7 barobar, go'sht konservalarini 2,2 barobar, kolbasa maxsulotlarini 1,8 barobar, sut maxsulotlarini 1,9 barobar oshirish;

- sug'oriladigan erlarning meliorativ xolatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari xisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyixalar xisobidan 1,4 million gektar er maydonining meliorativ xolatini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muxim prognoz vazifalari belgilangan.

Respublikamizda oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish yuzasidan jami 575 gektar er maydonlarida intensiv bog'lar barpo etildi. Bu bog'larda yuqori iste'mol xususiyatiga ega va serxosil bo'lgan mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Bunday bog'larning yaratilishi mamlakatimiz axolisini sifatli meva maxsulotlari bilan barqaror ta'minlash imkonini yaratadi. Birgina 2011 yilning kuzi va 2012 yilning baxorida jami 7661 gektar maydonda yangi mevali bog'lar, shundan 2110 gektar erga maydonga intensiv bog'lar barpo etish, 8518,8 gektar maydondagi bog'larni qayta ekish rekonstruksiya qilish belgilangan.

Mamlakatimiz axolisini meva va sabzavotlar bilan yil davomida bir me'yorda ta'minlab borish uchun keng tarmoqli sovetish kameralariga ega bo'lgan omborlar tizimini yaratish muxim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 7 apreldagi 105-sonli qaroriga muvofiq, axoli va tashqi bozorlarga yil davomida muntazam meva-sabzavotlarni sof xolda etkazib berish maqsadida 2011-2015 yillarda 120,8 ming tonna sig'imga ega yangi sovetish kameralarini qurish va 49,1 ming tonna sig'imga ega mavjud sovetish

Ayni paytda biz qishloq xo'jaligi sohasida birinchi navbatda, tuproq unumdorligini oshirish choralari ko'rish, barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, selektsiya va urug'chilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va raqobatlantirish bilan bog'liq, xali-beri ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini xam e'tirof etishimiz zarur.

Islom Karimov

Bu borada, avvalo, erlarning unumdorligini oshirishga aloxida e'tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, bu yo'nalishdagi ishlarning ko'lamini yil sayin kengayib borayotganiga qaramasdan, sug'oriladigan erlarning mavjud meliorativ xolati katta tashvish uyg'otmoqda.

xozirgi vaqtda yurtimizda jami sug'oriladigan erlarning qariyb 49 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, buning qariyb 18 foizi kuchli va o'rta darajada sho'rlangan yerlardir, 23 foizdan ortig'i esa boniteti past yerlar toifasiga kiradi.

Islom Karimov

kameralarini modernizatsiya qilish ko`zda tutilgan.

Qishloq xo`jaligida ekinlar xosildorligini muttasil yuksaltirish vazifasi birinchi navbatda sug`oriladigan erlarning unumdorligi va irrigatsiya-melioratsiya xolatiga bog`liq. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga ko`ra, o`rtacha sho`rlangan erlarda ekinlarning xosildorligi sho`rlanmagan erlarga nisbatan 50-60 foizga, o`ta sho`rlangan erlarda esa 90-100 foizga past bo`lishi aniqlangan.

O`tgan yillar davomida sug`oriladigan erlarning meliorativ xolatini yaxshilash tadbirlari xukumatimizning doimiy e`tiborida bo`lib keldi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi «Erlarni meliorativ xolatini yaxshilashning tizimlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PF-3932-sonli Farmoniga muvofiq, Sug`oriladigan erlarning meliorativ xolatini 2008-2012 yillarda yaxshilash bo`yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Dasturda meliorativ tizimlarni rivojlantirish va takomillashtirish xamda erlarning meliorativ xolatini yaxshilashga yo`naltirilgan quyidagi tadbirlar majmuasini amalga oshirish mo`ljallangan:

1. Magistral' va xo`jaliklararo zovurlar, meliorativ tik quduqlarni, meliorativ nasos stantsiyalarini qurish va qayta tiklash, yopiq-yotiq drenajlarni tiklash.
2. Meliorativ nasos stantsiyalarini, gidrotexnika va suv o`tkazuvchi inshootlarni va boshqa meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish.
3. Suv xo`jaligi qurilishi va suvdan foydalanish tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash.

63.1-jadval

Mamlakatimiz bo`yicha meliorativ tadbirlarlarga ajratilgan mablag`lar, milliard so`m

Tadbirlar nomi	Jami 2008-2011 yillarda	shu jumladan:			
		2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
Meliorativ ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish va qurish ishlariga	225,1	22,4	57,3	63,8	81,6
Meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash va tiklash ishlariga	222,9	38,6	48,1	59,2	77,0
Lizing asosida meliorativ texnikalar etkazib berishga	101,9	29,3	25,4	27,2	20,0
Jami	550,0	90,3	130,8	150,2	178,6

Sug`oriladigan erlarning meliorativ xolatini yaxshilashga qaratilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat byudjetidan mablag`lar ajratish ishlari davom ettirilmoqda. Jumladan, 2008 yilga bu maqsadlar uchun jami 90,3 milliard so`m ajratilgan bo`lsa, 2011 yilga kelib bu ko`rsatkich 178,6 milliard so`mga etdi. O`tgan 2008-2011 yillarda jami ajratilgan mablag`lar qiymati 550,0 milliard so`mni tashkil etdi.

2010 yilda yirik investitsiya loyixalarini

Biz erlarning meliorativ xolatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga yo`naltirilayotgan investitsiyalar xajmini bundan buyon xam ko`paytirib boramiz. Ayni paytda ushbu maqsadlar uchun yo`naltirilayotgan katta miqdordagi mablag`lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni maqsadli ishlatish, zamonaviy texnologiyalar va texnikani joriy etish borasidagi ishlarni xam tartibga solishimiz lozim.

amalgaga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikatsiya obektlari, qishloq xo'jaligi xamda meliorativ qurilishni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy soxani yangi bosqichga ko'tarish masalalari xukumatimizning diqqat markazida bo'ldi. Xozirgi kunda sug'oriladigan erlarning suv ta'minoti va meliorativ xolatini yaxshilash bo'yicha qiymati 561 million AQSH dollariga teng bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi 11 ta loyixa amalga oshirilmoqda. SHundan 2010 yilda qiymati 62,25 million AQSH dollari bo'lgan 9 ta, 2011 yilda esa qiymati 112,9 million AQSH dollariga teng bo'lgan 11 ta investitsion loyixa asosida erlarning suv ta'minoti va meliorativ xolatini yaxshilash bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirildi. Amalgaga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida 2006-2011 yillar davomida sho'rlanmagan maydonlar xajmi 2 109 ming gektardan 2 192 ming gektarga kengayib, kuchli sho'rlangan maydonlar xajmi 163 ming gektardan 126 ming gektarga qisqardi. Er osti sizot suvlari satxining chuqurligi 1,5 metrgacha bo'lgan maydonlar xajmi 2001-2011 yillar davomida 272 ming gektardan 177 ming gektarga qisqardi.

Sug'oriladigan erlardan foydalanish samaradorligini oshirishda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning ilg'or, zamonaviy usullarini joriy etishning axamiyati kata. CHunki, respublikamizdagi suv tanqisligi sharoitida sug'orishning zamonaviy usullarini qo'llash orqaligina axolining qishloq xo'jaligi maxsulotlariga tobora o'sib borayotgan extiyojini qondirish mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizning bir qator xududlarida ekinlarni sug'orishning yangi texnologiyalari sinovdan o'tmoqda va qo'llashga tavsiya etilmoqda. Birgina 2011 yilning o'zida 1571 gektar erga tomchilatib sug'orish texnologiyasi, 543 gektarga egatga polietilen plyonka to'shab sug'orish tizimi, 753 gektarga ko'chma va egiluvchan quvurlar orqali sug'orish tizimi joriy etilgani diqqatga sazovordir.

Muxtasar qilib aytganda, sug'oriladigan erlarning meliorativ xolatini yaxshilash borasida olib borilgan ishlar natijasida:

- sug'oriladigan erlarda er osti suvlari satxi va sho'rlanish darajasi pasayib, ekin maydonlarining meliorativ xolati yaxshilanmoqda;

- xo'jaliklarni suv bilan ta'minlash tizimi yaxshilanib bormoqda;

- qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligi ortib, xo'jaliklarining daromadlari yuksalmoqda.

Pirovard natijada erlarning unumdorligi, paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda tarmoqni yuqori unumli texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashning axamiyati beqiyosdir. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan xaydov va chopiq traktorlari xamda qishloq xo'jaligi mashinalarining katta qismi eskirib, o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgani sir emas. SHuningdek, bunday texnikalarning ish unumi, yoqilg'i sarflash me'yorlari zamonaviy talablarga javob bermasligi oqibatida qishloq xo'jaligi

Chopiq traktorlarining 55 foizdan ortig'i va er xaydaydigan traktorlarning 46 foizi 15 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatilayotgani, boshqacha aytganda, ular belgilangan foydalanish muddatini allaqachon o'tab bo'lgani, quvvati, ish unumi va yoqilg'i iste'mol qilish bo'yicha zamonaviy standartlarga javob bermaydigan eski texnikalar ekani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi.

Islom Karimov

maxsulotlarining ishlab chiqarish tannarxi oshib ketmoqda. SHu munosabat bilan qishloq xo'jaligiga yuqori unumli, zamonaviy va resurslarni tejaydigan texnikalarni jalb etish, bu borada avvalo chet elning ilg'or kompaniyalari bilan xamkorlikni mustaxkamlash talab etiladi. Jumladan, Germaniyaning «Klass» kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla o'rish kombaynlari va boshqa qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha xamkorlikni yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

6.3.2-jadval

2006-2011 yillarda mamlakatimiz bo'yicha yangi sotib olingan qishloq xo'jaligi texnikalari

Texnikalar nomi	2006 yil	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2006-2011 yillar davomida jami
Traktorlar, jami	2211	1652	2231	3007	2671	2124	13896
Xaydov traktorlari	634	164	454	191	378	546	2367
sh.j.yuqori unumli	2	6	6	36	83	297	430
CHopiq traktorlari	1182	1293	1174	1697	1359	1098	7803
Traktor tirkamalari	368	250	348	1421	691	882	3960
Kul'tivatorlar	503	279	440	1433	633	315	3603
CHigit seyalkalari	352	178	237	215	320	552	1854
Pluglar	130	90	117	244	67	153	801
Don o'rish kombaynlari:	116	93	332	123	167	245	1076
sh. j. yuqori unumli	55	52	86	110	167	245	715

Qishloq xo'jaligi texnikalarini yangilash bo'yicha olib borilayotgan maqsadli tadbirlar natijasida keyingi 6 yil ichida jami 13896 ta traktor, 3960 ta traktor tirkamasi, 3603 ta kul'tivator, 1076 ta don o'rish kombayni va boshqa yuqori unumli texnikalar xarid qilingan.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish dasturida dexqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik tarmog'ini modernizatsiya qilishga xam aloxida e'tibor qaratilmoqda.

Sir
emaski,
respublikamizning
chorvachilik tarmog'i
jadal rivojlanib
borayotgan tarmoqlardan
biri bo'lishiga qaramay,
soxada o'z echimini
kutayotgan ayrim

Masalan, chorvachilik soxasini oladigan bo'lsak, bu borada ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir. Taqqoslash uchun quyidagi bir misolni keltiraman: Daniya va Janubiy Koreyada sut sog'ib olish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 8-9,5 ming kilogrammni, Vengriya, Germaniya, Gollandiyada esa 6-7 ming kilogrammni tashkil qilayotgan bir paytda, bizda keyingi besh yilda bu raqam 1,7 ming kilogramm darajasida saqlanib qolmoqda.


Islom Karimov

muammolar xam mavjud. Jumladan, chorva mollarining maxsuldordor va kasalliklarga chidamli zotlarini etishmasligi, chorvachilikning mustaxkam ozuqa bazasini yaratish borasidagi muammolar shular jumlasidandir.

Respublikamiz xukumatining chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish dasturlarida asosiy e'tibor chorva mollarining naslini yaxshilash, maxsuldorligini

o'shish, tarmoqda servis xizmatini rivojlantirish va chorvachilikning ozuqa bazasini mustaxkamlashga qaratilgan. Buning uchun:

- chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnikaviy bazasini mustaxkamlash;
- naslchilik-selektsiya ishlarini tubdan yaxshilash;
- tarmoqda servis xizmati, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik soxalarini rivojlantirish;
- chorva mollarini yuqumli kasalliklardan muxofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;
- ozuqa ekinlari maydonlarini kengaytirish va optimal joylashtirish, lalmi erlarda chorva mollari uchun ozuqa etishtirish ko'lamini kengaytirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.



63.1-rasm. Respublikamizga xorijiy mamlakatlardan keltirilgan naslli qoramollar soni.

Keyingi yillarda yurtimizda chorvachilik taraqqiy etgan mamlakatlardan zotdor mollarni olib kelib, urchitishni tashkil etishga jiddiy e'tibor berilyapti. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 2006-2011 yillar davomida respublikamizga xorijdan jami 23286 bosh naslli qoramol keltirilgan.

Respublikamiz xukumati tomonidan mamlakatimizda chorvachilikning parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish borasida xam maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi xalqimizning chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirishga muxim xissa qo'shishi shubxasiz.

6.4. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada taraqqiy ettirishda asosiy e'tibor agrar soxada isloxotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq axolisining turmush darajasini keskin oshirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan agrar tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli dasturi quyidagi eng muxim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Agrar soxada iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlar va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish borasida barcha sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishida tomonlar mas'uliyatini oshirish.

2. Qishloq xo'jaligida erdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samarali foydalanishni rag'batlantirish yo'nalishi bo'yicha tuproq unumdorligini yaxshilash va meliorativ xolatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida barcha xududlarda qishloq xo'jaligi erlari unumdorligini oshirish, unumdorligi past er maydonlari salmog'ini kamaytirish.

3. Suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, erlarning meliorativ xolatini yanada yaxshilash maqsadida suv xo'jaligi tizimida moddiy va ma'naviy eskirgan irrigatsiya-melioratsiya tizimini yangilash, uning samaradorligini oshirish, yangi sug'orish texnologiyalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini joriy etish, er maydonlari meliorativ xolatini yaxshilash, drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash tadbirlarini amalga oshirish.

4. Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini xisobga olgan xolda joylashtirish, maxsulotlar sifati va ekinlar xosildorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori xosilli, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yangi va istiqbolli, maxsulot sifati bozor talablariga javob beradigan navlarni joylashtirish.

5. CHorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, asosan chorva mollarining naslini yaxshilash xisobidan uning maxsuldorligini oshirish. Buning uchun:

- ❖ chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash;
- ❖ naslchilikni tubdan yaxshilash;
- ❖ tarmoqda servis, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- ❖ parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik soxalarini rivojlantirish;
- ❖ chorva mollarida uchraydigan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish;
- ❖ ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajasiga erishish, bunda lalmi erlardan chorva ozuqasi etishtirish uchun foydalanishni kengaytirish.

6. O'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muxit muxofazasi nuqtai nazaridan:

- ❖ qo'riqlanadigan xududlar davlat kadastrini joriy etish;
- ❖ o'rmon xo'jaligida mevali, manzarali daraxt ko'chatlarini etishtirishni yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- ❖ xududlarning ekologik xolati geografik-axborot tizimini ishlab chiqish.

7. Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish, agrar soxaning eksport saloxiyatini oshirish.

Qishloq xo'jaligi, xususan, chorva va meva-sabzavot maxsulotlarini saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik xususiy korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlash, xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, xo'l meva-sabzavot va tayyor maxsulot eksport qiladigan sub'ektlar uchun imtiyozlar tizimini ishlab chiqish.

8. Qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrar tarmoqda servis xizmatlari ko'rsatish soxasini rivojlantirish, bozorga tez moslashuvchi sub'ektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

9. Qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish:

❖ davlat

extiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla etishtirishni asosan imtiyozli kreditlash orqali moliyalashtirib borish tizimini takomillashtirish;

❖ paxta va g'alladan boshqa qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtiruvchilarni kreditlash mexanizmini takomillashtirish;

❖ qishloq xo'jaligi uchun texnika, extiyot qismlar, naslli chorva mollari, urug'lik va ko'chatlar, zamonaviy texnologiya va uskunalar, dori-darmon, kimyoviy preparatlar import qilishda soliq va bojxona imtiyozlari tizimini yanada kengaytirish;


❖ qishloq joylarga kichik sanoatni jalb qilishda soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

❖ maxalliy ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida proteksionizm siyosatini doimiy ravishda amalga oshirish;

❖ unumdorligi past bo'lgan, shuningdek, nasoslar bilan sug'oriladigan maydonlarda davlat extiyojlari uchun paxta va g'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirib borish.

10. Agrotexnika fanini rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish. Bu soxada:

❖ atrof-muxitga ekologik zarar keltirmaydigan texnika va texnologiya xamda xomashyo resurslarini qayta ishlashda yangi uslublar ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;



Худудларда пахта толасини қайта ишлаш, фоиз.

- ❖ paxtachilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlari birlamchi urug'chiligini tashkil qilish tizimini takomillashtirish;
- ❖ qishloq xo'jaligining amaliy muammolarini xalq etishda innovatsion loyixalardan keng foydalanish va bunda innovatsion loyixalarni moliyalashtirishning bank orqali kreditlash tizimini joriy etish;
- ❖ qishloq xo'jaligida gen muxandisligi borasida to'plangan jaxon tajribasidan keng foydalangan xolda milliy tizimni yaratish;
- ❖ ekologik toza qishloq xo'jaligi maxsulotlari yaratish ustida keng qamrovli ishlar olib borish;
- ❖ xorijdan keltirilgan naslli urug'lar asosida yuqori maxsuldor maxalliy chorva mollari, parranda va pilla qurti zotlarini yaratish.

11. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va axoli daromadlarini oshirish.

7-MAVZU. MINTAQALARDA KOMMUNIKATSIYA MAJMUASI

7.1. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi

O'zbekistonda hozirgi zamon transportining barcha asosiy turlari mavjud. Jumladan, bu erda temir yo'l va avtomobil' yo'li, xavo va daryo, quvur va elektr transportlari rivojlangan.

Sobiq Sovet davrida asosiy transport yo'llarini tashkil qilish, boshqarish va undan foydalanish xuquqi respublikaning o'zida emas edi. Endilikda respublika transporti ona-Vatan taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Mamlakat transportining xalq xo'jaligiga va axoliga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash maqsadida transportning boshqaruv tizimi takomillashtirildi. "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasi (1992), "O'zbekiston avtomobil' transporti" davlat aksionerlik korporatsiyasi (1993), "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksionerlik kompaniyasi (1994) tashkil qilingan.

O'zbekistonda transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z samarasini bermoqda. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, yangidan-yangi transport yo'laklari bunyod etish mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltirish, eksport imkoniyatlarini oshirish va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga yanada keng integratsiyalashishga xizmat qilmokda.

Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki maxsulotida sanoatning xissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil

etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligining ulushi esa 30,1 foizdan 17,5 foizga tushdi.

Transport tizimi Xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Transport tizimining xududiy xususiyatlari shundan iboratki, unda asosiy e'tibor avtomobil' transportiga qaratiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan respublikamizni boshqa davlatlar va mintaqalar bilan bog'laydigan yo'llar, kommunikatsiya tarmoqlari barpo etishga alohida e'tibor qaratib kelinmokda. Bugungi kunda O'zbekiston avtomobil' yo'llarining sifati jixatidan MDXda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston avtomobil' transportiga oid 10 dan ortiq xalkaro konventsia va xujjatlarga qo'shilgan va 30 dan ziyod davlatlar bilan xalqaro avtomobil' xalqasi to'g'risida bitim imzolagan.

O'zbekistonda transport va transport kommunikatsiyalari soxasini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilgan. Xususan, davlatimiz raxbarining 2006 yil 20 dekabrda qabul qilingan "2007-2010 yillarda umumiy foydalaniladigan avtomobil' yo'llari qurilishini rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida"gi qarori bunga misol bo'ladi. Ushbu qarorga binoan O'zbekiston jaxon transport tizimiga samarali integratsiyalashish uchun MDX va Evropa mamlakatlari chiqishni ta'minlaydigan shimoliy va shimoli-g'arbiy, Fors ko'rfazi xamda Qora dengiz bandargoxlariga olib boradigan janubi-g'arbiy va janubiy yo'nalishdagi avtomobil' yo'llari bosqichma-bosqich barpo etilmokda xamda rekonstruktsiya qilinmokda.

2008 yil 16 sentyabrda Toshkent shaxrida Osiyo bilan Evropa o'rtasida Markaziy Osiyo orqali avtomobil' aloqasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Ushbu konferentsiyada Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistonda avtotransport soxasining bugungi axvoli va istiqboli, soxaga sarmoya jalb etishga oid masalalar atroflicha muxokama etildi. SHuningdek, tadbir doirasida Xalqaro avtomobil' transporti ittifoqining "YAngi Evroosiyo avtotransport tashabbusi" loyixasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Loyixa Buyuk Ipak yo'lining minglab kilometr ga cho'zilgan uch asosiy – shimoliy, markaziy va janubiy yo'nalishlari bo'yicha avtomobilda muntazam yuk tashishni yo'lga qo'yishga qaratilgan. Bu yo'nalish bilan yuk ortilgan dastlabki 12 ta avtomobillar Evropa davlatlariga yo'l oldi.

Loyixada O'zbekistonning "Bunyod", "BK Intrans", "O'rta Osiyo Trans", Rossiyaning "Atrim Logistik", Kirg'izistonning "Oshmejtrans", Turkiyaning "Karadengiz" va Eronning "Tizgaman YAxan" avtotransport kompaniyalari ishtirok etmokda. Ushbu kompaniyalarning yuk avtomobillari sanoat va iste'mol tovarlarini mazkur uch yo'nalish bo'ylab belgilangan manzilga etkazish bilan shug'ullanadi. O'zbekistonning qulay iqtisodiy-geografik o'rni, takomillashib borayotgan transport kommunikatsiyalari Evroosiyo davlatlari bo'ylab tranzit yuk tashish uchun katta imkoniyatlar ochmokda.

Qadimda barcha karvonlar SHarq va G'arb mamlakatlari o'rtasida joylashgan, Buyuk Ipak yo'lining markazi bo'lmish O'zbekiston orqali o'tishni afzal bilgan. Mazkur loyixa nafakat mamlakatimizning, balki butun Markaziy Osiyoning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida juda muxim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda qadimda eng uzun savdo yo`nalishi xisoblangan Buyuk Ipak yo`li qayta tiklanmokda. Osiyo bilan Evropani birlashtiruvchi bu yo`l mintaqalar o`rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy xamkorlikni mustaxkamlashda tobora keng o`rin egallamokda. Bu O`zbekistonning transport va tranzit salohiyati yuksalishiga xam xizmat qiladi.

2011 yilda transport va kommunikatsiya qurilishiga Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Kuvayt arab iqtisodiy xamkorlik jamg`armasi va OPEK jamg`armasi tomonidan 152 million dollardan ortiq mablag` ajratilishi ko`zda tutilmoqda.

Joriy yilda temiryo`lchilarimiz oldida xam ulkan vazifalar turibdi. Xususan, Jizzax – Yangiyo`l yo`nalishi bo`yicha elektrlashtirilgan ikki yo`lli temiryo`l tarmog`i va Yangiyo`l – Farxod yo`nalishi bo`yicha elektrlashtirilgan bir yo`lli temiryo`l tarmog`i qurilishini nixoyasiga etkazish, Maroqand – Qarshi va Qarshi – Termiz yo`nalishi bo`yicha strategik ahamiyatga ega bo`lgan temiryo`l tarmoqlarini elektrlashtirish loyixalarini amalga oshirishga kirishish zarur. Bu, o`z navbatida, sarf- xarajatlarni 20 foizga kamaytirish va yo`lovchi xamda yuklarni manzilga etkazish tezligini 1,3 barobar oshirish imkonini beradi.

SHu bilan birga, yo`lovchi tashish lokomotivlari parkini yangilash, yuk tashish lokomotivlari xamda vagonlarini modernizatsiya qilish va qayta tiklash, temir yo`llarni modernizatsiya qilish bo`yicha loyixalarni amalga oshirishni jadallashtirish lozim. SHular qatorida Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasi bilan xamkorlikda Toshkent – Samarqand temiryo`l uchastkasida O`rta Osiyoda birinchi bor bunyod etiladigan tezyurar temiryo`l magistralini qurish va foydalanishga topshirish ishlarining belgilangan muddatlarda yakunlanishini ta`minlash darkor.

O`zbekiston xududida yuklarning ichki va xalqaro tranzitini ishonchli ravishda ta`minlaydigan transport va logistika tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan izchil ishlarni 2011 yilda davom ettirishimiz lozim.

2010 yilda tashkil etilgan “Angren” logistika markazini yanada rivojlantirishni ko`zda tutish, joriy yilda “Qamchiq” dovoni orqali kamida 5 million tonna yuk tashishni ta`minlash zarur. Buning uchun Xukumat ushbu markazning konteyner bilan keladigan yuklarni qabul qilib olish, saqlash va jo`natish quvvatini oshirish, uni Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan “MAN” avtotyagachlari bilan ta`minlash bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirildi.

SHuningdek, xozirgi vaqtda xalqaro transport logistikasining global tarmog`ida barqaror o`rin egallagan “Navoiy” aeroporti bazasidagi Xalqaro logistika markazini yanada rivojlantirishni ta`minlash darkor. Joriy yilda “O`zbekiston xavo yo`llari” milliy aviakompaniyasi mazkur aeroport operatori bo`lmish “Korean Air” kompaniyasi bilan xamkorlikda xavo qatnovlari geografiyasini yanada kengaytirish, aeroport infratuzilmasini takomillashtirish va xajmi tobora ortib borayotgan yuklarni tashish uchun samolyotlar sonini ko`paytirish ishlarini davom ettirishi zarur.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va unga xos muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

7.2. Temir yo'l transporti.

U mamlakatimiz taraqqiyotida va tashqi aloqalarda g'oyat katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda birinchi temir yo'l 1886-1888 yillarda (Krasnovodsk-CHorjo'ning davomi tarzida) Forob bekati (Buxoro viloyati)dan Samarqandgacha o'tkazilgan. Keyinchalik bu yo'l (1895-97 yy.) Ursatevskaya (Xovos)ga va undan qo'qongacha davom qildirilgan. 1899 yilda Ursat'evskaya - Toshkent yo'li, 1906 yilda esa Toshkent - Orenburg yo'li qurilgan. XX asrning birinchi choragida respublikaning Janubiy mintaqalarida xam temir yo'llar qurilgan. Jumladan, Qarshi-Kitob (1924), Amudaryo-Termiz (1925) va boshqa temir yo'llar qurilgan.

Xozirgi vaqtda mamlakatning barcha mintaqalarida temir yo'l transporti qatnovi yo'lga qo'yilgan. "O'zbekiston temir yo'llari" 50 mingdan ortiq turli tipdagi zamonaviy yuk vagoni Germaniyada tayyorlangan referejatorlar, yo'lovchilar tashiladigan xar xil tipli vagonlarga ega. Aksariyat viloyat markazlarida yangi temir yo'l shox bekatlari kurilib ishga tushirilgan.

Buxoro, Guliston, Termiz shaharlarida esa ana shunday yirik shox bekatlar qurilishi tugallanmoqda. 1997 yilda mamlakat temir yo'llarining umumiy uzunligi 6,7 ming km ni tashkil qildi. SHundan umumiy foydalanishda bo'lgan temir yo'llar uzunligi 3,7 ming km. Temir yo'llar yuk aylanmasi 16-18 mlrd. t/km ni, yuk jo'natish esa 46-47 mln. t. ni, yo'lovchi aylanmasi 2,5 mlrd yulovchi km ni, yo'lovchi junatish esa 14-15 mln kishini tashkil etdi.

Temir yo'llarni elektrlashtirish ishlari dastlab 1970 yilda Toshkent-Sirdaryo yo'li (148 km), keyinchalik Xovos - Bekobod va Xovos - Jizzax yo'llari elektrlashtirilgan. Endilikda elektrlashtirilgan asosiy yo'llar uzunligi 350 kmdan oshib ketdi. Mamlakat temir yo'llarining serqatnov qismini 2000 yilgacha elektrlashtirishning bosh dasturi ishlab chiqilgan va u muvaffaqiyatli xal qilinmokda.

Mamlakat mustaqilligi ayniqsa temir yo'l transportini xar tomonlama rivojlantirishni taqozo qilmoqda. SHu jixatdan avvalo mamlakatning yagona temir yo'l transport tizimini yaratish vazifasi xal qilinmoqda. Bu borada, O'zbekiston o'z manbalari xisobidan ikkita yirik strategik muhim temir yo'l magistralini uzunligi 342 kilometr bo'lgan "Navoiy-Uchquduq-Sulton Uveys-Nukus xamda uzunligi 223 kilometr bo'lgan G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on magistrali qurilishini 1995 yildayoq boshlab yubordi. Ularni foydalanishga topshirish bu mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish, tabiiy minerallarni katta zaxiralaridan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Markaziy Osiyo davlatlari (MOD) ning jug'rofiy markazida joylashgan, binobarin MODdagi barcha davlatlar faqat O'zbekiston orqali temir yo'l transporti aloqasini o'rnatgan. SHuningdek O'zbekiston xam MODning barcha davlatlari orqali boshqa xorijiy mamlakatlarga chiqishi mumkin. SHuning uchun xam O'zbekistan o'z transport kommunikatsiyasini rivojlantirishda MOD

bilan, yaqin xorijiy davlatlar bilan yaqindan xamkorlik qilmoqda. Jumladan u mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Turkiya va g'arbiy Evropaning bir qator davlatlari bilan tutashtirilgan Transosiyo magistrali (Istambul-Toshkent-Olma-ota-Pekin) qurilishida xissa qo'shmoqda. Bu magistralning Do'stlik bekati (Qozog'iston), Turkmanistonda Tajan - Saraxs, Eronda esa Saraxe-Mashxad qismlari qurib foydalanishga topshirilgan (1996).

Turkmanistonni Eron-Turkiya va so'ngra Evropa bilan bog'laydigan 305 kilometrlik Tajan-Saraxs-Mashxad temir yo'lining O'zbekiston uchun ahamiyati juda katta va shuning uchun xam uning 133 kilometrlik Tajan-Saraxs yo'l qurilishida mamlakatimiz quruvchilari faol qatnashdi.

O'zbekiston MOD ning ayrim davlatlari orqali Xitoy va (Xitoy orqali esa Tinch okeani) ga chiqish uchun Toshkent-O'sh-Qashg'ar temir yo'li qurilishini xam olib bormoqda. Bu yo'l qurilishida qirg'iziston va Xitoy xam qatnashmoqda.

Mustaqillik yillarida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik kompaniyasi sanoat korxonalarida 878 ta yuk vagoni qurildi. 3620 ta yuk vagoni zamonaviylashtirildi.

1998-2010 yillarda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan jami 32 ta vakzal qurildi, 24 ta vokzal rekonstruktsiya qilindi. 1998-2010 yillarda qariyb 29447 ming yo'lovchi manziliga etkazildi.

2005-2006 yillarda Samarqand-Buxuro yo'nalishining ustuvor uchastkalarida 341 km yo'l modernizatsiya qilindi. Mustaqillik yillarida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan jami 425,5 km temir yo'l elektrlashtirildi.

YUrtboshimiz tomonidan 2010 yil 15 dekabrda 2011-2015 yillarda mamlakatda sanoatning ustuvor yo'nalishlari xamda infratuzilma, transport va kommunikatsiyalar qurilishini rivojlantirishga bag'ishlab qabul qilingan qarorlar ana shunday yirik istiqbolli vazifalarni xal qilishda dasturil amal bo'lmoqda.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik kompaniyasining yangi temir yo'llar qurish salohiyati xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoda. 2010 yil Afg'oniston tarixidagi birinchi temir yo'l barpo etildi. Xayraton-Mazori SHarif oralig'idagi 106 km.lik yo'l qurilishi bunga misol bo'ladi.

Bugun Ispaniyadan yuqori tezlikda xarakatlanadigan "AFROSIYOB" elektropoedlarining ishga tushirilishi O'zbekiston va Ispaniya davlatlari o'rtasidagi transport kommunikatsiyalarini taraqqiy ettirish borasida belgilangan dasturlarning boshlanishi demakdir.

2011-2015 yillarda temir yo'l transportini rivojlantirish loyixalari

2011 yil mamlakatimizda temir yo'l qatnovi soxasida o'ziga xos mas'uliyatli va shu bilan birga, muvaffaqiyatli o'tganini aloxida ta'kidlash lozim. "O'zbekiston temir yo'llari" DATKning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha vazifalari to'liq bajarildi. CHunonchi, xisobot davrida temir yo'l bekatlaridan 59,6 million tonna yuk jo'natilib, yuk aylanmasi xajmi 22,5 milliard tonna-kilometrni yoki 2010 yilning shu davriga nisbatan o'sish 10 foizni tashkil etdi. 2011 yil davomida 15,9 million yo'lovchi o'z manziliga

etkazib qo'yildi. Yo'lovchi aylanmasi xajmi 3 milliard 39 million yo'lovchi-kilometrni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil etdi.

2011 yilda kompaniya sanoat korxonalarida 44 ta lokomotiv sektsiyasi

Toshkent – Samarqand yo'nalishida mazkur ikki shaxar o'rtasidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o'tadigan, yuqori tezlikda xarakat qiladigan "Talgo-250" yo'lovchi elektr poezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi.

Islom Karimov

modernizatsiya qilinib, 1430 ta yuk va 57 ta yo'lovchi vagoni ta'mirlandi. Xitoy Xalq Respublikasidan 15 ta yo'lovchi

elektrovozi xarid qilinib,

300 ta yuk va 15 ta yo'lovchi vagoni qurildi. "Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi" ochiq aktsiyadorlik jamiyati tsexlarida 13 ta yo'lovchi vagoni yangilandi. Umumiy uzunligi 90 kilometrlik temir yo'llar reabilitatsiya qilindi, 158 ta yo'l o'tkazgich almashtirildi. O'zbekiston Respublika Vazirlar Maxkamasining 2011 yil 22 iyundagi qaroriga ko'ra "Xayraton – Mozori SHarif" temir yo'l liniyasidan foydalanish va xizmat ko'rsatish ishlari boshlab yuborildi.



"Toshkent — Samarqand" liniyasida umumiy uzunligi 100 kilometrga teng yangi elektrlashtirilgan yo'l barpo etildi. Umuman olganda, "Toshkent — Samarqand" yo'nalishida yuqori tezlikda xarakatlanuvchi "Afrosiyob" poezdlari xarakatini tashkil etish loyixasi bo'yicha 150,29 million dollarlik kapital mablag' o'zlashtirildi.

Bu loyixa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 yanvardagi "Toshkent – Samarqand temir yo'l liniyasi uchastkasida yuqori tezlikdagi poezdlar xarakatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi asosida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi krediti va "O'zbekiston temir yo'llari" DATK mablag'i xisobidan amalga oshirildi va shu loyixa asosida birinchi tezyurar "Afrosiyob" elektropoezdi Toshkentga 2011 yilning 22 iyul' kuni olib kelindi. Mustaqillik bayrami arafasida mamlakatimiz temir yo'llari tarixida yana bir quvonchli voqea yuz berdi. Ispaniya va O'zbekiston davlatlari o'rtasidagi xamkorlik samarasida yurtimizga keltirilgan "Afrosiyob" poezdlarining dastlabkisi "Toshkent — Samarqand" liniyasida o'z qatnovini boshladi. Ikkita lokomotiv, 8 ta yo'lovchi va bitta vagon restoranidan iborat poezdda shu kungacha 7 mingga yaqin yo'lovchi manziliga etkazildi. 2011 yilning 9 dekabr' kuni «PATENTES TALGO S.L.» (Ispaniya) kompaniyasida ishlab chiqarilgan ikkinchi yuqori tezlikda xarakatlanuvchi "Afrosiyob" elektropoezdi Toshkentga kirib keldi.

Bu poezdlardan foydalanish maqsadida temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo'llar qaytadan tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temir yo'llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaxarlari temiryo'l vokzallari rekonstruktsiya qilindi va qaytadan jixozlandi.

Islom Karimov

2011 yili ijtimoiy soxa ob'ektlariga 59 milliard so'mlik mablag' yo'naltirildi. Joylarda 582 ta yangi ish o'rini tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, bunday muvaffaqiyat va yuksak marralar zahirida avvalo mustaqillik deb atalgan bebaxo ne'mat, xalqimizning fidokorona mehnati, uning tobora yuksalib borayotgan ongu tafakkuri, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, ezgu orzu-intilishlari mujassam.

Davlatimiz rahbari 2012 yilda eng muhim ustuvor vazifalardan biri transport va muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishni ta'minlashdan iborat bo'lib qolishini ta'kidlagan xolda, temir yo'llar kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish, "Maroqand-Qarshi", "Maroqand-Buxoro" xamda "Qarshi-Termiz" liniyalarni elektrlashtirish bo'yicha loyixalar amalga oshirilishini jadallashtirish zarurligini qayd etdi. Bu borada "Maroqand-Qarshi" temir yo'l uchastkasi uchun 211 million AQSH dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirilishi rejalashtirilgan. E'tiborli jixati shundaki, mazkur loyixaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish, poezdlar tezligini oshirish xisobidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yuksaltirish, yuklarni tashish vaqtini 1,2 soatga, yo'lovchilarni etkazish vaqtini esa 40 daqiqaga kamaytirish, shuningdek, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga imkon beradi. SHu bilan birga, Toshkent-Samarqand temir yo'l tarmog'i uchastkasida obodonlashtirish ishlarini davom ettirish xamda yuqori tezlikda xarakatlanadigan yo'lovchi poezdlarning ishonchli va xavfsiz qatnovini ta'minlashga aloxida e'tibor qaratish darkor. "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur ishlarni amalga oshirish bo'yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqishi va tasdiqlatishi, ularning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.



SHuningdek, "2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi dastur asosida keng ko'lamdagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan:

A) "O'zbekiston temir yo'llari" DATK zimmasiga:

- uzunligi 1030 kilometr bo'lgan temir yo'llarni reabilitatsiya qilish;
- Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus-Naymanko'l temir yo'l tarmog'i uchastkasida uzunligi 721 kilometr bo'lgan markazlashgan dispatcher qurilmalari va avtoblokirovkalash stantsiyalari qurish;
- 17 ta elektrovoz, 7 ta yo'lovchi va 4 ta manevr lokomotiv sektiysasi sotib olish;
- 2550 dona yuk, 115 ta yo'lovchi vagoni tayyorlash xamda xizmat muddatini uzaytirish maqsadida 7110 ta yuk va 78 ta yo'lovchi vagonini tiklash va modernizatsiya qilish.

B) xo'jalik tashkilotlari zimmasiga:

- uzunligi 267,3 kilometr bo'lgan temir yo'lni reabilitatsiya qilish;
- stantsiyalarni qatnovlarni tartibga soladigan 46 ta zamonaviy maxsus qurilma bilan jixozlash;
- 39 ta lokomotiv sektiysasini sotib olish va 157 ta lokomotiv sektiysasini modernizatsiya qilish va tiklash;
- 685 ta yuk vagonini sotib olish;
- 1346 ta yuk vagonining xizmat muddatini uzaytirish maqsadida tiklash va modernizatsiya qilish;

- 50 dona yuklash-tushirish texnikasini sotib olish vazifasi yuklangan.

Dasturda ko`zda tutilgan vazifalarni moliyalashtirishga jami 1 milliard 594,1 million dollar, jumladan, 1 milliard 67,9 million dollar “O`zbekiston temir yo`llari” DATK kompaniyasi, 84,5 million dollar O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi va 441,7 million dollar xorijiy investorlar mablag`lari yo`naltirilishi ko`zda tutilgan.

Темір йўллар коммуникацияларини янада ривожлантириши, Мароқанд – Қариш ва Қариш – Термиз темір йўл участкаларини электрлаштириш бўйича лойиҳалар амалга оширилишини жадаллаштириши зарур.

Ислом Каримов

Ta'kidlash kerakki, “O`zbekiston temir yo`llari” kompaniyasi “2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to`g`risida”gi dastur bilan uzviy bog`liq ravishda “2009-2013 yillarda temir yo`llarni rivojlantirish va modernizatsiyalash kompleks dasturi” asosida xam ish olib bormoqda. Ushbu dastur kompaniyaning moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash bilan birgalikda, sanoat korxonalarida maxalliylashtirish davlat dasturini keng joriy qilish orqali ishlab chiqarish xajmini oshirish va chetdan keltirilayotgan import maxsulotlari xajmini kamaytirish, temir yo`l mutaxassisliklari bo`yicha yangi ish o`rinlarini yaratish va yoshlarning bandligini oshirishga qaratilgan.

7.3. Avtomobil' transporti

Avtomobil' transportining rivojlanish xolati ichki va tashqi aloqalarini rivojlantirishda g`oyat muxim ahamiyatga ega bo`lmoqda. O`zbekistonning rel'efi ancha murakkabligi (tog`lik, yassi tog`liklarning mavjudligi) tomondan temir yo`l transportini rivojlantirishni tabiiy ravishda chegaralagan va bunday xududlarda avtomobil' transportini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Respublika avtotransportida turli xil avtomobillardan foydalanish soni va turi yilma-yil ortib bormoqda. Endilikda avtomobil' transportida yo`lovchilar tashishga 14-15 ming avtobus xizmat qilmoqda. Ulardagi marshrut yo`nalishlarining soni salkam 3 mingga etadi. Avtobuslar bilan mamlakatimizning turli mintaqalarida xar kuni 5 mln. atrofida yo`lovchi tashiladi.

Mamlakat avtotrasportining asosiy ko`rsatkichlariga avtomobil' yo`llari uzunligi va ularning sifati ta'sir qiladi. Xozirgi vaqtda tosh yo`llarning umumiy uzunligi 86 ming km. Asfal't-beton qoplamali yo`llar 22 ming km dan ortiq. 3200 km masofadagi yo`llarimiz xalqaro ahamiyatga ega. Yo`llarni ta'mirlash, ularni asfal'tlash ishlari tez sur'atlar bilan olib borilmoqda. Respublikada 90 dan ortiq asfal't zavodlari ishlab turibdi. Avtotrasportning yuk aylanmasi yiliga o`rtacha 10 mlrd. t-km ni tashkil qiladi, yo`lovchilar tashish aylanmasi esa 17,1 mlrd. yo`lovchi - km ga teng.

Mamlakat avtomobil' transporti xam islox qilinmoqda, uning yangi yo`llari qurilmoqda, yirik avtomagistrallar (jumladan, 708 kilometrlik eng uzun Toshkent-Termiz trakti) qayta ta'mirlanmoqda va uning avtomobil' o`tkazish quvvati oshirilmoqda.

O'zbekiston Osiyo davlatlarining xalqaro axamiyatga molik bo'lgan yirik avtomagistrallar qurilishida tashabbuskor bo'lib chiqmoqda. Jumladan, u Xitoyga (va Tinch okeaniga) chiqish imkoniyatini beruvchi "Andijon-Osh-Ergashtom-Qashqar" avtomobil' yo'li xamda Xind okeaniga chiqishga imkon beradigan "Termiz-Xirot-Karochi" avtomobil' yo'li qurilishida va shu yo'nalishda mavjud bo'lgan yo'llarni qayta ta'mirlashda o'z ulushini qo'shmoqda.

"O'zbekiston, - deydi Islom Karimov, - Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon-Osh-Ergashtom-qashqar, shuningdek Buxoro-Saraxs-Mashxad-TeXron va Termiz-Xirot-Qandaxor-Karochi avtomobil' yo'llarini qurish va qayta ta'mirlash ishlariga xissa qo'shgan xolda qatnashishdan xam manfaatdor".

Avtomobil' transportini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan

ustuvor loyixalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasida transport-kommunikatsiya tarmoqlarining inson tanasini qon bilan ta'minlaydigan xayotbaxsh tomirlarga o'xshatilishi bejiz emasligini yana bir bor ta'kidlagani ularning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlarini bajarishda qanchalik muximligini anglatadi.

3.3.1-jadval

O'zbekiston avtomobil' yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi

Jami	183 685 km
<i>jumladan:</i>	
umumiy foydalanishdagi avtomobil' yo'llari	42654 km
shaxarlar va boshqa axoli punktlari ko'chalari	61664 km
xo'jalik avtomobil' yo'llari	79367 km
<i>shu jumladan:</i>	
- ichki xo'jalik yo'llari	67274 km
- korxonalarga qarashli yo'llar	12093 km

Bugungi kunda mamlakatimiz avtomobil' yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi 183685 kilometrni tashkil etadi. Mazkur yo'llar tarmog'i umumiy foydalanishdagi yo'llar (42654 kilometr), shaxarlararo va boshqa axoli punktlari ko'chalari (61664 kilometr) va xo'jalik avtomobil' yo'llari (79367 kilometr) dan iborat (3.3.1-jadval). SHu o'rinda O'zbekiston milliy avtomobil' magistralining iqtisodiyotimizda aloxida o'ringa ega ekanini e'tirof etish zarur. Prezidentimiz ma'ruzasida e'tirof etilganidek, "...mamlakatimizning barcha xududlarini ishonchli ravishda bog'laydigan, mintaqaviy va jaxon bozorlariga chiqishni ta'minlaydigan O'zbek milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan yo'llarni qurish va rekonstruktsiya qilish loyixalarini jadal amalga oshirish biz uchun g'oyat muxim ahamiyatga ega. SHu maqsadda 2011 yilda O'zbekiston milliy avtomobil' magistralini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyixalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo'lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruktsiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaxarlari aeroportlarining maxalliy yo'nalishlarda xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

2012 yilda 517 kilometrluk avtomobil' yo'llari, ikkita yirik transport bog'lamasi, 544 pogon-metr ko'prik va yo'l o'tkazgichlarni qurish xamda rekonstruktsiya qilish mo'ljallanmoqda. Buning uchun Respublika yo'l jamg'armasidan 360 million AQSH dollaridan ortiq qiymatdagi, o'tgan yilga nisbatan 12,5 foiz ko'p mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda".

3.3.2-jadval

O'zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish loyixalari

Loyixalar	jami - 3,4 milliard dollar
A-373 Toshkent-O'sh avtomobil' yo'lini rekonstruktsiya qilish, jumladan «Qamchiq» va «Rezak» tonnellari bilan	100 km
M-39 Toshkent-Termiz avtomobil' yo'lini rekonstruktsiya qilish	100 km
4R87 G'uzar-CHim-Ko'kdala avtomobil' yo'lini rekonstruktsiya qilish	73 km

Boshqa loyixalar:	
- yo'llarning mustaxkamligini oshirish	896 km
- yo'l qurilishi texnikasini xarid qilish	6 kompleks
- ko'priq qurilishi texnikasi xarid qilish	2 kompleks
- saqlash va joriy ta'mirlash ishlari uchun yo'l qurilishi texnikasini xarid qilish	444 dona

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizni barqaror rivojlantirishda mintaqalarning o'zaro uzviy iqtisodiy aloqasini ta'minlash muxim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, Farg'ona vodiysini mamlakatimizning boshqa mintaqalari bilan doimiy va tezkor bog'lash masalasi uzoq yillar davomida ancha dolzarb masala bo'lib kelgan. SHu nuqtai nazardan qaraganda, "Toshkent — Andijon" avtomobil' yo'lining "Qamchiq" dovoni orqali o'tadigan tog'li uchastkasini rekonstruktsiya qilish, bu erda 4 polosali, tsement-beton qoplamali yo'l qurilishi bo'yicha ishlarni jadallashtirish ustuvor vazifalardan xisoblanadi. Buning natijasida yo'lning umumiy yuk o'tkazuvchanligi, xavfsizligi ortadi. Bu esa, o'z navbatida, butun yil davomida Farg'ona vodiysini yurtimizning qolgan xududlari bilan avtomobil' transporti vositasida xech qanday texnik qiyinchiliklarsiz bog'lash imkonini beradi.

“Ангрен логистика маркази” ёпиқ акциядорлик жамияти томонидан Қамчиқ довони орқали 4 миллион 200 минг тонна, яъни 2010 йилга нисбатан 1,3 баробар кўп юк ташилди.

Ислом Каримов

O'zbekiston milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ulkan strategik ahamiyatga ega ekanini inobatga olgan xolda, ushbu loyixani amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruxi a'zolari singari xalqaro moliya tuzilmalari faolishtirok etmoqda.

Mazkur tashkilotlar tomonidan 742 kilometrlik avtomobil' yo'lini qurish va rekonstruktsiya qilish, yo'l qurilishi bo'yicha zamonaviy texnika sotib olish uchun 1 milliard 400 million dollarga yaqin imtiyozli kredit ajratildi.

Faqat 2012 yilning o'zida ushbu maqsadlar uchun 109 million dollar miqdoridagi mablag'ni o'zlashtirish, 165 kilometr tsement-beton qoplamali yo'llarni foydalanishga topshirish, jumladan, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan yo'lni rekonstruktsiya qilish mo'ljallanmoqda.

Yo'l qurilishi texnikalari parkini yangilash dasturida maxsus mobil' asfalt'-beton kompleksidan 6 dona, ko'priq qurilish ishlari uchun komplekslardan 2 dona, saqlash va joriy ta'mirlash ishlari uchun yo'l-qurilishi texnikasidan 444 dona xarid qilinishi mo'ljallangan.

Prezidentimiz ma'ruzasida aloxida urg'u berib ta'kidlanganidek, "O'zavtoyo'l" davlat aktsiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklariga ajratilayotgan mablag'larni samarali o'zlashtirish xamda avtomobil' yo'llarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash yuzasidan belgilangan ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarish bo'yicha amaliy choralar ko'rish vazifasi topshiriladi.

7.4. Xavo transporti

O'zbekistonning jaxon xamjamiyatiga chuqur kirib borishi bilan xavo transporti dolzarblik qilmoqda.

"O'zbekiston xavo yo'llari" aviakompaniyasi turli tipdagi xavo transporti vositalariga ega. Jumladan unda qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan AN-2, maxalliy yo'llarda qatnaydigan AN-24, YAK-40, xalqaro yo'nalishlarda qatnaydigan IL-76, IL-63, IL-86, TU-154, BOING, A-310 kabi samolyotlar bor. Vertolyot parkida esa MI-2, MI-8, ISA-26, kabi mashinalar bo'lib, ulardan mamlakat muassasalari, metereologiya, geologiya-qidiruv ishlarida keng foydalaniladi.

Mamlakat xavo transporti xizmatini yaxshilash masalasi o'z-o'zidan aeroportlarning xar xil yangi tipdagi samolyotlarni qabul qilishiga ko'ra jixozlanishi va ta'mirlanishini taqozo qilgan. Xozirgi vaqtda mamlakatda 12 ta zamonaviy aerovokzal (aeroport) bor. Ular Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Nukus, Termiz, Urganch, Farg'ona, qarshi, qo'qon shaxarlarida joylashgan. SHuningdek xar bir viloyatdagi yirik shaxarlarda maxalliy yo'llarda qatnaydigan o'nlarcha aerovokzallar mavjud.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston xavo transportining xizmat ko'rsatish ko'lemi nixoyat darajada kengaydi. Endilikda O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha davlatlari, Xamdo'stlik jamiyatining barcha davlatlari va yirik shaxarlari bilan xavo transporti aloqasiga ega. SHuningdek respublikaning uzoq xorijiy davlatlar bilan tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishda xavo transportining axamiyati ortib bormoqda.

O'zbekiston xavo yo'llarining bir qancha Evropa, Osiyo va Amerika mamlakatlarida vakolatxonalari ochilgan. 1993-1995 yillarning o'zida O'zbekistonda 18 yo'nalishda xalqaro mashrutda samolyot qatnovi yo'lga qo'yildi.

Jumladan, London, Manchester, Franfrukt-Mayn, Tel'-Aviv, Jidda, Kuala-Lumpur, Bangkok, Jakarta, Istanbul, Karochi, Pekin, Seul, Afina, Amsterdam, N'yu-York va boshqa chet el shaxarlariga muntazam xalqaro aviareyslar tashkil qilingan.

Xavo yo'llari transportini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari

Mamlakatimizda xavo orqali tashuvlarni tom ma'noda zamonaviy asosda yo'lga qo'yish borasida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'tgan 20 yilda "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasi jaxon aviaxizmatlar bozorida munosib o'ringa ega bo'ldi. U parvozlarni xavfsizligi va sifatini yuqori darajada ta'minlab, jaxon miqyosida obro'-e'tibor va ishonchga munosib bo'ldi.

Вазирлар Маҳкамаси “Навоий халқаро интермодал логистика маркази”ни ривожлантириши бўйича чора-тадбирларнинг амалга оширилишини, халқаро юklar транзит ҳажмини кўпайтириши, парвозлар географиясини янада кенгайтириши, аэропорт инфратузилмасини такомиллаштириши, шунингдек, “Ангрен логистика маркази”ни модернизация қилиши, ривожлантириши ва жиҳозлаш ишларини қатъий назоратга олиши зарур.

Ислом Каримов

2011 yilda Samarqand va Buxoro aeroportlari modernizatsiya qilindi. Maxalliy yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi Toshkent-3 aeroporti qurilib, ishga tushirildi. Navoiy aeroporti xududida bir kecha-kunduzda 300 tonna yukka ishlov beruvchi omborlarning ish faoliyati ta'minlandi. Bir qator aeroportlar infratuzilmasi yangilandi. Jaxon standartlariga javob beradigan aeronavigatsiya qurilmalari keltirib o'ratildi. Xozirgi kunda "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasi 20 dan ortiq mamlakatning 45 dan ortiq aeroportiga muntazam parvozlarni amalga oshirib kelmoqda.

"O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasining kelajak rejalari yanada ulkan bo'lib, u jaxon aviaxizmatlar bozorida peshqadamlikka intilmoqda. Milliy aviakompaniyaning sa'y-xarakatlari xukumatimiz tomonidan xar tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. "2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi dastur asosida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Buxoro, Navoiy, Toshkent va Termiz shaxar aeroportlari yo'lovchi terminallarini qurish va rekonstruktsiya qilishga 41,1 million dollar miqdordagi mablag' yo'naltirilgan. Milliy aviakompaniya aeroportlarining infratuzilmasini rivojlantirishga 179,1 million dollar miqdordagi mablag' o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan.



7.3.1-jadval

2011-2015 yillarda xavo transportini rivojlantirishni jadallashtirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari.

Xavokommunikatsiyasidagi loyixalar	Loyixaning umumiy qiymati	2011-2015 yillarda investitsiyalar xajmi, jami	Jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha			
			korxona mablag'laridan	O'z. TTF	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Davlat byudjeti va davlat maqsadli fondlari
Xavo transporti	993,7	658,8	128,9	283,4	223,7	22,8
"O'zbekiston xavo yo'llari" MAK	993,7	658,8	128,9	283,4	223,7	22,8
Xavo kemalari parkini yangilash	814,6	510,3	60,9	230,9	218,5	0,0
"O'zbekiston xavo yo'llari" MAK xavo kemalari parkini yangilash va unifikatsiyalash	814,6	510,3	60,9	230,9	218,5	-
Erdagi infratuzilmasini rivojlantirish	179,1	148,5	68,0	52,5	5,2	22,8
Navoiy aeroportida markazlashgan yoqilg'i quyish tizimini qurish	35,0	35,0	10,5	24,5	-	-
Buxoro shaxar aeroportida xalqaro yo'lovchi terminali qurilishini tugatish	14,7	4,5	-	-	4,5	-
Termiz aeroportining maxsus texnikasi uchun angari qurilishi	0,7	0,7	-	-	0,7	-
Termiz shaxar aeroportida aerovokzal majmuasini rekonstruktsiya qilish	5,8	5,8	5,8	-	-	-

Umuman olganda, dastur asosida xavo yo'llari soxasida 993,7 million dollar qiymatidagi 15 ta loyixani amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

Xavo kemalari parkini yangilash, ya'ni G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan, jaxon standartlariga javob beradigan tejamkor 10 ta zamonaviy samolyot xarid qilish bo'yicha loyixaning qiymati 814,6 million dollarni tashkil etadi, ushbu mablag'ning 60,9 million dollari korxona mablag'laridan, 230,9 million dollari O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan, 218,5 million dollari xorijiy investitsiya va kreditlar xisobidan tashkil topishi ko'zda tutilgan (3.2.1-jadval). Buyurtmalar paketi 4 ta Boing-767, 2 ta Boing-787 (Dreamliner) va 10 ta Eyrbas-320 samolyotni o'z ichiga oladi. Buyurtmalar xajmining yarmidan ko'prog'i amalga oshirilib, 2012 yilning boshida yana bitta Boing-767 O'zbekistonga keltiriladi.

"2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ichki moliyalashtirish manbalari bilan birgalikda xorijiy investitsiyalarni xam faol jalb qilishga aloxida e'tibor qaratilgan. Jumladan, dastur doirasida bajarilayotgan "O'zbekiston xavo yo'llari" MAK xavo kemalari parkini yangilash va unifikatsiyalashga xorijiy banklarning 218,5 million dollarlik kreditlari, Buxoro shaxar aeroportida xalqaro yo'lovchi terminali qurilishini tugatishga Dubay Amirligi Xukumatining 4,5 million dollarlik grantlari (BAA) jalb qilindi.

"O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tarkibida uchuvchilar, bort kuzatuvchilari va aviatsiya soxasining boshqa tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish O'quv-mashq markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu markaz nafaqat milliy aviakompaniyaga, balki xorijiy aviakompaniyalarga xam shu kabi xizmatlarni ko'rsatib, qo'shimcha valyuta daromadlarini shakllantiradi. Aviakompaniya xizmatlari tarkibini diversifikatsiya qilish xamda valyuta tushumini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishda O'quv-mashq markazi qoshida trenajyor majmuasi binosining qurilishiga 3,5 million dollar miqdoridagi mablag' yo'naltirilgan bo'lib, uning asosiy qismini, ya'ni 2,8 million dollarini korxona mablag'lari tashkil etadi.

Toshkent aeroportida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida soatiga 400 yo'lovchiga maxalliy yo'nalishlarda xizmat ko'rsata oladigan yangi aerovokzalning qurilishiga 29 million dollar miqdoridagi investitsiya mablag'lari ajratilgan bo'lib, uning 14,1 million dollari korxona mablag'lari, 14,1 million dollari davlat byudjeti va davlat maqsadli fondlari mablag'laridir.

Toshkent xalqaro aeroporti mamlakat transport-kommunikatsiya tarmog'ida aloxida o'rin tutadi. Aeroport orqali 20dan ortiq mamlakatning 45dan ortiq aeroportga parvozlar amalga oshiriladi. Jaxon standartlari asosida bort taomlari ishlab chiqaruvchi "Kentirg" davlat unitar korxonasi, g'arb va sharqda ishlab chiqarilgan samolyotlarni ta'mirlovchi va ularga texnik xizmat ko'rsatuvchi "Uzbekistan airways technics" davlat korxonasi milliy aviakompaniya valyuta

daromadlarini oshirishda muxim ahamiyat kasb etmoqda. “Uzbekistan airways technics” davlat korxonasi bazasida Boing-787 samolyotlariga texnik xizmat ko`rsatishga mo`ljallangan yangi angar qurilishiga loyixa asosida 40 million dollar miqdorida mablag` yo`naltirilgan bo`lib, ushbu mablag`ning 12 million dollari korxona mablag`lari, 28 million dollari O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi mablag`laridir.

Mamlakatimizning Navoiy, Buxoro, Nukus, Termiz va boshqa aeroportlarining xalqaro mavqei ortib, xizmat turlarining ko`payib borayotgani ushbu aeroportlarga aloxida e`tiborni jalb qiladi. SHu yo`nalishda Buxoro aeroportidagi xalqaro yo`lovchi terminali qurilishini tugatishga Dubay Amirligi Xukumatining 4,5 million dollarlik grantlari jalb qilingan. Termiz aeroportining maxsus texnikasi uchun angar qurilishiga Germaniya xukumatining 0,7 million dollarlik investitsiya va kreditlari, aerovokzalni rekonstruktsiya qilishga 5,8 million dollarlik korxona mablag`lari yo`naltirilgan.

Dastur asosida Nukus va Andijon shaxar aeroportlari perronlari va uchish-qo`nish yo`laklarini rekonstruktsiya qilishga 21,5 million dollar miqdorida investitsiya kiritish mo`ljallangan bo`lib, uning 13,6 million dollarini korxona mablag`lari va 7,9 million dollarini Davlat byudjeti va davlat maqsadli fondlari mablag`lari tashkil etdi. Qarshi va Namangan aeroportlarining yorug`lik-ogoxlantirish qurilmalarini rekonstruktsiya qilishga korxona mablag`laridan 3,8 million dollar miqdorida investitsiya kiritish ko`zda tutilgan.

7.4.2-jadval


2011-2015 yillarda xavo transportini rivojlantirish loyixalari

Xavokommunikatsiyasidagi loyixalar	Loyixaning umumiy qiymati	Investitsiyalar xajmi, jami	Jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha			
			korxona mablag`laridan	O`z. TTF	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Davlat byudjeti va davlat maqsadli fondlari
Nukus shaxar aeroportining perronlari va uchish-qo`nish yo`laklarini rekonstruktsiya qilish	7,7	6,2	6,2	-	-	-
Andijon shaxar aeroportining uchish-qo`nish yo`laklarini rekonstruktsiya qilish	15,8	15,3	7,4	-	-	7,9
Qarshi va Namangan shaxar aeroportlarining yorug`lik-ogoxlantirish qurilmalarini rekonstruktsiya qilish	3,8	3,8	3,8	-	-	-
Farg`ona shaxar aeroportining yorug`lik-ogoxlantirish qurilmalarini modernizatsiya qilish	0,1	0,1	0,1	-	-	-
Navoiy shaxar aeroportida yo`lovchi terminalini rekonstruktsiya qilish	5,5	5,3	5,3	-	-	-
Navoiy aeroportida markazlashgan yoqilg`i quyish tizimini qurish	35,0	35,0	10,5	24,5	-	-

Navoiy intermodal logistika markazining tashkil topishi O`zbekistonning jaxon transport-kommunikatsiya tarmoqlariga integratsiyalashuvini yanada mustaxkamlaydi. Navoiy intermodal logistika markazida xavo yo`llari bilan birga temir va avtomobil` yo`llari kommunikatsiyalari

xam mujassamlashgan. Aeroport infratuzilmasi jaxon standartlari asosida rekonstruktsiya qilinib, barcha turdagi samolyotlarni qabul qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish xamda bir kecha-kunduzda 300 tonna yukni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu aeroport jaxon transport tarmog'ining markazlaridan biriga aylandi. 2011 yilda logistika markazlari faoliyati jadallashdi. Xususan, Navoiy xalqaro intermodal logistika markazi orqali 50 ming tonna yuk tashildi. YUk va yo'lovchi oqimlarining yil sayin oshib borayotgani aeroportda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Milliy va xorijiy aviakompaniyalarning Navoiy aeroporti orqali xalqaro yo'nalishlardagi qatnovlari miqdorining keskin oshishi tegishli infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. SHu o'rinda Navoiy aeroportining yo'lovchi terminalini rekonstruktsiya qilishga korxona mablag'laridan 5,5 million dollarlik investitsiya kiritish mo'ljallangan. Aeroportning markazlashgan yoqilg'i quyish tizimi qurilishiga 35 million dollar miqdoridagi mablag' ajratilgan bo'lib, uning 10,5 million dollarini korxona mablag'lari 24,5 million dollarini O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari tashkil etadi.

2007 yilda "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tomonidan MDX, uzoq xorij va maxalliy yo'nalishlarda 1973,0 ming yo'lovchi o'z manziliga etkazilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2008 yilda 2069,3 ming kishini tashkil etdi. 2008 yilda boshlangan jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jaxon mamlakatlari iqtisodiyotiga, ayniqsa, aviatashuvlar xajmiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jaxonning xatto moliyaviy jixatdan baquvvat aviakompaniyalari United Airlines, Lufthansa, Air Frans, British Airways va boshqa kompaniyalar bunday ta'sir darajasidan katta miqdorda zarar ko'rishdi. SHu qatorda "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasining yo'lovchi tashuvlari miqdori 2069,3 ming yo'lovchidan 1888,4 ming yo'lovchiga kamaydi. Biroq xukumatimizning oqilona iqtisodiy siyosat olib borishi, milliy aviakompaniya raxbariyati va ishchi-xodimlarining fidokorona mexnati bunday vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirdi. SHunday qilib, milliy aviakompaniyaning yo'lovchi tashish xajmi 2009 yilda 2166,4 kishiga etgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 7,2 foizga oshib, 2322 ming kishini tashkil etdi.



7.4.1-rasm. 2007-2011 yillarda "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasining yo'lovchi va yuk tashish xajmining o'sish dinamikasi.

Prezidentimizning 2008 yil 2 dekabrda PF-4059 sonli farmoniga asosan Navoiy aeroporti xududida erkin industrial-iqtisodiy xudud va xalqaro intermodal logistika markazining barpo etilishi natijasida (jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlariga qaramasdan) "O'zbekiston xavo yo'llari" milliy aviakompaniyasining yuk tashish xajmi 2009 yilda 28 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 45,9 ming tonnani tashkil etdi. 2011 yilda esa, yuk tashish ko'lamini va geografiasining kengayishi evaziga bu ko'rsatkich 48,2 ming tonnaga etdi.

7.5. Suv transporti

U rayonlararo xalq xo'jalik yuklarini tashish xamda Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar uchun xizmat qiladi.

Respublika suv transporti salohiyatida Amudaryoning ulushi katta. 1950 yilda Amudaryoning Surxondaryo viloyati xududida Termiz daryo porti tashkil etilgan, 1952 yilda esa Xo'jayli kema ta'mirlash zavodi qurilgan. Amudaryo soxillarida yangi SHarlavuy, To'rtkul, Beruniy, qoratov, Xo'jayli bandargox (pristan) lari qurilgan.

1994 yildan boshlab mamlakat suv transportini yaxshilash maqsadida bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan O'rta Osiyo paroxodchiligining O'zbekistondagi bo'limlari negizida "Termiz daryo porti", "Xorazm daryo porti", "qoraqalpog'iston daryo porti" ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etilgan (1995). "Uzavtotrans" korporatsiyasi xuzurida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo'yicha (Toshkentda) boshqarma tuzilgan bo'lib, u mamlakat suv transportiga umumiy xabarlik qiladi.

Transport va muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy maqsadli yo'nalishlari

O'zbekiston zamini tarixdan ma'lumki, savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalar va Buyuk ipak yo'li bo'ylab shakllangan turli tsivilizatsiyalarni tutashtirib turuvchi markaz bo'lib kelgan. Xozirgi globalashuv sharoitida Markaziy Osiyoning xalqaro tashuvlardagi ahamiyati to'xtovsiz o'sib bormoqda. Bu o'rinda, birinchi navbatda, mintaqa etakchilaridan biri bo'lgan O'zbekistonning salohiyati yaqqol ajralib turadi. Bugungi kunga kelib samarali tashuvlar tizimi iqtisodiy o'sishning xalq qiluvchi omili ekani xech kimga sir bo'lmay qoldi. Transport tizimlari va kommunikatsiyalari Markaziy Osiyo orqali transosiyo va transevropani tashuvlarining asosidir.

Dengizga chiqish yo'lining mavjud emasligiga qaramasdan, Markaziy Osiyoning qulay geografik joylashuvi unga qator qulayliklar tug'diradi. Avvalo, Markaziy Osiyo etakchi mintaqaviy iqtisodiy bozorlar – Evropa va Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyo, Uzoq SHarq oralig'ida joylashgan. Ushbu bepoyon xududning yillik umumiy import xajmi 335 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. Markaziy Osiyo orqali YAqin va O'rta SHarqqa borishning eng qisqa yo'li o'tgan.

Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda, bizning pirovard maqsadimiz «... Evropa va Osiyo o'rtasidagi savdo oqimining ma'lum qismini mamlakatimizdagi tranzit yo'nalishlariga burish va shu asosda yurtimizda transport va tranzit xizmati xajmini oshirish, mavjud infratuzilma negizida logistika markazlarini tashkil etish, minglab odamlarni ish bilan ta'minlashdan iborat».

Ammo O'zbekistonning Markaziy Osiyoning xalq qiluvchi transport-tranzit tarmog'iga aylanishi uchun transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va

Бугунги кунда юксак тараққий топган замонавий мамлакатни иқтисодиёт ривожини, шаҳарлар ва аҳоли пунктларининг ҳаётий фаолиятини таъминлайдиган магистрал коммуникацияларнинг кенг тармоғисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Ислом Каримов

yangilash, maxalliy va xalqaro transport xizmatlari tarkibini diversifikatsiya etish, yangi transport yo`laklarini shakllantirish va rivojlantirish, transport xizmatlari sifatini oshirish va tannarxini kamaytirish talab etiladi.

YUqori darajada taraqqiy etgan transport magistrallari va kommunikatsiyalari O`zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish bilan birgalikda, mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini xam belgilaydigan mustaxkam iqtisodiy o`sinh nuqtai nazaridan muxim axamiyatga molikdir.

Mazkur yo`nalishd mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda PQ – 1446-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan “2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to`g`risida”gi dasturni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu dasturdan ko`zlangan asosiy maqsad - ishlab chiqarish, transport va muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlarining respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va xududlarini istiqbolda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan uzviy bog`liq xolda ildam rivojlanishini ta`minlash xamda buning negizida yangi ish joylarini yaratish, axolining bandligi va turmush darajasini uzluksiz o`shib borishiga erishishdir.

YUqorida ta`kidlangan fikrlarga uzviy bog`liq xolda dasturda quyidagilar 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo`nalishlari etib belgilangan:

- xorijiy va ichki moliyalashtirish manbalarini, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish ko`lamini kengaytirish, qurilish va industriya ishlab chiqarish komplekslarini yangilash asosida transport kommunikatsiyalari, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlari, muxandislik infratuzilmasi ob`ektlarini kompleks ravishda va ildam rivojlantirish xamda qurish;

- respublikaning barcha mintaqalarini puxta birlashtiradigan yagona milliy avtomobil` transport tizimini yaratish bo`yicha loyixalarni amalga oshirishni jadallashtirish, O`zbekiston milliy magistrali tarkibiga kiradigan, xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, zamonaviy tsement-beton va asfal`t-beton qoplamalar bilan ta`minlangan to`rt polosali yo`l uchastkalarini qurish va rekonstruktsiya qilishni kengaytirish, Qamchiq dovonidan o`tadigan avtomobil` yo`llarini rekonstruktsiya qilish;

- respublikamizning temir yo`l transportini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, temir yo`llar rekonstruktsiyasini amalga oshirish, Toshkent – Samarqand yuqori tezlikdagi temir yo`l liniyasini jixozlash xamda ishga tushirish, Buxoro va Qarshi shaxarlarigacha bo`lgan temir yo`l uchastkalarini elektrlashtirish, xarakatdagi temir yo`l tarkibini zamonaviy yuqori unumli lokomotivlar, yuk tashuvchi va yo`lovchilarga mo`ljallangan vagonlar bilan yangilash;

- xavo kemalari parkini dunyoning etakchi Boeing va Aerbas aviakompaniyalarining zamonaviy, xar jixatdan qulay va tejamli samolyotlari bilan tubdan yangilash xisobidan aviatsiyada tashishning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustaxkamlash, ularga servis xizmati ko`rsatishni tashkil etish, Toshkent shaxri va respublikaning viloyat markazlarida aeroportlar qurish va mavjudlarini rekonstruktsiya qilish xamda shu asosda, tranzitni xisobga olgan

xolda, yuk tashish xajmini ko`paytirish, aviatsiyada yo`lovchilar tashish darajasi xamda sifatini oshirish, eng asosiysi esa – ularning xavfsizligini ta`minlash;

- zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlari va inshootlarini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, uyali aloqa xamda ma`lumotlarni keng ko`lamda uzatish tarmoqlarini kengaytirish, respublika mintaqalarini raqamli televideniaga bosqichma-bosqich o`tkazish;

- transportda yuk tashishni tashkillashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan, ko`p maqsadli zamonaviy samarali transport-tranzit infratuzilmasini yaratish, xar xil transport turlari – avtomobil`, temir yo`l va aviatsiya transporti tomonidan transport xizmati ko`rsatishdagi bog`liqlikni ta`minlash, Angren shaxridagi va Navoiy shaxri aeroporti negizidagi logistika intermodal` markazlarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va faoliyat yuritish samaradorligini oshirish;

- xalqaro transport kommunikatsiyalariga qisqa yo`l bilan chiqishni va tranzit yuk tashish ko`payishini, mintaqaviy xamda dunyo bozorlariga chiqishni kengaytirishni, eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish va milliy maxsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirishni ta`minlaydigan yangi transport yo`laklarini shakllantirish;

- milliy avtomagistral` yoqasi va temir yo`llar bo`ylab infratuzilma va servis ob`ektlarini qurish xamda rekonstruktsiya qilish, avtomobil` va temir yo`l magistrallarida qatnovlar uchun xalqaro standartlarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish, buning negizida yangi ish joylarini shakllantirish xamda axolining bandligini oshirish;

- O`zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish uchun qo`shimcha zamonaviy yo`l-qurilish texnikasining o`z vaqtida xarid qilinishini ta`minlash, yo`l qurilishida zamonaviy qurilish texnologiyalarini, uskunalar xamda sifatli materiallarni qo`llash;

- respublika mintaqalarida, ayniqsa qishloq joylarda, muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini – suv ta`minoti, kanalizatsiya, elektrlashtirish tizimlari va boshqalarni qurish, modernizatsiya va rekonstruktsiya qilishni kengaytirish, shu asosda axolini va xo`jalik yurituvchi sub`ektlarni suv va elektr energiyasi bilan ta`minlash darajasi xamda sifatini oshirish, shaxarlarda va axoli punktlarida sanitariya-epidemiologiya xolatini yaxshilash;

- xomashyo, materiallar va energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishni ta`minlaydigan, energiya xamda resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo`llash asosida ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport va kommunikatsiya ob`ektlarini qurish va foydalanishda ishlab chiqarish xarajatlari xamda tannarxini izchil pasaytirib borish.

Mazkur dasturdan umumiy qiymati 8 milliard 504 million dollarlik jami 85 ta loyixa o`rin olgan bo`lib, ularning bajarilishi natijasida jami 14394 ta yangi ish o`rni yaratiladi (3.1.1-jadval).

2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Yo'nalish nomi	Loyixa qiymati (mln. dollar)	Loyixa soni
Dasturning umumiy qiymati	8504,0	85 ta
<i>shu jumladan:</i>		
Avtotransport sistemasi	3544,0	11 ta
Temir yo'l transporti sistemasi	2146,6	14 ta
Xavo yo'l transporti sistemasi	993,7	14 ta
Muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va telekommunikatsiya sistemasi	1794,7	44 ta
SHaxar elektrotransporti parkini yangilash	24	2 ta

Dastur doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar mamlakatimizning asosiy transport shakllari: xavo, temir yo'l va avtomobil' transport tizimini, shuningdek, muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirishga, mavjud ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish salohiyatidan to'liq va keng miqyosda foydalanishga qaratilgan.

7.5. Transport infratuzilmasi va muxandislik-kommunikatsiyalar qurilishini kompleks va jadal rivojlantirish istiqbollari

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotining xalqaro miqyosdagi jozibadorligini oshirishda nafaqat transport magistralari, balki ularning atrofidagi kommunikatsiyalar xam muxim o'rin tutadi. Zamonaviy talablar asosida rivojlantirilgan transport kommunikatsiyalari nafaqat mamlakatimiz orqali xalqaro tranzit tashuvlari hajmining ko'payishiga, balki sayoxatchilar oqimining oshishiga xam olib keladi. Bundan tashqari, transport kommunikatsiyalarining rivoji axolini qo'shimcha ish bilan ta'minlash bilan birga ularning turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy axvolini yuksaltirish, shuningdek, transport kommunikatsiyalari atrofini obodonlashtirishga xizmat qiladi.

Бугунги кунда юксак тараққий топган замонавий мамлакатни иқтисодиёт ривожини, шаҳарлар ва аҳоли пунктларининг ҳаётий фаолиятини таъминлайдиган магистрал коммуникацияларнинг кенг тармоғисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Ислом Каримов

SHu bois, Prezidentimiz ma'ruzasidan kelib chiqib, yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlari tomonidan xizmatlar ko'rsatishni jadallashtirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- xaydovchi va yo'lovchilar, avtoturistlarning dam olishini ta'minlash;
- transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish;
- avtotransport xizmati;
- tibbiy yordam va avariya xolatida yordam berish.

2011-2015 yillarda iqtisodiyotimizning qon tomiri bo'lgan O'zbekiston milliy avtomagistrali yo'nalishi bo'ylab infratuzilma va servis tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan dastur bo'yicha ishlar davom ettirilib, 2011-2012 yillarda jami 243 ta ob'ekt qurilib, foydalanishga topshiriladi. Birgina 2011 yilning o'zida 66 ta ob'ekt qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, joriy yilda an'anaviy servis va kommunikatsiya ob'ektlari, ya'ni ko'ptarmoqli yoqilg'i quyish shoxobchalari (13 ta), avtomobilga gaz to'ldirish kompressor stantsiyalari (12 ta) bilan birgalikda tibbiy va avariya-chaqiruv xizmati bilan ta'minlangan texnik yordam ko'rsatish punktlari (21 ta), avtomobillar uchun qisqa to'xtash maydonlari xamda sanitariya-gigiena tarmoqlari (5 ta),



zamonaviy kempinglar (5 ta) va motellar (5 ta) xam bunyod etiladi (3.4.1-jadval). Yo'l yoqasi infratuzilma ob'ektlarini ishga tushirish natijasida jami 10404 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlarini kompleks joylashtirishning maqbulligini ta'minlash maqsadida aloxida talablar ishlab chiqilgan. Masalan, O'zbekiston milliy avtomagistrali qo'riqlash zonasi polosasining kengligi tasdiqlangan shaxarsozlik normalari va qoidalariga muvofiq yo'lining bir tomonidan 25 metrni tashkil etadi.

7.4.1-jadval

O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l yoqasi infratuzilmasi va servisi ob'ektlari qurilishini rivojlantirish

Loyixalashtirilayotgan yo'l yoqasi infratuzilmasi va servis ob'ektlari	jami	Jumladan, yillarda:				
		2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.
jami, shu jumladan:	240	95	66	40	28	11
Kempinglar	19	7	8	2	1	1
Motellar	18	6	5	5	1	1
Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchasi (AZS)	36	19	13	4	-	-
Avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stantsiyalari (AGNKS)	49	26	12	6	5	-
Avarya-chaqiruv va tibbiy yordam xizmatlari bilan texnik xizmat ko'rsatish punktlari	78	24	21	15	14	4
Avtomobillarning qisqa muddatli to'xtash maydonchalari sanitariya-gigiena uzellari bilan birgalikda	31	6	5	8	7	5
Turizm yo'l infratuzilmasi kompleks ob'ektlari	9	7	2	-	-	-

Kempinglar va motellar axoli punktlari chetida yoki uning tashqarisida, imkoni boricha, turistlar va xarakatning boshqa qatnashchilari uchun jozibali bo'lgan xushmanzara joylarda, asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun kam qiymatli bo'lgan, avtomagistralning muxofaza zonasi chegarasiga tutash xududga bevosita tutashgan yo'l uchastkalarida joylashtiriladi.

Tranzit motellar va kempinglar sig'imi (yotoq joylar soni) o'tadigan avtoturistlar soni xamda shaxarlararo xamda xalqaro yo'lovchilar va yuk tashish avtomobillari xarakati jadalligi xisobga olingan xolda qabul qilinishi kerak.

Kempinglar va motellar bir-biridan shaxmat tartibida yo'lining xar ikki tomonida joylashtirilishi kerak. Kempinglar va motellar oralig'idagi masofa 100 kilometrdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Dam olish maydonchalari xar 15 - 20 kilometrda joylashtirilishi kerak.

Bundan tashqari, O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlarining joylashtirilishini ko'rib chiqish va kelishish bo'yicha komissiya tuzilgan bo'lib uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlarini joylashtirishda yagona shaxarsozlik siyosati o'tkazilishini ta'minlash;

Барчамиз, аввало, вилоят ва ҳудудий тузилмалар раҳбарлари транспорт ва коммуникация, биринчи навбатда йўл қурилиши соҳаси, шунингдек, ижтимоий ваободонлаштириш ишлари кўп меҳнат талаб этадиган вазияни вақтда яхши ҳақ тўланадиган, аҳолини иш билан таъминлаш имконини берадиган тармоқлар эканини доимо ёдимизда тутишимиз зарур.

Ислом Каримов


- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar xokimliklari tomonidan taqdim etilgan xujjatlar asosida O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlarining joylashtirilishini kelishish;

- ob'ektni joylashtirish uchun tanlanayotgan er uchastkasining axoli punktlari va umuman, mintaqa xududlarida qurilishni rivojlantirish bo'yicha shaxarsozlik xujjatlariga, shuningdek, shaxarsozlik, ekologiya, sanitariya, yong'inga qarshi kurash va boshqa majburiy norma va qoidalarga muvofiqligini xar tomonlama taxlil qilish;

- tasdiqlangan dasturga muvofiq O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilishning aniq manzilli ro'yxatlarini tasdiqlash;

- O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servis ob'ektlarini joylashtirishni kelishish yuzasidan qonun xujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qilish.

Ma'lumki, mamlakatimiz xududlari orasidagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarni, jumladan, transport tashuvlarini zamonaviy telekommunikatsiya tarmog'isiz tasavvur etish qiyin. YUrtboshimiz ma'ruzasida telekommunikatsiya tarmog'i ko'lamini kengaytirish, uni rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun qo'shimcha resurslarni jalb etish lozimligi ko'rsatib o'tildi.



7.4.1-rasm. 2011-2015 yillarda ichimlik va oqava suvi ta'minoti loyixalarining moliyalashtirish manbalari.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, joriy yilda uzunligi 172 kilometrdan ortiq bo'lgan Urgut – SHaxrisabz va Boysun – Denov optik tolali aloqa liniyasi qurilishini amalga oshirish mo'ljallanmoqda. Ayni vaqtda 89 ta yangi baza stantsiyalarini barpo etish xisobidan simsiz aloqa zonasini kengaytirish, Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida teleuzatgichlar o'rnatish orqali raqamli televideniaga bosqichma-bosqich o'tish va boshqa ishlarni bajarish shu boradagi vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha mo'ljallangan investitsiya loyixalarini amalga oshirish ishlariga 2012 yilda 176 million dollardan ortiq xajmdagi investitsiyalarni yo'naltirish rejalashtirilmoqda. Jumladan, «Jizzax-Bulung'ur» yo'nalishida 72 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyasi qurilishiga 500 ming dollar, raqamli televideniaga bosqichma-bosqich o'tish loyixasini amalga oshirishga 5,8 million dollar, telekommunikatsiya sanoatini rivojlantirish (250 ming dona raqamli telealoqani qabulqilgichlar, Set top box ishlab chiqarish, LCD va boshqalar)ga 19 million dollar miqdoridagi mablag' yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlari sohasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarining muxim jixati shundaki, ular bir-biri bilan bog'liq xolda amalga oshirilmoqda. YUqorida zikr etilgan transport infratuzilmasi va telekommunikatsiya soxalari bilan birgalikda, muxandislik-kommunal soxa xam jadallik bilan rivojlantirilmoqda. 2011-2015 yillarda ichimlik va oqava suvi ta'minoti sohasida rejalashtirilgan 37 ta (shu jumladan, 7 ta amalga oshirilayotgan) investitsiya loyixasining umumiy xajmi 949,8 million dollarni tashkil etadi. SHu jumladan, ichimlik tizimi bo'yicha 27 ta loyixaga 374,1 million dollar va oqava suvi tizimi bo'yicha 10 ta loyixaga 575,1 million dollar miqdorida mablag' ajratiladi.

Ushbu yo'nalishdagi investitsiya loyixalarini moliyalashtirish manbalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu borada xorijiy investitsiyalarning salmog'i yuqoriligining guvoxi

bo`lamiz. 3.4.1-rasmdan ko`rinib turibdiki, xaqiqatan xam, investitsiya mablag`larining 90 foizi xorijiy investorlar xissasiga to`g`ri keladi. Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki 50 foizli ulushi bilan etakchilik qilayotgan bo`lsa, Xitoy Xalq Respublikasi va Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki xissasiga 20 foizdan investitsiya mablag`lari to`g`ri keladi.

7.4.2-jadval

2011-2015 yillarda transport infratuzilmasi, aloqa va telekommunikatsiya xamda muxandislik-kommunal soxalarni rivojlantirishni jadallashtirish dasturi investitsiya loyixalari

№	Loyixa egasi va nomi	soni	Xajmi, mln.doll.	Jumladan, moliyalashtirish manbalari bo`yicha							
				I		II		III		IV	
				soni	mln. doll.	soni	mln. doll.	soni	mln. doll.	soni	mln. doll.
	Jami dastur bo`yicha, shu jumladan:	368	7389,2	304	1288,0	4	411,8	44	3552,8	16	2136,7
1	transport infratuzilmasi	322	5607,4	302	1281,7	4	411,8	10	2097,1	6	1816,7
2	aloqa va telekommunikatsiya soxasi	5	74,1	2	6,2	-	-	3	67,9	-	-
3	injenerlik-kommunal soxa	41	1426,9	-	-	-	-	31	1387,7	10	39,2

Izox: I – korxonaning o`z mablag`lari; II – O`zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi; III – chet el investitsiyasi va kreditlari; IV – davlat byudjeti va maqsadli jamg`armalar.

Amalga oshiriladigan loyixalarning xududiy tarkibiga e`tibor qaratadigan bo`lsak, bunda asosiy xududlar Farg`ona vodiysi viloyatlari xamda Sirdaryo va Jizzax viloyatlari xisoblanadi. Farg`ona vodiysi viloyatlariga jami 291,7 million dollar, jumladan, oqava suvi tizimiga 97 million dollar, shuningdek, Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga 140,6 million dollar, jumladan oqava suvi tizimiga 29 million dollar miqdorida mablag` yo`naltiriladi.

SHu bilan birga, sanoat tarmoqlarini o`zaro bog`liq xolda rivojlantirish quyidagi ishlarni xam o`z ichiga oladi: elektr uzatish tarmoqlarini qurish – 22,2 kilometr; gaz tarmoqlarini qurish – 62 kilometr; ichimlik suvi tarmoqlarini qurish – 87 kilometr.

Transport infratuzilmasi va muxandislik-kommunikatsiya soxasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida yaratiladigan qo`shimcha 14394 ta ish o`rinidan 393 tasi O`zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tizimiga va 1075 tasi “O`zkommunxizmat” agentligi xissasiga to`g`ri keladi

8-MAVZU. MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT

8.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning moxiyati va vazifalari

Mintaqaviy siyosatning o`rganish ob`ekti turli ko`rinishdagi xududiy notengliklar yani axolining turmush darajasi va yashash sharoitidagi, ishsizlik va bandlikdagi, aloxida xududlarning iqtisodiy o`sinh sur`atlaridagi va tadbirkorlik sharoitidagi tafovutlar xisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat – xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish xisobiga mamlakatdagi barcha xududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, axolining turli qatlamlari o`rtasida moddiy ne`matlar taqsimotidagi xududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, xukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, maxalliy

xokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy siyosatning maqsadi - mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan xududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Turli mamlakatlarning markaziy xukumatlari, xududiy va maxalliy davlat boshqaruv organlari bunday tafovutlarni bartaraf etish uchun bir qator (mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tuzilishining tipi, ichki muammolari, xokimiyat tepasida turgan partiyalarning maqsadlari) omillarga bog'liq bo'lgan xilma-xil vositalardan foydalanadilar.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi xududiy notengliklarning sabablarini o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim xududlari axolisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar xajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka xududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarning ko'payishi, maxsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsion aloqalarning yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;
- u yoki bu turdagi maxsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish stadiyasi (xom ashyo resurslari, oraliq maxsulotlar, tayyor maxsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va b.q.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsion tizimlar va x.k. bilan ta'minlanishi;
- ijtimoiy-madaniy omillar: shaxarlashuv darajasi, axolining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va x.k.
- Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo'yilmalar qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo'nalishda olib borilmoqda

Birinchi yo'nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma ob'ektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilash. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va xuquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi xisoblanadi. Avtomobil' va temir yo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa liniyalari mavjudligi bunday xududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Xozirda bizning mamlakatimizda qishloq axoli punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan yirik shaxarlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash

(ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali xududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomeratsiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda yirik va katta shaxarlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishni oldini olish, kichik shaxarlar, shaxar posyolkalari va qishloq axoli punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan xisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag'batlantirish. Mazkur yo'nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muxim e'tibor beriladigan asosiy yo'nalish xisoblanadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning quyidagi 2 xil usuli keng qo'llaniladi:

Adolatli usul - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turiki, unga ko'ra mamlakat fuqarolari qaysi xududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajasi deyarli bir xil sharoit va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi.

Samarali usul - umumdavlat manfaatlari yo'lida xar bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish salohiyatlaridan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir.

Xar ikki usul turli xolatlarda o'zaro bir-birini to'ldiradigan yoki bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Bu esa muayyan mamlakat iqtisodiy taraqqiyotning qaysi pog'onasida turganligiga bog'liq. Iqtisodiy salohiyati katta, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan AQSH, Kanada, Yaponiya va G'arbiy Evropa mamlakatlari mintaqaviy siyosatida adolatli usul keng qo'llaniladi.

8.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar

Xorijiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, xududlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha turli mamlakatlarda xilma-xil yo'nalishlar mavjudligiga qaramasdan, ular o'rtasida tafovutlar kam, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi maqsadlari esa quyidagi vazifalarni xal etishga qaratilgan:

- iqtisodiy qoloq mintaqalar rivojlanishini rag'batlantirish;
- markaziy xokimiyat vazifalarining katta qismini maxalliy davlat organlari zimmasiga yuklash;
- yirik shaxarlarda sanoat ishlab chiqarishi to'planishini cheklash;
- yangi o'zlashtirilgan xududlarda ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishni rag'batlantirish.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri xududiy rivojlantirish jamg'armalarini tashkil etish xisoblanadi. Birinchi marta 1975 yilda Evropa Ittifoqi qoshida xududiy muvofiqlashtirish jamg'armasi tashkil etilgan. Boshqa bir qancha mamlakatlarda xam ayrim xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini xal etish maqsadida maxsus jamg'armalar (Italiyada davlat subsidiyasi xisobiga faoliyat ko'rsatadigan va janubiy xududlar

infratuzilmalarini rivojlantirishga yo`naltirilgan «Janub xazinasini»; Bolgariyada ayrim xududlar rivojlanishini jadallashtirish davlat dasturini ta`minlash bo`yicha jamg`arma, Vengriyada uchta maqsadli jamg`armadan iborat xududlar rivojlanishining markaziy jamg`armasi va boshq.) to`zilgan.

Ko`plab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy siyosatining muxim xususiyati shundaki, unda yirik ma`muriy-xududiy birliklar (guberniya, shtat, provintsiya) emas, balki muayyan shaxar va munitsipalitetlar xududiy muvofiqlashtirish makonlari xisoblanadi. Jumladan, Frantsiyada kam rivojlangan Janubi-G`arb mintaqasining 9 ta aglomeratsiya va 17 shaxar, Ispaniyada 10 ta “rivojlanish markazlari” va 2 ta “sanoatni rag`batlantirish markazlari”, YAponiyada 10 ta “sanoat rivojlanishining aloxida rayonlari”, 6 ta “yangi sanoat shaxarlari”, Italiyada 12 ta “sanoatni rivojlantirish areallari” va 26 ta “industrializatsiya yadrolari”, Germaniyada 300 ta “muxim axoli punktlari” va xokazo.

Bu soxada niderlandiyaliklar va bel`giyaliklar tajribasi ayniqsa diqqatga sazovor. SHuni aloxida ta`kidlash lozimki, shaxarlar va qishloqlar rivojlanishini rejalashtirish bo`yicha qonun birinchi marta Bel`giyada 1915 yilda qabul qilingan.

Ko`plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat o`zining ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, turli xududlar uchun turlicha qo`llanilishi mumkin. Masalan, tug`ilishni kamaytirish siyosati nixoyatda qattiq yo`lga qo`yilgan Xitoyning zichlik ko`rsatkichlari ancha past bo`lgan Uyg`ur-Syangan avtonom okrugi va Tibet uchun oilada bolalar soni cheklanmagan.

Rivojlangan mamlakatlar orasida YAponiyaning bu soxadagi tajribasi aloxida afzalliklarga ega. Aniq maqsadga yo`naltirilgan uzoq muddatli dasturlar izchil amalga oshirilishi natijasida YAponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar safidan joy oldi.

YAponiya mintaqaviy iqtisodiy siyosati er va tabiiy resurslarning cheklanganligidan, kishilar faoliyatini tabiiy sharoit bilan uyg`unlashtirish zaruratidan, mamlakat turli xududlari axolisining turmushi bo`yicha bir xil sharoit yaratish talabidan kelib chiqadi.

Umuman, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xar bir bosqichida mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish jamiyat va davlat oldida turgan maqsad va vazifalardan, ularning miqyosi va amalga oshirish imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. YAponiyada moddiy va moliyaviy resurslar xamda ishlab chiqarish quvvatlarini kam rivojlangan, “nomarkaz” mintaqalarga jalb etishning tez moslashuvchan va qulay usuli barpo etildi.

8.3. Mustaqillik yillarida O`zbekiston mintaqaviy siyosatining asosiy yo`nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan boshqa mamlakatlardagi kabi respublikamiz iqtisodiyotida xam “samarali” usulni qo`llash bo`yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ko`plab foydalanilmayotgan zaxiralar ishga tushirilmoqda; yangi korxonalar asosan kommunikatsiyalar bilan yaxshi ta`minlangan kichik va o`rta shaxarlarga joylashtirilmoqda; qishloq xo`jaligida tabiiy-iqlim sharoitiga mos ekinlar ekish joriy etilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, birinchi navbatda boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega xududlar va shaxarlarni rivojlantirishga, mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni kamaytirishga aloxida e'tibor berilmoqda. qishloqda sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni ishga tushirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, respublikamizning turli xududlari maydoni, axoli soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanishi, shaxarlashuv darajasi, axolining turmush sharoiti va boshqalarga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, mamlakat ma'muriy-xududiy birliklari o'rtasidagi axoli zichligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to'g'ri kelsa (1 km^2 maydonda 767 kishi), aksincha eng siyrak mintaqa Navoiy viloyatining Tomdi tumani (1 km^2 maydonda 0,58 kishi) xisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani respublika ma'muriy-xududiy birliklari orasida axoli tabiiy o'sishining yuqoriligi bo'yicha eng oldingi o'rinni egallaydi. 2001 yil davomida bu erda xar 1000 kishiga nisbatan tabiiy o'sish 26,9 kishiga to'g'ri kelgan. Eng quyi ko'rsatkich esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 4,7 kishiga teng bo'lgan.

Axoli tabiiy ko'payishida shaxar va qishloq o'rtasidagi tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan yirik, sanoatlashgan va maxalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan shaxarlarda axoli tabiiy ko'payishi qishloq joylarga nisbatan bir necha bor past ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Oxangaron, CHirchiq shaxarlarida tabiiy o'sish respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Toshkent shaxrining ayrim tumanlari orasida xam shunday tafovutlar uchraydi. Jumladan, maxalliy millat vakillari ko'p istiqomat qiladigan SHayxontoxur tumanida axolining tabiiy ko'payishi Mirzo Ulug'bek tumaniga nisbatan esa 3,7, Xamza tumaniga nisbatan 5,5 marta yuqori.

Samarqand viloyati Urgut tumani axoli soni bo'yicha mamlakat ma'muriy-xududiy birliklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi. U erda 335 ming kishi kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati qorovulbozor tumani esa, aksincha, axolisi eng kam xudud bo'lib xisoblanadi. U erda 13,6 ming kishi yashaydi.

Umuman, xar bir tuman yoki shaxarning o'ziga xos xususiyatlari xaqida bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Mamlakatning mintaqaviy iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning mana shunday aloxida jixatlari albatta xisobga olinishi lozim.

Axolini ijtimoiy ximoya qilish tizimi yordamga muxtojlariga, xususan, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 10 dekabrda "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 437-sonli qaroriga asosan voyaga etmagan (16 yoshgacha bolalari bo'lgan, shuningdek, akademik litsey va kasb-xunar kollejlarda ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan) oilalarga nafaqa ota-onalardan birining shaxsiy arizasi asosida fuqarolarning maxalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi 8.1.-jadval).

8.3.1.-jadval

**O'zbekiston Respublikasida voyaga etmagan farzandlari bo'lgan oilalarga nafaqa
tayinlash xolati***

Ko'rsatkichlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Nafaqa oluvchilar soni, mingta oila	1591,5	1588,3	1585,1	1581,9	1266,8	-324,7	79,6
2-18 yoshgacha farzandi bo'lgan oilalardan nafaqa oluvchilar ulushi, foizda	32,7	30,6	28,7	26,9	20,7	-12,0	-
O'rtacha oylik nafaqa miqdori, ming so'm	26,0	34,8	46,6	56,9	78,4	52,4	301,5

**Jadval O'zbekiston Respublikasi Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

8.1.-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida voyaga etmagan farzandlari bo'lgan oilalardan nafaqa tayinlangan oilalar soni 324,7 mingtaga yoki 20,4 foizga kamaygan. Bu davrda 2-18 yoshgacha farzandi bo'lgan oilalardan nafaqa oluvchilar ulushi 32,7 foizdan 20,7 foizga kamaygan. Biroq taxlil qilinayotgan davrda voyaga etmagan farzandlari bo'lgan oilalarga tayinlangan oylik nafaqa miqdori 26 ming so'mdan 78,4 ming so'mgacha yoki 3,01 marta ortgan.

9-MAVZU. MINTAQALAR MOLIYACI VA UNI TARTIBGA SOLISH

9.1. Xududiy moliyaning mohiyati va tarkibi

Xududiy moliya davlat moliya tizimining muxim tarkibiy qismi bo'lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shaxar) maxalliy byudjetlar, nobyudjet fonlari, mintaqa extiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy vositalaridan iborat. Xududiy moliya axoliga ijtimoiy-madaniy va kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. SHunday qilib, xududiy moliya - xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Xududiy moliya orqali davlat o'zining ijtimoiy siyosatini faol amalga oshirmoqda. Mintaqaviy xokimiyat organlarining byudjetlari uchun ajratilgan vositalar asosida xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, kommunal xizmat soxalarini moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Mintaqalarning moliyaviy resurslari yordamida xukumat taraqqiyoti turlicha bo'lgan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtiradi. Bunday tafovutlarni bartaraf etishda maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun mablag'lar muayyan ma'muriy-xududiy birliklar byudjetlarining daromad manbalari xamda yuqori byudjetlarning ajratmalari xisobidan shakllantiriladi.

Xududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari quyidagilardan iborat:

1. Maxalliy byudjet
2. Munitsipal mulk xisoblanuvchi korxonalarning moliyaviy resurslari.
3. Korxona va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy-kommunal ob'ektlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari.
4. Xududiy nobyudjet fondlari

9.2. Maxalliy byudjet - maxalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbaidir

Xar mamlakatning byudjet tizimi davlatning tuzumi va qurilishi bilan chambarchas bog'liqdir. YA'ni, mamlakatimiz davlatchiligi unitar qurilganligi sababli mamlakatimiz Davlat byudjeti respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxalliy byudjetlardan iborat. SHu bilan birga, davlat byudjetida davlatning maqsadli jamg'armalari xam jamlanadi.

SHunga muvofiq, 2001 yilda kuchga kiritilgan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida "Maxalliy byudjetlar" to'g'risida tushuncha berilgan. Unga ko'ra "Maxalliy byudjet – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shaxar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yil mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi" deb ta'kidlangan.

Xuddi shuningdek, "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti – Davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yil mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi" deb ta'kidlangan.

YUqoridagi tushunchalarga qisqa qilib izox beradigan bo'lsak, Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxar milliy byudjetlari, shuningdek shaxar va tumanlarida jamg'ariladigan soliqlar, yig'imlar va tushumlarning umumiy miqdori va mazkur shakllangan daromadlarning davlatning turli dasturlariga, xududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari umumiy majmuasi maxalliy byudjet deb ataladi.

Endi, xozirgi vaqtgacha maxalliy byudjetlarning xuquqiy bazasi qay tarzda shakllanganligiga to'xtalib o'tishimiz zarur. Ma'lumki, mamlakatimizda amalda bo'lgan va yaratilayotgan barcha qonun va me'yoriy xujjatlar eng avvalo bosh qomusimiz Konstitutsiyaga asoslanadi. SHular kabi, maxalliy byudjetlar xam eng avvalo Konstitutsiyamizda tilga olinib, 122- moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga egaligi, O'zbekistonning davlat byudjeti

respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va maxalliy byudjetlardan iboratligi belgilab qo'yilgan.

Undan keyin maxalliy byudjetlar to'g'risida 1993 yilda (2sentyabr) qabul qilingan "Maxalliy davlat xokimiyati" to'g'risidagi qonunda qayd etilib, bu qonunda kengroq tushunchalar berilgan, ya'ni 11-moddada viloyat, tuman, shaxarning moliyaviy resurslarini byudjetdan tashqari fondlar, kredit resurslari bilan birgalikda byudjet mablag'lari va yuqori byudjetdan beriladigan dotatsiya va subventsiyalar tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur qonunda Xalq deputatlari Kengashi va xokimlarning byudjetga doir xuquqlari (12-modda) belgilangan. Xususan, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shaxar Kengashi viloyat, tuman, shaxar byudjeti va uning ijrosiga doir xisobotlarni tasdiqlaydi. Viloyat, tuman, shaxar byudjeti loyixalarini tayyorlash, uning ijrosini xokim amalga oshiradi. Byudjet loyixasi xokim tomonidan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlari ko'rsatilgan xolda taqdim etiladi. Ijroiya roganlarini pul bilan ta'minlash byudjetda nazarda tutilgan miqdorlarda amalga oshiriladi. Xalq deputatlari tuman, shaxar Kengashlari tegishincha tumanga bo'ysunuvchi shaxar xamda shaxardagi tuman byudjetini va uning ijrosiga doir xisobotlarni xam tasdiqlaydilar.

YAna bir asosiy qonun xujjati bu yuqorida aytib o'tganimiz "Byudjet tizimi to'g'risida" gi qonundir. Mazkur qonunda maxalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirishning umumiy manbalari xarajatlarning yo'nalishlari, byudjetni tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijrosini ta'minlash va xisobotlarini topshirish tartibi, bu borada Xududiy moliya organlarining vazifalari belgilangan.

Maxalliy byudjetlar borasidagi muxim qonun xujjatlaridan yana biri bu Soliq kodeksidir. Unda umumdavlat soliqlari va maxalliy byudjetlarga biriktirilgan soliqlar belgilangan.

Mustaqillik yillarida maxalliy byudjetlarning axamiyati va shu bilan birga Davlat byudjetining ulushidagi umumiy miqdori ortib bordi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 10 martidagi PQ -24 sonli "Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni islox qilish xamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish dasturi to'g'risida"gi qarori bilan 5 ta kontseptsiya tasdiqlangan. SHulardan birinchisi bu davlat qurilishi va boshqaruvchi, qonunchilik xokimiyatining roli va ta'sirini kuchaytirish soxasidagi kontseptsiyada markazning ayrim vakolatlarini maxalliy davlat xokimiyatlariga berish va detsentralizatsiya, o'zini-o'zi boqarish organlari - maxalliy va qishloq fuqarolari yig'inlari vakolatlari va rolini kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalari qo'yilgan. Xususan, Maxalliy davlat xokimiyati tqg'risidagi qonunni yangi taxrirda ishlab chiqish va boshqa masalalar. Bundan kelib chiqadiki, kelgusida maxalliy byudjetlarning roli va axamiyati xam ortib boradi.

Maxalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi quyidagicha:

1. Maxalliy soliqlar.
1. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar.
2. Maxaliy byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovutni qoplashga byudet dotatsiyasi.
3. maxalliy byudjetda ko'zda tutilgan maqsadli xarajatlarni amalga oshirishga subventsiya.

Maxalliy byudjetlarning daromadlar qismini taxlil qiladigan bo'lsak, ayni vaqtda Soliq kodeksiga muvofiq maxalliy byudjetlarga 6 soliq turi birlashtirilgan, ya'ni mazkur soliqlar to'lig'icha maxalliy byudjetlarga tushiriladi, bularga:

- mol-mulk solig'i ;
- er solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel' yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- ayrim turlardagi tovarlar bilan savdo qilish xuquqi uchun yig'im;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im kiradi.

“Byudjet tizimi to'g'risida”gi qonunning 23 – moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va maxalliy byudjetlardan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilar mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

1. Fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha).
2. Ijtimoiy ta'minot.
3. Axolini ijtimoiy ximoya qilish.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat xokimiyati va boshqaruvi organlar xamda maxalliy davlat xokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash.
5. Iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash.
6. Qonun xujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish.
7. Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

SHuningdek, maxalliy xokimliklarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadida “Byudjet tizimi to'g'risida”gi Qonunning 32-35 moddalariga muvofiq yil boshida maxalliy byudjet xisob raqamida shakllangan erkin qoldiq va choraklar yakunida daromadlarning rejadan oshirib bajarilgan qismini turli ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarga yo'naltirish xuquqi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrda PQ–244 sonli “O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq maxalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining barcha darajadagi maxalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, maxalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida 2006 yilda umumdavlat soliqlaridan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlariga belgilangan soliq, respublikada ishlab chiqariladigan alkogolli maxsulotlar, spirt, pivo va o'simlik yog'iga aksiz solig'i bo'yicha tushumlar to'liq miqdorda maxalliy byudjetlarga o'tkazilgan.

Maxalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishidagi ushbu yo'nalishni Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'kidlagan edi: “Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, maxalliy byudjetlarni

mustaxkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligini va bu boradagi mas'uliyatini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari bu narsa maxalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini izlab topishga rag'batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustaxkamlaydi".

Prezidentimizning so'zlaridan shu narsani uqish mumkinki, Xududlarni iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuksak natijalarga erishishda maxalliy byudjetlarning daromadlari muxim o'rin egallaydi.

Maxalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol fondlari aloxida ma'muriy-xududiy birliklar va axolining turli ijtimoiy guruxlari orasida taqsimlanadi. SHu bilan birga, maxalliy byudjetdan maxalliy sanoat, oziq-ovqat sanoati, kommunal xo'jalik kabi axoli turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxalari xam moliyalashtiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ayrim mamlakatlarda (masalan, Gruziya va Ukrainada) maxalliy xokimiyat organlarining mustaqilliklari cheklangan bo'lib, ular markaziy xukumat tomonidan ajratilgan vositalarni xarajat qilishgagina mas'uldirlar.

Lekin, boshqa ko'plab mamlakatlarda maxalliy boshqaruv organlari uchun o'z xududlarida belgilangan mezonlar bo'yicha soliqlar yig'ish va ularni xarajat qilish vakolatlari berilgan. Jumladan, Rossiya fiskal federatsiya xarakteriga ega bo'lib, uning tarkibidagi sub'ektlar keng moliyaviy avtonomiyaga egadirlar. Maxalliy xokimiyat organlarining yalpi davlat xarajatlari tarkibidagi ulushi turli mamlakatlarda turlicha. Jumladan, bu ko'rsatkich Xorvatiyada 15% ni, Rossiyada 50%ni, O'zbekistonda 58% ni tashkil etadi.

Xududiy xokimiyat organlariga (ular transfertlar bo'ladimi, soliq tushumlaridan xududda qoladigan ulushmi yoki maxalliy soliqlar bo'ladimi) o'z xarajatlarini moliyalashtirish manbalari talab etiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning xukumatlari odatda maxalliy xokimiyatlar uchun soliq tushumlarining ulushini va xududlarning o'z daromadlari xajmini cheklashga xarakat qiladilar; shu bilan birga, maxalliy soliqlar stavkasini yoki ularning soliqqa tortish bazasini belgilash xuquqini o'zida saqlab qoladi. Xududiy xokimiyat organlari ixtiyorida qoldiriladigan soliqlar «mayda» bo'lib (mol-mulk solig'idan tashqari), ular maxalliy xokimiyat organlari daromadlarining juda kam (Vengriyada 6%, Estoniyada 9%, O'zbekistonda 15%) qismini tashkil etadi.

9.3. Mol - mulk solig'ining maxalliy byudjetdagi roli

Mol - mulk solig'i soliq soxasidagi isloxotlar natijasida maxalliy xokimiyat organlari uchun mo'ljallangan yagona salmoqli soliq turi bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, mazkur soliq turining imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun xali ko'p ish qilinishi zarur. Uy-joy fondining kattagina qismi xamon davlat yoki kommunal mulki bo'lib qolmoqda. Xaqiqiy baxo belgilash imkoniyatini beruvchi uy-joy bozori esa endiga shakllanmoqda. Bundan tashqari, uy-joylarning xaqiqiy narxini aniqlash uchun avvalo ularni qayta baxolash lozim. Xozirgi paytda Texnik inventarizatsiya byurolari (BTI) xujjatlarida qayd etilayotgan narxlar ob'ektning inflyatsiya sharoitidagi xaqiqiy baxosini ko'rsatmayotir. SHuning uchun xam

mazkur soliq turi bo'yicha tushumlar 1999 yilda O'zbekistonda davlat byudjeti yalpi daromadlarining taxminan 3%ini tashkil etdi, xolos.

Maxalliy xokimiyatlarning o'z soliq daromadlariga qo'shma soliqlar daromadlari xam qo'shiladi. Soliq daromadlarining taqsimoti chog'ida xududiy organlar ulushlarining doimiy belgilanishi ularning daromad olishga bo'lgan ishonchini oshiradi. Lekin ko'p xollarda daromadlar ulushi muntazam bo'lmay, yildan yilga o'zgarib turadi. Bu esa xududiy organlarni xukumat oldida mute qilib qo'yadi.

Xududiy organlarning o'z daromadlari va davlat yalpi daromadlaridagi ulushi ularning xarajatlarini to'la qoplamaydi. Natijada, paydo bo'lgan kamomadni qisqartirish uchun markaziy xukumat tomonidan transfertlar olish zarurati tug'iladi. Mamlakatdagi mavjud transfert tizimi orqali xukumat xududiy organlar uchun davlat xizmatlari standartlarini belgilaydi va ularning byudjet ta'minotini tenglashtirishga xarakat qiladi. Lekin amalda, soliq daromadlari va transfertlarning umumiy summasi xar doim xam byudjet xarajatlarini qoplash uchun etmaydi.

Jumladan, 1999 yilda byudjet ta'minoti bo'yicha axoli jon boshiga nisbatan ko'rsatkichlarning xududlar o'rtasidagi tafovutlari 3 martani tashkil etgan.

9.4. Byudjetlararo munosabatlar

Uzoq yillar davomida shakllangan byudjet tizimi va uning mexanizmi maxalliy xokimiyat organlarini o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash yo'llarini qidirib topishdan ko'ra, qanday bo'lmasin, davlat daromadlari va soliqlaridan maxalliy byudjet uchun normativ ajratmalarini oshirishga xarakat qilishlarini rag'batlantirib keldi. CHunki "boshqariladigan" daromadlarning ajratma foizlari uzoq muddatli bo'lmay, balki xar yili qaytadan tasdiqlanadi. Buning ustiga "biriktirilgan" daromadlar rejalashtirilayotgan yil uchun kamaytirilishi mumkin. SHu bilan birga, yilning boshida qolgan byudjet mablag'larining erkin qoldiqlaridan joriy yilning xarajatlarini qoplashga ishlatilganidan qolgan qismi yilning oxirida yuqori byudjetlar tomonidan olib qo'yiladi.

Mamlakatimizdagi mavjud xususiyatlar va jaxon tajribalaridan mushtarak foydalangan xolda, bozor iqtisodiyoti sharoitda maxalliy byudjetni shakllantirishning yangicha tamoyillari ishlab chiqilishi lozim. Bu tamoyillar quyi boshqaruv organlarining eng zarur xarajatlarini qoplash kafolatini beradigan emas, balki muayyan daromadlar keltiradigan byudjetni tashkil etishga asoslanishi kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromad manbalarining qonuniy taqsimlanishi quyi byudjetlar manfaatdorligini oshiradi.

O'zbekistonda jismoniy va xuquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha asosiy xujjat - Soliq kodeksi bo'lib xisoblanadi. Mazkur xujjat 1998 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritilgan.

Maxalliy byudjetni shakllantiruvchi biriktirilgan daromadlar er va mol-mulk soliqlari respublika qonun xujjatlari bilan joriy etiladi va mamlakatning barcha xududlarida undiriladi. Boshqa maxalliy soliqlar va yig'imlar esa qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar xamda Toshkent shaxar davlat xokimiyatlari tomonidan joriy etiladi. Maxalliy soliqlar va yig'imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari

(Soliq kodeksi bo'yicha 4% qilib belgilangan mol-mulk solig'idan tashqari) Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Soliq kodeksida barcha soliqlar turlari sistemalashtirilib, ulardan xar birining xarakat qilish shartlari aniqlangan. To'g'ri soliqlarda soliq to'lashning bir qancha rejimlari ko'zda tutiladi:

- asosiy xo'jalik sub'ektlari foyda solig'ini to'laydilar;
- kichik korxonalar uchun soliq to'lash shartlari soddalashtirilgan bo'lib, ular uchun yagona soliq joriy etilgan;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad solig'i to'laydilar;
- banklar, sug'urta tashkilotlari, video salonlarga - daromad solig'i to'laydilar.

Keyingi yillarda mintaqalar maxalliy byudjetlarining respublika birlashtirilgan byudjetidagi ulushi ortib bormoqda. Bu ko'rsatkich daromadlar bo'yicha 71,4%ni, xarajatlar bo'yicha esa 67,2%ni tashkil etdi.

YUqorida ta'kidlanganidek, xududlardan yig'iladigan «boshqariladigan» soliq daromadlarining muayyan qismi maxalliy byudjetlarda qoldiriladi. Lekin, mazkur ko'rsatkich turli xududlarda bir-biridan juda katta tafovut qiladi. Bunda asosiy mezon ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga qarab belgilanishidir. Jumladan, iqtisodiy saloxiyati past bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida bunday daromadlarning barchasi maxalliy byudjetlarda qoldirilsa, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan Toshkent shaxrida qo'shilgan qiymat solig'ining 21,1%i, aktsizlarning 70%i, xuquqiy shaxslar daromad (foyda) solig'ining 40%i, jismoniy shaxslar daromad solig'ining 50%i qoldiriladi, xolos. Farg'ona va Toshkent viloyatlarida xam mazkur ko'rsatkichlar kam (jadvalga qarang).miqdorni tashkil etadi.

Keyingi yillarda ayrim mintaqalarga ajratiladigan subventsiyalar miqdori ortdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti daromadlari tarkibida subventsianing ulushi 35,9% ni, Jizzax viloyatida 29,6% ni, Samarqand viloyatida 23,6% ni, Namangan viloyatida 17,3% ni tashkil etdi.

1 kishiga to'g'ri keladigan byudjet ta'minoti bo'yicha mintaqalararo tafovutlar mamlakatimiz turli xududlari axolisining meditsina xizmati, xalq ta'limi, uy-joy va kommunal xo'jaligi qulayliklaridan bir xilda baxramand bo'lmayotganligini ko'rsatadi. 2002 yilda bunday tafovutlar maxalliy byudjetlar xarajatlari bo'yicha salkam 3 martani tashkil etdi.

Maxalliy byudjetlarning xarajatlarida xo'jalik sub'ektlarini rivojlantirish uchun vositalar ajratish ko'zda tutilmaydi. Bu esa, yangi korxonalar tashkil etish, axolini ish bilan ta'minlash, iste'mol va eksportbop maxsulotlar ishlab chiqarish va shular orqali maxalliy byudjetni yanada to'ldirish imkoniyatlaridan to'la foydalanmaslikka, bu ishlarga boshqaruv organlarining befarq munosabatda bo'lishiga olib keladi.

10-MAVZU. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI

10.1. Jaxon xamjamiyati bilan xamkorlik

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga tushganidan buyon o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Xozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la xuquqli asosda eng obro'li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va noxukumat tashkilotlari bilan yaqindan xamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ruyxatdan o'tgan, xukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta noxukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muxim xalqaro konventsionalarga qo'shildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

- o'zaro manfaatlarni xar tomonlama xisobga olgan xolda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;
- teng xuquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar xamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- xalqaro xuquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;
- tashqi aloqalarni xam ikki, xam ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirish xavfsizlik va barqarorlik kafolati xisoblanadi. Xozir dunyo O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini xis etmoqdamiz. Bu esa respublikamizning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolat bo'lib, kapital sarflash, dunyo miqyosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan tobora e'tiborni tortayotganligida xam yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jaxon xamjamiyati bilan keng ko'lamda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani xal qilar ekanmiz, bugungi kunda ushbu xamjamiyat faoliyatining o'zi serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo jo'g'rofiyasi, siyosatida ulkan o'zgarishlar ruy bermoqda. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur uylab ko'rishni, balki ko'p jixatdan qayta baxolashni xam talab qiladi. «Sovuq urush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p omillar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda.

Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog`liq tizim bo`lib bormoqda. Unda o`zi-o`zidan qanoatlanishga va maxdudlikka o`rin yo`q. Bu xol xozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirishda, xalqaro tuzilmalar bilan o`zaro aloqalar va faoliyatda ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

XXI asr, shubxasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asrdir. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi emas, balqi ayrim mintaqalar xamda sayyoramiz qo`lamida xam sobitqadamlik va barqarorlikning qudratli omili deb xisoblamoq zarur. Bu xolda masala xalqaro integratsiya jarayonlarida qatnashish yoqi qatnashmaslik tarzida qo`yilmaydi. Mustaqil O`zbekiston uchun, eng avvalo, tashqi siyosatning oqilona xamda jamiyat va inson manfaatlariga asoslanadigan eng muxim tamoyillariga qat`iy rioya etish ulkan axamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik o`z erkinligimizni anglashgina emas, balki o`z xayotimizni o`z irodamiz bilan milliy manfaatlarimizni ko`zlagan xolda tashkil etish, o`z kelajagimiz uchun mustaxkam zaminni o`z qo`limiz bilan qurish xuquqidir. SHu bois o`z-o`zidan ayonki, agar integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va xududiy yaxlitligini cheklab qo`ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog`lansa, u xolda chetdan olib kelinadigan xar qanday integratsiya biz uchun nomaqbuldir.

Integratsiya xaqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari xamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va xamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang`ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O`zbekiston bir vaqtning o`zida turli darajalarda dunyo miqyosi va mintaqa ko`lamida integratsiya jarayonlariga qatnashsa-da, ammo bir muxim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish xisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Bir sub`ekt bilan sherikchilikning mustaxkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga yo`l qo`ymasligimiz kerak. SHu sababli O`zbekistonning jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir.

Biz iqtisodiy jixatdan rivojlangan, bozor tizimiga ega bo`lgan demokratik davlat qurish yo`llidan boryapmiz, xozirgi zamon tushunchalariga mos keladigan davlat orqali biz jaxon xamjamiyatiga kirib borayapmiz. Ayni chogda mamlaka`imiz xamjamiyati bilan xamkorligini yanada mustaxkamlangan taqdirdagina, ya`ni xalqaro mexnat taqsimotida munosib o`rnini topganda, mintaq va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etganda uni zamonaviylashtirish mumkin.

Xalqaro munosabatlarda O`zbekistonning turli sub`ektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo`lsa, o`zaro bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va xal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-xodisalar shunchalik kam bo`ladi. Xuddi shu jixoz xavfsizlikka solinayotgan taxdidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta`minlashning zarur shartidir. Qolaversa, mamlakatlar va davlatlarning xavfsizlik darajasi ularning integratsiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bevosita bog`liqdir. Mamlakat integratsiya aloqalari bilan qanchalik bog`langan bo`lsa, uning xavfsizligiga taxdid shunchalik kam bo`ladi.

O'zbekistonning jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuvi, BMT faoliyatidagi ishtiroki jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuvi xaqida gapirganimizda, eng avvalo, biz ushbu jamiyat faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 2010 yil 2 martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligiga o'n to'qqiz yil to'ldi. Bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimiz Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jaxon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyatidir.

Xozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan, nizolarning oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan xamma vositalarga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan BMT raxnomoligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat, shu jumladan, AQSH, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Xindiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomati korpusi xamda xukumat vakillari ishtirok etishdi.

BMT bilan munosabatlarimiz xalqaro jamoatchilikdan yordam va madad olish istagimizdan ko'ra (garchi, bugungi kunda bu xam juda katta axamiyatga ega bo'lsa-da), ko'proq BMT sa'y-xarakatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, uning faoliyati yangi mazmun bilan boyishiga ko'maklashishga intilishga asoslanadi. Jaxondagi jo'g'rofiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi yangi ming yillikda BMT tarkibiy tuzilishi va uning faoliyatini takomillashtirishni xam talab qilmoqda.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyoda bir qator davlatlar paydo bo'ldi. Bu davlatlar qudratl va jaxon siyosati ko'lamidagi ta'siri ortib borayotganligi tufayli bu davlatlar Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lishlari mumkin. Ayni vaqtda BMT tuzilmasigina emas, balki uning amaliy ish tartibi va xarakatlarni amalga oshirish jarayoni xam buyuk davlatlar va doiralarning eskicha kurash ta'siridan xali qutula olgani yo'q. BMTning mintaqaviy mojarolarni tartibga solish, tinchlik o'rnatish yo'lidagi ishlari xamma vaqt xam muvaffaqiyatli bo'lmayotganligini qisman shu bilan izoxlash mumkin.

SHuning uchun xam, O'zbekiston tabiatan jaxonshumul va universal bo'lgan bu tashkilotning tarkibiy tuzilishi va faoliyatini takomillashtirishni bundan buyon xam faol yoqlab chiqaveradi.

SHu o'rinda BMTning integratsiya soxasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligi va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari xisoblanishini aloxida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali xamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuv bo'yicha uning ixtisoslashgan muassasalari – YUNESKO, Jaxon sog'likni saqlash tashkiloti, Xalqaro mexnat tashkiloti, YUNKDAT, YUNISEF va boshqalar bilan keng xamkorlik qilinmoqda.

O'zbekistondagi iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish va jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuvni ta'minlashga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi, Jaxon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va tarraqqiyot banki xamda boshqalar xam katta yordam

ko'rsatmoqda. Xar yili Davos shaxrida o'tadigan Jaxon iqtisodiy anjumanida Mamlakatimizning xam qatnashishi katta axamiyatga ega. Anjumanda qatnashish O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlar bilan tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish bilan xam axamiyatga molikdir.

O'zbekistonning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan samarali xamkorligi rivojlanmoqda. Jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Bular orasida Evropa ittifoqi aloxida o'rin tutadi. 1996 yilda Evropa ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muxim ishlar amalga oshirildi. Fevral' oyida Evropa ittifoqi kengashi sherikchilik va xamkorlik to'g'risida bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzokaralar boshlash xaqida qaror qabul qildi, iyul' oyida esa bitim imzolandi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining Evropa yo'nalishi ancha kengaydi. Ushbu yo'nalish Evropa qit'asidagi mamlakatlar bilan xamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'ziga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Evropa Ittifoqi bilan sherikchilik va xamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va tarraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir xissadir. CHunki, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy soxalar bilan bir qatorda siyosiy soxani xam nazarda tutadi. Bu xujjat xamkorlik qilishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi. O'zbekiston, Evropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xuquqiy negizini vujudga keltiradi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochadi, muntazam siyosiy muloqot uchun institutsional asos yaratadi.

Imzolangan bitim ikkala tomon xam faol sherikchilik qilishi uchun asos yaratishga intilayotganidan dalolat beribgina qolmasdan, O'zbekistonda demokratik jamiyat muvaffaqiyatli qurilayotganini, inson xuquqlarini xurmat qilish, fuqarolarning erkinliklari va xuquqiy davlat singari umumiy qadriyatlari qaror topayotganini xam tasdiqlaydi.

Evropa Xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti (EXXT) bilan samarali xamkorlik qilayotganligimiz EXXT bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlarda va bu tashkilot rahbarlarining O'zbekistonga tashrifi ko'zga tashlanmoqda.

1996 yil dekabrda Lissabon Sammitida ishtirok etganimiz O'zbekistonning EXXT bilan munosabatlarini rivojlantirishda muxim voqea bo'ldi. Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish xuquqiga va imkoniyatiga ega bo'ldi.

EXXTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid takliflar ishtirokchilar tomonidan tushunib qabul qilindi va u Lissabon deklaratsiyasida xujjatlashtirildi. SHu bilan birga so'nggi paytlarda Toshkentda O'zbekiston tashabbusi bilan EXXTning bir qator yirik anjumanlari o'tkazildi. EXXT Demokratik institutlar va inson xuquqlari bo'yicha Byurosi (DIIXB)ning «Inson xuquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzusidagi xalqaro seminar-kengashi Markaziy Osiyo, Evropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlari, shuningdek, 29 ta xalqaro va noxukumat tashkilotlari vakillari ishtirokida keng muloqot o'tkazish imkoniyatini berdi. Ular Markaziy va SHarqiy Evropada Ombudsman instituti,

inson xuquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimlarini takomillashtirish xamda xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson xuquqlari soxasidagi roli masalalarini ko'rib chiqdilar.

EXXTning DIIXB tashabbusi bilan «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzuida seminar o'tkazildi. EXXT kelishtiruv va xakamlilik sudi tomonidan tashkil etilgan EXXT xalqaro seminari xam bo'lib o'tdi. Bularning barchasi tinchlik o'rnatuvchi va xuquqni ximoya qiluvchi ushbu nufuzli tashkilot bilan yaqin va samarali munosabat yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Xozirda mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida xam o'zaro tushunish va xamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

Bizningcha, o'z tarkibiga demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Evropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustaxkamlash va «Tinchlik yo'lida xamkorlik» dasturi xisobiga Evroosiyo mintaqasida xam tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida xamkorlik» dasturiga 1995 yil iyul' oyida qo'shilgan. Bu dasturdagi ishtirokimizga mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustaxkamlash, xozirgi zamon xarbiy-texnikaviy yutuqlaridan baxramand bo'lish, xarbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz.

NATO Bosh kotibi X. Solana va AQSHning NATOdagi doimiy vakili R.Xanterning O'zbekistonga tashriflari butun dunyo miqyosidagi va mintaqadagi xavfsizlik muammolari borasidagi qarashlarimiz mos kelishini yana bir bor tasdiqladi. Muzokaralar davomida mintaqada tinchlikni saqlashga, Afg'onistondagi mojaroni siyosiy choralar bilan bartaraf etishga, Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz xudud deb e'lon qilishga qaratilgan tashabbuslarimizga to'la tushunish bilan qaralayotganligi va ular qo'llab-quvvatlanayotganligining shoxidi bo'ldik. O'zbekistonning imkoniyatlari mintaqadagi barqarorlashtiruvchi omil sifatida baxolanmoqda.

O'zbekistonning jaxon xamjamiyati bilan xamkorlik qilishida Evropa imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan xayotiy zaruratdir. Evropa va butun g'arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbai, xozirgi zamon demokratiyasi va inson xuquqlarining ramzidir. Bularning barchasi xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lish maqsadida yangilanish va tarraqqiyotni strategik vazifa qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun nixoyatda muximdir.

Biz bunda xavfsizlik va tarraqqiyot bir-birini taqozo etishi tamoyiliga amal qilamiz. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotga investitsiyalar olib kelish uchun barqaror xavfsiz muxit yaratishni, ikkinchi tomondan, xayotning xamma soxalarida keng ko'lamda isloxotlarni amalga oshiradigan mamlakatgina bunday xavfsiz muxitni ta'minlashga qodir bo'lishini nazarda tutadi.

Jamiyatimizning demokratik o'zgarishlarini chuqurlashtirish yo'lida sobitqadamlik bilan rivojlanib borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va eng avvalo, Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan xamkorlik qilish xam yordam beradi. Xozirda Osiyo davlatlari bilan xamkorlikda «Buyuk ipak yo'lini tiklash: ma'rifiy turizmni rivojlantirish, turkiy tilli davlatlarning madaniy merosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish

nazarda tutilmoqda. Bu dasturning maqsadi sayoxat yo`nalishlari tarmog`ini va sayyoxlikning tegishli infratuzilmasini kengaytirishdan iborat.

YUqorida aytib o`tilganidek, O`zbekiston o`zining tashqi aloqalarini xam ko`p tomonlama, xam ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish xar qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq xisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o`zaro manfaatli xamkorlikka mustaxkam zamin xozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustaxkam negiz yaratish imkonini beradi. O`zbekiston er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi ma`lum. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

AQSH bilan ikki tomonlama munosabatlarimiz davlatlararo aloqalarning g`oyat muxim yo`nalishlari bo`yicha izchil va sobiitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda.

Juda katta siyosiy, iqtisodiy, xarbiy-texnikaviy, intellektual saloxiyatga ega bo`lgan AQSH bilan ko`p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish xozir biz uchun ustuvorlik kasb etmoqda. Qo`shma SHtatlar jamiyatimizni yangilash, islox qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustaxkamlash jarayoniga salmoqli xissa kushmoqda. Biz Amerika kompaniyalari va firmalari bilan qo`shma investitsiya loyixalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o`zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o`rnatishga, Amerika kapitalining bozorlarimizdagi ishtiroki kengayishiga katta axamiyat beramiz.

So`nggi yillarda Evropadagi ko`pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, CHexiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikkita tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustaxkamlandi.

SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari – YAponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vet`nam, Malayziya, Xindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustaxkamlanib borayotganligini aloxida ta`kidlab o`tish mumkin. Keyingi vaqtlarda YAponiya mintaqamizning murakkab muammolarini, xavfsizlik va barqarorlikka, tinchlikka erishish, atrof-muxit muxofazasi masalalarini xal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

O`zbekistonning MDX mamlakatlari bilan mustaqil iqtisodiy integratsiyalashuvi xam mustixkamlanib bormoqda. Bu yillarda MDX mamlakatlari ikki va ko`p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng xuquqli sherikchilik asosida o`zaro xamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligi tasdiqlandi. Bunday xamkorlikka Xamdo`stlik mamlakatlarining Xududiy yaqinligi va iqtisodiy jixatdan bog`langanigina emas, balki, tarixiy ildizlar, madaniy va ma`rifiy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynidagi xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi xam asos bo`lmoqda.

Mamlakatlarimiz, xalqlarimizning yaqinlashuvi – tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sobiq ittifoq xukumronligidan oldin xam bo`lgan. Bu xalq integratsiyasi bo`lib, sun`iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o`laroq, xaqiqiy integratsiyadir. Masalaga bunday yondashishning «MDX mamlakatlarining chuqur integratsiyasi» deb atalgan ba`zi siyosiy g`oyalarga xech bir aloqasi yo`q.

To'rtlar shartnomasi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus') va ikkilar shartnomasi (Rossiya va Belarus') imzolanganidan beri ancha vaqt o'tdi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu shartnomalarni imzolash va ularni amalga oshirish davlatlarning ichki ishi. Xar bir davlat birinchi galda o'z manfaatlarini nazarda tutib, o'z taqdirini va istiqbolini o'zi xal qiladi, xar qanday xujjatlarni xamda davlatlararo shartnomalarni qabul qilish va imzolash xuquqiga ega bo'ladi.

Agar biron-bir davlatlararo uyushma tashkil etilgudek bo'lsa, nima uchundir, albatta, uning tegishli xokimiyat va boshqaruv organlari xam bo'lishi kerak, deb xisoblashadi. Agar MDX davlat boshliqlari, xukumat boshliqlari va boshqa tuzilmalarning oxirgi majlislari kun tartibi kuzatiladigan bo'lsa, yagona yo'nalish – iqtisodiy va gumanitar integratsiyaning pishib etilgan muammolari, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash masalalari o'rniga, nuqul xarbiy-siyosiy masalalar, birlashgan qumondonlikni tuzish, chegaralarni birgalikda qo'riqlash va shu kabilar qo'yilayotganligi tasodifiy emas.

Biroq shuni yaqqol anglab olish kerakki, tashkil etilayotgan ittifoqlarda davlatlardan yuqori turadigan tuzilmalar barpo etilsa va shartnoma qatnashchisi bo'lgan xar bir aloxida mamlakatning tegishli qonuniy organlari bir yoqda qolib, bevosita amal qiladigan, ya'ni barcha organlar va tashkilotlar bajarishi shart bo'lgan qarorlarni mazkur tuzilmalarning o'zi qabul qilish xuquqiga ega bo'lsa, u xolda mazkur davlatlarni suveren va mustaqil deb xisoblash qiyin bo'ladi.

O'zbekiston va MDX xalqari o'rtasidagi do'stona aloqalar vaqt sinovidan o'tgan va mustaxkamlangan. Istiqlol yillari MDX davlatlari raxbarlarining xamfikirligi va siyosiy qat'iyati tufayli mamlakatlarimiz o'rtasida barcha soxada xamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratdi. Biroq, savdo-iqtisodiy xamkorlik yaxshi samara berayotganligiga qaramay, tan olish joizki, xamkorlik qamrovi MDXning xamma davlatlari bilan xozircha saloxiyat va imkoniyatlar darajasida emas.

Masalan, O'zbekiston bilan Ukraina o'zaro munosabatlarini muttasil rivojlantirib kelinmoqda. Ukraina MDX mamlakatlari orasida O'zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biriga aylangan. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning xuquqiy asosini qirqqa yaqin xujjat, jumladan, «Erkin savdo to'g'risida», «Sarmoyalarni o'zaro ximoya qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida», «Ishlab chiqarish koorperatsiyasi to'g'risida» kabi bitimlar tashkil qiladi.

Ikki tomonlama xamkorlikning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston va Ukraina o'rtasida iqtisodiy xamkorlikning asosiy yo'nalishlari to'g'risida bitim imzolangan. Ikki tomonlama munosabatlar muntazam faoliyat ko'rsatib kelayotgan ko'p tomonlama xamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Ukraina komissiyasi tomonidan muvofiqlashtirib kelinmoqda.

O'zaro xisob-kitoblar mexanizmi yaratildi, vakolatli banklar o'rtasida o'zaro xisob-kitob va to'lovlar borasida aloqa o'rnatildi. Ayni paytda O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi erkin savdo tartibi joriy etilgan. Mamlakatlararo savdo 2003 yilda 244 million AQSH dollarni tashkil etdi va bu avvalgi yildagiga nisbatan 2,3 barobar o'sdi.

SHuni ta'kidlash kerakki, 1993 – 2003 yillar davomida Ukrainaning Il'ichevsk bandargoxi orqali xorijga 325 ming tonna O'zbekiston paxta tolasi o'tqazildi.

Mamlakatimizda Ukraina ishbilarmonlari bilan xamkorlikda tuzilgan 40 qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. SHuningdek, Ukrainada O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 22 qo'shma korxona ishlab turibdi.

Xamkorlikni taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlariga oid masalalar – ilmiy-texnikaviy, savdo-iqtisodiy, banklararo xamkorlik, transport, xarbiy-texnikaviy aloqalar rivojlanadi. Ayni paytda avtomobil' yo'llarini qurish bo'yicha ikki tomonlama konsortsium tuzish lozim. Bu transport yo'lagini barpo etishda xamkorlik qilish uchun keng yo'l ochadi.

MDX doirasidagi munosabatlarda erkin savdo zonasi barpo etish, a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish masalalari yanada dolzarblashmoqda. Xamdo'stlik doirasida tashkil etilgan tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirish xamda tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi omillarga qarshi xamkorlikda kurashishni kuchaytirishga oid masalalar xam shular sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyodagi integratsiya xududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va etakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika ob'ektlarini birga ishlatish, energiya zaxiralari bilan ta'minlash extiyoji taqozo etgan ob'ektiv zaruriyatdir. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo'lgan xalqlarning madaniy, til va ma'naviy birligi esa ularni yanada yaqinlashtiruvchi omillardandir.

Bu mintaqa muayyan bir shaklda xamma vaqt integratsiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini qayta xis etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining yagona iqtisodiy makonini tashkil etish xaqidagi SHartnomaning imzolanishi shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi.

Markaziy Osiyo respublikalarining integratsiyalashuvi uchun xaqiqatdan xam bir qator shart-sharoit va sabablar mavjud. Bular jumlasiga iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich darajasi baravarligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bir xilligi, yagona transport-energetika kommunikatsiyalari, suv zaxiralari xam kiradi. Bundan tashqari ushbu mintaqada yashayotgan barcha xalqlarning xavfsizligiga bir xil taxdidlar xam mavjud. Bular Orolning qurib borayotganligi, narkotik moddalar, qurol-yarog', terrorizm, diniy fundamentalizmning kirib kelishi, Afg'onistondagi notinchlik xamda bir qator boshqa omillardir. Bu taxdidlar, garchi, tarqoq tuyulsa-da, aslida o'zaro bog'liq omillardir. CHunki ularning birontasini xam aloxida, o'z kuchiga ishongan xolda engib bo'lmaydi. Ayni shu xolatlar Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi to'g'risida qayg'uradigan barcha siyosatchilar uchun amaliy qo'llanma bo'lib qolishi darkor.

Markaziy Osiyo Xamdo'stligining kelajagiga ishonch bilan qarash uchun xamma asoslar mavjud. Zarur xuquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan, davlatlararo kengash tuzilgan, Xamdo'stlik dasturlarini ruyobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo xamkorlik va tarraqqiyot banki tashkil etilgan.

Qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy integratsiyasining 2010 yilgacha mo`ljallangan, 53 ta muayyan loyixani o`z ichiga oladigan dasturi ishlab chiqildi, yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga asos solinmoqda. Biz o`zimizning tashqi mudofaa siyosatlarimizni uyg`unlashtirishga xam bevosita yaqinlashdik. Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to`g`risidagi shartnomada qatnashuvchi mamlakatlar mudofaa vazirlari kengashining nizomi tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari Xamdo`stligining tashkil etilishi aslo ularning boshqa davlatlardan ajralib qolishini bildirmaydi. Biz uni MDX doirasidagi integratsiya jarayonlariga xam qarshi qo`ymaymiz.

Markaziy Osiyo davlatlari, garchi, ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jixatdan xilma-xil bo`lsa-da, birgalikda kuch-g`ayrat sarflab, xavfsizlikka tashqaridan tug`ilayotgan taxdidlarga qarshi turish, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muxitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi. SHu tarika bu mintaqada davlatlari butun dunyo tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashga munosib xissa qo`shadi.

Zamonni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o`rtasidagi xamkorlik va ishonch olg`a xarakatlantiradi. Xozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat xarbiy-siyosiy jixatlarnigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik va madaniy jabxalar xam juda muxim bo`lib, xox mintaqada, xox butun sayyoramiz bo`lsin – bizning tinch va gullab-yashnayotgan umumiy uyimiz ana shulardan tashkil topadi.

10.2. Paxta kompleksining eksport salohiyatini rivojlantirish

Mustaqillikka erishilgan kunlardan boshlab O'zbekiston xukumat tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ustuvor yo'nalish sifatida qarab kelmoqda. Chunki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, globallasuvi hozirgi paytda birinchi navbatda xalqaro iqtisodiy xamjamiyatga integratsiyalashuvi darajasiga bog'liq.

O'zbekiston xukumat tashqi iqtisodiy aloqalarni aniq kontseptsiya asosida amalga oshirib, bu soxadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va barcha xorijiy davlatlar, iqtisodiy xamda moliyaviy tashkilotlari bilan ikki tomonlama manfaatdorlik siyosatini olib bormoqda. O'zbekiston maxsulotlarning xalqaro standartlari va sifat belgilarini tan oladi. Respublikada ichki maxsulotlarga shtrixlangan kodlar joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xukumat tomonidan eksport uchun ishlab chiqarilgan maxsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash borasida ishlar olib borilmoqda. Bu ishlar jumladan:

- eksport qilinuvchi tovarlarga xalqaro registrarga mos keladigan sertifikatlarni ishlab chiqish va joriy etish dasturlari asosida bu maxsulotlarni xalqaro xom ashyo birjalarida majburiy sertifikatsiya qilish va ro'yxatdan o'tkazish;
- 1. sanoat maxsulotlari va iste'mol tovarlarining sifatlarini xalqaro standartlarga mos keladigan sertifikatsiya tizimini rivojlantirish va bu ishga ayrim xollarda ixtisoslashgan chet el kompaniya va agentliklarini jalb etish orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish zarurati tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarni faollashtirish va qo'llab - quvvatlash maqsadida institutsional infratuzilmani yanada mustaxkamlashni taqozo etmoqda. SHu maqsadda respublikamizda:

- eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash va tashqi savdo milliy markazini tuzish;
- milliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, maxsulotlar, xizmatlar va ishlarni rag'batlantirish xamda moliyaviy ximoyalash, uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish uchun eksport-import bankini tuzish;
- savdo uylarining chet ellardagi tijorat tarmoqlari, xissadorlik jamiyatlari va qo'shma korxonalarini tuzish xamda ular tomonidan ilg'or savdo kompaniyalari, marketing va konsalting firmalarining tajribasini o'rganish rejalashtirilmoqda.

SHuningdek, O'rta Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar integratsiyasini rivojlantirish ishlari xam davom ettirilmoqda. Bu mintaq o'zining tabiiy va ish resurslari bilan chet el investorlari uchun istiqbolli bozor xisoblanadi. Bugungi kunda bu mintaqadagi milliy qonunlar, normativ xujjatlarni yaqinlashtirish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan shart-sharoitlar, mintaqaviy institutlar yaratish ishlari jadal olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi MDX bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi va uning xududidagi mintaqalarni o'zbek maxsulotlari eksport qilinadigan asosiy bozorlardan biri deb qaraydi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida AQSH va Evropa bilan aloqalarni yanada rivojlantirishni ustuvor masala deb biladi. SHuningdek, biz Osiyo

mintaqasida, birinchi navbatda, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan munosabatlarni kengaytirish tarafdorimiz. Qo'shni Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya bilan an'anaviy aloqalarimiz yanada kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi xukumi Jaxon savdo tashkiloti (JST) ga a'zo bo'lishni ustuvor yo'nalishlardan biri deb xisoblaydi, chunki unga a'zo bo'lish respublikamizning xalqaro iqtisodiy xamjamiyatga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtiradi. 1998 yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi JST kotibiyatiga «Tashqi savdo xaqidagi Memorandumni» taklif etdi va hozir bu xujjat uning ishtirokchilari tomonidan o'rganilmoqda.

SHuningdek, respublikamizda JST a'zolari bilan ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish xamda tashqi iqtisodiy faoliyatni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, joriy qonunchilikni GATT, JST talablariga moslashtirish sohasida xam ishlar amalga oshirilmoqda.

CHet el ekspertlari tomonidan baxolanishicha, O'zbekiston Respublikasi qazilma boyliklari trillion AQSH dollariga teng va ularni ishlash uchun kafolatlangan qaytim bor. O'zbekistonda chet el sarmoyalarini jalb etish, kichik, o'rta biznes xamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imtiyozlar yaratilgan. Ayniqsa, chet el sarmoyasini jalb etishga qaratilgan muxit ularning egalari uchun imtiyoz va qulayliklar tizimi bilan ifodalanadi.

Eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirish va maxsulotlarni tashqi bozorga chiqarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- eksport maxsulotlarini tashqi bozorda sotish uchun keng savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini vujudga keltirish;
- maqsadli va chuqur marketing tadqiqotlarini, reklama ishlarini yo'lga quyish;
- chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va korxonalarni texnikaviy modernizatsiyalash uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar ajratish;
- eksportni rag'batlantirish maqsadida moliyaviy konsortiumlar tuzish;
- eksport maxsulotlarini sotishni jadallashtirish maqsadida dilerlik shaxobchalari va konsignatsiya omborlarini tuzish;
- xalqaro valyuta kreditlari bozorida qaror topgan foiz stavkalariga asoslanib, eksportbop maxsulotlarni ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan xom ashyo va butlovchi import maxsulotlarini xarid qilishga valyuta kreditlarini ajratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Eksport xajmini ko'paytirish, uning tarkibini kengaytirish va takomillashtirish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir:

- sanoat korxonalarining eksport sohasiga qaratilgan faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- korxonalarning raqobatbardosh va eksportbop maxsulotlar ishlab chiqarishga o'tish borasidagi sa'y-xarakatlarini rag'batlantirish;
- ilmtalab va bazaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 11 iyundagi «Respublika paxta tozalash sanoati boshqaruvini takomillashtirish va monopoliyadan chiqarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi UP-2874-sonli Farmoniga binoan Vazirlar Maxkamasi 2001 yil 17 sentyabrda «Paxta tolasi eksportini markazlashtirish tartibini tashkil etish xaqida

Nizom» ishlab chikdi. Unga binoan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi «O`zpaxtasanoat» uyushmasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiya va savdo vazirligi bilan birgalikda 2006 yil xosilidan boshlab paxta tolasi ishlab chiqarish va tola eksporti balansini tuzadi va uning «O`zpaxtasanoat» va TIAI va SV birlashmalari va kompaniyalari bo`yicha taqsimotini xisoblaydi. Paxta tolasini eksport qilish, xaridorlar bilan bitimlar tuzish oldidan amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish vazifasi TIAI va SV zimmasiga yuklatilgan. U, shuningdek, tashqi savdo kompaniyalari tomonidan bitimlar tuzilishini nazorat qiladi.

«O`zpaxtasanoat» uyushmasi, Tashqi iqtisodiy aloqa, investitsiyalar va savdo vazirliklari (TIA, ISV) bilan tasdiqlangan balanslarga binoan paxta tolasini xar bir chorakda jo`natish grafigini Vazirlar Maxkamasiga tasdiqlash uchun takdim etadi va ular xissadorlik birlashmalari va tashqi savdo kompaniyalari tomonidan ijro etilishini nazorat qiladi.

CHet el xaridorlari bilan bitim tuzishdan oldingi ishlar va tuzish ishlari TIA, ISV ning tashqi kompaniyalariga yuklatiladi, tasdiqdangan paxta tolasi xajmidagi (markazlashgan va markazlashmagan) miqdor bo`yicha kontrakt tuzish ijrosi ustidan nazoratni TIA, ISV amalga oshiradi.

TIA, ISV «O`zpaxtasanoati» uyushmasi bilan birgalikda paxta tolasini jo`natish yuzasidan uyushmaning xududiy bo`limlari bo`yicha jo`natish xaqida choraklik grafiklarini tuzadi va tasdiqlash uchun Vazirlar Maxkamasiga taqdim etadi.

TIAISV va «O`zpaxtasanoat» uyushmasi paxta tolasi eksporti grafigining ijrosini doimiy nazorat qiladi.

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi «O`zpaxtasanoat» va TIAISV bilan birgalikda xar oyning 12 sanasida paxta tolasi balansi va sotish, jumladan, eksporti xaqidagi axborotni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga taqdim etadi.

Bugungi kunda O`zbekistonning paxta tolasini sotib oladigan yirik xamkorlari Arab Amirliklari, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, SHveytsariya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog`iston va Niderlandiya, qisman savdo qiladigan mamlakatlar Ispaniya, Suriya, Portugaliya, Misr va Erondir.

Bundan tashqari o`zbek paxtasi Evropada etakchi o`rinni egallaydi va boshqa paxta navlari bilan muvaffaqiyatli raqobat qiladi. Paxta tolasining yirik iste'molchilari G`arbiy va SHarqiy Evropa xamda Uzoq SHarq bozorlarida joylashgan. An'anaviy Evropa bozorlaridan (Italiya, Germaniya va Frantsiya) tashqari yangi bozorlar Osiyo mintaqasida xam ochildi. Jumladan, 250 ming tonna paxta tolasi Tayvan', Indoneziya, Tailand, Xitoy, Koreya, YAponiya va Gonkongga eksport qilinmoqda. Keyingi yillarda Braziliya va Turkiya mamlakatlariga xam paxta eksport qilinmoqda. Jaxon bozorida o`zbek paxtasi «O`rta osiyo tolasi» deb klassifikatsiya qilinadi, uning uzunligi 1-3/32. Bu esa quyidagicha o`qiladi: o`rtacha tola uzunligi (tola) birinchi klass, «o`rta» sifatli. Tolamiz narxi «A» indeksiga tegishli parametrlarning kundalik kvotasiga qarab belgilanadi va «Kotton Autluk» kompaniyasi tomonidan nashr qilinadi. Kvotalar bir funtga to`lanadigan AQSH tsentlarida ifodalanadi. O`zbekiston jaxon bozoriga chiqadigan portlarga ega emas. SHuning uchun tashqi savdodagi yirik muammo samarali transport «yo`lagi»ni tanlash va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish xisoblanadi.

Paxta tolasi temir va avtomobil' yo'llari orqali jaxon bozoriga olib chiqiladi. Jumladan, Respublika Boltiq buyi portlari Venspilga, Klaypeda, Tallin, Riga va Liepayaga, Kavkaz orti Mersin (Turkiya) portiga, shuningdek, Gebel-aoi portiga (BAR), Eronning Bandar-Abbas porti, Vladivostok orqali Naxodka portiga chiqishi mumkin (12.1-davjal).

O'zbekiston bir necha xalqaro paxta tashkilotlari, jumladan, Paxta bo'yicha Xalqaro maslaxat qo'mitasi, Liverpul, Gvineya paxta uyushmalarining to'la xuquqli a'zosidir. Paxta bo'yicha Xalqaro maslaxat qo'mitasining Toshkentda bo'lib o'tgan 55-Plenumida O'zbekiston paxtasining jaxonda paxta xajmi ko'payishidagi etakchilik roli ta'kidlab o'tildi.

Avval ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston paxtasi bugun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga qarashli «O'zmarkazimpeks», «Innovatsiya» va «O'zprommashimpeks» savdo kompaniyalari orqali eksport qilinmoqda. Bu kompaniyalar axborot ayirboshlash asosida xalqaro etakchi kompaniyalar bilan birgalikda ishlaydilar. Ular qatoriga Dunovant, Glenkor, Pol Reynxard, Meredis Joun, Luis Drafurs, Ralli Brazers, SHtaxel va boshqalar kiradi. Keyingi yillarda eksport qilinayotgan paxta tolasining narxi «Kotton Autluk» kvotalari yordamida o'rnatilmoqda.

10.2.1-jadval

O'zbekistonning Jaxon bozoriga chiqish bo'yicha muqobil yo'lak(koridor)lari

Yo'nalish porti	Transport turi	Tranzit mamlakatlar	Bozorlar
Riga porti Latviya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya, Latviya	Boltikbuyi mamlakatlari, SHimoliy Evropa, Janubiy va SHimoliy Amerika
Il'ichevsk porti Ukraina	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya, Ukraina	Janubiy Evropa, Uzoq SHarq Janubiy va SHimoliy Amerika
Sankt-Peturburg Rossiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	Boltikbuyi mamlakatlari, SHimoliy Evropa, Janubiy va SHimoliy Amerika
Brestom. Belorussiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	SHarqiy va G'arbiy Evropa
Drujba	Temir yo'l	Qozog'iston	Xitoy, Janubiy SHarqiy Osiyo
Petrovsk-Zabaykal'sk Rossiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	Xitoy, Janubiy SHarqiy Osiyo va YAponiya
Naxodka porti Rossiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	Xitoy, Janubiy SHarqiy Osiyo, YAponiya, SHimoliy va Janubiy Amerika
Poti porti Gruziya	Temir yo'l, parom, avtotranzit	Turkmaniston, Ozorbayjon, Gruziya	Janubiy Evropa, Uzoq SHarq, Janubiy va SHimoliy Amerika
Mersin Bandar-Abbas portlari Eron	Avtomobil'	Turkmaniston, Eron yoki Afg'oniston, Eron	Uzoq SHarq, (Xindiston va Pokistonga xam), Janubiy Amerika
Mersin Bandar-Abbas Eron	Temir yo'l	Turkmaniston, Eron yoki Afg'oniston, Eron	Uzoq SHarq, Xindiston, Pokiston, Janubiy Amerika

Eksport qilinayotgan paxta tolasining asosiy qismini ikkita tashkilot: «O'zvneshttrans» (temir yo'l) va O'rta Osiyo trans (motorli transport) amalga oshiradi.

Paxta tolasi eksportining iqtisodiy samaradorligi darajasi ko'p jixatdan jaxon bozoridagi kon'yunktura vaziyati va narxlar darajasi bilan belgilanadi. SHu sababli bozor jarayonining rivojlanish tendentsiya va qonuniyatlari taxlili aloxida axamiyatga ega.

Bozor muammolari, bozor vaziyatini belgilovchi omillar xar doim bir xil emas. Ular o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladigan kompleks tusga ega.

Bozorning sig'imi, raqobatchilarning bozordagi axvoli va ularning umumiy sotish xajmidagi ulushi, ayni shu muddatdagi talab va taklifning nisbati, bunday nisbat sabablariga yaqin kelishuvda tovarga bo'lgan talabning o'zgarishi tendentsiyalari eng muxim omil xisoblanadi.

Paxta marketingi majmuasida quyidagi tuzilmalar mavjud:

- bozorning potentsial imkoniyatlari, ya'ni paxta tolasiga bozor talabi;
- mijozlarni jalb qilish mezonlari va modellari (birjalar, xarid markazlari);
- bozorni segmentlarga bo'lish;
- paxta tolasi narxlari darajalari;
- narx siyosatidaga omillar (chegirmalar, ustamalar);
- qonunlar, me'yorlar, bitimlar va maxsus reglamentlar.

Raqobatchilar kurashi.

Bizning bevosita raqiblarimiz: AQSH, Xitoy, Pokiston.

Potentsial raqiblar: Avstraliya, Misr, Jazoir.

Bilvosita raqiblar (sun'iy tolalarni ishlab chiqaruvchilar).

Asosiy raqiblarning baxolanishi: bozor kvotalari, bozordagi pozitsiyalar, ustunlik va kamchiliklar.

Jaxon paxta bozoridagi raqiblarning xolatini taxlil etaylik.

AQSH dunyodagi yirik paxta ishlab chiqaruvchilardan biridir. U geografik xududiy joylashishi, iqlim sharoiti xamda tuproq unumdorligi qulayligi bilan ajralib turadi. AQSH da yiliga o'rtacha 5 mln. 200 ming gektar erga paxta ekilib, gektaridan 700 – 800 kg. tola olinadi. SHunday qilib, xududda yiliga o'rtacha 4,0 – 4,2 mln.tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi.

Jaxonda paxta eksportining 80 foizi SHimoliy Amerika mamlakatlari ulushiga to'g'ri keladi. Jumladan, Meksika, Kanada, Gonduras, Dominikana Respublikasi bu xom ashyoning yirik xaridorlaridir. AQSHning jaxon paxta bozoridagi ulushi 20 – 30 foiz atrofida o'zgarib turadi. Amerika paxta tolasining yirik xaridorlari –Uzoq SHarq mamlakatlari (YAponiya, Janubiy Koreya, Gonkong), shuningdek, G'arbiy Evropa mamlakatlari va Kanada.

Keyingi yillardagi Amerika paxtasining yirik iste'molchilariga Xitoy, YAponiya,Kornya, Indoneziya, Meksika, Tailand, Tayvan va boshqalar xam qo'shildi..

Oxirgi yillarda Xitoy paxtani eksport qiladigan mamlakatdan import qiladigan mamlakatga aylandi. Bu Xududda paxta xosildorligi yildan-yilga oshib bormoqda. Xitoy paxtasining aksariyat qismi qo'lda, atigi 5 foizi mashinalarda teriladi.

Xindiston paxta etishtirish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Paxta Xindiston axolisi kiyim-kechakka bo'lgan extiyojining 90 foizini qondiradi va mamlakat iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi.

Xindiston paxtani iste'mol qilish bo'yicha xam jaxonda uchinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda paxta ekin maydonlari ortib bordi va 2007 yili 10 mln. gektarga etdi. Xosildorlik nisbatan past va o'rtacha. Xindistonda yiliga 3 mln. tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi va deyarli barchasi iste'mol qilinadi. Ayrim yillari 150 – 190 ming tonnasi eksport qilinadi. Import qilinadigan paxta tolasi

xajmi keyingi yillarda kamayib bordi. Pokiston 1990 yildan boshlab jaxonda paxta etishtirish bo'yicha to'rtinchi o'rinda. Uning ishlab chiqarishdagi ulushi o'rtacha 6,5 foizni, iste'moldagi ulushi esa 5 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar keyingi yillarga nisbatan muqim turganligi sababli Pokistonning Jaxon paxta tolasi bozoriga, ayniqsa, paxta narxiga ta'siri katta bo'lmoqda. Paxta etishtirish va uning iste'moliga davlat aralashuvi xam sezilarli darajada.

Jaxonda tolalar (paxta, jun, kimyoviy tolalar) iste'molida paxtaning salmog'i 49 %. To'qimachilik xom ashyosi balansida paxta ulushi xali xam ilgorigidek yuqori. Bu, paxtaning universal sifatleri va uni turli maqsaddagi buyumlar ishlab chiqarishda ko'llash mumkinligi tufaylidir.

Mutlaq ko'rsatkichlarga ko'ra, dunyoda paxta iste'moli xajmi oshib bormoqda. Bu, nazarimizda, birinchidan, axoli sonining o'sishi va ip gazlama maxsulotleri iste'moliga talabning oshishi, ikkinchidan, issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda paxtadan ishlangan buyumlar zarurligi, uchinchidan, paxtadan ishlangan buyumlarning sun'iy tolalardan ishlangan buyumlarga nisbatan raqobatbardoshligi bilan bog'liq.

Paxta dunyoning 70 dan ortiq mamlakatida etishtiriladi va 100 dan ortiq davlatda iste'mol qilinadi. Dunyoda etishtirilgan paxtaning asosiy qismi AQSH, Xitoy, Xindiston, Pokiston va O'zbekiston ulushiga to'g'ri keladi. Paxta tolasining asosiy iste'molchilari Evropa mamlakatlari, Yaponiya, Koreya, Gonkong va Tayvandır. Xozirgi vaqtda dunyo bo'yicha 36,2 mln.gektar erda paxta etishtirilmogda. Bu jaxon dexqonchiligida ishlatiladigan erlarning 2% iga teng.

O'zbekiston paxtasining raqobatbardoshligini ta'minlash borasidagi marketing tadqiqotlarini o'tkazish, bir tomondan, ishlab chiqarishda marketing muxiti va bozorga doir faoliyat shart-sharoitlarini o'rganishni, ikkinchi tomondan esa, respublika paxtachilik majmuining raqobatbardoshlik pozitsiyalari va ichki imkoniyatlarini, jumladan, uning ishlab chiqarish resursleri va eksport imkoniyatlarini baxolashni talab qiladi.

O'zbekistonning paxta tolasi eksportiga doir strategiyasi. Xar bir mamlakat mutlaq va nisbiy qiyosiy ustunliklardan kelib chiqqan xolda ma'lum strategik ahamiyatga molik maxsulotni eksport qiladi. Masalan, Saudiya Arabistoni neftni, CHili qalay va misni, Zair kauchukni eksport qilishga ixtisoslashgan.

O'zbekiston xalqaro mexnat taqsimotida xom ashyo etkazib beruvchilik roli bilan ajralib turadi. Xaqiqatan xam respublikaning xom ashyo (asosan paxta tolasi)ni eksport qilish soxasidagi imkoniyatlari g'oyat katta. O'zbekiston dunyoda paxta etishtiruvchi ilg'or beshta mamlakat qatoridan o'rin olgan.U paxta tolasini eksport qilish bo'yicha AQSHdan keyingi – ikkinchi o'rinni egallaydi.

Paxta narxining pasayishi, kutilganidek, tuxtadi: Sotlook «A» indeksi (ushbu indeks SHarqiy Evropa portlariga kelib tushgan beshta eng past narxlar bo'yicha o'rtacha indeks) 2000 yilning dekabr' oyida bir funt paxta uchun 44 tsentni tashkil etgan bo'lsa, 2007 yil mart oyiga kelib, 57 tsentga etdi, bu xol paxtaning uch oy davomida narxi 30 % o'sishidan dalolat beradi. U quyidagi omillar bilan izoxlanadi:

- Xitoyda paxta ishlab chiqarish xajmining va jumladan, dunyo bozoriga taklifining kamayishi kutilmogda;
- Pokiston taklifi xajmi xam kafolatlanmagan;

– AQSHda ishlab chiqarish xajmi oldingi yildagiga nisbatan ancha baland bo'lishi kutilmoqda, biroq shuni xam ta'kidlash kerakki, Sotlook «A» indeksi va N'yu-York narxlarining bir xil sur'atlarda o'sishi kuzatilmadi. 12.2-jadvalda paxtani asosiy ishlab chiqaruvchilari keltirilgan.

Mustaqillik yillarida respublika paxta soxasidagi strategiyasini o'zgartirdi. Bu strategiyaning maqsadi paxta soxasidagi yakkaxokimlikni bartaraf etib, maksimum miqdorga teng tola ishlab chiqarishdir. Balanslashtirilgan siyosatni amalga oshirish natijasida paxta etishtirish barqarorlashdi, don etishtirish xajmi ortdi va respublikada don mustaqilligiga erishildi.

Paxta tolasini eksport qilishda O'zbekiston jaxonda ikkinchi o'rinda turadi, jaxonga eksport qilinadigan paxtaning 20 foizini beradi. Respublika bu mavqeini saqlab qolmoqda. Chunki paxta tolasini jami eksport xajmining qariyb 80 foizini tashkil etadi va u valyuta tushumining muxim vositasi xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bugun paxta tolasini sotish bo'yicha jaxondagi 80 dan ortiq mamlakat bilan sherikchilik qiladi. Respublikamiz iqtisodiy rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, SHveytsariya, Turkiya singari mamlakatlar bilan savdo oborotini kengaytirgani sezilmoqda.

O'zbekistonning yirik savdo xamkorlari qatoriga Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, SHveytsariya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog'iston, Niderlandiya va Birlashgan Arab Amirliklari kiradi. Keyingi yillarda, shuningdek, Suriya, Ispaniya, Portugaliya, Misr, Eron bilan iqtisodiy aloqalar va savdo soxasida progressiv o'zgarishlar yuz berdi.

Xalqaro maydonda o'zbek paxtasi standarti O'rta Osiyo tolalari klassifikatsiyasiga kiradi: uzunligi 1-3/32, ya'ni 1 klass o'rta tolali. O'zbek paxta tolasiga narx «A» indeksiga taalluqli kundalik kvotalarga binoan o'rnatiladi va u «Kotluk LTD» paxta kompaniyasi tomonidan nashr qilinadi. Kvotalar bir paundga to'g'ri keladi, AQSH tsentida belgilanadi.

Jo'g'rofiy asos qilib C.I.F. shaklida SHimoliy Evropa portlari olinadi. O'zbekiston dengizga chiqadigan portlarga ega emas. Tashqi savdodagi yirik muammolardan biri eksport-import operatsiyalarini bajaradigan samarali transport yo'lagi (koridor)ni yaratishdir. SHu nuqtai nazardan temir va avtomobil' yo'llari imkoniyatlarini yaxshilash zarur. Jumladan, shu tariqa Respublika Boltiq dengizi portlari: Ventspils, Klaypeda, Tallin, Riga, Liepaya; Zakavkaziya yo'lagi (koridori) orqali Poti-Botumi, Il'ichevsk, Odessa, undan so'ng Mersin (Turkiya) portigacha; shuningdek, Gebel-Ali (BAA), Eronning Bandar-Abbas porti orqali xam deigizga chiqishi mumkin. Uzoq SHarqda Vladivostok orqali Naxodka portiga paxtani etkazish imkoni bor (12.3-jadval) Transport tarmog'ining bunchalik xilma-xilligi paxta tolasini bozorlardagi yangi xaridorlarga katta imkon tug'diradi. Paxtani eksport qilish borasidagi bu ishlarni amalga oshirishdan tashqari O'zbekiston bir necha xalqaro paxta tashkilotlarining xaqiqiy a'zosi bo'ldi. Jumladan, u paxta soxasida Xalqaro Maslaxat qo'mitasi, Liverpool paxta ushmasi, Gdineya paxta assotsiatsiyasiga a'zo.

Iqtisodiyotdagi bu sobitqadamlik ishlab chiqarishni qayta texnologik qurollantirishni rag'batlantirish xamda axolining xayotiy extiyojlarini xal etuvchi ijtimoiy axamiyatga molik loyixalarni amalga oshirishdan iborat. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar va maxsulotlar ishlab chiqarish tizimini taraqqiy ettirish katta axamiyatga ega. SHu sababli

iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy urg'u chet el sarmoyasini jalb qilish natijasida shunday tarmoqlarni taraqqiy ettirishga berilishi zarurki, ular xom ashyo o'rniga raqobatbardosh, tayyor maxsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan bo'lsin. Bugungi kunda strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar va loyixalar jumlasiga engil sanoat, turizm, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini kiritish mumkin.

Engil sanoatni taraqqiy ettirish va takomillashtirish strukturasi, tizimi «paxtachilik – to'qimachilik sanoati – qayta ishlash sanoati»ni barpo etish rentabellik darajasini bir necha barobar oshirishga xamda respublikada valyuta tushumi miqdorini ko'paytirishga olib keladi. SHu tufayli chet el sarmoyasini, avvalambor, qayta ishlash sanoatiga jalb etish zarur, chunki xom ashyoni chuqur qayta ishlash qo'shimcha qiymat miqdorini oshiradi.

CHet el kapitalini, ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan maxsulotlar ishlab chiqarishga jalb qilish katta ahamiyat kasb etadi. Respublika ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta jixozlash dasturiga binoan engil sanoatga chet kapitalini olib kirish ancha ko'payadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturiga binoan tarmoqdagi 9 korxona texnik jixatdan qayta jixozlanib, paxta tolasini qayta ishlash sifati yaxshilandi, chet el jixozlari importiga asoslangan yangi korxonalar YAponiya, Italiya, Bel'giya, Germaniya firmalarining jixozlari bilan qurollantirildi.

10.3. Mintaqalarda tayyor maxsulot eksportini ko'paytirish yo'llari

Tashqi bozorni tadqiq qilish O'zbekiston Respublikasi korxonalarining xorijiy bozordagi strategik liniyasini ishlab chiqish uchun, ayniqsa, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va ularni bozorlarga kiritishda xammadan xam zarurroq masaladir.

Bozorni batafsil o'rganish uni iste'molchilar guruxlari va tovarlarning iste'mol xususiyatlariga muvofiq sigmentlashni talab qiladi. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, eng muvofiq sigment deb ushbu bozorning taxminan 20 foiz xaridorlari firma taqdim qilgan tovar xajmining 80 foizini xarid qilganlari xisoblanadi. Tovar bilan bog'liq bo'lgan masala uni oldindan aniqlangan bo'lajak xaridorlarning ayrim guruxlariga aniq mo'ljallab loyixalashtirishning zarurligidir. Masalan, u tor gurux Bel'giyadagi 15 – 17 yoshli o'smirlar yoki keng –Germaniya bozoridagi kam yoqilg'i sarflaydigan avtomobillar va xokazolar bo'lishi mumkin.

2010 yilda tashqi savdo va to'lov balanslari xam sezilarli darajada mustaxkamlandi.

Xamon davom etayotgan jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiy xajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobiy saldosi esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valyuta zaxirasi xam shunga muvofiq ravishda ko'paydi.

O'tgan yil bilan solishtirganda tashqi savdo aylanmasi 27,4%ga oshdi. Bunda eksport operatsiyalari tashqi savdo aylanmasi umumiy xajmining 59.7%ini va import operatsiyalari 40.3%ini tashkil ztdi. Eksportning o'sishi importning o'sishiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. Eksportning o'sishi 2009 yilga nisbatan 110,8%ni tashkil etdi, import esa o'tgan yilga nisbatan 93,2%ni tashkil etdi.

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda aloxida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo'lishiga barxam berilishi, maxsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport xajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan xolatlarida eksportchi korxonalarni og'ir axvolga solib qo'yishi mumkin. Buning natijasida eksport xajmining qisqarishi valyuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy axvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. SHuningdek eksport umumiy xajmining kam sonli davlatlarga bog'lanib qolishi xam qaltis xolat xisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh maxsulotlar eksportini faol oshirish va bu maxsulotlar etkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport xajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning xajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruxining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda xam eksport xajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport saloxiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning xajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib bermoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2009 yilda 21209,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2005 yilga nisbatan 2,23 marta, 2008 yilga nisbatan 0,06 foizga o'sdi. Bu eksport xajmi 2,4 foizga o'sgani xolda import xajmining 2,74 foizga kamayishi natijasida ro'y berdi.

Ayni chog'da, jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirida ko'pchilik mamlakatlarda eksport xajmining keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2009 yilda eksport xajmlarining qisqarishi Rossiya Federatsiyasida 44,2 foiz, Ukrainada 48,7 foiz, Qozog'istonda 47,7 foizni tashkil etdi.

10.2.3-jadval

O'zbekiston eksportining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 y.	2005 y.	2008 y.	2011 y.
Eksport jami (mln. AQSH doll.)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3
Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
SHu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6
Kimyo maxsulotlari, plastmassa va plastmassa maxsulotlari	2,9	5,3	5,6	5,0
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0
Mashina va uskunalari	3,4	8,4	7,6	2,9

Oziq-ovqat maxsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0
Energiya resurslari	10,3	11,1	24,7	34,2
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8
Boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5

2000-2009 yillar davomida eksport va importni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi.

Xususan, boshqa tovarlar pozitsiyalari bo'yicha eksport xajmining jadal o'sishi paxta tolasining jami eksportdagi ulushini 2000 yildagi 27,5 foizdan, 2008 yilda 9,3 foizga, 2009 yil yakunlariga ko'ra esa 8,6 foizgacha pasayishiga olib keldi.

2000-2009 yillarda respublikamiz importi tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jixatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miyosda amalga oshirilishini ta'minlash jami import xajmida mashina va uskunalar importi ulushining jadal o'sishiga olib keldi.

10.2.4-jadval

O'zbekiston importining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000 y.	2005 y.	2008 y.	2011 y.
Import jami (mln. AQSH doll.)	2944,5	4091,3	9704,0	9438,3
Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0
SHu jumladan (jamiga nisbatan foizda):				
Kimyo maxsulotlari, plastmassa va plastmassa maxsulotlari	13,6	13,6	11,6	11,1
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,7	6,3
Mashina va uskunalar	35,4	43,3	52,4	56,5
Oziq-ovqat maxsulotlari	12,3	7,0	8,3	9,0
Energiya resurslari	3,8	2,5	4,6	5,3
Xizmatlar	8,5	10,4	4,4	4,4
Boshqalar	17,8	12,9	11,0	9,2


10.2. Ekportning tovar va geografik tarkibini takomillashtirish

Tashqi savdo aylanmasi, xususan, eksportning geografik tarkibida MDX mamlakatlarning ulushi 2010 yil yakunlariga ko'ra, 33,9 foizni tashkil etdi. 2010 yilda mamlakatimiz korxonalari eksportining 21,0 foizi Rossiya Federatsiyasi, 7,2 foizi Ukraina, 6,2 foizi Qozog'iston xissasiga to'g'ri keldi.

Uzoq xorij davlatlariga qilingan eksportning jami eksportdagi ulushi 2008 yilda 65,8 foiz, 2009 yilda esa 66,7 foizni tashkil etdi. Bu mamlakatlar bo'yicha mamlakatimiz eksportining difersifikatsiyalashuv darajasi nisbatan chuqurroq bo'lib, 2009 yil ma'lumotlariga ko'ra faqat Xitoy (9,7%), SHveytsariya (7,9%), Afg'oniston (3,3%), Turkiya (3,2%), Eron (2,7%), Germaniya (2,2%), AQSH

(1,7%) ning mamlakatimiz eksportidagi ulushi 1 foizdan yuqoridir.

Respublikamiz eksporti va importining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish bir qator vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi.



10.2.2-rasm. Tashqi savdo aylanmasining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish mumkin bo`lgan maxsulotlarga talabni o`rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Uzoq xorijiy mamlakatlar orasida asosiy ulush Turkiya (6,6% i 102,4%), Eron (6,2% i 89,3%), SHveytsariya (4,2% i 121 raz), Afg`oniston (3,7% i 204,9%), Xitoy (3,5% i 88,2%) mamlakatlariga to`g`ri kelmoqda.

2009 yilda nisbatan arzon xom-ashyo va tayyor maxsulotlar xisobiga MDX mamlakatlaridan import xajmi v 1,3 marta o`sdi. Mos ravishda, MDX mamlakatlaridan import etkazib berish xajmi 43,1% dan 52,0%gacha o`sdi, xorijiy mamlakatlar ulushi 56,9%dan 48,0%gacha kamaydi. MDX mamlakatlaridan tayyor maxsulot importi (2006 yilga nisbatan 1,9 marta.), mashina va uskunalar (1.5 marta), xizmatlar (1,1 marta) xajmi o`smoqda.

10.2.5-jadval

Eksport va importning geografik tarkibi (%)

Mamlakatlar	Umumiy xajmidagi ulushi, %	
	Eksport	Import

	2009	2011	2009	2011
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
MDX mamlakatlari	42,0	47,5	43,1	52,0
Qozog'iston	4,8	7,4	8,9	10,2
Rossiya	25,0	27,5	25,7	29,9
Tojiqistan	2,7	2,1	0,3	0,3
Ukraina	5,7	7,0	5,6	8,2
Boshqa mamlakatlari	2,8	3,5	2,6	3,4
Xorijiy davlatlar	58,0	52,5	56,9	48,0
Afg'oniston	2,5	3,7	0,0	0,0
Buyuk'ritaniya	2,9	1,1	1,6	1,1
Germaniya	121	0,9	6,5	4,3
Xindiston	0,2	0,1	1,0	10
Eron	9,7	5,2	0,8	0,6
Janubiy Koreya	5,6	3,5	7,9	8,3
Xitoy	0,7	0,8	13,9	9,8
BGA	1,2	0,8	0,8	0,4
Singapur	1,5	1,6	0,2	0,2
AKSH	1,9	1,0	2,7	2,1
Turkiya	9,0	6,6	3,6	3,1
Frantsiya	1,4	3,0	1,0	1,1
SHveytsariya	0,5	4,2	0,7	0,9
YAponiya	0,4	0,2	0,9	1,0
Boshqa mamlakatlzr	19,2	18,8	15,3	13,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Xorijiy mamlakatlardan oziq-ovqat maxsulotlari (78,8% 2009 yilga nisbatan), xizmatlar (86,5%) importi kamaymoqda. Importning asosiy qismi Rossiya ulushiga to'g'ri keldi (umumiy import xajmidan 29,9%, 2009 yilga nisbatan 127,4%). Qozog'istondan import ulushi mos ravishda 10,2% va 124,9%, Janubiy Koreyadan - 9,8% va 77,3%, Xitoydan - 8,3% va 115,0%, Ukrainadan - 8,2% va 161,6%, Germaniyadan-4,8% va 81,3%, Turkiyadan-3,1% va 94,7 (3.2.4-jadval., 3.2.5-ilova)ni tashkil ztdi. Tovar ayirboshlashda eng katta ijobiy sal'do Rossiya (907,8 mln.doll), Tojikiston (175.7 mln.doll.), Afg'oniston (330.5 mln.doll.), Eran (523,7 mln.doll.), Turkiya (426,7 mln.doll.) va SHveytsariya (333,2 mln.doll.) mamlakatlari ulushiga to'g'ri keldi, nisbiy sal'do - Belorussiya (99,1 mln.doll.), Germaniya (175,6 mln.doll.), Xitoy (119,8 mln doll.) va Koreya (444,3 mln.doll.) mamlakatlariga to'g'ri keldi.

Tashqi bozordagi raqobat muxitini xisobga olish kerak. Garvard universiteti (AQSH) xodimlari tomonidan olib borilgan marketing izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'z raqobatchilaridan bozorga muayyan tovar olib chiqishda bir yilga kech qolgan firma olinishi ko'zda tutilgan foydaning 50 foizidan ajralib qoladi.

10.2.6-jadval

Jaxonda 2010 yilda eng ko'p eksport qilgan davlatlar

O'rin	Davlatlar	Eksport xajmi, mln.\$	Foizda	Axoli soni	Foizda
1	Germaniya	912260	10,2	82,50	1,28
2	AQSH	818775	9,2	281,42	4,37
3	Xitoy	593329	6,7	1242,61	19,3
4	YAponiya	565807	6,3	126,93	1,97
5	Frantsiya	448714	5,0	58,52	0,91
6	Gollandiya	358187	4,0	16,11	0,25

7	Italiya	349153	3,9	57,11	0,89
8	Buyuk Britaniya	346863	3,9	58,79	0,91
9	Kanada	316547	3,5	30,01	0,47
10	Bel'giya	306509	3,4	10,30	0,16
11	Gonkong (Xitoy)	265543	2,9	6,71	0,10
12	Janubiy Koreya	253845	2,8	46,14	0,72
13	Meksika	189083	2,1	97,48	1,51
14	Rossiya	183452	2,1	145,54	2,26
15	Tailand	182424	2,0	22,89	0,35
16	Singapur	179615	2,0	4,02	0,06
17	Ispaniya	178607	2,0	40,85	0,63
18	Malayziya	126503	1,4	23,27	0,36
19	Saudiya Arabistoni	126230	1,4	22,67	0,35
20	SHvetsiya	122537	1,4	8,59	0,13
Sobiq SSSR respublikalari					
44	Ukraina	32672	-	-	-
54	Kazakistan	20093	-	-	-
62	Belarusiya	13751	-	-	-
69	Litviya	9269	-	-	-
78	Estoniya	5944	-	-	-
84	O'zbekiston	4280	-	-	-
87	Latviya	3951	-	-	-
90	Turkmaniston	3870	-	-	-
92	Ozorbajon	3615	-	-	-
128	Moldaviya	986	-	-	-
132	Tojikiston	915	-	-	-
139	Qirg'iziston	719	-	-	-
140	Armoniston	705	-	-	-
144	Gruziya	649	-	-	-

Manba: «Trud – 7», 2006., 22 – 29 dekabr', 2-b.

Xorijiy marketingni mukammallashtirishda ilg'or firmalar va chet el tajribasidan fooydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi muqarrar. Bu borada keyingi yillarda AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlar firmalari amaliyotga kirib kelgan tovar sotuvchi va etkazib beruvchilarning iste'molchilarga asosiy tovar bilan butlovchi va qo'shimcha maxsulotlarni xam taklif qilish tajribasi diqqatga sazovordir. Mashxur nemis firmasi «Salamander» poyabzal bilan birga unga kerakli cho'tka, krem va boshqa vositalarni, AQSH firmasi «Katerpillar» traktorlari bilan pritsiplarning osma asboblari to'plamini taklif qilmoqda. Bu tajribadan foydalanish respublikamizdagi tovarlar ko'lamini kengaytirish, mashina, asbob-uskunalar va boshqa tovarlar komplektini ta'minlash imkonini beradi.

10.4. Xamkorlikka asoslangan siyosat

Mustaqillik e'lon qilinib, milliy valyuta joriy etilgach, O'zbekiston sobiq sho'ro davridagi xom ashyo resurslari va yarim tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bir yoqlama, samarasiz iqtisodiy aloqalarini to'xtatishi zarur edi. Bunday sharoitda samarasiz, tanazullga yuz tutgan iqtisodiy aloqalardan voz kechib, jaxon bozoriga chiqish O'zbekiston uchun iqtisodiy inqirozni engib o'tishning yagona yo'li edi.

O'sha davrda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning sa'y-xarakatlari tufayli mamlakat xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni, avvalambor, G'arbiy Evropaning rivojlangan mamlakatlari, AQSH, Yaponiya va iqtisodi jadal rivojlanayotgan boshqa davlatlar bilan kengaytirishga qaratildi. Bu siyosat biron-bir mamlakatga qarshi yo'naltirilmagan edi. U iqtisodiyotimiz uchun nisbatan qulay savdo sharoiti yaratishga, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda tuzilmaviy o'zgarishlar qilishga imkon beradigan mutanosib xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga qaratilgan edi.

Mutanosib tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonidagi faol chora-tadbirlar O'zbekistonga tashqi iqtisodiy savdoni xam mamlakatlar, xam tarmoqlar miqyosida restrukturizatsiya qilish imkonini berdi. Dastlab O'zbekistonning bevosita savdo aloqalari bo'lmagan xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan savdo aloqalari salmog'i 2004 yildagi butun tashqi savdo aylanmasida 68,5%ga etdi.

Endilikda O'zbekistonning to'lovga qobiliyatli xamkor sifatidagi xalqaro obro'-etibori oshib bormoqda.


Xamkorlikka asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatga quyidagi tamoyillar asos qilinib olingan: mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, tashqi munosabatlarda ochiqlik, teng xuquqlilik va o'zaro manfaatli xamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; to'la ishonch negizida xam ichki tomonlama, xam ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish; o'zining milliy davlat manfaatlarini xar tomonlama xisobga olish; umume'tirof qilingan xalqaro xuquq me'yorlariga rioya qilish va xalqaro andozalarga izchillik bilan o'tish.

Respublikamiz Jaxon banki, Xalqaro valyuta fondi Evropa va Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xamdo'stlik regional iqtisodiy tashkiloti va boshqa e'tiborli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng xuquqli a'zosi. Bu xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki mamlakatimizga bir qancha yirik davlatlararo loyixalarni birgalikda amalga oshirish, mintaqalararo muammolarni xal etish imkonini beradi.

O'zbekiston dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo qilmoqda. Dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan tashqi savdoning ulushi ko'payib bormoqda. YUrtimizda chet ellardan qo'shimcha moddiy-moliyaviy resurslar jalb qilish, jaxon fan-texnikasi yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etish, axolining sifatli, xilma-xil tovarlarga, ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyaga bo'lgan talabini qondirish, xizmat soxasini rivojlantirishda chet el tajribalaridan foydalanish, qo'shimcha ish o'rinlarini vujudga keltirish maqsadida olis xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy savdo rivojlantirilib borilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu soxalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport xajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2011yilda eksport maxsulotlari xajmi 2010yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko'paydi va 15 milliard dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy sal'dosi 4 milliard 500 million dollardan oshdi (1.3.1-rasm).



10.2.2-rasm. O'zbekistonda tashqi savdoning dinamikasi, milliard AQSH doll. xisobida.

Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakkaxokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi. Uning eksportdagi ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2010 yilda 11,3 foizga tushdi¹³. 2011 yilda eksport tarkibida tayyor maxsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, xolbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

2012 yilga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish dasturida sanoatning strategik muxim tarmoqlari bo'lgan yoqilg'i-energetika kompleksi, rangli va qora metalluragiya soxasining o'sishini ta'minlash aloxida o'rin tutadi. Bunga yangi tabiiy konlarni o'zlashtirish va mavjud mineral-xomashyo bazalari zaxiralarining ortishi, ana shu resurslarni qazib olish va qayta ishlashda samarali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish xisobidan erishish nazarda tutilmoqda. SHu bilan birga, kimyo va engil sanoatni, neftkimyo, qurilish materiallari sanoatini, ista'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga xam ustuvor ahamiyat beriladi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, taxnik va texnologik yangilash bo'yicha muxim vazifalarni bajarish iqtisodiy siyosatimizning xal qiluvchi yo'nalishi sifatida katta o'rin egallaydi. Barchamiz bir o'tkir xaqiqatni yaxshi anglab olmoqdamiz. Jaxon bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan xozirgi sharoitda mavjud korxonalarni rekonstruktsiya qilmasdan, zamonaviy, ilg'or va yuksak texnologik uskunalarni jixozlangan korxonalar tashkil etmasdan turib, ishlab chiqarilayotgan

¹³ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011, 59-61-б.

maxsulotlarni muntazam yangilamasdan turib iqtisodiyotimiz kelajagini, binobarin, axoli farovonligini yuksaltirishni ta'minlash mumkin emas¹⁴.

«Lokomotiv tarmoqlar» - kimyo, qora metallurgiya, rangli metallurgiya korxonalarining, avtomobil', engil xamda charm sanoati va b.ning istiqbolli rejalari ishlab chiqildi xamda tasdiqlandi. Bundan ko'zlangan maqsad - mavjud xomashyo resurslarini aylanmaga kiritish, eksportni kengaytirish xamda ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish. Ayniqsa, korxonalarni energiyani iqtisod qiluvchi yangi texnologiya va maxsulot turlariga o'tishga yo'naltirilgan engil sanoatni modernizatsiya qilish jadal amalga oshirildi.

2006-2008-yillar uchun lokalizatsiya dasturi Xukumat tomonidan import tovarlaridan bo'lgan qaramlikni kamaytirish maqsadida qabul qilingan.

Bu dasturda ishtirok etuvchi korxonalar 5 yil muddatga quyidagi to'lovlardan ozod qilinadilar:

1. bojxona to'lovlari, jumladan, bojxona yig'implari qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solish;

2. lokalizatsiya dasturi doirasida chiqarilgan maxsulotlar uchun daromad solig'i;

3. lokalizatsiya dasturi uchun eng muxim bo'lgan aktivlar uchun mulk solig'i;¹⁵

Eksport tarkibida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Barcha yirik tovarlar guruxlari bo'yicha 2009 yildagiga nisbatan 2011 yilda eksport xajmi ko'paydi. YUqori o'sish tayyor maxsulotlar xissasiga to'g'ri keldi. Mashina va uskunalarni eksport qilish 1,7 marta va oziq-ovqat tovarlari eksporti 1,8 marta o'sdi. Natijada eksportda mashina va uskunalarining ulushi 7,4% (2009 yil), kimyo maxsulotlariniki – 4,7% va oziq-ovqat tovarlarining ulushi 3,8%ni tashkil qildi. Eksportga chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikalari, kabel-o'tkazgich maxsulotlari, yarim o'tkazgich uskunalar, o'g'itlar, parfyumeriya va pardozi buyumlari, plastmassalar va meva-sabzavot maxsulotlarining xajmlari o'sdi. Engil sanoat maxsulotlari orasida boshqa tovarlar guruxiga kiruvchi to'qimachilik kiyimlari, trikotaj gazlamalar va kiyimlar eksporti ortdi. Xizmatlar eksporti xajmi 72%ga oshdi. Ular orasida avvalgi davrlardagidek 70%dan ko'prog'ini transport xizmatlari tashkil etdi.

Tashqi savdo mamlakatlararo rivojlantirilishi O'zbekistonga uning tarmoqlar bo'yicha yo'nalishini xam ancha takomillashtirish imkonini berdi, eksportda xomashyo resurslari, avvalo, paxta tolasi miqdori kamaydi va tayyor maxsulot xajmi ortdi. Importda oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol mollari xajmi qisqardi xamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy qayta qurish uchun zarur mashina va uskunalar, zamonaviy texnologiyalar salmog'i keskin o'sdi.

O'zbekiston–Rossiya azaldan yirik iqtisodiy xamkorlardan biridir. Rossiyaning O'zbekiston tashqi-savdo aylanmasidagi ulushi 2000 yildagi 13 foizdan 2008 yilda 17 %gacha o'sdi. Faqat 2008 yilning o'zida ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi eksport xajmi 17,7 %, import 24 %ga o'sdi. Bu borada yanada jadal yuksalish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud.

¹⁴ И.А.Каримов “Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш-барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир”. / Халқ сўзи . 9-февраль, 2008 йил

¹⁵ Investment Guide to Uzbekistan 2007, United Nation Development Program, Country Office for Uzbekistan (60-бет).

Savdo aylanmasi tarkibi yanada takomillashib, unda ikki mamlakat iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar o'z aksini topa boshladi. Masalan, 2003 yilda O'zbekistondan Rossiyaga eksport xajmida asosiy ulushni mashina va uskunalar (23%), paxta tolasi (7%) tashkil qildi. Vaxolanki, 1994 yilda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 11 va 64 % edi.

Rossiyadan O'zbekistonga eksport xajmida xam asosiy ulushni mashina va uskunalar (38%), kimyo maxsulotlari (20%), yog'och, qog'oz, karton, mebel' (24%) tashkil etdi. 1994 yilda esa, Rossiya O'zbekistonga asosan energiya manbalari (39%), oziq-ovqat maxsulotlari (15%), qora metall (14%) eksport qilgan edi.

O'zbekistonning Rossiya bilan aviasozlik soxasidagi xamkorligi xam sezilarli darajada faollashdi. Natijada «V.P.CHkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi» davlat aktsionerlik jamiyati bazasida yuk va yo'lovchi tashuvchi zamonaviy xavo kemalarini xamkorlikda ishlab chiqarish rivojlanmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, Toshkent aviatsiya zavodi tuzilgan shartnomalarga muvofiq 2005 yilda Rossiya va boshqa mamlakatlarga 15 ta samalyot etkazib beragan bo'lsa, kelajakda IL-114 rusumli xavo kemasi YAK-40 va AN-14 xavo kemalari o'rni butunlay egallaydi.

«O'zDEUavto» qo'shma korxonasining xam rossiyalik sheriklar bilan xamkorligi yanada faollashmoqda. Bir tomondan, uning Rossiyaga eksporti salmog'i ortmoqda. Taxminlarga ko'ra, eksport xajmi 2004 yilda 25 ming avtomobilni tashkil etdi. Ikkinchi tomondan, rossiyalik po'lat quyuvchilar maxsuloti sifatining ortib borayotganligi O'zbekiston avtomobillari uchun issiq-sovuq usulda xarid qilinadigan maxsulotni Rossiyaning «Sevrostal'» kompaniyasidan olish imkonini beradi. SHunisi axamiyatga molikki, O'zbekistonning aviatsiya va avtomobil' zavodlari Rossiya Federatsiyasining 957 korxonasiga butlovchi qismlar va materiallar uchun buyurtma bergan.

O'zbekiston va Rossiya savdo aloqalari faollashib borayotganining sababi nimada? Javob aniq – xar ikki mamlakat iqtisodiyotida o'sish kuzatilmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'ati, u bilan bog'liq savdo va to'lov balansining ijobiy sal'dosi, axoli real daromadlarining mutassil o'sayotgani shundan dalolat beradiki, Rossiya tobora qulay, Xududiy jixatdan yaqin, to'lovga layoqatli bozorga aylanmoqda. Bu bozorga o'zbek tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlarining xilma-xil maxsulotlarini etqazib berishi mumkin.

Rossiya sarmoyadorlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga keng miqyosda investitsiya kiritishga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu, avvalo, neft' va gaz qazish, ularni qayta ishlash, telekommunikatsiya, kon sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnik maxsulotlar ishlab chiqarish, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini kayta ishlash kabi eksportga yo'naltirilgan soxalar va boshqa istiqbolli tarmoqlarda o'z ifodasini topmoqda.

Jumladan, 2004 yilning aprelida Rossiyaning «Gazprom» kompaniyasi bilan «SHoxpaxta» gaz konida gaz qazib olish va undan foydalanishdagi ishtiroki bo'yicha maxsulot taqsimoti to'g'risida bitim imzolandi. Ayni paytda «Gazprom» bilan Ustyurt neft'-gaz konlarida tabiiy gaz geoloji-qidiruv ishlariga, qazib olish va yiliga 10 mlrd.kub metr xajmida realizatsiya qilish mo'ljallangan loyixaga 1,4

mlrd. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilishini ko`zda tutuvchi bitim ishlab chiqilmoqda.

«Lukoil» kompaniyasi bilan maxsulot asosida Qandim, Xauzok, SHodi gaz konlarida tabiiy gaz qazib olish va birgalikda realizatsiya qilish bo`yicha yirik bitim tayyorlanmoqda. Bunda «Lukoil» kompaniyasi 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritadi va loyixaning amalga oshirilishi 200 mlrd.kub metrqa yaqin tabiiy gaz qazib olish imkonini beradi.

Mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnika sanoatidagi texnologik kooperatsiyaga asoslangan samarali aloqalar tiklanmoqda. Kabel' maxsulotlari, elektrotexnik mashinalar, jixozlar va apparatura ishlab chiqarish soxalarida 19 ta O`zbekiston-Rossiya qo`shma korxonasi faoliyat yuritmoqda. 33 ta qo`shma korxona sanoat va maishiy turdagi asbob-uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mashinasozlik, mashina va jixozlarni ta'mirlaydigan 68 ta qo`shma korxona tuzilgan.

Qishloq xo`jaligi maxsulotlarini kayta ishlash soxasida integratsiya chuqurlashmoqda. Bu soxada 9 ta O`zbekiston-Rossiya qo`shma korxonasi, jumladan, mashxur «Baltimor», «CHerkizovo» va boshka kompaniyalar bilan xamkorlikda tuzilgan korxonalar faoliyat ko`rsatmoqda.

«Vimm Bill' Dan» kompaniyasi yirik «Toshkentsut» birlashmasi aktsiyalarining 77 % ini xarid qilish xakida shartnoma imzoladi. Ushbu xujjatda sut maxsulotlarini qayta ishlash va meva sharbatlari ishlab chiqaruvchi qo`shma korxona tuzish uchun 20 mln. dollar sarmoya kiritish ko`zda tutilgan.

So`nggi paytlarda Rossiya va O`zbekiston o`rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy xamkorlikning kengayishi iqtisodiy sharoit va o`zoro manfaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi.

10.5. Xitoy – strategik sherik va yirik xamkor

O`zbekiston tashqi siyosatida Xitoy bilan munosabatlar aloxida o`rin tutadi. BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a`zosi, iqtisodi jadal rivojlanayotgan bu davlat bilan xamkorlik qilish iqtisodiy rivojlanishda, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni mustaxkamlashda, globallashuv jarayoni chuqurlashayotgan va turli siyosiy o`zgarishlar davri bo`lgan xozirgi sharoitda xalqaro siyosat maydonidan munosib o`rin egallashda katta axamiyat kasb etadi. Xalqaro muammolarni echishda tobora faol qatnashayotgan, dunyoda e`tirof etilgan «Xitoy modeli» tufayli yalpi ichki maxsuloti bir necha yildan buyon 7 – 8 foiz miqdorida barqaror o`sib kelayotgan bu davlat dunyoning etakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan.

Xitoy O`zbekiston bilan xamkorlikni yuksak qadrlaydi. Zero, tashqi dunyo bilan aloqalarni keng ko`lamda rivojlantirish yo`lidan borayotgan mamlakatimiz o`z mintaqasida xavfsizlikning asosiy tayanchi vazifasini o`tayotgani, uning yuksak siyosiy nufuzi va iqtisodiy saloxiyati xalqaro miqyosda e`tirof etilmoqda.

Xalqlarimiz qadimdan Buyuk Ipak yo`li orqali bir-biri bilan aloqa qilib, fani va madaniyatini boyitib, tajriba almashib kelgan. Xitoyliklar ayrim qishloq xo`jaligi maxsulotlari, xususan, uzum va beda etishtirishni O`rta Osiyo xalqlaridan

o'rganishgan. Bu erda esa CHin yurtining ipakchiligi va eritish texnikasi o'zlashtirilgan.

O'zbekiston – Xitoy munosabatlarini rivojlantirish Buyuk Ipak yo'li orqali o'rnatilgan va ravnaq topgan tarixiy aloqalarni tiklash xamda zamonaviy xamkorlikni kengaytirish nuqtai nazridan xam dolzarbdir. Ikki mamlakat davlat raxbarlari o'rtasidagi o'zaro xurmat va ishonch, munosabatlarimizning xuquqiy poydevori mustaxkamligi buning uchun qulay zamin yaratmoqda.

SHiddat bilan o'zgarayotgan bugungi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat nafaqat O'zbekiston va Xitoy kabi yaqin qo'shni davlatlar, balki butun dunyo mamlakatlari xamjixatlikda ish olib borishini taqazo etmoqda. Globallashuv jarayoni ijtimoiy - iqtisodiy xamkorlikni xamda transport va kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirishni, terrorchilik, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, ommaviy qirg'in qurollari tarqalishining oldini olishni, siyosiy aloqalarni yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

Mana shu masalalarning o'ziyoq O'zbekiston - Xitoy munosabatlarida xamkorlik uchun keng faoliyat maydoni mavjudligini ko'rsatadi. Eng muximi, aloqalarni rivojlantirishdan, bir-birini qo'llab-quvvatlashdan ikki mamlakat xam birdek manfaatdordir.

Ikki do'st mamlakat – Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi ko'p tomonlama xamkorlik munosabatlari, xususan, o'zro manfaatli savdo - iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, iqtisodiy soxadagi xamkorlikni yanada taraqqiy ettirishda xitoylik ishbilarmonlar bilan birgalikda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar muxim o'rin tutadi. Bugunga kelib, mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 101 korxona faoliyat yuritmoqda.

«Bright Oceans» (VOSO), ayniqsa, o'z maxsulotlari bilan mamlakatimiz bozorida mustaxkam mavqega erishgan Xitoy korporatsiyasi xisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu TSzin'taoning O'zbekitonga davlat tashrifi dirasida «Brayt Oshn» korporatsiyasi prezidenti Den Vey janoblari xam mamlakatimizga keldi. Fan ta'lim rivojiga katta e'tibor qaratayotgan korporatsiya raxbari safar davomida respublikamiz O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazida bo'lib, ta'lim isloxotlarining borishi bilan tanishdi va beg'araz yordam sifatida markazga 15 ta komp'yuter taqdim etdi.

Izoxli lug'at

Akselerator (accelerator) – iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar xajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar xajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatgich. Akseleratsiya printsipining moxiyati shundan iboratki,

iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar xajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezirarli o'sishi investitsion faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

Aktivlar (assets) – iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlari qiymati.

Amortizatsiya (depreciation) – foydalanish jarayonida asbob-uskunlar qiymatining eskirgani sayin maxsulot xisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarni tayyorlanayotgan maxsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasi maxsulot tannarxini o'z ichiga oladi.

Bu korxona tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun maxsulotlarni sotish orqali mablag' tulash imkonini beradi.

Al'ternativ variantlardan tanlov (tradeoff) – tanlab olingan variant al'ternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosatning chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarning tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish xaqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.

Asosiy fondlar va ularning baxosi (capital stock) – turli xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtirish va ishlatish.

Asosiy narx (base price) – xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik xisob olib borishda indekslarni xisoblash va to'lashgacha xisoblangan narx.

Byudjet taqchilligi (budget difficit) – davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Band axoli (employees) – ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan normalarga mos ravishda xisobga olinadigan mexnatga layoqatli yoshdagi axoli.

Bandlik darajasi (rate of employees) – bandlar umumiy sonining mexnatga layoqatli yoshdagi axoliga nisbati.

Bartaraf etilgan inflyatsiya – iqtisodiyot doirasida boshqariladigan yoki tabiiy, qo'yilgan narxlarni boshqarish davomidagi inflyatsion jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishi. Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan xolda inflyatsiya muomaladagi pul miqdorining ko'payishi va uning sotib olish saloxiyati pasayishi. Bularning ta'sirida talab keskin oshib, tovar va xizmatlar taxchilligi o'sadi va bu axolining vaqtinchalik qondirilgan talabi ortishi orqali namoyon bo'ladi.

Bank krediti (banking credit) – daromad (%) ko'rinishida foyda olish uchun bank tomonidan qarzga pul berish.

Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate) – milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan qiymati va o'zgarmas tizim.

Byudjet soliq siyosati (fiscal policy) – byudjet siyosatida davlat o'z istagi bilan byudjet xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan xolda 3 xil byudjet siyosati yuritadi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilgan qimmatbaxo qog'ozlar sotilishidan va byudjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan bank emissiyasi xisobiga yopilishidan. SHunga ko'ra, davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosatini yuritadi.

Bozor munosabati (market clearing) – bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jixatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.

Bank rezervlari (reservers) – bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

Baxo, narx (prise) – tovar qiymatining puldagi ifodasi. Maxsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.

Bozor narxi (market price) – iqtisodiyotda jami talablarga ko'ra o'zgarmas xolda qoluvchi narxlar.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan baxosi.

Giperinflyatsiya (hyper-inflation) – xaddan tashqari inflyatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrlining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Davlat byudjeti (state budget, local budget) – asosan davlat (viloyat, shaxar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul xisobi.

Deval'vatsiya (devaluation) – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq xolda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

Deflyatsiya (deflation) – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish; davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Depozitlar (deposits) – omonatga asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftardagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaxo qog'ozlar (aktsiya va obligatsiya).

Dividend (dividend) – xissadorlik jamiyatlari foydasining bir qismi bo'lib, aktsiyaning soni va turiga qarab xar yili xissadorlar orasida taqsimlanadi.

Diskont (dicount) – markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

Daromad (income) – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

Daromadning mavjud miqdori (disposable income) – sarf-xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlar qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar; daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

Doimiy, davomiy inflyatsiya (cronic inflation) – nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli, yuqori inflyatsiya darajasi sodir bo'lgan

mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru, Argentinani keltirish mumkin.

Davlat iste'moli – davlat iste'moli uchun maxsulot va xizmatlarga, shuningdek, xususiy sektorda ishlab chiqarilgan maxsulot va xizmatlarga ketgan xarajatlar.

Diskont (discount) – markaziy bankning tijorat banklariga kredit berishdagi foiz stavkalari.

YOpiq iqtisodiyot (closed economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

Jami taklif (aggregate supply) – mamlakatda ishlab chiqarilgan xamma tovar va xizmatlarning jami qiymati. Bu tovar va xizmatlar milliy maxsulot xam deb ataladi.

Jamg'armaga moyillik (propensity to save) – daromadda jamg'arma xissasi qanchani tashkil etishi.

Jami talab (aggregate demand) – mamlakatning real xarid qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich; jami xarajatlar deb xam ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami investitsiyalar va eksport-import xarajatlari kiradi.

Jami band axoli (employees) – band bo'lgan axoli va xarbiy xizmatchilar.

Ishsizlik (unemployment) – axolining iqtisodiy faol qismi ish topa olmasligi, mexnat rezerviga aylanishi.

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo'lgan nisbati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment) – real va potentsial yalpi milliy maxsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida xam xisoblanishi mumkin. Shuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida xam qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jixatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyatsiyaning turg'un, barqaror darajalari xamda real va potentsial yalpi milliy maxsulot (YAMM) mos tushgan xolatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

Ish xaqi (wage, nominal) – pul, qiymat shaklidagi ish xaqi.

Import (import) – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mexnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, xalq xo'jaligi, axoli ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan xal qilishga ko'maklashadi.

Investitsiya (investment) – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Investitsiylarning moliyaviy va real turlari mavjud.

Iste'mol narxlari indeksi (consumer price index) – odatda, oila tomonidan iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxi bazis davrga nisbatan o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyatsiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index) – bazis davr oralig'ida xom ashyo, materiallar va oraliq tovarlar narxi o'zgarishining

o`rtacha darajasini aks ettiruvchi ko`rsatkich. YAMMning maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o`tkazishda ishlatiladi.

Indekslar – YAMM deflyatorlari (GNP deflators) – YAMM ko`rsatkilarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruxi. Ularga narxlarning agregat indeksi, YAMM deflyatori narxlari indeksi, iste`molchi narxlari indeksi, shuningdek, maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

Indeksatsiya (indexation) – iqtisodiyotdagi narxlarning o`rtacha darajasi o`zgarishiga bog`liq ravishda ish xaqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

Inflyatsiya (inflation) – pulning qadrsizlanishi, muomaladagi pulning qadrsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta`minlanmagan pullarning paydo bo`lishi. Inflyatsiya tovar baxosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi (rate of inflation) – ma`lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizda o`zgarishi.

**Iste`mol krediti** (consumer credit) – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo`llaniladigan pul siyosati vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi mumkin bo`lgan ichki kreditning maksimal miqdori rasmiy ravishda belgilanishini taqozo etadi.

Iste`mol (consumption) – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy maxsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

**Ist`emol xarajatlari** – makroiqtisodiyotda uy xo`jaligi va qurilish xarajatlarini qamrab oladigan xarajatlar.

Ishlab chiqarish funktsiyasi (production function) – maxsulot ishlab chiqarish uchun mazkur korxonaga zurrur bo`lgan barcha kishilar va mexnat qurollari xarakatlari majmui.

Ishchi kuchi (labour force) – odamlarning mexnat qobiliyati, xayot ne`matlarini ishlab chiqarish jarayonida ishga solinadigan jami jismoniy va ma`naviy kuchlar.

Ishchi kuchi xissasi (labour force rate) – odamlarning mexnat qobiliyati, xayot ne`matlarini ishlab chiqarish jarayonida ishga solinadigan jami jismoniy va ma`naviy kuchlar.

Ish vaqti (hours of work) – ishlab chiqarishda band bo`lgan axolining ishlagan vaqtining xajmi.

Ish vaqtining umumiy soatlari soni (total hours of work) – o`rtacha statistik ishlovchi band bo`lgan ish vaqtining o`rtacha soatlari soni.

**Iqtisodiy o`shish** – real milliy daromad yoki maxsulotning axoli jon boshiga o`shishi.

Import qilishga moyillik (propensity to import) – daromadda importga qaratilgan xarajatlar xissasi.

**Investitsiyalarga bo`lgan moyillik** (propensity to invest) – iste`mol xarajatlarining daromaddagi xissasi.

**Iste`mol qilishga moyillik** (propensity to consume) – iste`mol xarajatlarining daromaddagi xissasi.

Ichki iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlar (nontraded goods) – tashqi bozorda sotishga mo'ljallanmagan, ichki iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (ko'chmas mulk, xizmatlarning ayrim turlari).

Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price) – tovar va xizmatning bazis narxi, soliqlarni qamrab oluvchi va subsidiyalar olib tashlangan narx.

Kapital eksporti – tijorat maqsadida amalga oshiriladigan eksport.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi (expected rate of inflation) – mavjud ijtimoiy, iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida aloxida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi. Likvidlik (lequidity) – turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

Markaziy bank (Central bank) – mamlakatning jami kredit tizimiga raxbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini olib boradi, pul va qimmatbaxo qog'ozlar emissiyasini monopoliya sharoitida amalga oshiradi.

Muomaladagi pullar (currency) – mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz): pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari: pul xisob-kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadigan vositalar.

Milliy daromad (national income) – milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadi baxosi.

Mexnat umumdorligi (labour productivity) – mexnat maxsuldorligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

Mulk (property) – muayyan qiymatga ega bo'lib, biron bir shaxsga qarashli narsa.

Makroiqtisodiyot (macroeconomics) – barqarorlashtirish, bir birlik milliy valyutamizni mustaxkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom ettirish rejasini yoki mulkdorlar sinfini yangilash, qonunchilik yoki xuquqiy tarkibni mustaxkamlash.

Nominal YAMM (nominal GNP) – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy maxsulot.

Narxlar indeksi (price index) – xar xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Narxlar korrekciyasi (price adjustment) – narxlarning bozor vaziyati o'zgarishiga moslashuv jarayoni.

Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate) – milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarining odatda mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat xam qat'iy belgilangan, xam chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate) – ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori. Depozit shartlari va qimmatli qog'ozlarda aktivlarning nominal qiymati o'sishiga belgilanadigan foiz stavkalari deyiladi.

Oraliq iste'mol (intermediate consumption) – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan maxsulotlarning ishlab chiqarishning boshqa bosqichida mexnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

Ortiqcha taklif (excess supply) – mavjud narxlarda tovar va xizmatlar taklifi ularga boʻlgan talabdan ustun boʻladigan iqtisodiy vaziyat, shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarish.

Ortiqcha talab (excess demand) – mavjud narxlar xolatida tovarlar va xizmatlarga boʻlgan talab takliflardan ustun boʻladigan iqtisodiy vaziyat, shuningdek defitsit deb xam ataladi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega boʻlgan iqtisodiyot.

Potentsial YAMM (potential GNP) – mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi xisobiga erishish mumkin boʻlgan ishlab chiqarish xajmi.

Paritet (parity) – tenglik, teng xuquqli, teng vakillik asoslarida biron bir iqtisodiy (siyosiy) xarakatda ishtirok etish.

Pasayish (recession) – iqtisodiy faollikning pasayishi boʻlib, bu faoliyatning oʻsishi bilan xarakterlanadi.

Pulga boʻlgan talab (demand for money) – mamlakat axolisining jamgʻarish va isteʼmol qilish, oldi-sotdi va xar xil iqtisodiy bitimlar tuzish uchun egalik qilmoqchi boʻlgan miqdori; isteʼmol, foiz stavkasi, operatsion xarajatlar va boshqa funktsiyalar bilan ifodalanadi.

Pul bazasi – MV (monetary base) – muomaladagi naqd pullar, korxonalarning kaccadagi pullari va tijorat banklarining milliy bankdagi zaxirasi.

Real YAMM (real GNP) – solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan YAMM. U joriy narxlarda xisoblangan YAMMni narxlarning oʻzgarish koʻrsatkichi (inflyatsiya darajasi) xisobiga toʻgʻrilash yoʻli bilan xisoblanadi.

Real ish xaqi (real wage) – narxlar oʻzgarishi darajasi xisobiga tuzatish kiritilgan nominal ish xaqi (yoki nominal ish xaqidan narxlar oʻzgarishi darajasining xisobga olingani).

Real almashuv kursi (real exchange rate) – ikki mamlakatdagi narxlar darajasining oʻzaro nisbati, ular oʻrtasidagi munosabatni xisobga oluvchi almashuv kursi. Muayyan mamlakatlardagi nominal almashuv kursi narxlari indekslarini ularning oʻzaro nisbatiga boʻlish orqali xosil boʻladi.

Real foiz stavkasi (real interest rate) – maʼlum davr ichida depozit schyotlardagi va qimmatli qogʻozlardagi aktivlarning real qiymati oʻsishi yuz beradigan foiz stavkasi; nominal foiz stavkasidan shu davr oraligʻida kutilayotgan nominal foiz stavkasi.

Ratsional kutishlar (rational expectations) – ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilar oʻzlarida mavjud boʻlgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy maʼlumotlar asosida eng ratsional tarzda oʻz iqtisodiy xulq-atvorini rejalashtiradilar, deb taʼkidlovchi nazariya.

Revolʼvatsiya (revaluation) – mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

Soliqlar (taxes) – milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shakli, soliq, byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi.

Soliq siyosati – mamlakat taraqqiyoti kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda “majburiy jamg'armalar” tashkil qiluvchi asosiy omillardan biri.

Sarf-xarajat balansi (spending balance) – makroiqtisodiyotda YAMM ni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar va yaratilgan yalpi milliy maxsulotning oxirgi iste'mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

Solishtirma afzallik (comparative advantages) – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar printsipi ishlab chiqarish va eksportning samarali strukturasi shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Subsidiya (subsidy) – davlat byudjeti xisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Savdo balansi (merchandise trade balance) – eksport va import tushumlari va to'lovlarini aks ettiruvchi balans. Unda savdo bitimida ko'zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to'lovlar va tushumlar o'z aksini topmaydi.

Savdo balansining difitsiti (trade deficit) – iqtisodiy sur'atlarning xisobot davri oxiriga kelib, import bo'yicha qilingan jami xarajatlar eksport daromadlaridan oshadigan vaziyatgacha o'sishi.

Savdo balansining ijobiy sal'dosi (trade surplus) – xisobot davri oxiriga kelib, eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelgan vaziyat.

Sanoat tsikli (business cycle) – iqtisodiyotning vaqti-vaqti bilan qaytarilib turuvchi turli rivojlanish bosqichlari. Umumiy ishbilarmonlik faolligining oshishi va pasayishi, shuningdek, tushumlar bilan xarakterlanadi.

Sof milliy maxsulot (net product) – makroiqtisodiy ko'rsatkich; YAMM va amortizatsiya ajratmalari jami miqdorining ayirmasi.

Tijorat banki (Commercial bank) – qo'yilmalar shaklidagi pul kapitallari va jamg'armalar xisobiga barcha tarmoq korxonalari uchun universal bank xarakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasi. Tijorat banki kredit sistemasining etakchi bo'g'inidir. Uning xarakatlarida sanoat va savdo korxonalarini kreditlash asosiy o'rin egallaydi. Bank, shuningdek, komission muomalalarni xam olib boradi.

To'lov balansi (balance of payment) – bu shunday iqtisodiy tushunchaki, u orqali mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlari xolatini, xalqaro miqyosda to'lovga qobilligini bilish mumkin. To'lov balansi shunday xujjatki, unda mamlakatlar xorijiy davlatlarga ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlar va tushumlarning xaqiqatdagi miqdori aks ettiriladi, shartnomalarda ko'zda tutilgan, ammo xali kelib tushmagan to'lovlar yoki tushumlar summasi o'z aksini topadi.

Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment) – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, eskirgan tarmoq va kasblar bartaraf etilishi, ishchi malakasi pastligi yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

Tashqi dunyo – muayyan mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

Talab etilugunga qadar saqlanadigan depozitlar (demand deposits) – bankdagi qo'yilmalarda talab etilgunga qadar saqlanadigan pul vositalari.

Tijorat krediti (comercial credit) – qisqa muddatli qarz (1 yil muddatgacha beriladi); sotib olinadigan tovarlarga to'lash uchun pul shaklida beriladigan qarz.

Transfert to'lovlari (transfer payment) – o'tkazma to'lovlar, ya'ni davlat byudjetidan axoliga va xususiy tadbirkorlarga beriladigan to'lovlar.

Tovar eksport qilish – mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni chetga sotish xamda xorijdagi sheriklarga ishlab chiqarish va talab xarakteriga ega xizmatlar ko'rsatish.

Uzoq muddat davomida ishlatiluvchi tovarlar (durable goods) – iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Uzoq vaqt xizmat qiladigan tovarlarga avtomobil', muzlatgich va boshqa maishiy xizmat tovarlari kiradi.

Friktsion ishsizlik (frictionfl unemloyment) – bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik. YAshirin ishsizlik (hidden, latetnt, olisguised) – ishlab chiqarish jarayonida ob'ektiv xolda ishchilar sonini xam talab etadigan, lekin amalda ishlab chiqarishda ortiqcha bo'lgan ishchilar soni.

Faktor daromad (factor incomte) – ishchi kuchi, kapital mulk, ishlab chiqarish omillari qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

Foyda (profit) – qo'shimcha maxsulotning pul shakli; korxona, tarmoq va butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. Korxonaning moliyaviy axvoli, iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish imkoniyatlari, byudjet va yuqori turuvchi organlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi foyda xajmiga bog'liq.

Foiz (interest) – daromad, o'z mulkini boshqa jismoniy va xuquqiy shaxslarga foydalanishga berish va undan foyda olish.

Foiz stavkasi (interest rate) – kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

Filips egri chizig'i (phillips curve) – inflyatsiya darajasi dinamikasi va ishsizlik darajasi dinamikasi yoki real YAMMning potentsialdan og'ishi orasidagi o'zaro bog'liklikni tafsiflovchi va grafikda ifodalovchi vosita.

Xususiylashtirish (privatization) – davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirish. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin soxiblik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

SHaxsiy daromad (personal income) – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

SHaxs sarmoyasi – kapital sifatida yondashuv ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Uning salbiy tomoni shundaki, bunday qarashlar ijtimoiy muammolar va mexnat kapital tomonidan ekspluatatsiya qilinishi xaqidagi fikrlarga ulanib ketadi. Bunday xollarda kapital mexnatni ekpluatatsiya qilar ekan, u xolda inson kapitali xam mexnatni ekspluatatsiya qiladimi, degan fikrni keltirib chiqarishga urinishadi. Insonga kapital sifatida yondashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanishni va ularning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi.

Ekspart (export) – tovarlar, xizmatlar va kapitallarni tashqi bozorda realizatsiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

YAlpi milliy maxsulot – YAMM (gross national product-GNP) – iste'molchilarning yil davomida maxsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya'ni, maxsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali xisoblanadi. Xozirgi yalpi milliy maxsulotga davlatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari xamda xususiy investitsiyalar xam qo'shiladi. Daromadlarga, ya'ni, ish xaqi, foiz, renta va foyda jamiyat tomonidan maxsulotlar uchun qilingan xarajatlar sifatida qaralib, ularni jamlash orqali xisoblanadi. Xozirgi vaqtda yalpi maxsulotni xisoblashda jamiyatda iqtisodiy o'sish aniqlanadi, «yalpi investitsiya» va «xususiy investitsiya» tushunchalari qo'llanmoqdaki, bunda ular yil davomida qurilgan uylar, fabrika, zavod, mashinalarni ifoda etadi.

YAMM darajalaridagi farqlar (GNP gap) – potentsial va real YAMM darajalari orasidagi farq.

YAMM deflyatori narxlar indeksi (GNP implicit price deflator) – joriy narxlardagi YAMMni solishtirma narxlardagi YAMMga nisbatan tafsiflovchi ko'rsatkich yoki nominal YAMMning real YAMMga nisbati.

O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate) – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro xisob-kitoblar tizimi.

Qarzlar – “zayomlar” (borrowing) – ma'lum bir muddatga qaytarib olish sharti bilan berilgan mablag'lar. Qarzlar quyidagicha bo'lishi mumkin: tijorat foizisiz qarzlar, imtiyozli qarzlar xamda ichki va tashqi qarzlar. Jismoniy, yuridik shaxslarning qarzlari esa ichki qarzlarga kiradi.

Qarz berish (crediting) – pul yoki tovarlarni qaytarish sharti bilan ma'lum muddatga berish.

Qadrsizlanish (depreciation) – milliy valyutaning narxi chet el valyutalari baxosidan pasayishi.

Qimmatbaxo qog'ozlar (securities) – egasiga qandaydir kapital yoki mol-mulkka egalik qilishi xuquqini tasdiqlovchi va foiz, dividend ko'rinishda daromad keltiruvchi xujjat.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2003.

2. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. – «Xo'jalik va xuquq», 2000 y., 9-son.
3. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar', № 14 (5434).
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
5. Karimov I.A. «Erishilgan yutuqlarni mustaxkamlab, yangi marralar sari ischil xarakat qilishimiz lozim» Vazirlar Maxkamasida qilgan ma'ruzasi Xalq so'zi 2006 yil 11 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. – «Toshkent oqshomi», 2005 y., 22 sentyabr'.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y., 12 aprel'.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axolini ijtimoiy muxofaza qilish va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y. 23 sentyabr'.
6. Abduraxmonov K.X., Abdullaev O., Dadaboev SH. Regional'naya ekonomika i upravleniya. Uchebnik. T.: 2007g.
11. A.E.Ishmuxamedov, M.R.Raximova. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – TDIU. 2009. – 217 bet.
12. Raximova M. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. 2007 y.
13. V.V. Kistanov N.V., Kopylov, Regional'naya ekonomika Rossii Moskva «Finansy i statistika». 2006g. 548str.
14. G.G. Fetisov, V.P. Oreshin. Regional'naya ekonomika i upravlenie. Uchebnik. Moskva «Infra-m». 2007g. 416str.
15. Granberg A.G. «Osnovy regional'noy ekonomiki» uchebnik.-4e izd.—BM.: izdatel'skiy dom GUVSHE 2004-g. 495s.
16. Alimov R.X. va boshqalar Maxalliy iqtisodiyot va menejment: O'quv qo'llanma T.: TDIU, 2004.
17. Maxalliy iqtisodiyot va menejment. – T.: TDIU, 2004.
18. L.M. Tashpo'latova Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy saloxiyati. – T.: TDIU, 2004.

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari xamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: «O'zbekiston», 2011.

2. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. /№ 3/2011 y.

3. Qosimov M. Dunyo andozasi darajasida rivojlanayotgan agrosanoat. /O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. № 3/2011 y.

4. UFSInvestmentCompany: Strategiya na 2012 god. – <http://bonds.finam.ru>

	M U N D A R I J A	
Kirish		3
I-BOB.	MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI	5
1.1	Mintaqaviy iqtisodiyot fanining mohiyati	5
1.2	Mintaqaviy iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan aloqasi	7
1.3	Mintaqaviy tadqiqotlarning ushlublari	7
1.4	YAlpi mintaqaviy maxsulotni xisoblash ushlublari	8
2-BOB.	MINTAQALARINING MINERAL XOM ASHYO VA TABIIY RESURSLARI	12
2.1.	Mineral-xom ashyo resurslari tushunchasi mazmuni va ularning xududiy joylashuvi xamda uning iqtisodiyotda tutgan o`rni	12
2.2.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish	14

2.3.	O`zbekistan Respublikasi mineral-xom ashyo resurslarining hozirgi xolati	14
2.4.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral xom ashyo bazasini mustaxkamlash, ulardan foydalanishni takomillashtirish.	15
3-BOB.	O`ZBEKISTONNING MA`MURIY- XUDUDIIY BO`LINISHI	19
3.1.	O`zbekiston ma`muriy-xududiy bo`linishining qisqacha tarixi	19
3.2.	O`zbekiston ma`muriy-xududiy bo`linishining hozirgi xolati	19
3.3.	O`zbekiston shaxarlari	21
3.4.	Xududiy va maxalliy xokimiyat organlarining islox qilish yo`llari.	24
4-BOB.	ISHLAB CHIQUVCHI KUHLARNI JOYLASHTIRISHNING (ICHKJ) NAZARIY ASOSLARI	26
4.1.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo`yicha xorijiy nazariyalar	26
4.2.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari	30
4.3.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari	32
5-BOB.	MINTAQALAR AXOLISI VA MEXNAT RESURSLARI	35
5.1.	O`zbekiston mintaqalarining demografik xolati	35
5.2.	Mexnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish	38
5.3.	«Ijtimoiy siyosat» tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, axamiyati va rivojlanish zaruriyati	48
5.4.	Ijtimoiy siyosat asoslari	50
5.5.	CHet mamlakatlarda ijtimoiy muxofaza	52
5.6.	Ijtimoiy siyosat muammolari va istiqbollari	55
6-BOB.	O`ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG`INI RIVOJLANTIRISHNING XUDUDIIY JIXATLARI	55
6.1.	Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko`rsatkichlari	55
6.2.	Strategik axamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o`rni	63
6.3.	O`zbekistonning neft' mustaqilligi asoslari	66
7-BOB.	Qishloq xo`jaligining xududiy ixtisoslashuvi	68
7.1.	Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari	68
7.2.	Agrosanoat majmui rivojlanishining asoslari	71
7.3.	Agrar siyosatdagi ustuvorliklar	76
7.4.	Kredit – qishloq xo`jaligi ravnaqida muxim omil sifatida	78
7.5.	Fermer xo`jaliklarining mintaqaviy xususiyatlari	81
8-bob	Mintaqalarda kommunikatsiya majmuasi	86
8.1.	Transportning xalq xo`jaligidagi axamiyati va uning tarkibi	86
8.2.	Temir yo`l transporti	88
8.3.	Avtomobil' transporti	89
8.4.	Xavo transporti	90
8.5.	Suv transoprti.	91
9-bob.	O`zbekistonning respublika, mintaq, va maxalliy boshqaruv organlari o`rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mexanizmi	91

9.1.	Davlat xokimiyatining turli pog`onalari o`rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari	91
9.2.	Respublika, mintaqaviy va maxalliy boshqaruv organlari o`rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining xozirgi xolati	94
9.3.	Respublika, mintaqaviy va maxalliy boshqaruv organlari o`rtasidagi o`zaro xamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo`llari	96
10-bob.	Mintaqaviy iqtisodiy siyosat	101
10.1.	Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari	101
10.2.	Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo`yicha xorijiy tajribalar	103
10.3.	Mustaqillik yillarida O`zbekiston mintaqaviy siyosatining asosiy yo`nalishlari.	104
11-bob.	Mintaqalar moliyaci va uni tartibga solish	106
11.1.	Xududiy moliyaning mohiyati va tarkibi	106
11.2.	Maxalliy byudjet - maxalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbasidir.	106
11.3.	Mol - mulk solig`ining maxalliy byudjetdagi roli	110
11.4.	Byudjetlararo munosabatlar.	111
12-bob.	Mintaqalarning tashqi iqtisodiy aloqalari va eksportni ko`paytirish yo`llari	113
12.1.	Jaxon xamjamiyati bilan xamkorlik	113
12.2.	Paxta kompleksining eksport salohiyatini rivojlantirish	122
12.3.	Mintaqalarda tayyor maxsulot eksportini ko`paytirish yo`llari	131
12.4.	Xamkorlikka asoslangan siyosat	137
12.5.	Xitoy – strategik sherik va yirik xamkor	141
13-bob.	Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish	143
13.1.	Mintaqalarni iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari	143
13.2.	Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari	147
13.3.	Mintaqaviy o`shish nazariyalarini taxlil etish masalalari	148
14-bob.	Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari	153
14.1.	O`zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo`nalishlari	153
14.2.	Mintaqalarning iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari	158
14.3.	Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo`llari	168
14.4.	Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash.	170
15-bob.	O`zbekistonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini takomillashtirish yo`llari	173
15.1.	Mintaqalarni innovatsion strategiyasini aniqlash uslubi	173
15.2.	Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi innovatsion shart-sharoitlar	175
15.3.	Tadbirkorlikni rivojlantirish yo`llari	182
16-bob.	Mintaqalarda atrof muxitni muxofaza qilish va ulardan oqilona	190

	foydalanish bo`yicha xamkorlik	
16.1.	Atmosfera xavosining ifloslanishi	190
16.2.	Statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar	190
16.3.	Atmosfera xavosining ifloslanishiga xarakatlanuvchi manbalarning ta'siri.	192
16.4.	CHegarabo`yi mintaqalarida atmosfera xavosining ifloslanishi	193
16.5.	Suv resurslarining xolati va ulardan foydalanish.	194
	Izoxli lug`at	195
	Adabiyotlar	204
	Statistik ma'lumotlar to`plami	206
	Internet veb-saytlari	206